

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

G.X. YUSUPOVA, X.J.JABBOROV, X.X.QOSIMOVA

SIYOSAT NAZARIYASI

Mas'ul muharrir: siyosiy fanlar doktori, professor Z.Jumayev, tarix fanlari doktori, professor R.X.Murtazayeva.

Taqrizchilar: falsafa fanlari doktori, professor A.Q.Qodirov, siyosiy fanlar doktori, professor V.S.Kim, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent U.Idirov.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining O'quv-metodik kengashi tomonidan Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida chop etishga tavsiya qilinigan

Muharrir: T. Sultonov

Toshkent – 2003

Darslik O'zbekiston Respublikasi gumanitar ta'lim standarti talablaridan kelib chiqqan holda yozilgan. Unda siyosatning nazariy va amaliy muammolari to'liq va sistemali bayon qilingan.

Darslikda O'zbekistondagi siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlarga alohida e'tibor qaratilgan. U Oliy o'quv yurtlarining talabalari, aspirantlari, o'qituvchilariga mo'ljallangan. Shuningdek, undan siyosat masalalari bilan qiziquvchi barcha kishilar foydalanishlari mumkin.

M U Q A D D I M A

Bugungi kunda mamlakatimizda eski mafkuraviy asoratlardan xoli bo'lgan, jahon siyosiy fanida erishilgan yutuqlarni mujassamlashtiruvchi zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Negaki, bu yo'nalishda mukammal darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratmay turib mamlakatimizning yorqin va buyuk kelajagi, erkinlik va demokratik jamiyat sari dadil qadam tashlab bo'lmaydi.

Tabiiyki, mustaqillik yillarida Respublikamizda politologiyadan zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish yo'lida muhim ishlar amalga oshirildi. Bu fanga oid darslik va o'quv qo'llanmalari dunyoga keldi. Xususan, prof. A.A.A'zamxo'jayev, mas'ul muharrirligida «Politologiya asoslari» (T., «Universitet», 1992); Sharipov F. Sh. o'g'lining «Siyosatshunoslik» (3 kitob-T.: 1996); I.Ramazonov, E.Mo'minovning «Politologiya» darslik; A.Qodirovning «Politologiya» (-T.: «O'zbekiston», 1999); I.E. Ergashev, G.Yusupova, S.Otamurodov va boshqalarning «Politologiya» ma'ruzalar matni (-T.: 2000) kabilar tayyorlandi va chop etildi. Ushbu darslik va o'quv qo'llanmalarida siyosiy fanning asoslari haqida qiziqarli ilmiy ma'lumotlar berildi. Bu kitoblar oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining talabalari tomonidan iliq kutib olindi va ularning ishonchli hamrohiga aylandi.

Biroq, bugungi kunda mamlakatimizda politologiyadan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish yo'lida qilingan ishlar qanchalik muhim bo'lmasin, ularni yetarli, deb bo'lmaydi. Bu yo'nalishda bajarilgan ishlar mamlakatimizning talab va ehtiyojlarini qondira olmaydi.

Afsuski, o'zbek tilida yozilgan darslik va o'quv qo'llanmalari ham nazariy, ham uslubiy jihatdan zamon talablariga, to'liq javob bermaydi. Ularning ko'pchiligi mavhumligi, eski an'analar, marksistik mafkura asoratlardan xoli emasligi, nazariy va uslubiy jihatdan bo'sh ekanligi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham, bugungi kunda mamlakatimizda politologiya fanidan zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish eng dolzarb va kechiktirilib bo'lmaydigan vazifalardan biri hisoblanadi.

Politologiyadan zamonaviy, nufuzli darslikni yaratish oson ish emas, balki o'ta murakkab vazifadir. Bu vazifa jahonda, avvalo, ilg'or mamlakatlarda, siyosiy fan sohasida erishilgan yutuqlardan oqilona va samarali foydalanishni talab etadi. Darslikni yaratishda xorijiy davlatlarning siyosiy fan sohasida erishgan yutuqlarini inkor etish noto'g'ri bo'lar edi. Bu yutuqlarni «o'zlashtirmagan» darslik tom ma'nodagi darslik bo'la olmas edi. Bunday darslik nazariy jihatdan cheklangan, amaliy jihatdan ojiz bo'lib qolgan bo'lar edi.

Shu bilan birga, tajriba va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlarda erishilgan yutuqlarni mutlaqlashtirish, ulardan ko'r-ko'rona, mexanik tarzda foydalanish yaxshi samara bermaydi. Aksincha, bu yo'l cheklash va yomon oqibatlariga, milliy xususiyatlardan mahrum bo'lgan mavhum darsliklarning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham, o'zbek tilidagi darslikni yaratishda faqat xorij tajribasi bilan cheklanib bo'lmaydi.

Politologiyadan o'zbek tilida zamonaviy darslikni yaratish – mamlakatimizning shart-sharoitini hisobga olishni, uning asrlar davomida siyosiy fan sohasida erishgan boy va ulkan yutuqlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Bu yutuqlar hisobga olinmas ekan, darsliklar zamonaviy bo'la olmaydi.

Politologiyadan zamonaviy darslik ilg'or xorijiy mamlakatlar va yurtimizning siyosiy qurilish tajribasini aks ettirish asosidagina yaratiladi. Xorijda va mamlakatimizda siyosiy fan sohasida erishilgan yutuqlardan samarali foydalanish politologiyadan zamonaviy darslikni yaratishning garovidir.

Politologiyadan o'zbek tilida zamonaviy darslikni yaratish g'oyat mas'uliyatli vazifadir. Bu vazifaning amalga oshirilishi mamlakatimiz va xalqimiz uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday darslik eski mafkuraviy stereotiplardan xoli bo'lgan, siyosiy jihatdan erkin va mustaqil, chuqur va keng fikrlaydigan kadrlarni tayyorlashga imkon beradi. Bunday darslik farzandlarimizning intellektual salohiyatini o'stiradi, ularni yuzakilik, bir tomonlamalikdan, fundamentalizm va eksterimizmning buzg'unchilik ta'siridan asraydi. Prezidentimiz I.Karimov «Fidokor» gazetasi muxbiri savollarga bergan javobda: «Ko'p asrlik tariximiz shuni ko'rsatadiki, inson dunyoqarashi shakllanishida ma'rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o'rni beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo'ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo'ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo'ladimi, ularning barchasi odamning intellektual kamolotga erishuvida katta ta'sir kuchiga ega», - deb bejiz ta'kidlamagan.

E'tiboringizga havola qilinayotgan ushbu darslik ana shu dolzarb, murakkab va mas'uliyatli vazifani hal etishga qaratilgan urinishlardan biridir. Uning maqsadi – eski mafkuraviy asoratlardan xoli bo'lgan, jahon siyosiy fanida erishilgan yutuqlarni mujassamlashtiruvchi, mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa yoshlarning talab va ehtiyojlarini qondira oladigan, ularni erkin va mustaqil siyosiy fikrlashga yordam bera oladigan darslikni yaratishdan iboratdir. Ana shu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun darslikda bir qator ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo, ishda o'zini oqlamagan eskicha yondashuvlardan voz kechildi. Yangicha yondashuvlar, ayniqsa, sotsiologik, tizimli yondashuvlar, tarixiylik, mantiqiylik, qiyoslash va boshqa yondashuvlardan keng foydalanildi.

Darslikda siyosiy fanning asosiy tushunchalari to'la sistemali tarzda bayon qilindi. Bu tushunchalarning mohiyati, mazmuni, turlari va shakllari o'zaro aloqadorlikda, uzluksiz mantiqiy izchillik va ketma-ketlikda ko'rib chiqildi. Siyosiy hodisalar va muammolarning o'ziga xosligi va ko'rinishlarini xolisona, aniq va ravshan tahlil etishga alohida e'tibor berildi. Bu hodisalarning milliy, mintaqaviy xususiyatlari inobatga olindi.

Darslikda siyosiy hodisalar va muammolarni tushuntirishda bir tomonlama yondashuvdan voz kechildi. Unda mazkur hodisalarni yoritishda xilma-xil, ba'zan bir-birini inkor etuvchi fikrlar ham o'z aksini topdi. Bu bilan o'quvchiga tanlash, mustaqil fikrlash imkoniyati yaratildi.

«Siyosat nazariyasi»ni yozish va tayyorlashda, xorijiy davlatlar va mamlakatimizda siyosiy fanga doir nashr qilingan manbalar va materiallar, darsliklar va o'quv qo'llanmalardan oqilona foydalanildi. Unda Prezident I.A.Karimov va boshqa davlat, jamoat arboblarning risolalari, ma'ruzalari, nutqlari, Sharq va G'arb mutafakkirlarining asarlari, ijtimoiy-siyosiy hayotning dolzarb muammolariga bag'ishlangan zamonaviy ilmiy izlanishlaridagi g'oyalarni aks ettirishga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi davlat ta'limi standartiga mos keladi. U Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining talabalari, magistrarlari, aspirantlari, o'qituvchilari, shuningdek, barcha siyosat ilmi bilan qiziqadiganlar uchun foydali bo'lib xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

Albatta, ushbu darslik ham nazariy, ham uslubiy jihatdan mukammal va bekami-ko'st bajarilgan, degan fikrdan yiroqmiz. Unda muayyan kamchilik va nuqsonlar bo'lishi tabiiy. Mualliflar jamoasining kelajakda darslik ustida ishlash, uni mukammallashtirish niyati ham yo'q emas. Shu bois, mazkur darslik haqidagi fikr-mulohazalaringiz va tavsiya-takliflaringiz uchun avvaldan minnatdorchilik bildirgan holda ularni Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti politologiya kafedrasiga yo'llashlaringizni so'raymiz.

1 BO'LIM. SIYOSAT FAN SIFATIDA
I- BOB. SIYOSAT NAZARIYASINING PREDMETI
1.1. Siyosat nazariyasini o'rganish zarurligi va ahamiyati

Bugungi kunda, mamlakatimizda, fuqarolarning politologiyani o'rganish zaruriyati yanada ortdi. Buning boisi shuki, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish har bir kishi oldiga g'oyat katta talablarni qo'ymokda. Undan ilgariidek qaram, mute, beparvo bo'lib qolishlik emas, balki erkin, mustaqil bo'lish talab qilinmoqda.

Ijtimoiy hayotning turli sohalarida siyosiy faoliyatning, davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining ish usullarini, siyosat va insonning, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatini, politologiyaning asosiy tushunchalarini tushunishga tobora ko'proq ichki ehtiyoj paydo bo'lmoqda.

Bugungi kunda siyosiy fanlarni o'rganish — inson kamolotining, mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning zarur shartidir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov shunday deydi: "Demokratik jarayonlar o'z obyektiv qonuniyatlari asosida rivojlanadi. Ularni o'rganib borish, ularga amal qilish talab etiladi."

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha Oliy o'quv yurtlarida politologiya mustaqil fan sifatida o'qitilishi bejiz emas. Bu har bir kishi va butun mamlakatning siyosiy ongilligi va siyosiy madaniyatini ko'tarishga qaratilgan tadbirdir.

Endilikda ijtimoiy — gumanitar fanlar tizimida politologiya mustaqil, teng huquqli fan sifatida o'z o'rnini topdi. Shunday ekan, unga fanday munosabatda bo'lish, ya'ni uni astoydil va qunt bilan o'rganish lozim. Politologiyani o'rganish har bir kishining, har bir talabaning, uning qaysi sohada ishlashiga, o'qishiga qaramasdan sevimli, vijdon kishi bo'lmog'i zarur. Afsuski, bugungi kunda talabalar o'rtasida (faqat talabalar orasidagina emas) politologiyani o'rganish masalasi bo'yicha noto'g'ri tasavvurlar, tushunchalar ham yo'q emas. "Barcha talabalar politologiya bilan shug'ullansalar, ular mutaxassislikka oid fanlarni qachon o'rganadilar? Talabalarning barchasi siyosatchi bo'larmidi?" - deydiganlar ham anchagina topilib qoladi. Bu masalada nima deyish mumkin. Albatta, talabalarning barchasi professional siyosatchi bo'lishlari shart emas va keragi ham yo'q. Ulardan ba'zilarigina professional siyosatchi bo'lsa - shuning o'zi kifoya qiladi. Biroq, har bir talaba: mustaqil davlatning erkin, ozod, faol fuqarosi bo'lishi uchun siyosiy savodxon bo'lishi, o'zini har xil tazyiqlardan, noxush holatlardan himoya qila olishi uchun zarur bo'lgan zamonaviy siyosiy bilimlarni egallashi ham qarz, ham farzdir. Misol uchun, siyosatni siyosatbozlikdan, davlatni diktaturadan, demokratiyani anarxiyadan ajratish, davlat, partiya va boshqa- jamoat tashkilotlarining tom ma'nodagi o'rnini, asl vazifalarini bilib olish, ularning ishida faol ishtirok etish - har bir talabaning burchi hisoblanadi. Mamlakatimizning Asosiy qonuni - Konstitutsiya har bir fuqaroga davlat va jamoat ishlarida ishtirok etishini farz qilgan. Bugungi kunda siyosiy fanni o'rganish - shunchaki nomigagina, ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan mashg'ulot ham emas. Bu har bir talaba uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan mashg'ulotdir. Siyosiy ' bilim kishilarni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Uni o'rganish har bir kishiga davlat va jamiyat tizimini chuqurroq bilishga, tanishga siyosatning asl mazmun- 'mohiyatini aniqroq idrok' qilishga, ijtimoiy siyosiy hayotda, o'zining munosib o'rnini topishga yordam. berib, boshqalar bilan birgalikda "chiroyli va adolatli yashashga o'rgatadi".

Politologiyani o'rganish nafaqat alohida kishi uchun, balki butun 'mamlakat uchun katta ahamiyatga egadir. Uni ommaviy o'rganish mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishga va mustabid tuzum qoldirgan asoratlardan xalos bo'lishga yordam beradi.

XXI asrga qadam qo'ygan dunyo mamlakatlarining juda ko'pchiligida zamonaviylashuv jarayonlari kechmoqda. Bu jarayonlar esa siyosatning jamiyatdagi boshqa sohalarga faol aralashuvizsiz hal bo'lishi juda qiyin.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli yo'llari, bu borada qo'llanuvchi siyosiy texnologiyalar, mexanizmlar, vositalar to'g'risida dunyo siyosiy fikrida juda katta bilim va tajriba to'plangan.

Ana shu tajriba bizda qo'l kelishi mumkinligini inobatga olish zarur. Dunyoda fuqarolarning siyosiy bilimini oshirishga qaratilgan tadbirlarning ham biz uchun ahamiyatli tomonlari mavjud. Ko'pgina mamlakatlarda siyosiy fan maktabdanoq o'qitiladi, deyarli barcha mamlakatlarda politologiya o'z predmeti sifatida oliy o'quv yurtlari dasturiga kiritilgan.

Politologiya siyosat sohasida ro'y berayotgan jarayonlarni o'zaro aloqadorlikda tushuntirib beradi, ularni keltirib chiqargan sabablarni tahlil qilib beradi. U siyosatni hodisa va xarakatlarning tasodifiy birligi tarzida emas, siyosiy iroda va manfaatlarning o'zaro ta'siri va yana - siyosiy institutlar imkoniyatlarini amalga oshirish tarzida tushuntiradi. Demak, siyosiy bilim - odamlarning siyosiy hayot haqidagi tasavvurlarini tartibga soladi.

Siyosiy bilimga ega odam siyosat dunyosidagi aloqadorliklarni yaxshi tushunadi, uning siyosat haqidagi hukmlari voqelikka yaqin bo'ladi. Shu tufayli uning siyosatdagi ishtiroki ham (saylovda, referendumda, partiya a'zosi sifatida v.h.) anglangan bo'ladi.

Uch tamoyil zamonaviy siyosiy bilimning mazmunini belgilab keladi; mustaqillik (mafkuraviylikdan va partiyaviylikdan), xolisonalik va yuqori malakaviylik.

Mustaqillik tamoyili -politologiya ayrim mafkuralar yoki partiyalar manfaatlariga xizmat qilmasligini, siyosiy faktlar va xulosalarni ularning ehtiyojlariga mos ravishda bayon etmasligini anglatadi.

Xolisonalik-siyosiy amaliyot va muammolar to'g'risidagi bilimni (fan imkoniyatlari doirasida) obyektiv yoritishga intilish, siyosiy borliq to'g'risida unga mos tassavvurlarni shakllantirishdan iborat: ya'ni istak va orzularimizga mos fikrlarni emas, aslida qanday bo'lsa - shunday tarzda yoritish.

Mustaqillik va xolisonalik fanda turli xil fikrlar, qarashlar, konsepsiyalar mavjudligini taqozo etadi.

Ular qanday mustaqil fan tarmog'i sifatida politologiya ham yuqori malaka talab etuvchi bilim sohasidir. Yuqori malakaviylik shu fanda uslub va metodologiya borasida qabul qilingan tadqiqot an'analarini va ular belgilab beruvchi amaliyot (qoidalar, tadbirlar, tartib)ni o'zlashtirishni talab etadi. Fanda qabul qilingan "o'yin qoidalar" tadqiqotchiga buyuk olimlar yaratgan zaminga asoslanib, o'z vazifasini muvaffaqiyatli bajarish, iste'dodli mutaxassisga esa fanni yanada rivojlantirish imkonini beradi.

1.2. Siyosat nazariyasining ijtimoiy - siyosiy fanlar tizimida tutgan o'rni va funksiyalari

Siyosatga e'tibor hamma davrlarda kuchli bo'lgan; Masalan, Arastu "Siyosat" asarini, Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarini siyosat ilmiga bag'ishlagan. Har ikkala olim o'zlari yaratgan fanlar tipologiyasida siyosat ilmiga eng muhim, eng yuqori o'rinlarni ajratishgan. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asari Bog'dod akademiyasida boshqaruv ilmiga oid darslik sifatida qo'llangani ma'lum. Ajdodlarimiz siyosatni ilm bilib, uni jiddiy o'rganish zarurligidan kelib chiqqanlar. Ammo, hozirgi ko'rinishda shakllanishidan avval, siyosiy bilim mifologiya, falsafa, tarix, huquq, sotsiologiya tarkibida rivojlanib kelgan. Siyosat mustaqil fan va o'quv kursi sifatida shakllangunga qadar uzoq, rivojlanish yo'lini bosib o'tgan.

Politologiyaning fan va kurs sifatida shakllanishida ikki bosqichni yaratish mumkin:

Birinchi bosqichda u idiografik fan sifatida bir necha asrlar davomida siyosatga oid ma'lumotlarni, bilimlarni to'plab, bayon etib, tavsiflab, sharhlab kelgan, tavsiyalar ishlab chiqqan. Arastu va Farobiy o'z asarlarida eng yuqori o'rinlarni olgan siyosat fani ana shu vazifalarni bajarib kelgan. Bu bosqichdagi siyosiy bilim- me'yoriy tabiatga ega bo'lib, ko'proq siyosat dunyosi qanday bo'lishi kerakligidan kelib chiqqan. Bugungi kunda ham politologiyada me'yoriy yondashuvlar kuchli ta'sirga ega. Masalan, demokratiya to'g'risida fikr yuritilganda, ayrim tadqiqotchilar unga faqat me'yoriy yondashishning tarafdorlari, ya'ni, demokratiyani " xalq hokimiyatiga asoslangan, erkinlik va tenglik timsoli, intilish kerak bo'lgan ideal", deb baholaydilar.

Ikkinchi bosqich ijtimoiy tizimlarning murakkablashishi, siyosatning mustaqil faoliyat sohasiga aylanishi, uning tarkibida davlatdan tashqari boshqa elementlarning ham ahamiyati ortib borishi, kabi jarayonlar natijasida sharhlar va bayonlardan ko'ra real siyosiy jarayonlarni o'rganish, ularni tahlil qilish, oqibatlarini isbotlab chiqishga ehtiyoj tug'ilishi bilan bog'liq. Bu

bosqich G'arbiy Yevropa mamlakatlarida kechgan ko'p asrlik zamonaviylashuv jarayoni va buning natijasida bu yerda vujudga kelgan postindustrial mamlakatlar uchun xos. Amaldagi ehtiyoj politologiyani mustaqil fan sohasi sifatida ajralib chiqishini ta'minlaydi. Politologiya rivojlangan g'arb mamlakatlaridagi siyosiy jarayonlarni o'rganuvchi, tahlil qiluvchi, bashorat qiluvchi zamonaviy empirik fan maqomini oldi. U empirik fanlarga xos asosiy funksiyani, ya'ni tushuntirish va bashorat qilish funksiyasini keng qamrovda bajaradi.

Siyosiy fanda ham, boshqa fanlardagidek, mustaqil fan va o'quv kursini bir - biridan ajratish zarur. Siyosiy fan yoki nazariya siyosatga doir tushunchalar, kategoriyalar bilan bog'liq akademik masalalarni hal qilishga intiladi, siyosatdagi qonuniyatlar, rivojlanish istiqbollari o'rganib, bashorat qiladi.

Shu bilan birga, o'z kursi sifatida, siyosiy fan- barcha e'tirof etgan siyosat haqidagi xulosalar asosida odamlarning siyosiy tafakkurini o'stirishga, siyosiy madaniyatini shakllantirishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Mustaqil o'quv kursi sifatida universitetlarda politologiyani o'qitish, avval ta'kidlaganimizdek, XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, birinchi siyosat kafedra 1662 yilda Shvetsiyaning Upsal universitetida ochilgan. 1872 yilda Fransiya birinchi siyosiy fan maktabi, 1895 yilda Angliyada iqtisodiy va siyosiy fanlarning London maktabi tashkil etiladi. AQSH, Yevropa universitetlarida siyosiy fan, davlat boshqaruvi va siyosat fakultetlari vujudga kelgan. Shu davrdan boshlab bu ikki yo'nalish bir - biri bilan chambarchas bog'lanib ketdi. Dastlab bu kurs davlat va uning institutlarini o'rganish bilan mashg'ul bo'ldi, ilk bosqichida siyosiy fanni huquqshunoslikdan ajralib chiqqan davlatshunoslik, deb atash mumkin. Bu yo'nalish zamonaviy politologiyada bir oz kengroq ko'lamda hozir, ham mavjud va u siyosiy institutlar nazariyasi deb ataladi.

Tez orada politologiya davlat institutlari tahlili doirasidan chiqib, fuqarolik jamiyatini va odamlarning siyosiy xulq - atvorini ham tahlil qila boshladi. Fanlar qirrasida siyosiy sotsiologiya va siyosiy psixologiya vujudga keldi. Davr jihatidan bu fanlarning shakllanishi XX asrning dastlabki o'n yilliklariga to'g'ri keldi.

Birinchi jahon urushidan so'ng, rivojlana boshlagan geosiyosat fan sifatida ikkinchi jahon urushidan so'ng shakllanib bo'ldi. Shu yillarda g'arb madaniyatiga mansub bo'lmagan siyosiy jarayonlarni o'rganish natijasida qiyosiy politologiya va siyosiy antropologiya fanlari yuzaga keldi.

50 - yillarda zamonaviy politologiyani metodologik va nazariy asosi bo'lgan tizimli politologiya vujudga keldi. Uning asoschisi - amerikalik sotsiolog Talkott Parsons hisoblanadi.

Keyingi o'n yilliklarda kratologiya, konfliktologiya siyosiy modellashirish, siyosiy semiotika kabi yangi fan tarmoqlari shakllandi.

Shunday qilib, zamonaviy politologiya - ko'p tarmoqli, ko'p yo'nalishli fanlar majmui. Bundan tashqari, turli fanlarning qirralarida vujudga kelgan fanlar ham siyosiy bilim tizimini tashkil etadi.

Fanlar hali sinkretik, ya'ni yaxlit holda mavjud bo'lgan davridayoq siyosat tadqiqot obyekti sifatida mavjud edi. Bugungi kunda bu qadimiy manbalar an'anaviy tarzda axloq, tarix, falsafa, huquq, dinshunoslik, folklor kabi fanlar doirasida o'rganiladi. Siyosatga doir masalalarni o'ziga xos nuqtai nazarda tahlil qilish esa ijtimoiy va gumanitar fanlar tarkibida alohida fan yo'nalishlari shakllanishiga olib keldi.

Siyosatni insoniyat taraqqiyotining uzviy qismi, mavjudlik va faoliyat shakllarining biri sifatida siyosiy falsafa fani o'rganadi. Siyosiy falsafa - siyosatda yaxlit holda yondashuvchi, siyosiy tashkilotning- ideallari va me'yoriy tamoyillarini, shuningdek, siyosatni baholashning umumiy mezonlarini ishlab chiquvchi fan tarmog'i. Siyosiy sotsiologiya - siyosatga ijtimoiy muhit ta'sirini o'rganadi. Siyosiy psixologiya siyosatni - siyosiy hudud - atvorni belgilovchi stereotiplar, ruhiy turtkilar natijasi, deb talqin etadi. Siyosiy tarix - siyosiy hodisalarni ularning xronologik ketma - ketligida va bir - biri bilan bog'liqlikda o'rganuvchi fan. U siyosatga oid empirik faktlarni to'playdi, davriy joylashtiradi. Siyosiy geografiya - siyosiy jarayonlarning hudud, iqtisodiy- geografik, tabiiy - iqlim sharoitlari bilan bog'liqligini o'rganuvchi fan. Siyosiy

antropologiya - siyosatni insondagi turli xususiyatlaridan kelib chiqib, tushuntiruvchi fan. Siyosiy iqtisod - ishlab chiqarish munosabatlari va iqtisodiy mexanizmlarning siyosiy faoliyatga ta'sirini o'rgatadi. XX asrda bular qatoriga demografiya, matematika, statistika, kibernetika, biologiya, ekologiya singari tabiiy fanlar ham qo'shildi. Fan doirasida ko'plab yangi fan tarmoqlari shakllanishi (differentsiatsiya) va shu jarayon bilan yonma - yon kechuvchi – yaqin yo'nalishlar chegarasida tadqiqotlar o'tkazishga intilishning kuchayishi (integratsiya) politologiya tarkibiga yigirmadan qirqtagacha fan yo'nalishi kirishini belgilab berdi.

Xo'sh, mana shu qatorda politologiyaning fan sifatida o'ziga xosligi, uning predmeti nimadan iborat?

Siyosiy fan predmeti, ya'ni uning nimani va qaysi ko'lamda o'rganishi haqidagi masala dastlab uning mustaqil fan va o'quv kursi sifatida qaror topishi va institutsionallasuvi bilan bog'liq. Bu borada 1948 yilda Parijda YUNESKO homiyligida o'tgan siyosiy fan mazmuni va tarkibi masalalariga doir Xalqaro kollokvium muhim rol o'ynadi. Unda politologiya predmeti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat, deb kelishib olindi:

1. Siyosiy nazariya (siyosat nazariyasi va siyosiy fikr tarixi).
2. Ommaviy (davlat) institutlari (markaziy, mintaqaviy, mahalliy; qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud), ularning tarkibi va faoliyati.

3. Fuqarolarning siyosiy ishtiroki va ta'siri shakllari (partiyalar, guruhlar, ijtimoiy fikr).

4. Xalqaro munosabatlar (xalqaro tashkilotlar va dunyo siyosati).

Politologiyaning keyingi rivoji uning predmeti haqidagi fikrlarning ham kengayishiga olib keldi.

Politologiya - jamiyat haqidagi fanlardan biridir. U o'zining tadqiqot obyektiv va predmetiga ko'ra falsafa, iqtisodiy nazariya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, axloqshunoslik, huquqshunoslik, dinshunoslikka o'xshashdir. Politologiyaning ham tadqiqot obyektini tabiat hodisalari va jarayonlari emas, balki ijtimoiy hodisalar va jarayonlar tashkil etadi. U ham falsafa, iqtisodiy nazariya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, axloqshunoslik, huquqshunoslik, dinshunoslik va boshqa fanlar singari kishilar hayotini, ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi. Biroq, politologiya ijtimoiy fanlar tizimida alohida o'rinni egallaydi. U o'zining tadqiqot obyektiga ko'ra boshqa ijtimoiy fanlardan farq qiladi. Uning tadqiqot obyektini umuman borliq, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, huquqiy, axloqiy, diniy hodisalar va jarayonlar emas, balki siyosiy hodisalar va jarayonlar tashkil etadi. Politologiya umuman ijtimoiy munosabatlarni emas, balki doimiy siyosiy munosabatlarni tadqiq etadi.

Politologiya o'zining predmetiga ko'ra boshqa ijtimoiy fanlardan farq qiladi. Uning predmetini borliqning, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, huquqiy, axloqiy, diniy sohalarining mohiyati va o'ziga xos muammolari emas, balki siyosiy sohaning tabiati va o'ziga xos muammolari, siyosiy hokimiyatning amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tashkil etadi.

U o'z tarkibiga siyosat, uning shaxs va jamiyat bilan aloqalari haqidagi barcha fanlarni oladi: siyosiy falsafa, siyosiy sotsiologiya, siyosiy institutlar nazariyasi, tadbqiqiy politologiya v.h.

Bu ko'rinishda politologiya fizika, iqtisod, falsafa, sotsiologiya kabi fanlar qatorida turadi va borliqning ma'lum sohasi borasidagi bilimlarni o'zida jamlaydi.

Siyosat nima? U jamiyatni tartibga solishga va o'zgartirishga qodirmi, agar qodir bo'lsa, uni qay ahvolda, qanday usulda tartibga soladi, o'zgartira oladi? Siyosiy hokimiyat nima? Boshqacha qilib aytganda, davlat bilan fuqaroning, hokimiyat bilan xalqning bir - biriga munosabati qanday? Davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ifoda eta oladimi, qanday sharoitda ifoda etadi? Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati nima? U qanday yo'llar va vositalar bilan barpo etiladi? Bu masalalar sotsial, iqtisodiy, madaniy, axloqiy, huquqiy, diniy masalalar emas, balki siyosiy masalalardir. Ularga siyosat fani javob beradi. Ana shu siyosatning tabiatini, sir - asrorini va uning o'ziga xos masalalarini umumnazariy tadqiq etish- siyosat nazariyasining predmetini tashkil etadi. Siyosat nazariyasi uzining ma'no mazmuniga ko'ra

umum nazariy fandır. Boshqa siyosiy fanlar esa u yoki bu jihatlari va tomonlarini - ijtimoiy, iqtisodiy, geografik, ruhiy, tarixiy, xalqaro jihatlari va tomonlarini tadqiq etadi.

Siyosat nazariyasi - tayyor, o'zgaras, mutlaq haqiqatlar, qotib qolgan aqidalar, qoida va xulosalar yig'indisidan iborat emas. U o'z tabiatiga ko'ra rivojlanib boruvchi fandır. Bu fan o'zgarayotgan siyosiy voqelik bilan, zamonaviylashayotgan siyosiy tizimlar, institutlar bilan ish ko'radi, yangidan - yangi qoida va xulosalar bilan boyib boradi.

Siyosat nazariyasi insoniyat taraqqiyotining turli davrlari va bosqichlarida o'ziga xos milliy shakllar va ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bu fan mamlakat siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarni chuqur va har tomonlama tahlil qilish asosida o'zi ham o'zgarib boradi. Har bir tarixiy davr, zamon o'zining siyosat nazariyasiga ega bo'ladi. Har doim siyosiy fan yangidan tug'iladi. U jahon siyosiy fikrining eng yaxshi yutuqlarini tanqidiy qayta ishlab, o'zida mujassamlashtiradi.

Hozirgi zamon siyosiy hayoti ham siyosat nazariyasi oldiga g'oyat ulkan va mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. U davlat va jamiyat qurilishi bo'yicha yangi, o'ta murakkab savollarni ilgari surmoqda. Masalan, jamiyatimiz qayoqqa qarab bormoqda? Biz qanday davlat va jamiyatni barpo etayapmiz? Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning sababi nima? Uning manbai, harakatlantiruvchi kuchlari nimalardan iborat? Rasmiy va norasmiy harakatlar nima? Ular jamiyatning rivojlanishida qanday rol o'ynaydi? Zamonamizning bu va boshqa o'ta dolzarb savollari siyosiy fanga oid savollardir.

Siyosiy nazariya ana shu savollarga javob bermog'i lozim.

Ular qanday fan kabi siyosat nazariyasi ham muayyan funksiyalarni, avvalo, nazariy-bilish funktsiyasini bajaradi. U siyosiy voqelik, davlatlarning rivojlanishi haqida fundamental bilimlarni, tasavvurlarni berishga chaqirilgandır.

Siyosiy fan mavjud siyosiy tuzilmalar faoliyatini, ularning yangidan tashkil etilish tamoyillarini nazariy aks ettiradi. U siyosiy tizimlarning, davlat institutlari va ijtimoiy - siyosiy tashkilotlarning o'rini, funksiyalarini, ularning o'zaro munosabatlarini tushuntirib beradi. Bu bilan siyosiy fan davlat va jamiyat hayotini nazariy bilish qo'llanmasi bo'lib xizmat qiladi.

Siyosat nazariyasi siyosiy hodisalar va jarayonlarni nafaqat izohlab tushuntiradi, balki ularni oqilona tanqidiy baholaydi. Bunda uning baholash ekspertlik funktsiyasi o'z ifodasini topadi. Mazkur fan siyosiy tizimni, institutlarni, xulq - atvor va voqealarni sinfiylik nuqtai nazaridan emas, balki umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy ehtiyojlar asosida baholaydi.

Xullas, siyosiy nazariya ijtimoiy-siyosiy voqelikni faqat izohlash, tushuntirish haqidagi fan bo'lmay, balki uni baholash haqidagi fandır.

Siyosat nazariyasi bashorat qilish funktsiyasini ham ado etadi: U jamiyatning sotsial va siyosiy sohalarida "obyektiv qonuniy-tendensiyalarini bilish, real ijtimoiy vaziyatni, uning "belgilovchi ziddiyatlarni va ijtimoiy kuchlar nisbatini tahlil etish "asosida voqealarning qaysi tomonga rivojlanish variantini oldindan bashorat qildi.

Qanday yakunlanishidan qat'i nazar shuni ta'kidlash joizki, jamiyatning siyosiy hayoti muayyan qonunlar asosida sodir bo'ladi. Bu qonunlar siyosiy hodisalarning umumiy aloqadorligini, siyosiy hayot ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini ifodalaydi.

Siyosiy fanning qonunlari ikki guruhga ajraladi.

1.Siyosiy hayotning tinch (statik) holatini ifoda etadigan qonunlar. Bu qonunlarga hokimiyatning legitimligi; umuminsoniy manfaatlarning ustuvorligi; siyosatning iqtisodiyot va madaniyat bilan birligi va mutanosibligi; siyosatning geografik shart-sharoitlarga bog'liqligi; ichki va tashqi siyosatning birligi va mutanosibligi; partiya va saylov tizimlarining o'zaro bog'liqligi va hokazolar kiradi.

2. Siyosiy hayotning bir holatidan ikkinchi holatiga o'tishi (dinamikasi) ni ifoda etadigan qonunlar. Bu qonunlarga: ijtimoiy hayotning demokratlashuvi; hokimiyatning taqsimlanishi; siyosiy ijtimoiylashuv; siyosiy zamonaviylashuv; siyosiy hayotning burokratlashuvi; siyosiy begonalashuv, ommaviy partiyalarning oligarxiyalashuvi va boshqalar kiradi.

Albatga, siyosiy hayot qonunlarining yuqoridagi guruhlariga ajratilishi shartlidir. Bu qonunlardan ayrimlarini birinchi va ikkinchi guruhga ham kiritish mumkin.

Siyosiy hayotning qonunlari ham xuddi tabiat qonunlaridek obyektiv ravishda amal qiladi. Bu qonunlarni ilmiy bilish va ulardan amaliyotda samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy fan jamiyat haqidagi fanlarning barcha kategoriyalaridan: sivilizatsiya, jamiyat, xalq, erkinlik, huquq, madaniyat, inqilob, evolutsiya, mentalitet kabilardan foydalanadi. Bu kategoriyalar siyosat va siyosiy munosabatlarga oid ekanligi bilan bog'liqdir.

Siyosat nazariyasiga chegaradosh fanlarning kategoriyalari ham ushbu fan doirasida keng qo'llanadi. Jumladan, «huquqiy davlat», «xususiy mulk», «fuqarolik jamiyati», «ijtimoiy qatlamlar», «ijtimoiy guruhlar», «ijtimoiy fikr», «ixtilof» siyosiy fanda tez - tez qo'llanadigan tushunchalar sirasiga kiradi.

Siyosat nazariyasining o'ziga xos kategoriyalari «siyosat», «siyosiy hokimiyat», «siyosiy hayot», «siyosiy tizim», «siyosiy tartibot», «siyosiy manfaat», «siyosiy faoliyat», «legitimlik», «siyosiy elita», «siyosiy yetakchilik», «siyosiy ong», «siyosiy mafkura», «siyosiy psixologiya», «siyosiy jarayon», «siyosiy ixtiloflar», «siyosiy zamonaviylashuv» kabilardir. Amerikalik sotsiolog T.Parsons u yoki bu jamoa tomonidan qandaydir maqsadlarga erishish uchun resurslarni tashkil etish va safarbar etish bo'yicha har qanday faoliyatni «siyosat» deb belgilaydi. Bu ma'nodagi siyosat bilan biz nafaqat hukumat ishlari xaqida fikr yuritganda, balki har qanday jamoa faoliyatida to'qnash kelamiz.

Siyosiy sohani boshqa sohalaridan ajratuvchi asos Parson sxemasiga ko'ra - hokimiyatdir. Xuddi iqtisodiy sohada pul va bozor qanday rol o'ynasa, siyosat sohasida hokimiyat ham xuddi shunday rol o'ynaydi. Hokimiyat muayyan jamoalar va ularning a'zolari uchun majburiy qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshira olish qobiliyati tarzida qaraladi. Hokimiyat - siyosatning bosh kategoriyasidir. Chunki, siyosatdagi barcha institutlar, faoliyat turlari, munosabatlar va ta'sirlar hokimiyat nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Siyosat nazariyasida asosiy kategoriyalardan yana biri - «siyosiy hayot»dir. Bu kategoriya siyosiy fanga Devid Leyn tomonidan kiritilgan va siyosatni uning institutsional va xulq-atvor jihatlarning birligi tarzida qarash imkonini beradi. Bu siyosiy hayotning quyidagi belgilari orqali namoyon bo'ladi:

- siyosat ijtimoiy va siyosiy institutlar, tashkilotlar, tartibga solingan siyosiy munosabatlar o'zaro ta'siri tarzida ham, siyosiy munosabat subyektlari faoliyati tarzida ham namoyon bo'lishi mumkin;

- siyosiy hayot ommaviy manfaatlar va boshqaruv amal qiladigan soha bo'lib maydonga chiqadi. Uning bosh vositalari hokimiyat, zo'rlik, avtoritet bo'lib, ular amalda doimo tashkilot (davlat, partiya, uyushma, harakatlar kabi) kuchiga tayanadilar.

- siyosatning faol tabiati ijtimoiy hayotning ko'p tomonlariga ta'sir etish imkonini beradi: - iqtisod, madaniyat, fan, ma'naviyat singari;

- siyosiy hayotga ijtimoiy guruhlar, sinflar, millatlar singari ko'p sonli odamlar ommasi jalb qilinadi. Ularning faolligi siyosiy hodisalarning yo'nalishi, qiyofasi, natijasini belgilab beradi.

«Siyosiy faoliyat» kategoriyasi - uyushgan va hokimlik funksiyalarini amalga oshiruvchi shaxslar va guruhlarining o'zaro ta'sirini anglatadi.

Siyosiy faoliyatning uch holati mavjud:

- 1) siyosiy begonalashuv-inson shaxsiy muammolarni hal qilish bilan ovora bo'ladi va ularning yechimini siyosiy hayot bilan bog'lamaydi, unga qarshi qo'yadi. Begonalashuv holatida siyosat real muammolar, inson manfaatlariga aloqasi yo'q soha; siyosiy hokimiyat bilan aloqaga kirishish, to'qnashish esa-maqsadga muvofiq emas, deb qaraladi.

- 2) siyosiy sustkashlik-shaxs yoki ijtimoiy guruh; boshqa shaxs yoki ijtimoiy guruhning siyosiy ta'siriga tushib qolgan holatini sustkashlik holatida subyekt o'zining manfaatlarini emas, balki unga begona siyosiy manfaatlarini amalga oshiradi, Siyosiy sustkashlikning ko'rinishlaridan biri-konformizm;

- 3) siyosiy faollik-belgisi individ yoki guruhning hokimiyatga ta'sir etish yoki undan bevosita foydalanib, o'z muammolarini amalga oshirishga intilishidir.

Biz bu yerda siyosat nazariyasi kategoriyalarning, ayrimlarini ko'rib chiqdik. Bir qator kategoriyalar bilan esa darslikning maxsus boblarida tanishish imkoniga ega bo'lamiz.

SAVOLLAR

1. Zamonaviy siyosiy ta'lim, uning dolzarb vazifalari nimadan iborat?
2. O'zbekistonda siyosiy ta'lim rivojlanishi xususiyatlari.
3. Politologiya mustaqil fan va o'quv kursi sifatida.
4. Politologiya qonuniyatlari.
5. Politologiyaning tadqiqot obyekti va predmeti.
6. Politologiya funksiyalari.

2-BOB. SIYOSIY FANNING USULLARI

2.1. Siyosiy fan metodologiyasi va usullarining shakllanish jarayoni

Siyosatni tushunish va uni o'zgartira olish uchun u haqda ko'proq bilimga ega bo'lish kerak. Bilimga qay tarzda ega bo'lish mumkin? Bu - uslublar haqidagi savol. Siyosiy borliqni o'rganish, bayon etishning hamma uchun umumiy, obyektiv tilini ishlab chiqish va qo'llash-metodologiya bilan bog'liq. Shunday qilib, metodologiya-fandagi eng asosiy masalalardan biri. U ilm olish quroli, texnologiyasidir.

Siyosiy fanda ham boshqa fanlardagi kabi metodologiya:

- turli uslublarni yoki bir nechta uslublarning muayyan birligini siyosiy bilim olish uchun qo'llash;
- tadqiq etilishi lozim bo'lgan masalani to'g'ri qo'ya bilish, uni to'g'ri bayon etish;
- ushbu muammoga mos yondashuvlarni, vositalarni to'g'ri tanlay bilish kabi masalalar bilan bog'liq.

Metodologiya va uslublarning siyosiy fan doirasida rivojlanishi - uning predmeti rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Ular siyosiy fikr rivoji davomida asta-sekin shakllanib borgan. Ular bir davrning o'ziga xos usublari, yondoshuvlari mavjud.

Taxminan XX asr boshlarigacha ijtimoiy - siyosiy tadqiqotlar amaldagi voqea-hodisalarni bayon etib, qiyoslab, ular asosida mantiqiy - falsafiy, axloqiy, qadriyatiy xulosalarni ishlab chiqqan. XIX asr davomida siyosiy fikrda tarixiy-qiyosiy va me'yoriy- institutsional uslublar etakchilik qilgan.

XX asr boshlaridan dunyo xususiyatlarini bilishga qaratilgan aks etgiruvchi bilim o'rnini yangicha yondashuvlar egallay boshladi. Ularga ko'ra siyosat bir turdagi gomogen dunyo bilan emas, xilma - xillikka asoslangan, ko'p o'lchovli va ko'p markazli dunyo bilan ish ko'radi. Bu yondashuvlarda bilim - inson manfaatiga hizmat qiluvchi, umuman, hayotni saqlab qolishga qaratilgan vosita sifatida qaraladi. Shuning uchun ham bilim-haqiqiy bo'lishi, ya'ni odamlarning hayot haqidagi tasavvurlari, orzu- umidlariga emas, real hayot, real -faktlarga tayanishi lozim, degan qarashlar bu davrda ustunlik qila boshlaydi.

Yagona, universal bilim olish yo'lini topishga intilish - ijtimoiy fanlar boshidan kechirgan murakkab yo'ldir. Masalan, uzoq vaqt mobaynida ijtimoiy fanlarning metodologik asosini formatsion yondashuv tashkil etgan. U Marks tomonidan faol qo'llangani va keyinchalik sovet ijtimoiy fani doirasida asosiy, deb sanalgani uchun ko'proq marksizm bilan bog'lanadi. Aslida formatsion yondashuv ancha obro'li va qadimgi ildizlarga ega bo'lib, uning mualliflari qatorida J.Boden, F.Bekon, T.Gobbs, Hegel, M.Kondorse kabi g'arb olimlari bor. Yevropa madaniyati tarkibida shakllangan bu yondashuv shu madaniyat rivojining muayyan tarixiy davrini o'rganish uchun juda samarali bo'lgan. Balki shuning uchundir, uni barcha taraqqiyot modellarini tushuntirib bera oladigan universal metodologiyaga aylantirishga uringanlar. Aslida esa, formatsion yondashuv /arbga mansub bo'lmagan sivilizatsiyalar rivojini tushuntirib berishga o'z edi.

Shu birgina misol - fanda "metodologii monizm" ga erishishga urinish qanchalik muvaffaqiyatsiz ekanligini isbotlab turibdi. Har bir predmet, har bir muammo o'z uslubini talab etadi.

Siyosat nazariyasi o'z shakllanish yo'lida bir qancha falsafiy - sotsiologik manbalarga tayangan. Bular pozitivizm (O. Kont, G.Spenser), bixeviorizm (E.Torndayk, G.Uolles, U.Lippman, Ch.Merriam) va pragmatizmdir. (Ch.Pirs).

Ushbu yo'nalishlarni bilish va chuqur o'rganish zarur. Shu bilan birga, bu falsafiy - sotsiologik manbalar sharq madaniyati, dunyo haqidagi bizning tasavvurlarimiz tizimiga uyg'un tusha olmasligini ham anglashimiz kerak bo'ladi. O'zbekistondagi ko'p siyosiy jarayonlarni g'arb metodologik sxemalariga tushirib bo'lmaydi. Masalan, inson-huquqlari masalasini o'rganishda mamlakatimizning madaniy o'ziga hosligi xisobga olinmay iloji yo'q.

Ammo, bundan g'arb politologiyasining uslubiyot sohasidagi yutuqlari biz uchun ahamiyatsiz, degan ma'no kelib chiqmasligi kerak.

Siyosat nazariyasi paradigmalari. Asrlar davomida olimlar dunyo haqida to'plagan bilimlari saralanib, alohida yondashuvlar qatorini tashkil etadi. XX asr boshida amerikalik fizik olim T.Kun ana shu saralangan yondashuvlarni nomlash uchun "paradigma" terminini kiritdi. Unga ko'ra, paradigma - o'rganilayotgan masalani qo'yish va hal qilishning o'ziga xos mantiqiy modeli. Siyosatda paradigma ilmiy tahlil yo'nalishini belgilaydi, tadqiqotchi uning asosida muayyan tamoyil va belgilarga suyanib real faktlarni to'playdi, umumlashtiradi, bashorat qiladi.

Siyosat murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lganligi uchun uni o'rganishda turlicha yondashuvlar qo'llanadi. Ularning ayrimlari siyosat nazariyasida ahamiyatga ega. Shartli ravishda teologik, tabiiy, ijtimoiy va ratsional- tanqidiy paradigmalar ajratiladi. Ularga muvofiq ravishda siyosat ilohiy, tabiiy, ijtimoiy, siyosiy omillar orqali tushuntiriladi.

1. Teologik paradigma-dunyoni va siyosatni ilohiy talqin etadi. Aslida siyosat ilk shaklida teologik (ilogiy) tarzda anglangan. Sharq madaniyati uchun, xususan, O'rta Osiyo xalqlari mentaliteti uchun siyosatni, hokimiyatni ilohiy anglash xususiyatlari hali ham uchrab turadi. Bu yurtboshi bilan xalq o'rtasida asrlar davomida kuzatilib kelinayotgan birdamlikda, hukmdor xalq nazarida, adolat timsoli ekanligida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda bu paradigmani eskirgan, deb qarash mumkin emas.

2.Tabiiy paradigmalar siyosatning mohiyatini doimiy, o'zgarmas tabiiy omillarning inson va jamiyatga ta'siri orqali tushuntirishga harakat qilgan. Bularga geografik muhit, insonning biologik, fiziologik xususiyatlari, ruhiyat kiradi. Shunga ko'ra, tabiiy paradigmalarining ko'rinishlarini qisqacha ko'rib chiqamiz.

1. Geografik paradigma-geografik, geostrategik, ijtimoiy - siyosiy, harbiy, demografik, iqtisodiy va boshqa omillarini o'zaro bog'liqlikda tahlil qilishga qaratilgan. Ular milliy qudratning ushbu omillarini mintaqa yoki dunyodagi kuchlar nisbati $\sim TV \sim$ nazaridan tahlil qiladi. U hozirgi dunyoda geografik paradigma har bir davlat siyosatining bir yo'nalishini tashkil etadi. Negaki, har qanday xalqaro siyosat subyekti - hududi, geografik joylashuv xususiyatlari, kommunikatsiyalar holati, qazilma boyliklari, iqlimi, hosildor yerlari kabi omillarga ko'ra baholanadi. Geografik omillarning qanchalik muhimligini sharxlovchi yorqin misol: 1453 -yil 29- may oyida Mehmet P. tomonidan Vizantiya imperiyasining: poytaxti Konstantinopol ishg'ol qilinib, natijada O'rta yer va Qora dengizlarni birlashtiruvchi Bosfordan savdo kemalarining yurishi 20 - 25 yilga to'xtadi. Buyuk Ipak yo'lining eng qulay marshruti yopildi.. Shu 20 - 25 yil ichida Yevropa mamlakatlari Hindiston, Xitoyga olib boruvchi yangi yo'llar ahtarib, Amerikani kashf etdilar; G'arbda kemachilik, texnika, umuman tabiiy fanlar rivojlanib ketdi. Markaziy Osiyo esa iqtisodiy inqirozga yuz tutdi.' Faqat Mustaqillik yillaridagina olib borilgan tashqi siyosat va yangi shakllangan geosiyosiy vaziyat tufayli Markaziy Osiyoning geostrategik ahamiyati tiklandi.

2. Biosiyosat. XIX asr olimlari S.Q. Lambrozo, M.Nordau konsepsiyalarida asoslanishiga ko'ra - hukmdor sinfga mansublik inson tabiati, genlarida belgilangan bo'ladi. Hozirgi vaqtda u biologiya, ekologiya va evolutsiya falsafasining uyg'unligini tashkil etadi. Biosiyosat tarafdorlari odamlarning kelib chiqishi, fiziologiyasiga asoslanib, odamlarning xulq-atvorlarini oldindan aytib berish va siyosiy xatti - harakatni ham bashorat qilish mumkin, deb hisoblaydilar, siyosiy faoliyatga jins, yosh, temperament ta'sirini o'rganadilar. Masalan, feminizm politologiyasida asosiy e'tibor obyekti siyosiy xulq- atvordir.

3. Ruhiy yondashuv tarafdorlari ruhiyatning siyosiy xulq - atvorga ta'siri tahlilidan 60-yillarda siyosiy tarixga ruhiyat ta'siri masalalariga o'tishdi. Siyosiy hayotga keng ijtimoiy qatlamlar faoliyatidagi yashirin sabablar ta'sirini, masalan, urush va tinchlik sabablari, ijtimoiy fikrda ayrim stereotiplar turg'unligi sabablarini, terrorizmning ommaviy - ruhiy asoslari va shu kabi masalalarni chuqur o'rganadi.

3. Ijtimoiy paradigma-siyosatni unga nisbatan tahlili, ijtimoiy omillar bilan tushuntiradi. Ya'ni siyosatda qaysidir boshqa ijtimoiy asos belgilovchi ta'sirni o'tkazadi, degan fikrga asoslanadi. Bunday ta'sir manbalari turli yondoshuvlarda turlicha. Masalan, iqtisodiy paradigmadagi iqtisod siyosatini belgilaydi. Huquqiy paradigmadagi huquq - siyosatni belgilaydi; madaniyat- yana bir belgilovchi ta'sir, ya'ni siyosatni madaniyat belgilaydi v.h.

4. Ratsional-tanqidiy paradigmalar - siyosatni uning ichki xususiyatlari, elementlari, sabablari bilan izohlashga urinadilar. Xususan, nemis olimi R.Darendorf siyosatning asosida ixtilof yotadi va uni ixtiloflarni hal qilish vositasi sifatida tushuntirish zarur, deb hisoblaydi. U sanab bergan 15 ixtilof turi barcha jamiyatlarda mavjud, lekin birortasini hal qilib bo'lmaydiganlar qatoriga qo'yish mumkin emas. Ularni faqat o'z vaqtida aniqlash, institutsionallashtirish va hal qilish lozim.

Konsensusli yondashuv tarafdorlari siyosat- jamiyatni birlashtiruvchi omillar qadriyatlar, ideallar, an'analar) bilan belgilanadi, jamiyatda integratsiya ixtilofga nisbatan birlamchi rol o'ynaydi, deb hisoblaydilar. Ular ikkala paradigma tarafdorlari juda ko'p. Ammo, bugungi kunda konflikt paradigmasi rivojlanayotgan, an'anaviy jamiyatlar uchun ko'proq xos bo'lsa, konsensusli paradigma- rivojlangan mamlakatlar voqeligini aks ettiradi, deb hisoblash qabul qilingan.

Ilmiy qarashlar ikki muhim vazifani bajaradi; voqelikni unga mos tarzda bayon etib beradi va umumiy qonunlar hamda nazariyalarni belgilab beradi. Ilmiy paradigmalar belgilab bergan yo'nalishlar asosida siyosiy fan siyosiy voqelikni idrok etib, o'ziga xos uslublar vositasida uni tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi. Albatta, bunda hech bir yondashuv mutlaq haqiqatni ochib bera olmasligi, ular bir - birini to'ldirib, to'g'rilab kelishi nazarda tutiladi.

2.2. Siyosiy fan usublari

Ma'lumki, har qanday fan ilmiy nazariyalar tizimidan iborat. Nazariya – mantiqiy bog'langan ko'plab belgilardan iborat bo'lib, ular borliqni aks ettiradi. Nazariyalar aqliy vositadir, ular haqiqiy ham; xato ham bo'lmaydi, ular foydali bo'lishi. mumkin, xolos. Bolg'ani tayyorlashning ko'plab usuli mavjud bo'lganidek, siyosiy hayotni tushunishning ham ko'plab usullari mavjud. Politologik bilim olish yo'llarini, masalan, televizor yaratish yo'llarini tushuntirgandek, tushuntirish mumkin emas, ammo bu jarayonning eng muhim bosqichlari va vositalari tug'risida tasavvurlar berish mumkin.

Metod – yo'l. Tadqiqot yo'li, bilish usuli, bilimlar tizimini yaratish maqsadida borliqni tadqiq etish usuli. Aslida politologiya metodlari haqidagi masala, siyosiy bilimga ega bo'lish imkoniyatlari haqidagi masaladir. Ko'pincha uslub va metodologiya borasidagi bilimlar zerikarli va ortiqcha bo'lib ko'rinadi. Ammo, uslublarni yaxshi .o'zlashtirish, tadqiqot qoidalarini chuqur bilish olimga cheksiz ijodiy imkoniyatlar beradi. Har bir mutaxassis ega bo'lgan "minimal kasbiy malaka" tushunchasi ilmiy metodlarni o'zlashtirish bilan bog'liq. Ma'lumki, hamma fanlar bir-biridan oldida turgan maqsadlari va ularni hal qilish uchun qo'llaydigan uslublar va yondashuvlar bilan farq qiladi.

Siyosiy fanda qo'llanuvchi metodlarni uchga ajratamiz:

1. Universal usullar.
2. Umumilmiy usullar.
3. Politologiyaning empirik tadqiqot usullari.

Universal usullar barcha fanlarda qo'llanadi.- Bularga induksiya, deduksiya, analiz, sintez, tashxis, bashorat, ta'riflash, turkumlash, qiyos, tavsif, kuzatish, tajriba; tarkibiy - funksionalizm, axborot tahlili v.h.lar kiradi. Masalan, induksiya va deduksiya metodlarini politologiyada qay tarzda qo'llash mumkin? Induksiya - ko'plab xususiy faktlarni umumlashtirib, ular asosida umumiy xulosaga kelish. Masalan, Oliy Majlis deputatlarining ijtimoiy kelib chiqishi, lavozimi, ta'lim darajasi v.h. singari biografik ma'lumotlarini umumlashtirish va

turkumlash orqali jamiyatimizdagi qaysi ijtimoiy qatlamlar yoki ijtimoiy-guruhlarning faol, qaysilari siyosiy jihatdan, ya'ni hokimiyatga intilish jihatdan sustligi to'g'risidagi umumiy xulosaga kelishimiz mumkin.

Deduksiya - umumiy, abstrakt xulosadan, aniq va xususiy faktlarga o'tish uslubi. U borliqdagi hodisalarni tushuntirish uchun nazariyalardan foydalanish imkonini beruvchi jarayon. Masalan, yana respublikamizdagi Oliy qonunchilik organi - Oliy Majlis deputatlari muqobillik asosida saylangan xalqning eng ko'zga ko'ringan vakillaridir, degan umumiy xulosaga asoslanadigan bo'lsak va deputatlar ijtimoiy kelib chiqishi, lavozimi, kasbi, ta'lim darajasi kabi biografik ma'lumotlarni o'rganib, shu ko'rsatkichlar bo'yicha taqsimlab chiqsak, hozirgi kunda O'zbekistonda qaysi ijtimoiy qatlamga mansub, yoshi, kasbi, ma'lumot darajasi qanday bo'lgan odamlar xalqning ishonchiga ko'proq egaligi to'g'risidagi aniq ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

2. Umumilmiy usullar inson tafakkurini xarakterlaydi va insonning bilishga qaratilgan har qanday faoliyatida qo'llanadi. Ularga falsafiy metodlar va tafakkur tamo yillari kiradi. Siyosiy fan siyosatning murakkab, ko'p o'lchovli va ko'p omilli hodisa ekanligidan kelib chiqib, uni turli yondashuvlar vositasida o'rganishni inkor etmaydi. Quyida ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Sotsiologiya usuli siyosatni turli ijtimoiy omillar belgilashidan kelib chiqadi: iqtisod, mafkura, madaniyat, axloq singari. Haqiqatan ham, bu omillar keng, siyosatga ta'siri juda kuchli. Deylik, iqtisodiy rivojlanish darajasi. Masalan, demokratiya – barqaror va rivojlangan iqtisod bilan bog'lanadi. Ammo, iqtisodiy ravnaq - demokratiyani kafolatlamaydi: iqtisodiy jihatdan rivojlangan, ammo demokratik bo'lmagan davlatlar ham mavjud. Demak, siyosatga sotsiologik omillarning ta'sirini mutlaqlashtirish siyosatni bir tomonlama tushunishga olib kelishi mumkin.

Qadriyatiy – me'yoriy usul va sotsiologik yondashuvlar siyosiy fikr tarixida qo'llanib kelgan eng qadimgi va an'anaviy yondashuvlardir. Siyosiy faoliyat sababini odamlarning baxtli hayot haqidagi orzu - umidlari, ideallar tashkil etgan. Me'yoriy yoki qadriyatiy usullar siyosiy voqea - hodisalarni jamiyat va shaxs uchun ahamiyati nuqtai nazaridan baholaydi. Ular siyosatning axloqiy, insonparvarlik negizini tashkil etgani uchun qadrlanadi. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" – me'yoriy hujjat hisoblanadi, negaki, unda inson borasidagi «haqiqiy ahvol emas, bu sohada qaror topishi lozim bo'lgan tamoyillar aks etadi. Ammo, bu bilan ushbu hujjatning ahamiyati pasaymaydi.

XIX asrga kelib, qadriyatiy – me'yoriy yondashuvlar tanqid qilina boshlandi. Bir tomondan, uning hokimiyat mazmunini, uning jamiyat bilan munosabatlarini insonparvarlik tamoyillari bilan boyitishi e'tirof etilsa, ikkinchi tomondan, jamiyatni ancha orqaga tortuvchi g'oyalarni ham berishi ko'zga tashlandi. Me'yoriy zaminga ega bo'lmagan utopiyalar shakllandi. Utopiyalarni hayotga tatbiq etish naqadar xavfliligini bolshevizm, natsizm misolida isbotlandi.

Qadriyatiy-me'yoriy yondashuvning politologiyadagi bosh kamchiligi-idellarning real hayotdan, empirik bilimlardan uzoqligidir.

Me'yoriy va sotsiologik yondashuvlarning kamchiliklari va tabiiy fanlardagi yutuqlar siyosatga pozitivistik yondashuvlarni olib kirdi.

Pozitivizm ta'sirida politologiyada ko'p omillilik tamoyili, ya'ni turli omillar bir-biridan mustaqil va tartibsiz faoliyat ko'rsatishi haqidagi fikr qaror topdi.

Bugungi kunda pozitivizm ssiyentizm, ya'ni siyosiy tahlil uslublari aniqligi, ularning tabiiy fan uslublari bilan yaqinlashuvida namoyon bo'ladi.

Ssiyentizm tadqiqotda maxsus, malakaviy va matematik aniq bilim hukmronlik qilishi va fan mafkuraviy, qadriyatiy yondashuvlardan hamda siyosat ta'siridan xoliligini anglatadi. Unga ko'ra, siyosiy tahlilga matematik metodlar, formallashuv uslublari keng ko'lamda kirib keldi. Empirik bilimlar ilovalardan me'yorga aylandi. Shu bilan birga, u pozitivizmning bosh kamchiligi - inson va uning murakkab ichki dunyosini hisobga olmaslikni yo'qota olmadi. Bilimni formallashtirish bilan keragidan ortiq qiziqish esa ba'zan uning amaliyotdan uzoqlashishga olib keldi.

Psixologik yondashuv va uning zaminida rivojlangan psixoanaliz siyosatda inson faoliyatining sub'yektiv mexanizmlarini tahlil qilib beradi. Saylovchilar xatti-harakatini,

saylovlar jarayonida elektorat siyosiy xulq-atvorini tahlil qilganda, totalitar, avtoritar yetakchilar tabiatini tushuntirishda juda keng qo'llanadi.

G'arb politologiyasida bu - muhim va doimiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolgan. Siyosiy - psixologik tadqiqotlar elektorat xulq-atvorini tahlil qilishda juda muhim. Saylovchilarning aksariyati ko'pincha dastur uchun emas, muayyan shaxs uchun ovoz beradi. Hozirgi vaqtda elektorat tadqiqotlar asosida beriladigan bashoratlar meteorologlar yoki seysmologlar bashorati bilan bir qatarga qo'yiladi. Bu jarayonning o'zi esa XX asr o'rtalarida boshlangan II Jahon urushi yillarida amerikalik olimlar fashizm va natsizm kelib chiqishi sabablari, Fransiyaning siyosiy inqirozi, Rossiya, Angliya va AQSHning madaniy zaifligi masalalarini o'rganish uchun shu mamlakatlarda oilaning tuzilishi, bolalarning ijtimoiy hayotga jalb qilinishi, madaniy rivojlanish modellarini chuqur o'rgana boshladilar. Siyosiy psixologik tahlil ijtimoiylashuv, ya'ni siyosatga jalb etish, muayyan xulq-atvorni keltirib chiqargan sabablarni o'rganishda, shuningdek, yetakchilik, kichik guruhlar tahlilida ham keng qo'llanadi.

Psixologik tahlil predmeti bo'lib u yoki bu stereotiplar tahlili, o'tish davrlarida siyosiy nutq masalalari chiqa oladi. Garold Lassuel (1902 - 1978 yillar) siyosiy psixologiya doirasida juda samarali mehnat qilgan olim, Chikago maktabining yorqin namoyandasi. Uning "Ruhiy patologiya va siyosat" asari (1930) muayyan siyosatchilarning faoliyatini tahlil qilish asosida (ularning ba'zilarida ruhiy nuqsonlar bo'lgan) berilgan siyosat psixologiyasining chuqur tahlilidir. "Jahon siyosati va shaxsiy xavfsizlik" (1935) asarida u shaxs siyosiy faoliyatining ruhiy asoslari v.b. ayrim jihatlarini, siyosiy tartibotlarning turli ko'rinishlari va siyosiy jarayonlarni tahlil qiladi.

Bixeviorizm o'zida pozitivizm, ssiyentizm, pragmatizmning muvaffaqiyatlarini birlashtirdi. Bixeviorizm avvaldan belgilanganlik, umumiy nazariyalarga qarshi rivojlandi.

Bixevioristlarning diqqat markazida - siyosiy faoliyat, axborotni irodaga aylantirish, bunda davlat mexanizmlariga tayanish yotadi. Ular siyosiy jarayonni hokimiyat resurslariga egalik qilishdan manfaatdor guruhlarining o'zaro hamkorligi va raqobati sifatida talqin etishadi. Bixevioristlar xulq-atvor turlari va shakllari yig'indisi bilan ish ko'rgani uchun barcha fanlar ma'lumotlariga murojaat etadilar. Bu asosda tipik siyosiy vaziyatdagi xulq-atvor modellari ishlab chiqiladi. Lekin, barcha hollarda real, konkret odamlar xulq - atvori o'rganiladi. Bixevioristik tadqiqot vazifasi - muayyan xulq-atvor sabablari va maqsadlarini amaliy va formallashtirgan tasnifidan tashqari, bu bilan bog'liq ravishda tatbiqiy siyosat yo'nalishlarini taklif etishdan iborat.

Bixevioristik yondashuv barqaror siyosiy tamoyillar bilan qabul qilinayotgan muayyan qaror o'rtasidagi tafovut sabablarini tahlil qilish imkonini berdi, inson xulq-atvoriga qandaydir bir omilning belgilovchi ta'sirini izlash samarasiz ekanligini tasdiqladi. Bixeviorizm doimiy so'rovlar, tahlillar, qiyoslar amaliyotini politologiyaning doimiy hamrohiga aylantirdi.

Ammo, XX asrning 60-70 - yillarida bixeviorizmning yakka hokimligi tugadi. Bixevioristik yondashuv ijtimoiy borliqni yaxlit jarayon tarzida idrok etish, siyosatning bir butun nazariyasini yaratish imkonini bermas edi. Bixeviorizmning birinchi o'ringa verifikatsiya, ya'ni tajribada tasdiqlanish tamoyili chiqqani uchun amerikalik olim D.Iston bixeviorizmni tayland ostiga oldi.

XX asrning 50- 60 - yillarida tizimli yondashuv shakllandi. Uning mohiyati - tarkibiy qismlarning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirini o'rganishdan iborat. U siyosatni o'zaro bog'liq elementlardan tarkib topgan yahlit o'z-o'zini yangilay oluvchi, moslashuvchi tizim sifatida qaraydi. Asoschisi -T.Parsons (1902 - 1979) va E.Shilz (1911 y.).

Ammo, tizimli yondashuv siyosatdagi ixtiloflarni, siyosiy madaniyatlarni, yetakchilik, inqiroz va inqilob vaziyatlarini o'rganishda deyarli qo'llanmaydi.

Faoliyatiy yondashuv siyosatni - muayyan tadbirlar ketma-ketligi sifatida qaraydi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonini o'rganishda keng qo'llanadi.

Qiyosiy yondashuv bir turdagi siyosiy hodisalarni, ularning umumiy va xususiy qirralarini aniqlash, siyosiy tashkilotlarning samarali shakllarini topish, boshqa mamlakatlarning muvaffaqiyatlarini qo'llash maqsadida qiyoslab o'rganadi. Masalan, Turkiya bilan O'zbekistondagi islohotlar jarayonini qiyoslash - bizning mamlakatimiz uchun ancha

samaralidir, negaki bu mamlakat qo'llagan uslublarni o'rganish bilan birga, undagi xato va kamchiliklarni ham takrorlashdan xoli bo'lamiz v.h.

3. Empirik tadqiqot usullariga siyosat to'g'risidagi aniq faktlarni olish usullari kiradi: "o'yinlar nazariyasi; siyosiy vaziyatlarni modellashtirish: siyosiy yetakchilar reytingini aniqlash, davlatlar, siyosiy tizimlarning ko'p o'lchovli statistik, qiyosiy tahlili, elektoral - statistik ma'lumotlardan foydalanish, anketa so'rovlari, monitoring, kontent - tahlil, faktor - tahlil, kognitiv - kartalar, tarjimai hol tahlili v h.

Empirik tadqiqot usullari asosan tatbiqiy politologiyada qo'llanadi. Ularga qisqacha to'xtab o'tamiz.

"Ish o'yinlari" yoki "o'yinlar nazariyasi" u yoki bu siyosiy vaziyatni o'yin tarzida boshidan ohirigacha "o'ynab chiqish" vositasida yetakchilar, boshqaruv apparatining turli sharoitlarda faoliyat ko'rsatish modellarini ishlab chiqish, siyosiy qarorlar qabul qilishda vaziyatning - turli o'zgarishlarini hisobga olish imkonini beradi. Yoshlar o'rtasida hozirda keng tarqalayotgan "debat" dasturlari ana shu uslubning bir ko'rinishidir.

Siyosiy vaziyatni modellashtirish - o'yin elementlarini qo'llash orqali u yoki bu ixtilofni, siyosiy qaror oqibatini, hisoblab chiqish, ro'y berishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini olish imkonini beradi. Siyosiy jarayonlarni modellashtirish XX asr boshida, L.Richardson o'zining "Urushning matematik psixologiyasi" (1919) asarida, ikki milliy davlat o'rtasida qurollanish poygasi modelini ishlab chiqqanidan beri ma'lum. Bugungi kunda EHM imkoniyatlariga qo'shilib, bu - siyosiy fan metodologiyasidagi muhim yo'nalishga aylandi. Yadro urushi oqibatlarini hisoblab chiqib, olamga ma'lum qilinishi "sovuq urush" va bu sohadagi "poyga" ning tugashi uchun qanchalik muhim omil bo'lganligini eslang.

Siyosiy yetakchilar reytingini aniqlash, darajalash, elektoral statistika - statistik ma'lumotlarning juda katta hajmini kompyuter yordamida tahlil qilish, tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Siyosiy monitoring muayyan hodisalarni ma'lum vaqt oralig'ida kuzatish va uning yakunida shu hodisaga doir xulosalarni ishlab chiqish. Masalan, bir oy davomida TV kanallarida chiqqan ijtimoiy-siyosiy eshittirishlar, ularning yo'nalishini kuzatish yoki biror faoliyat yo'nalishida biror partiya amaliyotini kuzatish v.h.

Kontent-tahlil-matn mazmunining formallashtirilgan tahlili. Bu tahlil, masalan, siyosiy yetakchilar, partiyalar rahbarlari nutqlaridagi eng ko'p uchraydigan so'zlar yordamida asosiy diqqat qaratilayotgan soha, yo'nalishni aniqlash va bu ma'lumotlarni real vaziyat bilan qiyoslash imkonini beradi.

Kognitiv kartalar - siyosiy yetakchilar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar to'plangan matritsalar. Bu ma'lumotlar jamiyatda siyosiy elita shakllanish tartibi, uning tarkibi, samaradorligi, tabiati to'g'risida xulosalar qilish imkonini beradi.

SAVOLLAR

1. Metod va metodologiya haqidagi bilimlar nima uchun kerak?
2. Adabiyotlardan pozitivizm, bixeviorizm va pragmatizm haqida qo'shimcha ma'lumotlar toping.
3. Sizga politologiyaning qaysi paradigmasi ma'qul? Nima uchun?
4. Tanishgan usullaringiz asosida birorta voqeani yoki vaziyatni tahlil qilishga urinib ko'ring. Nima uchun aynan shu usullarni tanlaganingizni tushuntiring.

3-BOB. SIYOSIY FIKRNING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI

Siyosiy fan boshqa ijtimoiy - gumanitar fanlar singari uzoq, boy va sarmazmun tarixga ega. U ham o'ziga xos vujudga kelish va rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan.

3.1. Qadimgi dunyoning siyosiy fikri

Dastlabki siyosiy - huquqiy fikrlar barcha xalqlarda, qadimgi Sharqda ham, qadimgi G'rbda ham diniy - afsona, rivoyatlar tarkibida shakllangan. Ularga ko'ra, yerdagi tartiblar

umumbashariy, koinot tartiblarining uzviy qismi va kelib chiqishi jihatidan ilohiydir. Ana shunday tushunish uzoq davrlar mobaynida Sharqda, keyinchalik G'arbda ham insonlar, ular o'rtasidagi munosabatlar azaldan belgilanganligiga asoslanib, barqaror dunyoqarashni shakllantirdi. Bu dunyoqarash davlat, siyosatga doir g'oyalarda ham o'z ifodasini topdi.

Qadimgi dunyo ma'naviy madaniyatining eng yirik tarixiy yodgorliklaridan biri - "Avesto" (m.a. VI asr) dir. U Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi nafaqat diniy tasavvurlarni, balki siyosiy qarashlarni bilishning ham muhim manbaidir.

"Avesto" da dunyodagi yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash diniy shaklda aks ettiriladi. Unda yovuzlikni bartaraf etish, tinchlik-totuvlikni ta'minlashning yo'llari va vositalarini asoslashga alohida e'tibor beriladi. Bu yo'llar va vositalar yaxshi niyat, yaxshi so'z va yaxshi amal konsepsiyasida o'z ifodasini topadi.

«Avesto»da johillik, zo'ravonlik, tuhmat kabi illatlar qoralanadi. Unda sof ko'ngillilik, xiyonat qilmaslik, aldamaslik, haqorat qilmaslik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, hamjihatlilik kabi fazilatlar targ'ib qilinadi.

"Avesto" ning tarixiy yodgorlik sifatida ahamiyati bebahodir. Bu yodgorliksiz Sharq va G'apb siyosiy fikrining rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. U Demokrit, Aflotun, Arastu va boshqa buyuk allomalarining faoliyati, xristian, islom ta'limotining kelib chiqishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Siyosiy fikr asta-sekin afsona va rivoyatlar qobig'idan chiqib, inson, jamiyat, davlat masalalarini falsafiy-axloqiy talqin qilishga intildi. Bu antik davr allomalarining asarlarida o'z ifodasini topdi.

Konfutsiy (e.a.551 - 479 - yillar) ta'limoti falsafiy va siyosiy-huquqiy fikr tarixida muhim rol o'ynagan.

Konfutsiy - davlatning patriarxal-paternalistik konsepsiyasini rivojlantirgan. Uning ta'kidlashicha davlat – katta oiladir. Imperator hokimiyati go'yo oila boshlig'i – otaning hokimiyatidek adolatli va qo'l ostidigilariga mehr-shafqatga asoslangan. Hukmdor va fuqarolar munosabati - oila a'zolarining munosabatini eslatadi: kichiklar kattalar qaramog'ida va ularga itoat etadi. Konfutsiy odamlarni ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra to'rt qatlamga ajratadi: aslzodalar (har qanday bilimga tug'ilishdan ega); bilimlarga o'qish – o'rganish jarayonida ega bo'lganlar; bilimlarni qiyinchilik bilan o'zlashtiruvchilar; bilim olishga intilmaydiganlar. Shu tariqa odamlar o'rtasida tengsizlik mavjudligi va omi odamlar (quyi tabaqalar, kichiklar) oliy nasab aslzoda, kattalarga bo'ysunishlari zarurligi belgilab beriladi. Hokimiyat oqsuyaklar qo'lida to'planishi lozimligi asoslanadi. Konfutsiy hokimiyatning adolat va mehr-shafqatga asoslanishi, fuqarolar esa isyonlardan o'zlarini tiyishlarini uqtiradi. Boshqarish - hammani joy-joyiga qo'yish demakdir. Davlat hokimiyati xalq ishonchisiz mavjud bo'la olmaydi, ammo hukmdorlar hammaga o'rnak bo'lishlari lozim. Konfutsiy qarashlari uning izdoshlari va shogirdlari tomonidan "Lunyuy" - "Suhbatlar va mulohazalar" deb nomlangan asarda bayon etilgan.

Konfutsiy qarashlarining tanqidi bilan m.a. VI-V asrlarda yashab ijod etgan faylasuf Lao - Szo chiqadi va daosizm oqimiga asos soladi. "Dao" ta'limoti bevosita faoliyatning tabiiy huquqini anglatib, uning asosida kuch ishlatmaslik, davlatni yo'q qilish va jabr - zulmga qarshilik, ibtidoiy jamoa tarzidagi hayotga qaytishga chaqiriq yotadi. "Dao"dan chetlashish – haqiqatdan chetlashishdir.

Antik davr siyosiy fikri Sharq g'oyalarini o'ziga singdirib, keyinchalik rivojlangan G'arb davlatchiligidagi barcha dunyoqarash va mafkuralarning kurtaklarini undirgan zamin bo'ldi. Demokratiya antik davrlarda to'liq namoyon bo'lib, asta-sekin insoniyat ijtimoiy-siyosiy qadriyatlari xazinasidan joy oldi. Ana shu ajoyib davr namoyandalarining ko'zga ko'ringan vakillari bilan tanishib chiqamiz.

Jamiyat to'g'risidagi Aflotun (e.a. 427 – 347- yillar) fikrlarining qiymati shundaki, u hokimiyat, xususan, davlat hokimiyati masalalari sohasida ilgari surgan ayrim qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan; Aflotun yaratgan ideal aslzodalar davlatida boshqaruv-faylasuflar; mudofaa va xavfsizlik - askarlar: moddiy ta'minot esa – dehqonlar, hunarmand va

savdogarlarga berilgan ("Qonunlar"). Mohiyati bilan bu Misr tabaqaviy tuzumini eslatadi. Aflotun davlat boshqaruvining uch turini ko'rsatdi:

- monarxiya - bir kishi hokimiyati. Qonuniy va noqonuniy (tiraniya) bo'lishi mumkin;
- demokratiya - hammaning hokimiyati, u ham qonuniy va noqonuniy bo'lishi mumkin;
- aristokratiya - ozchilik hokimiyati, barkamollik yoki zo'rlik asosiga qurilgan bolishi mumkin. Aflotun o'zining "Protagor" dialogida davlat boshqaruvi san'atiga ham o'qish-o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Faqat bilimdon odamlargina boshqaryshi mumkin. Odamlar, shuningdek adolatni ham o'rganishlari lozim. Adolat nima? Adolat o'z ishini malakali, sidqidildan bajarishdir.

"Davlat" dialogi, "Qonunlar"da Aflotun davlatning kelib chiqishini ijtimoiy ehtiyojga bog'laydi: "Davlat mening fikrimcha, har birimiz o'zimizni qondira olmay qolganimiz holda, juda ko'p ehtiyojlarga ega ekanligimizdan kelib chiqadi. Har bir inson biron bir ehtiyojini qondirish uchun yo unisini, yo bunisini jalb etadi. Ko'p narsaga muhtojlik sezgan odamlar birgalikda yashash va bir-birlariga yordam berish uchun birlashadilar, Ana shunday uyushma bizlarda davlat nomini oladi...". «Bunday davlatda mehnat taqsimoti mavjud: insonlardan biri

dehqon, biri - quruvchi, yana biri - to'quvchi, to'rtinchisi - etikdo'z. Shunday qilib, davlat bilan jamiyat tushunchalari bu erda bir ma'noni anglatayotganini ko'ramiz. Aflotunga ko'ra, demokratik tuzumning eng katta kamchiligi - unda boshqaruvning muvofiq emasligi deb hisoblaydi: "Demokratiya shunday tuzumki, uning doirasida istagan ishingizni qilishingiz mumkin».

Arastu (m.a. 384 - 322 - yillar), boshqaruvga ko'ra davlatlarni quyidagicha turkumladi:

- monarxiya, aksi - tiraniya;
- aristokratiya, aksi - oligarxiya;
- politiya, aksi - demokratiya.

Arastu insonni siyosiy mavjudot sifatida baholaydi: "inson o'z tabiatiga ko'ra siyosiy mavjudotdir". Arastuning "Siyosat" asarida hozirgi zamon siyosiy fanida keng ishlab chiqilayotgan nazariyalarning kurtaklarini ko'ramiz. Masalan, Arastuning quyidagi savoliga diqqat qiling: "Tadqiqotlarimizning pirovard nuqtasi quyidagi savolni muhokama etish: qaysi hokimiyat afzalroq: barkamol insonlar hokimiyatimi yoki barkamol qonunlar hokimiyatimi?" Ushbu savolga XVII asr arbobi SH.L.Monteskye "barkamol qonunlar hokimiyati" deb javob beradi va jamiyatda qonun oldida hamma insonlarning tengligi, qonunlarning o'zi esa - butun jamiyat manfaatidan kelib chiqib yaratilishi lozimligi tamoyilini ilgari suradi. Ushbu savol amaliy yechimini qariyb yigirma to'rt asr o'tgach, hozirgi zamonaviy demokratiyalar timsolida topayapti. Yana Arastuning o'ziga murojaat etamiz: "...har bir davlat tuzilishining asosini ... uch qism tashkil etadi: birinchisi - qonun muhokama etuvchi organ - hokimiyat ishlarini ko'rib chiqadi; ikkinchisi lavozimlar...; uchinchisi - sud organlari". Aslida «hokimiyatlarning bo'linishi tog'risidagi bu so'zlar o'zini demokratik deb atayotgan har bir zamonaviy davlat Konstitutsiyasida albatta uchraydi. Arastu demokratiyani mukammal tuzum qatoriga qo'shmagan. Unga xos bo'lgan bir qator kamchiliklar va ziddiyatlarni aytib o'tgan. Masalan: "...demokratiya - kambag'al - yo'qsillar manfaatini ifodalaydi. Umum manfaatni esa nazarda tutmaydi". Ana shu fikrlar keyinchalik XIX asr boshida A. Tokvil tomonidan, asrimizda esa bir qator ko'zga ko'ringan demokratik konsepsiyalarda rivojlantirildi.

3.2. O'rta asrlar va uyg'onish davridagi siyosiy g'oyalar

Qadimgi dunyoda vujudga kelgan siyosiy fikr o'zgarmasdan, bir joyda to'xtab qolgani yo'q. Insoniyatning tarixiy davri, uning talab va ehtiyojlari o'zgarishi va o'sishi bilan u ham o'zgarib va rivojlanib bordi. Qadimgi dunyoning siyosiy g'oyalari, ular qanchalik muhim bo'lmasin, o'rta asrlarga kelib zamon talab - ehtiyojlarini qondira olmadi. Bu g'oyalar siyosiy kuchlarni safarbar etib, ijtimoiy adolat va ijtimoiy tartibni ta'minlay olmadi. Parokandalik, tarafkashlik, urush-janjallar - davlatning falsafiy-axloqiy modellarini qadrsizlantirdi.

O'rta asrlarda davlatning yangi, diniy-axloqiy turdagi modellarini asoslab beradigan g'oyalarga katta ehtiyoj sezildi. Bunday g'oyalar o'rta asrlar G'arb va Sharq mutafakkirlarining asarlarida o'z ifodasini topdi.

O'rta asrlar G'arb siyosiy fikrining yorqin namoyandalaridan biri - Avreliy Avgustin (354 - 430) dir. U o'zining "Iloh shahri" asarida "iloh shahri" ni "insonlar shahri" ga qarama - qarshi qo'yadi. Negaki, insonlar bir-birining ustidan hukmronlik qilish, biri ikkinchisini itoat ettirish, hukmronlikka intilish ishtiyoqida davlat, uning tashkilotlari, jazo organlarini o'ylab topganlar. Odamlarni "o'zlaricha", ya'ni shayton domidagilar va Xudoga intilib yashayotganlarga bo'ladi. Butun dunyoda cherkov hukmronligini targ'ib etadi. Hozirgi vaqtda uning qarashlari protestanizm va katolitsizmga keng qo'llaniladi.

O'rta asrlar G'arb siyosiy fikrining vakillaridan yana biri Foma Akvinskiy (1225 - 1274) dir. Uning qarashlari, asosan, "hukmdorlarning boshqaruvi haqida" nomli asarida bayon qilingan. U mazkur asarda cherkov hokimiyatining dunyoviy hokimiyatdan ustunligini, kishilarning ilohiy va abadiy huquqqa, bo'ysunishlari zarurligini asoslashga intiladi.

Sharqda, xususan, O'rta Osiyoda siyosiy fikr taraqqiyoti nihoyatda teran ildizlarga ega. Hasan Ato Abushiyning "Turkiy qavmlar tarixi" asarida dalolat berilishicha: "Turkiy qavmlar barcha qavmlardan o'lmasa-da, ammo, juda ko'plarindin oldin bu (hukumat va hokimlar) tuzumni his etmishdirlar..., ya'ni eski turkiylarning o'zlari juda ko'p xalqlarni muhabbat va itoat ettira olg'on tadbirli, siyosiy quvvatli hokimlar jumlasidandirlar". O'rta Osiyo hududlarida ajdodlarimiz to'rt buyuk imperiya, yuzdan ortiq yirik markazlashgan davlatlar tajribalarini to'plaganlar ham by fikrni tasdiqlaydi.

Sharq mutafakkirlarining deyarli barchasi siyosat bobida teran fikr yuritganlar. Ular o'z qarashlarida ko'proq siyosatning ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy qirralarini yoritganlar. Siyosat-inson, uchun munosib moddiy va ma'naviy sharoitlarni yaratish kontekstida olib qaralgan.

Abu Nasr Farobiy (870 - 950) "Fozil shahar aholisining qarashlari" asarida davlatning kelib chiqishini odamlarning o'z ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan istagiga bog'laydi. Davlatni fazilatli, ma'rifatli hukmdor boshqarishi lozim. Davlatning zo'ravonlik va beboshlikka qurilishi qoralanadi. O'rta asrlarda Farobiy birinchilardan bo'lib jamiyat va ijtimoiy-siyosiy hayot tarkibini jiddiy o'rganish masalasini qo'ydi. Ijtimoiy hayotni o'rganish sohasida Farobiy bir qator masalalarni belgilab berdi. Ulardan, asosiylari quyidagilar:

1. Ijtimoiy hayot tushunchasi, fan predmeti va vazifalarini belgilash;
2. Ijtimoiy uyushmalarning kelib chiqishi, tarkibi, tuzilishi, turlari va bu masalaga oid noto'g'ri qarashlarni tanqid qilish;
3. Shahar - davlat xususiyatlari, vazifalari va boshqaruv shakllari;
4. Jamiyatda inson o'rni va burchlari, mehnat faoliyati, ma'naviyat va tarbiya masalalari;
5. Davlat uyushmasining pirovard maqsadi, baxtga erishish yo'llari va vositalari.

Ijtimoiy hayot muammolarini o'rganuvchi fanlarga u ilm - al - madaniya (shahar jamoasi to'g'risidagi fan), fiqh (huquqshunoslik), kalomni kiritgan. Kalomni Farobiy barcha bilimlarning asosi sifatida emas, qolgan fanlar qatorida tilga oladi. Farobiy ilm - al - madaniyaga katta e'tibor beradi.

Davlat to'g'risidagi ta'limotida Farobiy uning ichki va tashqi vazifalarini aniqlab beradi. Tashqi vazifaga shahar - davlat fuqarolarini dushmanlardan saqlash, ya'ni mustahkam mudofaani tashkil etish kiritadi. Johil shahar - davlatlarga boshqa shaharlar bilan doimiy urushlar va nizolar xos bo'lgan holda, fozil shahar aholisi o'z fuqarolarini himoya qilish maqsadida faqat mudofaa urushlarini olib boradi. Davlatning ichki vazifasi uning o'z fuqarolariga haqiqiy baxt beruvchi zaruriy tadbirlardan iborat. Ular quyidagilar: adolat o'rnatish, maorifni rivojlantirish, bilimlarni xalq o'rtasida tarqatish, ma'naviy va dunyoviy bilimlarni berish, yaxshilik va komil xulqlarni, odat va axloqiy qoidalarni targ'ib qilish.

Farobiyning boshqaruv shakllariga qarashi uning bevosita rahbarlarga qo'yadigan talablaridan kelib chiqadi. Farobiy, asosan, podsholik tuzumi to'g'risida fikr yuritadi va ideal davlatning boshlig'iga bir qator talablar qo'yadi: donishmandlik, qonunlar va boshqaruv qoidalarini bilish, ularni ijodiy qo'llay olish, harbiy san'atni yaxshi bilish, adolatli bo'lish,

haqiqatni sevish va hokazo. Ammo, u shuncha xislatning bir insonda bo'lishiga shubha bildirib, bunday hukmdorlarning eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini taklif etadi. Farobiyda xalq hokimiyati va demokratiya to'g'risidagi fikrlar ham bor, ammo ular rivojlantirilmagan.

Buyuk Sharq mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino (980 - 1037). Uning fikricha, inson jamiyatdan tashqarida yashay olmaydi. U aholisi, hukmdorlar, ishlab chiqaruvchilar va qo'shından iborat davlatda yashaydi. Ibn Sino aholini moddiy ahvoli va boyligi nuqtai nazaridan tabaqalarga bo'ladi. U hamma narsada me'yor bo'lishi tarafdoridir. Uning fikricha, agar hamma shoh va hukmdor bo'lsa ham, hamma kambag'al va nochor bo'lsa ham - jamiyat falokaga yuz tutgan bo'lar edi. Shuningdek, boylik jihatidan teng bo'lsa ham odamlar mehnat qilishdan va boshqalarga yordam berishdan to'xtagan bo'lar edi. Demak, eng ma'quli - odamlarning mulkiy va ijtimoiy har-xilligidir. Ibn Sino bu fikrlarni "Risolai tadbiri manzil" asarida bayon etgan. Ibn Sino qonunlar barchaga barobar bo'lgan jamiyatda adolatsizlik bo'lmaydi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, har qanday adolatsizlik jazosiz qolmasligi kerak. Agar hukmdor adolatsiz bo'lsa, unga qarshi isyon oqlangan va jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan bo'ladi.

Sharqdagi uyg'onish davrining buyuk siymolaridan biri - Yusuf Xos Hojib (XI asr) ham davlat va siyosat masalalariga katta e'tibor bergan. Uni butun olamga tanitgan asar "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") dir. Bu asar nafaqat o'zbek adabiyotining, shu bilan birga, siyosat fanining ham muhim manbalaridan biridir. U davlat va uni idora qilishning qonun - qoidolari, usullari, turli ijtimoiy guruh va tabaqalarning mavqei va munosabatlari, axloq va odoblarini ifoda etuvchi o'ziga xos nizomnomadir.

Asardagi davlatni idora etishning yo'l-yo'riqlari haqidagi g'oya alohida diqqatga sazovordir. Bu yo'l-yo'riqlar donishmandlik, adolatparvarlik, ko'ngil muloyimligi, til, so'z yumshoqligi, ehtiyotkorlik, takabburlikdan yiroqlik, yovuz va yaramas ishlardan uzoqlik, har ishda me'yorga rioya qilish, kattalar hurmatini va kichiklar mehrini o'rnida tutish va boshqalardir.

O'rta asrlar siyosiy fikrining eng yirik manbalaridan biri - Nizomulmulkning (1018 - 1092) «Siyosatnoma» yoki «Siyarulumulk» ("Podshohlar turmushi") asaridir. Bu asar o'zining mazmun - mohiyatiga ko'ra saljuqiylarning siyosiy dasturi hisoblanadi. Nizomulmulk asarida shohlar tarixi va hayotiy tajribasini umumlashtiradi, davlatni boshqarish qonun - qoidalarini, tartiboti va usullarini asoslab beradi. U asarda shoh va hokimlarni adlu insof va diyonatga, murosayu - madora va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va iymonli bo'lishga, mamlakatning obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchligi va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilish va mehnat kilishga da'vat etadi.

O'rta asrlar siyosiy fikrining vujudga kelishi va rivojlanishida Amir Temurning (1342 - 1405) o'rni benihoya kattadir. U kuch va g'ayratini siyosiy hayot masalalarini o'rganishga va ularning yechimini topishga, vasiyat va tuzuklarni ishlab chiqish va meros qoldirishga sarfladi. Bunga "Temur tuzuklari" guvohlik beradi.

"Temur tuzuklari" - jahon siyosiy fanining eng yirik va noyob manbalaridan biri hisoblanadi. Unda davlatni idora qilishning asosiy qonun - qoidolari, yo'l-yo'riqlari asoslab beriladi. Bunday qonun - qoidalarni teran ifoda etgan manba jahon siyosiy fikri tarixida kamdan - kam topiladi.

Mazkur manbada ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Ulardan nazariy va amaliy ishda foydalanish qo'l keladi.

XV asr buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy(1441 - 1501) ijodida bir qator muhim fikrlarni uchratamiz. U xalqqa nisbatan adolatsizlik va yovuzlikni qoralaydi, odamzotni hayotda adolatni qaror toptirishga, uni asrab-avaylashga chorlaydi. Navoiy markazlashgan kuchli podshohlik hokimiyatini yoqlab chiqadi. Negaki, kuchsiz shoh poraxo'r qozilar, zo'ravon va ta'magir amaldorlarga yo'l ochib beradi. Kuchli shoh hokimiyatida faqat munosib, barkamol shaxslar o'rin oladi. Zulm uchun zolimning o'zi javob beradi, negaki, ko'mir tashiganning qo'li qoradir. Insonlar ma'naviy kamolotga intilishlari lozim. Buning asosiy shartlari esa, Navoiy fikricha, halol mehnatdadir.

Uygʻonish davri, uning uyalari insoniyat tarixidagi tub burilish daqiqalaridir. Inson qadr - qimmat, uning huquqlarini himoya qilish inson uchun munosib hayot yaratish gʻoyalari aynan Gʻarb mamlakatlarida ularning davlatchilik va siyosat sohasidagi amaliy izlanishlari davomida vaqt chigʻirigʻidan oʻtib, real voqelikka aylanadi. Ushbu davr siyosatchilari va olimlaridan eng yirigi, albatta, Nikollo Bernardo Makiavelli (1469 - 1527) dir. U "Hukmdor", "Florensiya tarixi" asarlarida birinchi bor siyosatni mustaqil fan sifatida asoslaydi, jamiyat ilohiy emas, balki tabiiy qonunlar negizida rivojlanishini taʼkidlaydi. Makiavelli tarixiy taraqqiyot zaminida manfaat va kuch, omma va hukmron tabaqalar qarama-qarshiligi yotadi, deb hisoblaydi. U kuchli milliy davlat tarafdori boʻlgan. Siyosiy kurashda, hokimiyaga intilishlarda buyuk maqsadga erishish yoʻlida har qanday vositalardan foydalanish zarur, deb hisoblagan. Makiavelli odamlar faoliyati sabablarini boylikka hirs qoʻyishda koʻrgan: «Odamlar yoʻqotgan mablagʻni otasining oʻlimidan koʻra koʻproq eslab yuradi». Ijtimoiy taraqqiyotning maʼlum qonuniyatlarga boʻysunishini angladi va uni fortuna (tasodif, omad, taqdir) deb atadi. Inson uni bilishi va oʻz manfaatiga yoʻnaltirishi mumkin.

N.Makiavyolli Leonardo da Vinchi zamondoshi, Mikelandjelo doʻsti, Florensiya Respublikasining davlat arbobi, tarixchi, shoir, yozuvchidir. U XV asr oxiri XVI asr boshlarida uzluksiz urushlardan jabr koʻrgan, kuchli markazlashgan davlatga ehtiyoj sezayotgan Italiya manfaatlarining ifodachisi boʻldi. 1512-yilda Florensiya Respublikasi tugatilib, N.Makiavelli surgun qilinadi. Quvgʻinda u "Tit Liviyning birinchi oʻnta kitobi toʻgʻrisida qaydlar", "Hukmdor" (Lorenzo Medichiga bagʻishlanadi)," Florensiya qoʻlyozmalari" asarlarini yozadi.

Makiavelli mazkur asarlarda boshqaruv shakllaridan hech birini afzal koʻrmaydi. Avval "yangi" yakka hokimlik oʻrnatilib, u Italiyani birlashtirishi, isloh qilishi va yuksaltirishi, soʻng uning oʻrmini respublika boshqaruvining "aralash" shakli (demokratiya, aristokratiya, monarxiya elementlarini birlashtiradi) egallaydi, deb hisoblagan. Shu tariqa, Makiavelli davlatchilikning monarxiyadan respublikaga tomon rivojlanishini oldindan aytib bergan.

Fransuz mutafakkiri Jan Bodening qarashlari (1530 - 1596) kishida muayyan qiziqish uygʻotadi. Xususan, u davlat manfaatlarini din manfaatlaridan ustunligini taʼkidlaydi. Jamiyatda vijdon erkinligi qaror topib, biror din quvgʻinda boʻlmasin, davlat asosini oila tashkil etadi, kabi gʻoyalarni targʻib etgan. Davlat - oilalar muammolarini hal qiluvchi, xususiy mulkka asoslangan ijtimoiy mulkni saqlovchi ittifoqdir. Mulkiy tengsizlik tabiiy va zaruriydir. Davlat ijtimoiy masalalar ustidan huquqiy hokimiyatga ega. Uning hokimiyati hal qiluvchidir. Monarx - hukmdor huquqining, suverenitetining, yagona, mutlaq manbaidir.

Davlatning turi iqlim sharoitlariga bogʻliq. Moʻtadil iqlimga aql - idrokka asoslangan davlat mos keladi, negaki, bu yerdagi xalqlar adolatni his etadi, mehnatsevardir. Janub xalqlari mehnatga loqaydlik bilan qaraydilar, shuning uchun ular diniy hokimiyat va diniy davlatga ehtiyoj sezadilar. Shimolda dangasa, urushqoq xalqlar yashaydilar, shuning uchun ularning davlatlari, kattiq intizomga asoslangan va nihoyatda markazlashgan boʻladi.

3.3. Yangi va eng yangi zamondagi siyosiy taʼlimotlar

Yangi zamon yangi siyosiy taʼlimotlarni ilgari surdi. Bu taʼlimotlar oʻrta asrlar doirasidan chetga chiqib, insoniyatning yangi talab va ehtiyojlarini oʻzida aks ettirdi. Davlat va hokimiyatning ilohiy xarakteriga ishonishga tayanuvchi siyosatni sxolastik tushunish zamon talablariga javob bermay qoʻydi. Inson va jamiyatni rivojlantirish, uning imkoniyatlarini yanada oshirish ehtiyojlari siyosatga prinsipial jihatdan yangicha qarashlarni, uni oqilona-tanqidiy tushunishni talab qildi. Ushbu siyosatni oqilona – tanqidiy tushunish yangi zamon allomalarining asarlarida oʻz ifodasini topdi.

Yangi zamon siyosiy fikrining yorqin namoyondalaridan biri, ingliz faylasufi Tomas Gobbsdir (1588 - 1679). U Fuqaro haqidagi taʼlimotning falsafiy elementlari", "Leviafan" asarlarining muallifidir. Ijtimoiy bitim gʻoyasini targʻib qilgan Gobbs boshqaruv usullarida cheklanmagan monarxiya tarafdori boʻlgan. U insonlar jamiyatining ikki holatini ajratadi: tabiiy (hammaning hammaga qarshi urushi) - unda kuchga ega boʻlganlar huquqqa ham egalik qiladilar va fuqarolik (bitimiga koʻra ayrim huquqlarini ixtiyoriy ravishda boshqalarga berish). Davlat

o'zida jamlangan yagona iroda vositasida tinchlikni saqlashi, tabiiy qonunlar bajarilishini ta'minlashi, tartibni saqlashi, hunarmandchilikni rivojlantirishi, shuningdek, insonlarni diniy, ma'naviy, axloqiy qarashlariga ham ta'sir etishi kerak bo'ladi.

Yangi zamon siyosiy fikrining vujudga kelishi va rivojlanishida ingliz faylasufi va siyosat arbobi Jon Lokk (1632 - 1704) ning xizmati benihoya kattadir. U "E'tiqod chidamligi haqida", "Davlat boshqaruvi haqida" va boshqa asarlarida davlat faoliyatini yangicha tushunish, uning shartnoma asosida fuqarolar hayotiga aralashishini cheklash, inson tabiiy va begonalashmaydigan huquq va erkinliklarining amalga oshirilishini ta'minlash g'oyasini ilgari surdi. Bu g'oya zamon talablariga javob sifatida paydo bo'lib, keyinchalik butun dunyoda e'tirof etilib liberalizm degan nomni oldi.

Sharl Lui Monteske (1689 - 1755) "Fors xatlari", "Rumliklar buyukligi va inqirozi sabablari to'g'risida", "Qonunlar ruhi to'g'risida" kabi asarlarning muallifidir. U mo'tadil konstitutsion monarxiya va hokimiyatlar bo'linishi printsipini ilgari surgan. Uning fikricha, davlat va huquq - tarixiy taraqqiyot mahsuli. Tabiiy qonunlar jamiyat vujudga kelishidan avval mavjud bo'lgan. Qonunlar davlatning turiga (respublika, monarxiya, mustabid) bog'liq, boshqaruvni esa ijtimoiy - iqtisodiy, geografiya va iqlim kabi omillar belgilaydi.

Monteske fuqarolar erkinligining kafolatini hokimiyatlar bo'linishida deb hisoblaydi: "Agar qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bir shaxsda yoki bir tashkilotda mujassamlashsa, erkinlik bo'lmaydi. Negaki, bu monarx yoki senat zolim qonunlar yaratib ularni zulm qilish uchun qo'llashi mumkinligi xavfi mavjud bo'ladi. Erkinlik sud hokimiyati, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan ajratilmaganda ham bo'lmaydi. Agar biror bir shaxs yoki biror tashkilot shu uchala hokimiyatni yakka o'zida to'plasa, hamma narsa halok bo'lar edi. U hokimiyatni suiiste'mol qilish imkoniyati bo'lmasligi uchun shunday tartib o'rnatilishi kerakki, unda turli hokimiyatlar o'zaro bir-birini tutib turishlari mumkin bo'lsin.

Jan Jak Russo (712 - 1778) - fransuz faylasufi, sotsiologi, ma'rifatparvaridir. U "Odamlar o'rtasida tengsizlik kelib chiqishi va asoslari to'g'risida mulohazalar", "Ijtimoiy bitim", "Emil, yoki tarbiya to'g'risida" asarlari muallifidir. Russo burjua demokratiyasi, fuqarolarning haq-huquqlari, ozodlik, erkinlik va tenglik g'oyalarini targ'ib qiladi. Tengsizlik sababi - xususiy mulk. Gobbsdan farqli o'laroq, "tabiiy holatida" insonlar do'st va hamohang yashaganlar deb hisoblaydi. Ijtimoiy tengsizlikka erkinlik va huquqlar tengligini qarshi qo'yadi. Xalq irodasining suverenligi va bo'linmasligini targ'ib qilgan. Iroda (ehtiyoj, talab-istaklarni) aniqlash uchun doimiy amal qiluvchi plebissit (umumxalq so'rovi) kiritishni, xususiy mulkni fuqarolar o'rtasida taqsimlashni taklif etadi.

Amerika ma'rifatparvarlari - T.Jefferson (1743- 1826), T.Peyn (1737 - 1809), A. Gamilton (1754 - 1804), J.Medison (1751 - 1836) ning siyosiy qarashlari jahon siyosiy fikri tarixida yorqin sahifani tashkil etadi. Bu qarashlar Amerika xalqining mustaqillik, erkinlik va demokratiya uchun olib borgan kurashi bilan chambarchas bog'liqdir.

Amerika ma'rifatparvarlari tomonidan asoslab berilgan - kuchli demokratik federativ respublika qurilishi tamoyillari, shaxsning fuqarolik huquqlari va erkinliklari, hokimiyatning vakillik shakli haqidagi g'oyalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Aynan shu g'oyalar "Mustaqillik deklaratsiyasi" (1776) va Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasi (1787) ning asosi qilib olindi. Aynan shu g'oyalar amerika xalqi siyosiy ongi va siyosiy madaniyatining rivojlanishiga hamda AQSH davlatchiligining qaror topishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

"XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Yevropada siyosat, davlat va huquqni ularning barcha ijtimoiy aloqalari nuqtai nazaridan o'rganuvchi sotsiologik yondashuv keng rivojlandi. Ko'plab siyosiy ta'limotlar vujudga keldi. Jumladan, italiyalik faylasuflar G.Moska (1856- 1941) va V. Pareto (1848 - 1923) elitalar nazariyasini ishlab chiqishdi. Ularning fikricha, siyosat "ikki qarama-qarshi sinf kurashi sohasi" bo'lib, ulardan biri - hokimlik qiluvchi ozchilik (elita) va itoatdagi ko'pchilikdir.

Bu nazariyaning ahamiyati shundaki, siyosat subyektlarining hokimiyatga ta'sirini oddiy, bir xil, deb tushunishdan siyosiy jarayondagi raqobat, qatlamlarga bo'linish, turli guruhlar ta'siri turlichaligini anglashga o'tildi. G'arb siyosiy fanida texnokratiya ta'limotlari keng tarqaldi.

Jumladan, «ilmiy boshqariladigan jamiyat» (G.Saymon) «postidustrial jamiyat» (D.Bell), «Texnotron jamiyat» (3.Bjezinskiy) - nazariyalari hozirgi taraqqiyot va dunyoning umuminsoniy muammolarini (ekologik, energetik, oziq-ovqat, urush, demografik) yechishning yagona yo'li, deb tavsiya etiladi.

G'arb siyosiy fanining asoschilaridan biri - Maks Veber (1864 - 1920) dir. U siyosiy qarashlariga ko'ra liberalizm tarafdoridir. Veber legitim hokimiyat turlari to'g'risidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Unga ko'ra, hokimlik - muayyan buyruqqa itoat ettira olish imkoniyatini anglatadi va demak, buyruq berganning buyruqqa bo'ysunishlarini hamda itoat etayotganlarning buyruq qonuniy va adolatli ekanligiga ishonch hosil qilish uchun o'zaro kutishlarini bildiradi. Veber itoat sabablaridan uchta asosida hukmronlik (hokimiyatning) uch sof turini ajratib ko'rsatadi.

Hukmronlikning birinchi turi - ochiq, "qonuniy" hukmronlikdir. Uning jumlasiga hozirgi G'arb davlatlari kiradi. Ularda, Veber fikricha, shaxslarga emas, balki qonunlarga bo'ysunishadi. Boshqaruv apparati maxsus o'rgatilgan amaldorlardan iborat. Ular oldiga qo'yiladigan talab - formal qonun asosida shaxslarga qaramay faoliyat ko'rsatish. Boshqacha qilib aytganda, qonuniy hukmronlik (hokimiyat) o'z nomi bilan formal - qonunlarga asoslanadi.

Legitim hokimiyatning ikkinchi turini Veber an'anaviy deb ataydi. U mavjud siyosiy tartib va hokimiyatning nafaqat qonuniyligi, balki muqaddasligiga bo'lgan ishonchga asoslanadi. Bunday hukmronlikning eng toza ko'rinishi, Veber fikricha, patriarxal hukmronlikdir. Veber uni tuzilishiga ko'ra oilaga o'xshatadi. Bu o'xshashlik hokimiyatning ushbu turini mustahkam va barqarorligini ta'minlaydi. Bu yerda lavozimga tayinlashda intizom yoki o'z sohasidan yaxshi xabardorlikdan ko'ra, shaxsiy sadoqat muhim xislat hisoblanadi. Imtiyozlar ham erkin taqsimlanadi.

Hukmronlikning uchinchi turi xarizmatik hokimiyatdir. Veber qarashlarida xarizma (yunoncha - ilohiy qobiliyat) tushunchasi muhim o'rin tutadi. Xarizma - individni boshqa odamlardan ajratib turuvchi, Olloh in'om etgan ajoyib qobiliyatdir. Veber xarizmatik sifatlarga sehrgarlikni, bashorat qila olish qobiliyati, ruh va so'zning misli ko'rilmagan kuchini kiritgan. Xarizmaga qahramonlar, buyuk lashkarboshilar, sehrgarlar, bashoratchilar, buyuk rassomlar, siyosatchilar egadirlar. Hukmronlikning xarizmatik turi an'anaviy hukmronlikning tamoman to'liq aksidir. An'anaviy hokimiyat an'ana, odatga bog'langan bo'lsa, xarizmatik hokimiyat, aksincha, shu paytgacha tan olinmagan narsalar, g'ayritabiiylikka asoslanadi.

Veber xarizmani an'anaviy jamiyatlarning o'sish, o'zgarishdan mahrum bo'lgan tarkibiga o'zgarishlar kiritishga qodir, buyuk inqilobiy kuch, deb qaraydi.

An'anaviy va xarizmatik hokimiyat o'rtasida ma'lum umumiylik ham mavjud: unisi ham, bunisi ham hukmdor va tobe shaxslar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlarga asoslangan. Bu o'rinda har ikkalasi birinchi tur hokimiyatga shaxssiz bo'lgani uchun qarama-qarshi turadi. Xarizmatik yetakchiga shaxsiy sadoqat manbai asosida an'ana yoki uning hokimiyatga rasmiy huquqini tan olish emas, balki uning ilohiy qobiliyatiga ishonch yotadi. Shuning uchun legitimlikning xarizmatik prinsipi avtoritar bo'ladi, ya'ni shaxsning kuchiga asoslangan bo'ladi.

G'arbiy Yevropa siyosiy fikri rivojiga yana bir qator olimlarning hissasi sezilarli bo'lgan. Frantsuz sotsiologi E.Dyurkgeym (1858 - 1917) siyosiy fandagi tarkibiy funksionalizm metodologiyasi asoschisi hisoblanadi. Ruhshunoslik ta'sirida siyosiy fanlarda vujudga kelgan yangi metodologik oqim - bixeviorizmning ko'zga ko'ringan vakili - amerikalik olim G.Lassuell (1902 - 1978) dir. Hozirgi zamon siyosiy fani, shuningdek, freydizmning kuchli ta'sirini his etadi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyoda milliy siyosiy fikr Ahmad Donish (1827 - 1897), Berdaq (1827- 1900), Furqat (1858 - 1909), Muqimiy (1850 - 1903), Zavqiy (1853 - 1921) singari ma'rifatparvarlar tomonidan rivojlantirildi. Ular o'z asarlarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining amal qilish tajribasini oqilona-tanqidiy tahlil qildilar.

Ma'rifatparvarlar o'lkadagi mavjud milliy siyosiy tartibotlarning tabiatini anglash va tushuntirishga intildilar. Ular mazkur tartibotlarning qoloq, qaram, tarqoq tizim ekanligini, xalq boshiga kulfat, mamlakatni vayronalikka olib kelganligini ko'rsatib berdilar.

Ma'rifatparvarlar o'z asarlarida o'lkadagi mavjud siyosiy tartibotlarni shunchaki tanqid qilish bilan cheklanib qolmadilar. Ular ushbu siyosiy tartibotlarning qoloqligi, qaramligi sabablarini tinmay izladilar.

Ma'rifatparvarlarning fikricha, mamlakat qoloqligi, xalqning qashshoqlikda yashashining sababi - amirlar, xonlar, beklar va hokimlarning nodonligi va johilligi, xalq taqdiriga beparvoligi, ilm-fan va ma'rifatning yo'qligidir. Shu boisdan ham, ular mamlakatdagi nodonlik va johillikka, zulm va zo'ravonlikka asoslangan siyosiy tartibotni tugatish va ilm-fan va fozillikka, ziyo va ma'rifatga asoslangan siyosiy tartibotni o'rnatish g'oyasini ilgari surdilar.

XX asrning boshlarida O'zbekistonda siyosiy fikrning rivoji jadidlar (M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Qodiriy, Cho'lpon, Munavvar Qori va boshqalar) ning faoliyati bilan bog'liqdir. Ularning asarlarida o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning dolzarb muammolari chuqur o'rganiladi va umumlashtiriladi. Xususan, o'lkadagi idora usuli, mustamlakachilik, adolatsizlik oqibatlari keskin tanqid qilinadi, uning mustaqil yo'li, Yevropacha idora usuli va uni mamlakatda tadbiq qilish haqida jiddiy fikr-mulohazalar bildiriladi.

A.Fitrat, M.Behbudiy Buxoroning idora, ta'lim-tarbiya usulini qattiq tanqid ostiga oladi va uni yangilash yo'llarini tinimsiz izlaydi. Jadidchilarning bir guruhi maorif ma'rifatni ko'tarish orqali xalq ahvolini yaxshilashga intilishsa, ikkinchi guruhi esa davlat tuzilishini isloh qilish, uni yangi asosda qayta ko'rish orqaligina xalq va yurt ahvolini o'nglash mumkin, degan siyosiy yo'ldan yurishga intiladi. Bunday fikr va mulohazalar o'sha davr siyosiy fikrida muhim yangilik edi.

Umuman XX asr boshida O'zbekistonda siyosiy fikrning rivojlanishini jadidlarning asarlarisiz, ehtirosli maqolalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularning siyosiy fikr taraqqiyotiga qo'shgan hissalari zalvorlidir.

O'zbekistonda siyosiy fikrning rivojlanishi sobiq sho'ro tuzumi davrida qattiq zarbaga uchradi. Siyosiy fanga burjua fani deb tamg'a bosilishi uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga kirishi bilan siyosiy fanga munosabat tubdan o'zgardi. Bu fan jamiyat fanlari tizimida o'z o'rnini topdi.

Hozirgi O'zbekistonda zamonaviy siyosiy fanning vujudga kelishi va rivojlanishi taniqli davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov (1938) ning nomi bilan bog'liqdir. Uning "O'zbekiston o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li", "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida", "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", "Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz" va boshqa o'nlab asarlarida siyosiy fanning dolzarb masalalari tadqiq qilingan. Bu asarlar mamlakatimiz siyosiy tafakkuri tarixida yangi sahifani tashkil etadi.

Mazkur asarlarda eng avvalo, siyosiy fanning tushunchalari umuman, mavhum va notarixiy holda emas, balki aniq zamon va makonda, ya'ni O'zbekiston zaminida yaxlit va bir butunligicha tadqiq va tahlil etilgan, hamda, ularning o'ziga xos, milliy xususiyatlari aniq-ravshan echib berilgan.

Ikkinchidan, O'zbekistondagi sobiq sho'ro siyosiy tizimining sohta, «xalqparvar» qiyofasi emas, balki haqiqiy qiyofasi ko'rsatib berilgan. Bu tizimning insonga, halqqa qarshi totalitar tabiati faktlar asosida butunlay o'chirib tashlangan.

Uchinchidan, O'zbekistonning xohish-istaklar, hom-hayollar va taxminlarga asoslangan, xilma-xil niqoblarga o'ralgan, bo'yoqlarga bezalgan totalitar taraqqiyot yo'li emas, balki uning real shart-sharoitini, asriy an'ana, urf-odatlarini, ilg'or mamlakatlarning siyosiy tizimlarini chuqur va batafsil o'rganishga asoslangan demokratik taraqqiyot yo'li olg'a surilgan.

To'rtinchidan, O'zbekistonda demokratiyaga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari har tomonlama hisobga olingan, iqtisodiy islohotlarga, davlatning boshqaruv sohasidagi roliga, qonunning ustuvorligiga, ijtimoiy siyosatga alohida e'tibor qaratilgan.

Beshinchidan, O'zbekistonda demokratiyaga o'ishning ibtidoiy yo'li – inqilobiy yo'li emas, balki zamonaviy yo'l- evolyutsion yo'li tanlab olingan.

Xullas, Prezident I.A.Karimovning milliy siyosiy fanning vujudga kelishi va rivojlanishidagi xizmatlari beqiyosdir. Uning demokratik taraqqiyotda O'zbek modelining asoschisi, deb dunyoda tan olinishi bejiz emas.

Mazkur modelning O'zbekiston uchun amaliy ahamiyati g'oyat ulkandir. Bu model demokratik islohotlar siyosatining manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

SAVOLLAR

1. Davlatning mohiyati haqidagi tasdiqlardan qaysi biri haqiqatga yaqinroq:
 - a) "davlatning boyligi adolatdir, ya'ni umum foydasiga xizmat qilishdir" (Arastu);
 - b) "zaif xalq - demak, kuchli davlat, kuchli davlat demak, zaif xalq. Xalqni zaiflashtirish, demakki, davlatning bosh vazifasidir..." (Xitoy faylasufi Shan Yan)?
2. Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni va roli buyukdir. Uning siyosiy fan tarixida tutgan o'rni va rolini qanday baholash mumkin? Javobingizni asoslang.
3. Jadidlarning asarlarida qanday umuminsoniy va milliy g'oyalar o'rin olgan?

II BO'LIM. SIYOSAT OB'YEKTIV VOQEILIK SIFATIDA

IV BOB. SIYOSAT - IJTIMOY HODISA

Siyosat nazariyasini o'rganish eng avvalo siyosat tushunchasini, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va funksiyalari, tuzilishi, vositalari va usullarini aniq tasavvur qilishni taqozo etadi. Bu masalalarning ma'no-mazmunini chuqur va har tomonlama anglamay turib, oldimizga qo'ygan maqsadga erishish, kursni o'rganish mushkuldir. Shuning uchun ham biz mazkur bobda siyosat tushunchasining ma'no-mazmunini, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va funksiyalarini, tuzilishini, vositalari va usullarini ochib berishga urinib ko'ramiz.

4.1. Siyosat tushunchasi

Xo'sh, siyosat nima? U boshqa ijtimoiy hodisalardan qanday farq qiladi? Siyosat - murakkab ijtimoiy hodisadir. Uning tabiati va mazmunini ochib berish oson ish emas. U ilmiy adabiyotlarda ham keng, ham tor ma'noda ishlatiladi.

Keng ma'noda kishilar ko'pincha har qanday maqsadga muvofiq ijtimoiy faoliyatni siyosat deb atashadi. -5y tushuncha u yoki bu jarayonni boshqarish bilan aynanlashtiriladi. M.Veber o'zining mashhur "Siyosat ham mayl, ham kasb sifatida" maqolasida shunday deb yozadi: "Siyosat deganda biz nimani tushunamiz? Bu tushuncha nihoyatda keng ma'noga ega va mustaqil boshqaruvga doir faoliyatning barcha ko'rinishlarini o'z ichiga oladi. Banklarning valyuta siyosati, kasaba uyushmasining ish tashlash vaqtidagi siyosati to'g'risida gapiriladi, shahar yoki qishloq jamoasining maktablarga oid siyosati, korporatsiya, rahbarining boshqaruv siyosati va nihoyat, hatto o'z erini boshqarishga intilayotgan aqlli xotin siyosati haqida gapirish mumkin".

Siyosat tushunchasi ko'pincha tor va tom ma'noda ishlatiladi. Bu holda u jamiyatning mustaqil sohalaridan birini, ya'ni, iqtisodiyot va madaniyat bilan bir qatorda bo'lgan sohani belgilash uchun foydalaniladi.

Tor ma'noda siyosat davlat hokimiyati idoralari, siyosiy partiyalar, manfaat guruhlarining mamlakatda tinchlik-totuvlikni, ijtimoiy barqarorlikni, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatini anglatadi. Bu tushuncha davlatlarning, turli siyosiy kuchlarning, tashkilotlarning xalqaro maydondagi xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatini ham o'z ichiga oladi.

Ilmiy adabiyotlarda siyosatning turli-tuman ta'riflari, talqinlari mavjuddir. Bu ilmiy ta'riflarni, asosan, uchta guruhga: sotsiologik, substansional va faollik guruhlariga bo'lish mumkin.

Siyosatning sotsiologik ta'riflari sotsiologik yondashuvga asoslanadi. Ularda siyosat boshqa ijtimoiy hodisalar: iqtisodiyot, ijtimoiy guruhlar, huquq, axloq, madaniyat, din orqali tavsiflanadi.

Siyosatning iqtisodiy ta'riflari siyosatni iqtisodiy bazis ustidagi ustqurma, iqtisod ehtiyojlari, manfaatlarining jamlangan ifodasi sifatida tavsiflaydi. Bu holatda siyosat ijtimoiy hayotning o'ziga xos sohasi sifatida o'zining mustaqilligidan mahrum bo'ladi. Faqat nisbiy, cheklangan mustaqilligini saqlab qoladi. Umuman, siyosatning mazmuni uning subyektlari irodasiga bog'liq bo'lmagan obyektiv iqtisodiy qonunlar bilan belgilanadi. Siyosatni iqtisodiy determinizm nuqtai nazarida ta'riflashda faqat uning muhim manbalaridan biriga e'tibor qaratiladi. Bu konsepsiyalar, odatda, siyosatga iqtisodiy ehtiyojlarning ta'sirini haddan ziyod bo'rttiradi, mutlaqlashtiradi, uning mustaqilligini yetarli baholamaydi.

Siyosatni sotsiologik ta'riflashning muhim tarkibiy qismlaridan biri - stratifikatsiya talqinlaridir. Bunda siyosat muayyan ijtimoiy guruhlar: sinflar va millatlarning (marksizm) yoki manfaatdor guruhlarining (A. Bentli, D.Trumen va boshqalar) raqobati sifatida talqin etiladi. Sinflar o'rtasidagi kurash sifatidagi siyosatning markscha talqini hozirgi dunyoda ko'p jihatdan o'zining ta'sirini yo'qotgan bo'lsa-da, manfaatli guruhlar nazariyasi esa keng tarqalgandir. Jumladan, u hozirgi ilg'or, mamlakatlarda siyosatni ijtimoiy manfaatlarining balansini, muvozanatini ta'minlovchi turli-tuman manfaatdor guruhlar raqobati sifatida talqin etuvchi demokratiyaning pluralistik konsepsiyalarida o'z ifodasini topgandir.

Siyosiy fikrning rivojlanishi tarixida, shu jumladan hozirgi zamon nazariyotchilarining asarlarida siyosatning huquqiy konsepsiyalari keng o'rin olgan. Ular siyosatni, davlatni huquqdan, avvalambor, ommaviy huquq, davlat qonunlari va faoliyatining asosida yotuvchi insonning tabiiy huquqlaridan kelib chiqadigan hodisa, deb hisoblaydilar. Siyosatning huquqiy konsepsiyasi Spinoza, Goobs, Lokk, Russo, Kant kabi ko'zga ko'ringan mutafakkirlar tomonidan asoslab berilgan ijtimoiy shartnoma nazariyalari yaqqol misol bo'la oladi. Bu nazariyalarning ma'nosi siyosatni, avvalo, davlatni har bir insonga tug'ilgandan xos bo'lgan fundamental huquqlar: yashash, erkinlik, xavfsiz bo'lish, mulkka egalik qilish va boshqalarni muhofaza qiluvchi maxsus faoliyat sifatida talqin etishdan iboratdir.

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida siyosatning huquqiy konsepsiyalariga qarama-qarshi bo'lgan nazariyalar ham keng o'rin olgandir. Ular huquqni siyosatning mahsuli, uni amalga oshirishning muhim vositasi, barqaror ijtimoiy-siyosiy tartibni o'rgatishning instrumenti sifatida olib qaraydilar. Huquq davlat tomonidan yaratiladi va siyosiy irodaga va davlat tomonidan maqsadga muvofiqligiga asoslanadi.

Siyosatning huquqiy talqini, uning axloqiy ta'rifiga bevosita qo'shilib ketadi. Bu tabiiy huquqning davlatga qadar inson hamjamiyatining axloqiy prinsiplari shaklida yashashni tan oluvchi konsepsiyalarida yaqqol ko'rinadi. Umuman, siyosatning me'yoriy ta'riflari uning sotsiologik talqin etishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ularda qo'llaniladigan me'yoriy yondashuv siyosatni ideallardan, qadriyatlardan, u amalga oshirishi zarur bo'lgan maqsad va me'yorlardan kelib chiqqan holda ko'rib chiqishni taqazo etadi. Bu nuqtai nazardan tahlil etilganda, siyosat – umumiy farovonlikka erishishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatdan iboratdir. Uning oliy qadriyati-adolat, tinchlik, erkinlik va umumiy farovonlikka xizmat qilishdir, me'yorlari unga erishishga olib boruvchi aniq qoidalar, qonunlardir.

Siyosatning me'yoriy talqini qadimdan paydo bo'lgan. Qadimgi dunyoning buyuk mutafakkiri Arastu siyosatni inson faoliyatining oliy shakli, deb hisoblagan edi. Chunki, bu orqali kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda adolat qaror topadi, jamiyatning va har bir kishining farovonligiga erishiladi. "Adolat, - deb yozgan. edi u, faqat siyosiy hayotda o'z o'rniga ega bo'ladi, chunki, siyosiy tuzumning barchasi huquqqa borib taqaladi".

Siyosatning me'yoriy talqinlari ham kuchli, ham zaif tomonlariga egadir. Ularning kuchli tomoni, qadr-qimmati shundaki, siyosatda ko'rinishi lozim bo'lgan insonparvarlik ideali o'z ifodasini topadi. Bunday ideal siyoat ishtirokchilarini ijtimoiy foydali xulq-atvorga yo'naltiradi. Shu bilan birga, me'yoriy yondashish ko'p qirrali, har doim ham aniq bo'lmagan ijtimoiy farovonlikni turli talqin qilish imkoniyatiga yo'l qo'yadigan kategoriyalar bilan ish ko'radi. Shu bilan turli siyosiy kuchlarning g'arazli manfaatlarini niqoblash uchun zamin yaratadi.

Ushbu yondashuvning zaifligi siyosatni umumiy farovonlikka erishish faoliyati sifatida tushunish va siyosatda g'arazli qarashlar keng tarqalganligi haqida guvohlik beruvchi voqelikda

katta tafovutlar mavjudligida ham ko‘rinadi. Bundan tashqari, umumiy farovonlikni ta‘minlash bo‘yicha harakatlarning barchasi ham siyosiy bo‘lavermaydi. Ko‘p kishilar ijtimoiy foydali, olijanob ishlarni axloqiy yoki diniy sabablar (motivlar) asosida amalga oshiradilar.

Ta‘kidlangan kamchiliklarga qaramasdan, me‘yoriy yondashuv siyosatning muhim jihatini ifoda etishi bilan yashashga to‘la haqlidir. Unda kishilarning siyosatni ma‘rifiylashtirish, insoniylashtirish, oqillashtirishga, unga axloqiy asosni kiritishga intilishi ifodalanadi.

Me‘yoriy talqinlarda siyosatga axloqiy, ma‘rifiy, diniy qadriyatlarining ta‘sir etishi aks etadi. Shuning uchun ham, siyosatning me‘yoriy ta‘riflari iqtisodiy, stratifikatsion va huquqiy ta‘riflari bilan bir qatorda uning sotsiologik talqinlari guruhiga kiradi.

Siyosat ta‘riflarining ikkinchi keng tarqalgan guruhi - substantSIONal ta‘riflardir. Bu ta‘riflar, siyosatning qanday, birinchi asoslardan, to‘qimalardan tashkil topganligini ochib berishga mo‘ljallaniladi. Ta‘riflarning bu guruhida siyosatning bir nechta talqinlari mavjud. Ulardan eng ko‘p tarqalgani - bu siyosatni hokimiyatga: uni egallash, qo‘lda ushlab turish va qo‘llashga qaratilgan harakatlar sifatida talqin qilishdir. Siyosat, bu "hokimiyatda ishtirok etishga yoki hokimiyatning davlatlar o‘rtasidami, davlat ichidagi kishilar guruhlar o‘rtasidami taqsimlanishiga ta‘sir ko‘rsatishga intilishdir" - deb yozgan edi M.Veber.

Siyosatga "hokimiyatiy" yondashuv tarafdorlarining ayrimlari o‘zlarining diqqat - e‘tiborini hokimiyat uchun kurash va uni qo‘llash san‘ati, texnikasi, usullari va vositalariga qaratadilar. Siyosiy fan asoschilaridan biri N.Makiavelli 1515 yildayoq siyosatni hokimiyatga kelish, hokimiyatda turish va uni qo‘llash uchun zarur bo‘lgan vositalar yig‘indisi sifatida tavsiflagan edi.

Siyosatning "hokimiyatiy" ta‘riflari uning mohiyatini, muhim yaratuvchilik sifatini aks ettiradi. Bu ta‘riflar muassasaviy ta‘riflar yordamida aniqlashtiriladi va to‘ldiriladi.

Muassasaviy ta‘riflar siyosatni hokimiyat gavdalanadigan, moddiylashadigan, tashkilotlar, institutlar orqali, avvalambor, asosiy siyosiy institut - davlat orqali tavsiflaydi. Siyosat bu holda davlat ishlarida ishtirok etish, davlatning yo‘nalishi, davlat faoliyatining mazmuni, vazifalari, shakllarini, aniqlash bo‘lib ko‘rinadi.

Agar siyosatning "hokimlik" va muassasaviy talqinlari uning asoslarini hokimiyatda va uning tashuvchilarini tashkilotlarda ko‘rsatsalar, antropologik ta‘riflar esa uning inson tabiatida ildiz otgan chuqurroq manbalarini aks ettirishga urinadilar. Bu nuqtai nazardan, siyosat-kishilarning muomala shakli, insonning jamoa bo‘lib yashash usulidir. Siyosatni antropologik tushunish Arastu tomonidan asoslangan edi. U inson - siyosiy mavjudot, chunki u - jamoaviy mavjudotdir, deb hisoblagan edi. Insonning odatdagi hayoti, uning xilma-xil ehtiyojlarni qondirishi va baxtga erishishi faqat boshqa kishilar bilan muomalada bo‘lgandagina mumkin bo‘ladi. Bunday muomalaning oliy shakli bo‘lib siyosat maydoniga chiqadi. Uning siyosatga qadar bo‘lgan muomala afzalligi shundan iboratki, u davlatda adolat, barcha fuqarolarga bir xil munosabatni gavdalanitiruvchi huquq normalari bo‘yicha erkin va teng huquqli kishilarning muomalasidir.

Siyosatning antropologik talqinlari uning ixtilof-konsensus ta‘riflari bilan yanada boyitiladi va to‘ldiriladi. Taniqli fransuz siyosatshunosi Moris Dyuverjening fikricha, siyosiy nazariya siyosatning dramatik qarama-qarshi turuvchi talqini o‘rtasida ikkiga bo‘linadi. Birinchisiga binoan, siyosat-ixtilofdir, kurashdir. Unda kim hokimiyatga ega bo‘lsa, o‘sha o‘ziga jamiyat ustidan nazorat qilish va boyliklarni o‘zlashtirishni ta‘min etadi. Boshqa nuqtai nazarga binoan siyosat - tartibni boshqarishni va adolatni amalga oshirishga urinishdan iborat bo‘lib, barcha fuqarolarning hamjamiyatga birlashishini ta‘minlashni anglatadi.

Siyosatning ixtilofli ta‘riflarida asosiy e‘tibor siyosatning negizida yotuvchi ziddiyatlarga qaratiladi, uning dinamikasini belgilaydi. Bunday ziddiyatlar nuqtai nazaridan qaralganda, siyosat - ixtiloflarni kuch ishlatish va tinch yo‘l bilan hal etish faoliyati sifatida talqin etiladi. Siyosatga umumiy rang-tasvirni ixtilof bersa-da, u, odatda, muayyan konsensusiz, undagi ishtirokchilarning ijtimoiy tartibdan, hokimiyatning qonuniyligini tan olish va qonunga itoat etish zarurligidan, umumiy manfaatdorligiga asoslangan kelishuvsiz mumkin bo‘lmaydi.

Demokratik davlatda siyosat subyektlarini birlashtiruvchi omil - konsensusning roli benihoya muhimdir. Bunda nizolarni to'xtatish va hal etish fuqarolarning aksariyat ko'pchiligi tomonidan shaxs erkinligi, inson huquqlari, ko'pchilikning irodasi hamda ozchilikning o'z mustaqil fikriga ega bo'lish huquqi kabi umuminsoniy qadriyatlarni tan olish asosida amalga oshiriladi. Taniqli amerika siyosatshunosi S.F. Xantingtonning ta'kidlashicha, ijtimoiy ixtiloflar bo'lmagan joyda siyosat bo'lmaydi, ijtimoiy konsensus, ijtimoiy uyg'unlik yo'q joyda esa, siyosiy institutlar mumkin bo'lmaydi.

Siyosat ijtimoiy ziddiyatlarning "zichlashtirilishi", ularni "do'stlar" - "dushmanlar" munosabatlari sifatida anglash natijasida paydo bo'ladi. Dushman - ushbu subyektga yoki uning manfaatlariga xavf soluvchi qandaydir "begona", do'st esa - bu maqsadga erishishda ittifoqchi, yordamchidir.

Siyosatning dinamik, protsessual xarakterini uning faoliyatga oid ta'riflari ochib beradi. Ular siyosatni butun jamiyat uchun majburiy bo'lgan qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Siyosatning bunday talqini uni amalga oshirishning muhim bosqichlarini tahlil etish imkonini beradi. Bu bosqichlarga quyidagilar kiradi: siyosatning maqsadini aniqlash; qarorlar qabul qilish; ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun ommani tashkil etish va resurslarni safarbar etish; siyosiy faoliyatni tartibga solish; ularni nazorat qilish; olingan natijalarni tahlil qilish va siyosatning yangi maqsadlarini aniqlash.

Siyosatning faoliyatiga oid talqinlar, xususan, siyosiy qarorlar nazariyasida keng qo'llaniladi. Undan siyosatning teleologik talqinlarida ham foydalaniladi. Bunda siyosat jamoa maqsadlariga samarali erishish faoliyati sifatida qaraladi. Amerika sotsiologiyasining asoschilaridan biri T.Parsons yozishicha, siyosat - yalpi tizimning muayyan elementlari, umumiy maqsadlarga erishishi uchun samarali tashkiliy usullar yig'indisidan iboratdir.

Siyosatning teleologik ta'riflarida uning ikkala asosi: faoliyatning jamoaviy tabiati va ongli, maqsadga muvofiqlik xarakteri alohida ta'kidlanadi. Siyosatda individlarning xususiy maqsadlari umumdavlat maqsadlari darajasiga "o'sadi", ko'tariladi.

Siyosatning teleologik ta'riflari jamiyatni tizimli tahlil etish doirasida keng foydalaniladi. Tizimli nuqtai nazar bo'yicha, siyosat yaxlit, atrof-muhitdan, jamiyatning boshqa sohalaridan chegaralangan, u bilan uzluksiz o'zaro aloqada bo'lgan nisbiy mustaqil tizim, murakkab ijtimoiy organizm hisoblanadi. Siyosiy tizim jamiyatning yashashi va taraqqiyoti to'g'risida g'amxo'rlik qiladi va bir qator ijtimoiy ehtiyojlarni qondiradi, ulardan eng muhimi - jamiyatni birlashtirishdir.

Shunday qilib, biz siyosatning ayrim muhim ta'riflarini ko'rib chiqdik.

Biroq, siyosatning ta'riflari faqat ana shular bilan cheklanmaydi. Uning ta'riflari boy va xilma-xildir. Buni siyosatning ijtimoiy hodisa sifatida murakkabligi, mazmunining boyligi, ijtimoiy funksiyalarning xilma-xilligi bilan tushuntirish mumkin.

Siyosatning turli ta'riflari va talqinlarini umumlashtirib, uni quyidagicha ta'riflash mumkin. Siyosat - bu ijtimoiy guruhlar va insonning ziddiyatli jamoa manfaatlarini anglash, butun jamiyat uchun majburiy bo'lgan qarorlarni ishlab chiqish va ularni davlat hokimiyati yordamida amalga oshirish faoliyatidir.

4.2.Siyosatning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va funksiyalari

Siyosat tushunchasini mukammal o'rganish uchun uning yuqorida keltirilgan umumiy ta'rifi bilan cheklanib bo'lmaydi. Buning uchun, siyosatning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va funksiyalarini ko'rib chiqish juda muhimdir.

Siyosatning ijtimoiy tabiati, funksiyalari haqida jahon ijtimoiy-siyosiy fikrida xilma-xil qarashlar mavjud. Ulardan eng muhimlari - totalitar, anarxistik, liberal va keynsian qarashlardir.

Siyosatning totalitar konsepsiyalari siyosatning jamiyatga ta'siri masalasida barcha cheklashlarni olib tashlaydi, jamiyatning keng qamrovli total siyosatlashuvidan, iqtisodiyot, madaniyatni, fanni va boshqa sohalarini boshqarishdan kelib chiqadi. Totalitar andozalarda siyosat jamiyatning barcha sohalarini bevosita boshqardi, fuqarolik jamiyatini, shaxsiy hayotning mustaqilligini, erkinligini amalda yo'qqa chiqardi. Siyosatning anarxistik konsepsiyalari totalitar

konsepsiyalariga qarama-qarshidir. Ular siyosatni, har qanday uyushgan hokimiyatni zo'ravonlik, shaxsning poymol etilishi bilan bir narsadir, deb biladi va uni o'z-o'zini boshqarish-assotsiatsiyasidan erkin chiqishni ta'minlaydigan, erkin suveren kishilarning pastdan yuqorigacha ko'ngilli birlashmalari bilan almashtirishga intiladilar.

XIX asrda keng tarqalgan anarxizm o'z g'oyalarini amalga oshirish mumkin ekanligini isbot qilolmasdan, keyingi yillarda jamiyatning intellektual va siyosiy hayotidagi muhim ta'siridan mahrum bo'ldi.

Siyosatning tabiati va uning jamiyatga ta'siri bo'yicha totalitarizm va anarxizmga nisbatan mo'tadilroq nuqtai nazarda liberalizm va qiyinchilik turadi. Mumtoz liberalizm ijtimoiy tizimni davlatga va davlat tomonidan nazorat qilinmaydigan xususiy, iqtisodiy, madaniy, oilaviy, diniy, shu jumladan, siyosiy hayot-fuqarolik jamiyatiga bo'ladi.

Davlat - muayyan, cheklangan maqsadlarni bajarish uchun ijtimoiy tartibni muhofaza qilish, xavfsizlikni, erkinlikni va shaxsning boshqa fundamental huquqlarini kafolatlash hamda kishilarning xo'jalik yuritishi va muomala qilishiga qulay shart-sharoitlarni ta'minlash uchun yaratiladi. U fuqarolik jamiyati ishlariga bevosita aralashmaydi va "tungi qorovul" - shaxsiy va ijtimoiy xavfsizlik va ijtimoiy tartib qo'riqchisi rolini ado etadi. Siyosatning jamiyatni qamrab olish doirasi cheklanadi. U fuqarolik jamiyati ishlarini qamray olmaydi.

Davlat va siyosat vazifalarining cheklanishi, har qanday davlatning vazifasi faqat erkinlikni ta'minlash va individni jismoniy zo'ravonlikdan himoya qilishdir, deb hisoblovchi liberalizmda yanada ko'proq kuchaytiriladi.

Xo'sh, XIX asrlarda G'arbda hukmronlik qilgan liberal qarashlar XX asrning 30-yillarida D.M.Keyns tomonidan qayta ko'rib chiqildi va uning qarashlari keynschilik deb nom oldi. Bu konsepsiyaning ma'nosi kapitalizmga o'z-o'zini tartibga soluvchi jamiyat sifatida mumtoz liberal qarashlardan voz kechish va butun ijtimoiy tizimning, uning barcha elementlarining farovonligi uchun mas'uliyatni hukumatning o'z zimmasiga olishi zarurligini asoslab berishdan iboratdir. Bu, o'z navbatida, davlatning iqtisodiyot, ijtimoiy ta'minot sohasi, ish bilan bandlik, mehnat va ijtimoiy munosabatlarga aralashishini taqozo etadi. Keyinscha qarashlarda siyosatning ijtimoiy hayotdagi o'rni va rolga katta ahamiyat beriladi. Bu qarashlar hozirgi kunda rivojlangan demokratik davlatlar siyosatining nazariy negizi bo'lib xizmat qiladi.

Xo'sh, siyosat ijtimoiy hayotda qanday o'rin tutadi? Uning maqsadi va funksiyalari nimalardan iborat? Endi ushbu masalalar ustida batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Siyosat - jamiyatning asosiy sohalaridan biri hisoblanadi. U ijtimoiy hayotida tutgan o'rni va rolga ko'ra iqtisodiy va ma'naviy sohalariga ko'p jihatdan o'xshashdir.

Siyosat jamiyatning boshqa sohaları singari xalq manfaatlarini himoya qiladi. U ham xalqqa, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Biroq, siyosat - jamiyatning o'ziga xos, mustaqil sohasidir. U o'zining ijtimoiy hayotda tutgan o'rniga ko'ra, iqtisodiy va ma'naviy sohalaridan farq qiladi.

Siyosat - jamiyatning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarini ishlab chiqaruvchi soha emas, balki uning birligi va yaxlitligi, xavfsizligi va barqarorligi, tinch-totuvligi va osoyishtaligini ta'minlovchi sohadir. Bu sohada xo'jalik va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan emas, balki ijtimoiy hayotni boshqarish, tartibga solish, xavfsizlikni ta'minlash masalalari bilan shug'ullaniladi.

Siyosat jamiyatni boshqarish, tartibga solish va mustahkamlash uchun uning barcha sohalariga; ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviyatga chuqur kirib boradi va ta'sir o'tkazadi. Jamiyatning siyosat kirib bormaydigan va ta'sir o'tkazmaydigan birona ham sohasi yo'q. Uning beistisno hamma sohaları siyosat obyekti bo'la oladi. Siyosatning iqtisodiy va ma'naviy sohalaridan farq qiladigan xususiyatlaridan biri ana shundandir.

Siyosat - jamiyatning ijtimoiy muammolariga chuqur kirib boruvchi, ta'sir o'tkazuvchi va ularni hal etuvchi sohadir. Bu sohada barcha ijtimoiy guruhlar, qatlamlar uchun belgilovchi ahamiyatga ega bo'lgan, to'g'ri va oqilona yo'lni ko'rsatib beradigan qarorlar ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Siyosat jamiyatning ijtimoiy sohasini boshqarish, tartibga solib turish bilan cheklanib qolmaydi. U iqtisodiyotni tartibga solish va yuksaltirishga, eski xo‘jalik yuritish tizimi o‘rniga yangi xo‘jalik yuritish tizimi qaror topishiga doir tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Agar u iqtisodiyotdan ustun tursa, uning yig‘ilib qolgan muammolarini hal etishdan bosh tortsa, o‘zining maqsad va vazifalarini bajara olmaydi. Iqtisodiyotdan doim ustun turgan siyosat haqiqiy siyosat bo‘la olmaydi.

Siyosat iqtisodiyotdagi muammolarni hal etuvchi, uni tartibga soluvchi sohadir. U iqtisodiyotdagi muammolarning adolatsizliklar, haqsizliklar, qonunbuzarliklarning qanchalik to‘la va chuqur hal etilishiga erishsa, uning ta‘sirchanligi, samaradorligi, xalqchilligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Siyosat jamiyatning ma‘naviy, madaniy – ma‘rifiy sohasini ham boshqaradi, tartibga solib turadi. U ommaning, har bir insonning ma‘naviy madaniyatini oshirishga, uning tabiat, jamiyat sirlarini, ijtimoiy hayotdagi o‘z o‘rnini bilib va anglab olishiga doir tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Chunki, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarni tartibga solish va mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarning o‘zi kutilgan natijalarni bermaydi. Shuning uchun ham siyosat ma‘naviy–ma‘rifiy sohani izchillik bilan qayta ko‘rishga va rivojlantirishga, oldingi davrdan meros bo‘lib qolgan zararli urf-odatlar, noto‘g‘ri tasavvurlar, mutelik, qaramlik, be‘amlik, boqimandalik va boshqa illatlarni barataraf etish, yangicha qarashlarni shakllantirishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Bu bilan siyosat nafaqat ijtimoiy sohalarni, shu bilan birga ma‘naviy-ma‘rifiy sohani ham tartibga soluvchi kuch sifatida maydonga chiqadi.

Ammo, siyosat jamiyatdagi har qanday iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy masalalarni hal etmaydi va hal eta olmaydi. Bunday deb o‘ylash ochiqdan-ochiq masalalarni sayqallashtirishdan, siyosatning asl mohiyatini tushunmaslikdan, buzub ko‘rsatish, uni bo‘rttirish, mutlaqlashtirish boshqa narsa emas.

Siyosat jamiyatdagi har qanday iqtisodiy, ma‘naviy masalalarni hal etuvchi soha emas. U butun jamiyatning, xalqning manfaatlariga dahldor bo‘lgan iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal etadi. Boshqacha qilib aytganda, agar iqtisodiyot, ma‘naviyat-ma‘rifatda u yoki bu masala ushbu soha doirasida hal etilsa, siyosatda esa butun jamiyatga, barcha ijtimoiy guruhlariga doir masalalar hal etiladi. Siyosat – butun jamiyatga dahldor bo‘lgan masalalarni hal etuvchi sohadir.

Siyosatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarga ta‘sir doirasi kattadir, ammo cheksiz emas. U jamiyatning boshqa sohalariga har doim aralashavermaydi. Faqat totalitar tuzumdagina siyosat har qanday paytda va har qanday joyda ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va boshqa sohalar faoliyatiga aralashadi. Siyosat demokratik jamiyatda boshqa sohalar faoliyatiga ular doirasida g‘ayriqonuniy, mas‘uliyatsiz xatti-xarakatlar sodir etilganda, ijtimoiy adolat buzilganda aralashishi mumkin. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va boshqa sohalaridagi noqonuniy, mas‘uliyatsiz xatti-xarakatlar, ijtimoiy adolatning buzilishi, ularning o‘z vazifasini holol bajarmasliklari, ijtimoiy muammolarning paydo bo‘lishi va kuchayishi, uning aralashishi qonuniyligini belgilab beradi. Qonunlarning bajarilmasligi, ijtimoiy adolat va ijtimoiy tartibning buzilishi, yovuzlik, zo‘ravonlik siyosatning boshqa sohalar faoliyatiga aralashish uchun obyektiv asos bo‘ladi. Qonunlar bajarilmagan va ijtimoiy muammolar paydo bo‘lgan, kuchaygan paytda siyosatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy — ma‘rifiy sohalarga aralashishi, aybdorlarni javobgarlikka tortishi mumkin va muqarrar bo‘lib qoladi. Iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy sohalardagi noqonuniy xatti—xarakatlarni bartaraf etish masalasi iqtisodiy yoki ma‘naviy masala emas, balki siyosiy masaladir. Ana shu sohalardagi qonun buzarliklarni bartaraf etish xuddi siyosatning vazifasidir.

Siyosat o‘zining barcha vositalariga tayanib adolatsizlikni tartibsizlikni, qonunbuzarlikni bartaraf etadi, "ijtimoiy adolat va tartibni, uyg‘unlik va muvozanatni, tinch-totuvlik va osoyishtalikni o‘rnatadi. Shu tariqa siyosat — jamiyatning tayanchi, xalqning posboni, himoyachisi sifatida, butun ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi kuch sifatida maydonga chiqadi.

Siyosatning moddiy va ma‘naviy boyliklarni bevosita ishlab chiqarish bilan shug‘ullanmasligi uning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyati iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy

sohalardan kam ekan, degan ma'noni anglatmaydi. Bunday deb o'ylash siyosatni mensimaslikdan, uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini kamsitishdan boshqa narsa emas.

Siyosatning jamiyat yashashi va taraqqiy etishidagi ahamiyati iqtisodiyot va ma'naviyatdan aslo kam emas. Xuddi iqtisodiyotsiz, ma'naviyatsiz, ma'rifatsiz jamiyatning yashashi va rivojlanishi mumkin bo'lmagandek, uning siyosatsiz yashashi va rivojlanishi ham mumkin bo'lmaydi. Jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarishsiz ochlikdan o'limga qanchalik mahkum etilganidek, uning ijtimoiy muammolarni hal etmasdan, birlik, uyushqoqlik, adolat va tartib o'rnatmasdan halokatga duchor bo'lishi shunchalik muqarrardir.

Buyuk hakim va alloma Ibn Sino: «... agar mehnatkashlarga rahbarlik qiluvchi sultonlar, xonlar bo'lmasa edi, bunday hollarda ularning barchalari bilan bulur edilar" deb bejiz aytmagan.

Siyosat tufayli jamiyatning barcha sohaları (boshqariladi, tartibga solinadi, ijtimoiy muammolar hal etiladi, jinoyatchilik ildizlari ijtimoiy hayotda qirqiladi, adolat va tartib o'rnatiladi, xavfsizlik va barqarorlik, tinchlik, totuvlik-osoyishtalik, uyg'unlik va muvozanat ta'minlanadi. Shuning uchun ham siyosat jamiyatning asosiy sohalaridan biri hisoblanadi.

Siyosat o'zining maqsadi va funksiyalariga ko'ra jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalaridan farq qiladi.

Uning ijtimoiy hayotda tutgan o'ziga xos mustaqil o'rni va maqsadi va vazifalarida o'z ifodasini topadi.

Siyosatning bosh maqsadi - jamiyatning faqat iqtisodiy yoki ma'naviy-ma'rifiy sohasini rivojlantirish va moddiy, ma'naviy boyliklarni tobora ko'proq ishlab chiqarish emas, balki uning beistisno barcha sohalarini taraqqiy ettirish va mustahkam bir butunligini, xavfsizligini, barqarorligini, tinch-totuvligini, osoyishtaligini ta'minlashdan iboratdir. U bu ulkan maqsadni ro'yobga chiqarish uchun xilma-xil nazariy va amaliy funksiyalarni bajaradi.

Siyosatning dastlabki va birinchi darajali funksiyasi - ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va jamiyatning xavfsizligi, barqarorligini ta'minlash va mustahkamlash yo'llarini ko'rsatib beradigan, ilmiy asoslangan, oqilona dasturlarni, qonunlarni, qarorlarni ishlab chiqishdir. Chunki nazariy sohadagi chalkashlik, noaniqlik, boshboshdoqlik, pala-partishlikka chek qo'ymasdan, ilmiy asoslangan, oqilona dasturlar, qonunlarni ishlab chiqmasdan amaliyotdagi muammolarni bartaraf etib bo'lmaydi. Faqat nazariy chalkashlik va boshboshdoqlikni, noaniqlik va pala-partishlikni bartaraf etish, ilmiy asoslangan dasturlarni, qonunlarni, qarorlarni ishlab chiqish orqali ko'zlangan maqsadlarga erishiladi. Siyosat jamiyatning barcha sohaları uchun taqdirolomon ahamiyatga ega bo'lgan, to'g'ri yo'lni ko'rsatib beradigan qarorlarni ishlab chiqiladigan sohadir.

Siyosat nafaqat dasturlar, qonunlar, qarorlarni ishlab chiqish, balki ularni qabul qilish funksiyasini ham bajaradi. Chunki dasturlar, qonunlar, qarorlarning ishlab chiqilishi - bu siyosiy hujjatlar degani emas. Ular loyihalardir, xolos. Bu loyihalar - har tomonlama muhokama qilinib, pishitilib, boyitilib, to'ldirilib qabul qilingandagina siyosiy hujjatlarga, manbalarga aylanadilar. Siyosat - bu siyosiy hujjatlar, manbalar loyihalarini muhokama qilib, har tomonlama pishirib va boyitib qabul qilmoq demakdir.

Biroq, siyosat ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va millatlararo, fuqarolararo totuvlikni ta'minlashga doir dasturlarni, qonunlarni, qarorlarni qabul qilish funksiyasini bajarish bilan ham cheklanib qolmaydi. U mazkur hujjatlarning hayotda izchil, qat'iy ijro etilishini ta'minlaydigan amaliy funksiyalarni ham bajaradi. Buyuk mutafakkir Gegel ko'rsatib o'tganidek, "masalaning mohiyati o'z maqsadi bilan emas, balki o'zining amalga oshirilishi bilan tamomiga yetadi...".

Siyosatning asosiy amaliy funksiyasi - qabul qilingan dasturlar, qonunlar, qarorlarni hayotda izchillik, qat'iyatlilik bilan amalga oshirish, butun jamiyatni turli-tuman illatlardan, xastaliklardan tozalashdir. Chunki bu vazifa ijtimoiy hayotda amalga oshirilmasdan qolar ekan, unda jamiyatning mustahkam xavfsizligiga, barqarorligiga, tinch-totuvligiga, farovonligiga, baxt-saodatiga erishib bo'lmaydi. Dasturlar, qonunlar, qarorlar hayotda amalda ijro etilganda va jamiyat turli-tuman illatlardan tozalagandagina ko'zlangan maqsadga erishiladi. Siyosat — bu qabul qilingan siyosiy qarorlar amalda ijro etiladigan, jamiyat xilma—xil xastaliklardan

tozalanadigan, zaif va ojizlar zo'ravonlardan himoya qilinadigan, ijtimoiy adolat va tartib o'rnatiladigan sohadir.

4.3. Siyosatning tuzilishi, vositalari va usullari:

Har qanday ijtimoiy hodisa singari siyosat ham yahlit va bir butun tizim hisoblanadi. Undan biror bir qismini ajratib bo'lmaydi. Bu siyosat muayyan tarkibiy qismlardan iborat emas, degan ma'noni anglatmaydi, aslo. U ham muayyan ichki tuzilishga ega bo'ladi.

Siyosat tarkibiga ko'ra subyekt va obyektidan tashkil topadi. Uning subyekti — siyosiy sohaning birlamchi omili hisoblanadi. Bu omilsiz siyosat, siyosat bo'la olmaydi.

Siyosatning subyektiga ayrim shaxslar, ijtimoiy guruhlar, millatlar, davlatlar kiradi. Lekin, ularni har doim ham siyosatning real subyekti deb, bo'lmaydi.

Ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar, millatlar, davlatlar o'zini—o'zi anglagan va tashkiliy jihatdan uyushgan taqdirdagina siyosatning real subyektiga aylanadi

Siyosatning bosh subyekti — milliy davlat hokimiyati institutlari va ularning xalqaro birlashmalaridir. Aynan milliy davlat hokimiyati institutlari va ularning xalqaro birlashmalari orqali siyosat bevosita ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Siyosatning subyekti faqat milliy davlat hokimiyati va ularning xalqaro birlashmalari bilan cheklanmaydi. Unga milliy va xalqaro nodavlat va jamoat tashkilotlari (siyosiy partiyalar, manfaatlar guruhlar, xarakatlar), ommaviy axborot vositalari ham kiradi. Bu tashkilotlarning jamiyatga ta'siri ko'pincha rasmiy davlat institutlarining jamiyatga ta'siridan qolishmaydi, ayrim hollarda esa oshib ham ketadi.

Siyosatning obyekti — siyosiy sohaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu qimsiz siyosiy qarorlar ishlab chiqilmaydi va amalga oshirilmaydi.

Siyosatning obyektiga jamiyatning barcha sohalar- ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy—ma'rifiy, diniy sohalar kiradi. Bu sohalar o'z manfaatlari va ehtiyojlarini siyosatda aks ettiradi va ularni qondirishga erishadi.

Siyosat obyektiga ko'ra quyidagi yo'nalishlarga ajraladi: ichki, tashqi, ijtimoiy, milliy, diniy, iqtisodiy, moliyaviy, agrar, ekologik, madaniy, ilmiy— texnikaviy, geosiyosiy va boshqalar.

Siyosat subyektining maqsad va funksiyalari o'z-o'zidan, muayyan vositalarsiz ishlab chiqilmaydi va amalga oshirilmaydi. Bu maqsad va vazifalar turli—tuman vositalar yordamida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Siyosat subyektining vositalari-bu siyosiy maqsad va funksiyalarni ro'yobga chiqarishning, siyosiy g'oyalarni real voqelikka aylantirishning qurollaridir. Ular, asosan, ikki qismga bo'linadi:

1. Ma'naviy — mafkuraviy vositalar. Bu vositalarga falsafiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy, estetik, ruhiy, diniy bilimlar, malakalar, mahorat va ish tajribalari kiradi.

2. Moddiy — texnikaviy vositalar. Bu vositalarga, pul mablag'lari, har xil binolar, jihozlar, asbob-uskunalar, qurol-aslahalar, elektron hisoblash mashinalari, kompyuterlar va boshqalar kiradi.

Ushbu ma'naviy — mafkuraviy va moddiy — texnikaviy vositalarning rivojlanganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, siyosiy soha ham shunchalik rivoj topadi.

Siyosat ijtimoiy hayotni tartibga solishda xilma—xil usullardan, eng avvalo, ishontirish, tarbiyalash usulidan keng foydalanadi. Bu usul ijtimoiy muammolarni hal etishda asosiy o'rin egallaydi. Aynan ishontirish, tarbiyalash, usuli uning ijtimoiy mohiyatini to'laroq ifodalaydi. Ijtimoiy hayotni tartibga solishda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid, do'q-po'pisa qilmaslik, murosasiz madora, xolislik, tenglik, manfaatdorlik, muntazamlilik, qat'iylik, izchillik, oshkorlik, ishontirish, tarbiyalash siyosatning asosiy tamoyillaridir.

Siyosatning ishontirish, tarbiyalash usuli ijtimoiy hayotni tartibga solishning eng maqbul va oqilona vositasidir. Chunki, bu usulning qo'llanilishida ijtimoiy muammolar kuch ishlatmasdan, urush — so'kishsiz, jabr- zulmsiz, ishontirish, real dalillarga tayanish, isbotlash, murosasiz madora, mehr—shafqat asosida hal etiladi. Ishontirish, tarbiyalash vositalari—kuch

ishlatish vositalaridan ustun turadi. Buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur bu haqda shunday degan edi: "Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o'ylab ish qilish qurol kuchidan o'n baravar foydaliroqdir". Xuddi ishontirish, tarbiyalash usuli tufayli davlat faoliyati ijtimoiy hayotni odilona va xolisona tartibga solishga qodir bo'ladi. Siyosat—bu ijtimoiy muammolarni tushuntirish ishontirish asosida hal etish demakdir.

Biroq, siyosatning ishontirish, tarbiyalash usulini mutlaqlashtirib, uni faqat ushbu usul bilan cheklab bo'lmaydi. Bu holda siyosatning iqtisodiy, ma'naviy va madaniy sohalaridan farqi qolmaydi.

Siyosat o'z oldida turgan funksiyalarni hal etishda kuch ishlatish, majburlash usulidan ham foydalanadi. Ijtimoiy hayotni tartibga solishda kuch ishlatish, majburlash usulidan foydalanish — siyosatning o'ziga xos xususiyatidir. U ushbu usulni qo'llash bilan jamiyatning iqtisodiy, ma'naviy va madaniy sohalaridan farq qiladi.

Siyosatning ishontirish, tarbiyalash usulini mutlaqlashtirish, uni universal usulga aylantirishga urinish jamiyat uchun zararlidir. Bu—siyosatning ijtimoiy tartibsizlik, qonunbuzarlikni jilovlash vositalaridan mahrum etishga va boshboshdoqlik, o'zboshimchalik, safсатаbozlik, mitingbozlik, jinoyatchilikning avj olishiga olib keladi. Shuning uchun ham, bu usulni mutlaqlashtirib bo'lmaydi.

Siyosatning ijtimoiy hayotni tartibga solishda ishontirish, tarbiyalash usulidan foydalanish, uning kuch ishlatish, majburlash usulini qo'llashni istisno etmaydi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy hayotni hamisha ham tinch, ishontirish, tarbiyalash usuli bilan tartibga solib bo'lavermaydi. Ijtimoiy hayotda shunday muammolar borki, ularni kuch ishlatish, majburlash usulini qo'llash orqaligina hal etish mumkin. Inson hayotiga, jamiyatning yaxlitligi, bir butunligi, tinch — totuvligi, xavfsizligi, barqarorligi, uyg'unligiga tahdid soladigan yovuzliklarni faqat tushuntirish, ishontirish yo'li bilan hal etib bo'lmaydi. Bunda xatti — harakatlarni kuch ishlatish, majbur etish usuli bilan hal etish mumkin. Siyosat qonunlarini qo'pol ravishda buzgan kishilarni kuch ishlatish, majburlash usulidan foydalanish bilan buzilgan ijtimoiy adolat va tartib muvozanat tiklanadi, xalq manfaatini himoya qilinadi. Zotan, qonunbuzarlar jazolanmasdan qolar ekan, mavjud ijtimoiy muammolar yanada kuchayadi, odamlarning siyosatga bo'lgan ishonchi so'nadi.

Siyosatning kuch ishlatish, majburlash usuli ijtimoiy hayotni tartibga solishning maqbul usuli emas. Chunki, bu usul qo'llanilganda, ijtimoiy muammolar kuch ishlatish, majburlash yuli bilan, murosasiz, ayovsiz, shafqatsizlik bilan hal etiladi, inson jismoniy va ruhiy tazyiqqa duchor qilinadi, jamiyatda moddiy va ma'naviy talofatlarga yo'l qo'yiladi.

Lekin, siyosat ijtimoiy hayotni tartibga solishda kuch ishlatish, majbur etish usulidan to'la voz kecha olmaydi. U inson, jamiyat hayotiga qarshi qilingan tahdidni bartaraf etish uchun bu usuldan foydalanishga majbur bo'ladi. Inson hayotini, jamiyatning hududiy yaxlitligini suverinitetligini, xavfsizlikni tajovuzlardan, yovuzliklardan himoya qila olmaydigan siyosat haqiqiy siyosat bo'la olmaydi. Shuning uchun ham, bu usulga katta ahamiyat va e'tibor beriladi.

Inson tabiati hamda jamiyat hayoti mukammal emas ekan, ijtimoiy tartibsizlik saqlanib qolar ekan, siyosatning kuch ishlatish, majburlash usuli saqlanib qoladi.

Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarni tartibga olishda siyosatning kuch ishlatish, majburlash usulidan to'la voz kechish ustida emas, balki undan oqilona va samarali foydalanish ustida gap borishi lozim va zarur.

Siyosatning kuch ishlatish, majbur etish usuli — bir guruh kishilarning shunchaki o'yini va fitnasi emas. Bu butun xalqning xohish — irodasiga, faolligiga tayanadigan san'atdir. Kuch ishlatish, majburlash har doim ham kutilgan samarani beravermaydi. Kuch ishlatish, majburlash san'at sifatida qonun-qoidalarga—hushyorlik, tadbirkorlik, qat'iyatlilik, izchillik va boshqalarga amal qilib qo'llanilgandagina kutilgan samarani berishi mumkin.

Biroq, siyosatning ijtimoiy hayotni tartibga solishda kuch ishlatish, majburlash usulini mutlaqlashtirib ham bo'lmaydi. Bu holda unga zo'ravonlik qilishdan boshqa hech narsa qolmaydi. Holbuki, siyosat zo'ravonlik vositasi emas, balki xalq manfaatlarini himoya qiluvchi

vositadir. U kuch ishlatish, majburlash usulidan xalqqa zo'ravonlik qilish uchun emas, balki uni tajovuzlardan, yovuzliklardan himoya qilish uchun foydalanishi zarur.

Kuch ishlatish, majburlash — siyosatning muhim usulidir. Bu usulni baholashda siyosiy va ijtimoiy fikrda xilma-xil, shu jumladan, bir—biriga zid baholashlar ham uchrab turadi. Ayrim olimlar, misol uchun, Yevgeniy Dyuring, unga ijtimoiy taraqqiyotda, eskining bartaraf etilishida va yangining barpo qilinishida hal qiluvchi rolni ajratadi.

Mutaxassislarning fikricha, "hokimiyat" kategoriyasi- ta'riflash, tushunish va tushuntirish eng qiyin bo'lgan tushunchalar sirasiga kiradi.

"Hokimiyat" tushunchasiga aniq ta'rif berish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega. Jamiyatda chuqur islohotlar o'tayotgan bir davrda islohotlarning ko'lami, sur'ati va samaradorligi hokimiyat sohasidagi o'zgarishlar ko'lami, sur'at va samarasiga to'g'ri proportsional ekanligini juda ko'p mamlakatlar misolida ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun, siyosatda hokimiyatning o'rnini, vazifalarini va, umuman, bu tushunchaning mazmunini to'g'ri anglash, siyosiy jarayonlar to'g'risida hukm yuritish, uni to'g'ri baholash imkonini beradi.

Ko'pgina olimlar hokimiyatni siyosatning asosiy masalasi, uning bosh muammosi, deb hisoblaydilar. Hokimiyat siyosata odamlar faoliyatining alohida bir sohasi sifatida shakllanish imkonini beradi.

Hokimiyatning maqsadi — ijtimoiy hayotni tartibga solish, boshqarishdan iborat. Ko'pgina olimlar uni odamlar o'rtasidagi kauzal bog'liqlik tarzida tushuntiradilar. Shu tufayli, hokimlik munosabatlarini tabiat yoki hayvonot dunyosida mavjud emas, deb hisoblanadi. Keyingilariga nisbatan ta'sir tushunchasi qo'llaniladi.

Jamiyatda, odamlar o'rtasidagi munosabat tarzida vujudga keluvchi hokimiyat dastlab siyosiy tabiatga ega bo'lmagan, chunki u, asosan, mos tushuvchi manfaatlarni tartibga solgan (oqsoqollar, qabila boshliqlari, avliyolarning avtoritetga asoslangan anonim hokimiyati).

Jamiyatning rivojlanishi, uning keyingi murakkablashuvi hokimiyatning samaradorligini oshirish maqsadida markazlashuviga olib keladi. Hokimiyat qabila boshliqlari, beklar, xonlar, guruhlar qo'lida to'planadi (individual hokimiyat). Mana shu hokimiyatning mukammal shakllarini topishga intilish, ko'pgina sharq mutafakkirlari asarlarida uchraydi. Ammo, ijtimoiy tengsizlikning ortib borishi, ijtimoiy tizimlarning murakkablashishi hokimiyatning institutsional shakllarini keltirib chiqaradi. Hokimiyat boshqaruv, barqarorlik, muvofiqlashtirish vazifalarini bajaruvchi maxsus institutlarga tayana boshlaydi.

Aslida insoniyat tarixini hokimiyatsizlik (tartibsizlik, anarxiya) va hokimiyat mustabidligi (diktatura) o'rtasida eng ma'qul, o'rta miyona yechimni topishdan iborat, deb aytish to'g'ri bo'ladi.

Hokimiyat tabiati doimo o'zgaruvchandir. Bu M.Dyuverjega uning ikki qiyofasi bor Yanusga o'xshatish imkonini bergan: «Ikki qiyofali Yanus tasviri hokimiyat to'g'risida haqiqiy tasavvurlarni beradi. Bir tomondan bu bir guruhning o'z manfaati yo'lida ikkinchi Dune ustidan hukmronligi, ikkinchi tomondan bir guruhning o'z manfaati yo'lida ikkinchi guruh ustidan hukmronligi, ikkinchi tomondan – umumiy tartibni saqlash, barchaning manfaatii yo'lida barchaning manfaatini birlashtirish vositasi. U yoki bu tomonning nisbati juda xilma-xil, davrlar, sharoitlar va mamlakatlardan kelib chiqib, hokimiyatning bu ikki tomoni doimo mavjuddir».

Demak, aytish mumkin-ki, hokimiyat – yaxshi ham, yomon ham emas, u betarafdir. Uning tabiati jamiyatda mavjud ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyatini belgidlaydi.

Siyosiy fikr tarixida hokimiyatga e'tibor juda qadimdan mavjud. Hokimiyat to'g'risida fikr-mulohazalarni biz dunyodagi eng qadimgi qo'lyozma manbalarida uchratamiz. O'rta asr mutafakkirlari ham hokimiyat haqida ko'p va ibratli fikrlarni qoldirganlar. Ularning aksariyatini biz, bugungi kun nuqtai nazaridan, me'yoriy yondashuvlar qatoriga kiritamiz, chunki mualliflar, «hokimiyat» tushunchasiga ilmiy kategoriya tarzida qaramaganlar va uni ta'riflashga harakat qilmaganlar.

Sharqona talqin (Kuntszi) bo'yicha, hokimiyat davlatda mujassam, davlat hokimiyati ota hokimiyatiga, hukmdor va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarga tengdir.

Hukmdorning otalarcha g'amxo'rligi, fuqarolarning farzandlik mehr-muhabbati-hokimiyatining asosiy tamoyilidir. Bu tamoyilning buzilishi hokimiyatning yemirilishi, jamiyatda tartibsizlik, beqarorlikning hukmronligi demakdir.

Mazkur talqinga binoan, hukmdor-mamlakat, el-yurt xalqning otasidir. Uning muqaddas burchi—mamlakatga otalik qilish, ya'ni xalqni to'g'ri yo'lga boshlash va yomon yo'ldan qaytarish, Vatanning farovonligini, tinch- totuvligini, osoyishtaligini ta'minlashdir. Xalq esa, hukmdorning farzandi va tayanchidir. U farzandlik burchini bajarishi, ya'ni hukmdorning ishonchini oqlashi, mas'uliyatli bo'lishi, buyruqlarga, ko'rsatmalariga so'zsiz itoat etishi va uni bajarishi zarur.

Islomiy talqinga ko'ra, butun borliqdagi eng oliy hokimiyat Alloh taolaga tegishlidir. Undan boshqa 18 ming olamda oliy hokimiyatga ega bo'lgan zot yo'q.

Allohnin irodasiga osmonlar-u yerdagi barcha narsalar, hukmdorlar ham, fuqarolar ham so'zsiz buysunadi. Har bir inson, jamiyatda tutgan o'rnidan qat'iy nazar, barcha yaxshiy-u yomon ishlari uchun yaratuvchi oldida javobgardir.

Allohnin yo'rig'iga amal qilgan kishilar bu dunyo-yu u dunyoda saodatmand bo'ladi, uning irodasiga bo'ysunmay, haddan oshib, havo nafsga berilib yurganlar esa, bu dunyoda g'azabga uchrab, xor—zor bo'ladi, u dunyoda azob- uqubatga duchor bo'ladi.

Mazkur talqinga ko'ra, hukmdor—Allohnin yerdagi soyasidir. Uning vazifasi Alloh xohish —irodasining aniq ado etilishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishdan, uning yo'l- yo'rig'ni joriy etishdan iboratdir.

Har bir mo'min musulmon—Allohnin bandasidir. Uning vazifasi—Alloh, uning Rasuliga va o'z rahbarlariga itoat qilishdir. Dunyoviy hokimiyat —Alloh taolo ko'rsatgan hidoyat yo'lidan boruvchi, u man etgan hodisalar—zalolat, razolat, nohaqlik, tartibsizlik, yovuzlik, tubanlik, munofiqlik bilan kurashuvchi va tinchlik, osoyishtalikni, farovonlikni ta'minlovchi vositadir.

Ammo, jamiyatlar rivojlanishi bilan hokimiyat tabiati, mazmuni, talqinlari ham o'zgarib bordi. Hokimiyat ilohiy emas, ijtimoiy hodisa sifatida qarala boshlandi.

Yevropada shakllangan zamonaviy siyosiy tizimlarning rivoji, hokimiyat mazmuni va shakllarida katta o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi. G'arb ijtimoiy tizimlarida hokimiyat, xususan, siyosiy hokimiyat eng oliy ijtimoiy qadriyat darajasiga ko'tariladi. Natijada, bu davrda, yashab ijod etgan jamiyatshunos olimlarning ko'pchiligi-hokimiyatni ta'riflashga uringanlar.

O'zbekiston zamonaviy jamiyatga aylanish jarayonida hokimiyat asosida ham yangicha munosabatlar tizimini shakllantirib borishi aniq. Shuning uchun, zamonaviy jamiyatlarda bu borada mavjud fikrlar o'sib-o'zgarishi jarayoniga bir oz batafsil to'xtab o'tamiz.

N.Makiavelli hokimiyat deganda, davlat hokimiyatini tushunadi. Uningcha, hukumatning o'z fuqarolarini boshqara olish qobiliyati-hokimiyat bo'lib, davlat, siyosatning maqsadi-barcha vositalar bilan hokimiyatni kuchaytirishdir. "Hokimiyatning quroli hukmronlikdir, hokimiyatning asosi" yaxshi «qonunlar» va "yaxshi qo'shindir". Hokimiyat odamlar ehtiroslarini tinglovchi va ularda fuqarolik sifatlarini tarbiyalovchi kuchdir.

T. Gobbs hokimiyatni birinchi marta tushuncha sifatida ta'riflashga uringan. "Inson hokimiyati, - deb yozadi u,- kelajakda qandaydir imtiyoz, foydaga erishish uchun undagi hozir mavjud vositalardir.

Keyingi bosqich—M.Veber. Uning tahlilida hokimiyat tushunchasi zamonaviy aniqlikka ega bo'ldi. Veberda hokimiyat "Aktor ijtimoiy munosabatda, qarshilikka qaramay, o'z irodasini amalga oshirish ehtimoli, bu ehtimol nimaga asoslanishidan qat'iy nazar". Veber ta'rifida hokimiyatning uch eng muhim sifati ko'rsatiladi: 1) hokimiyat individlarga xos xususiyat emas, ular o'rtasidagi munosabatlar doirasida mavjud; 2) hokimiyat imkoniyat, ehtimollik terminlarida ta'riflanishi kerak; 3) hokimiyatning asosini hamma narsa, xususiyat yoki munosabat tashkil etishi mumkin. Gobbs kabi M.Veber ham hokimiyatni individlar o'rtasidagi (ammo guruhlar yoki jamoalar o'rtasidagi emas) atayin assimetrik (tengsizlik asosidagi) munosabat, deb tushunadi. Avtoritetdan farq qilib, hokimiyat ijtimoiy mavqelar yoki rollar bilan emas,

individlarning shaxsiy sifatlari bilan bog'liq. Ammo, Veber hokimiyat tushunchasini mavhum hisoblab, ko'proq hukmronlik terminini ishlatishni ma'qul ko'rgan.

Hokimiyatning zamonaviy nazariy tahlilida ikki asosiy an'ana yaqqol ko'zga tashlanadi:

Birinchisi, hokimiyatning guruh konsepsiyasi (Dj. Skott atamasi) yoki "realizm an'anasi" (P.Dal atamasi), deb atalishi mumkin. U ibtidosini T.Gobbs, M.Veberdan olib, X.Lassuel va E.Keplen, R.Dal, D.Kartrayt, S.Loks, E.Giddens v.h.lar tadqiqotlarida namoyon bo'lgan. Ular hokimiyatni individlar o'rtasidagi mavjud yoki bo'lishi mumkin bo'lgan ixtilofni o'z ichiga oluvchi tengsizlik munosabati deb baholashadi. Hokimiyat shunday ta'sir doirasida vujudga keladiki, unda subyektlardan biri ikkinchisiga uning qarshiligiga qaramay ta'sir eta olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Hokimiyat kimdandir ustunlik, "nol miqdori" munosabati sifatida ta'riflanadi. ("Nol miqdori" qaysidir individ va guruhlar hokimiyatining ortishi boshqa individlar va guruqlar hokimiyatining kamayishini anglatadi).

Ikkinchi an'ana "hokimiyatning noguruhiy konsepsiyasi — "nol miqdori" g'oyasini inkor etadi va hokimiyat barchaning foydasiga xizmat qila olishidan kelib chiqadi. Bunda hokimiyat butun jamoaga tegishli manba, butun jamoaning biron foydaga erishishi qobiliyati sifatida qaraladi. Hokimiyatning legitim xarakteri uning alohida individlar, guruhga emas, butun jamiyatga tegishli ekanligida, deb ta'kidlanadi. Bu qarashlarning ibtidosini biz Aflotun, Arastuda uchratsak, zamonaviy mualliflardan T.Parsons, X.Arendt va qaysidir darajada M.Fukolarni shu nazariya tarafdorlari, deb ayta olamiz.

Bunday tahlil asosida Parsons hokimiyatni an'anaviy ta'riflardan ancha farqli usulda ta'riflaydi. Hokimiyat aktorlar yoki munosabatlar xususiyati emas, tizimlarning xususiyati (resursi) sifatida ta'riflanadi. Hokimiyat "tizim elementlari o'z burchlarini bajarishlarini ta'minlashga bo'lgan umumiy qobiliyat bo'lib, kollektiv maqsadlarga erishishga intilgani uchun legitimlashadi va itoat etilmagan hollarda sanksiyalar qo'llashni nazarda tutadi, boshqarish vositalarini xarakterlaydi. Ular bir funksiyani bildirganlari uchun sinonim sifatida qo'llanishlari mumkin, lekin mohiyati jihatidan turli holatlarni ifodalaydilar. Ularni aralashtirish nafaqat "lingvistik karlikni" balki "siyosiy ko'rlikni" ham, ya'ni siyosiy jarayonlarni aks ettirishdagi "ko'rlikni" anglatadi. Negaki, bunda asosiy siyosiy masala — "kim kimni boshqarayapti?" degan savol bo'lib qoladi. Uning fikricha bu, bosh masala emas.

Parsonsdan farqlicha, Arendt hokimiyat va zo'rlikni aniq farqlaydi: zo'rlik-mohiyatiga ko'ra doimo erishayotgan maqsadlari orqali oqlashga muhtoj. Hokimiyat esa kelishuvga asoslangani uchun, oqlanishga emas, legitimlikka muhtoj. U nimagadir erishish vositasi emas. U umumiy iroda va ijtimoiy birlikni amal qilishini ta'minlaydi, zo'rlik va hokimiyat ko'pincha qo'lma-qo'l, yonma-yon kelishsa-da, ular bir-biriga qarama-qarshidir. Hokimiyat zo'rlikka asoslanmaydi, aksincha zo'rlik hokimiyatni yemirishi mumkin, ammo yarata olmaydi. Bunday fikr mantig'idan quyidagi xulosa kelib chiqqan: istibdodga asoslangan tuzum zo'rlikka eng ko'p suyangani va hokimiyatga eng kam darajada ega boshqaruv shakli.

Hokimiyatning mazmuni, mohiyati, chegaralariga doir bahs davomida hokimiyat "qiyofalari" haqida ham munozara yuritildi. Xususan, amerikalik politolog Robert Dal hokimiyatning bir o'lchovli modelini yaratadi va unga "maqsadlar borasidagi ochiq ixtilof" sifatida qaraydi. Bu — hokimiyatning birinchi qiyofasi. Ya'ni siyosiy hokimiyat bir guruh individlarning ikkinchi (boshi) guruhga o'z maqsad — manfaatlariga mos qarorlar qabul qilish orqali irodalarini o'tkaza olishdir.

Boshqa amerikalik tadqiqotchilar P.Baxrax va M.Barat'slar hokimiyatning ikkinchi qiyofasi ham mavjudligini, u qarorlarni qabul qilmaslik vaziyatida namoyon bo'lishini ta'kidladilar. Ya'ni o'zi uchun xavfsiz muammolarni ommaviy muhokamaga kiritib, bunga xizmat qiluvchi qadriyatlar va institutlarni yaratadi va mustahkamlaydi. U buning uddasidan qay darajada chiqa olsa, shu darajada yechimi manfaatlariga ziyon yetkaza oladigan siyosiy hokimiyat subyektlariga davlat va uning institutlari, siyosiy elitalar, siyosiy yetakchilar, siyosiy partiyalar kiradi. Hokimiyat egalari sifatida subyektlar bir qator belgilarga ega bo'lishi kerak: hokimlik qilish istagi va o'z zimmasiga mas'uliyatni ola bilish, bilim, imkoniyatlarni ishga sola bilish, avtoritetiga ega bo'lish singari.

Siyosiy hokimiyat obyekti — subyekt faoliyati qaratilgan individ, ijtimoiy guruh, qatlam, jamiyatdir. Eng zamonaviy hokimiyat konsepsiyalari hokimiyatning "kommunikativ" jihatiga diqqatni qaratar ekan, hokimlik munosabatlari ikki tomonlama, assimetrik (tengsiz) munosabatlar ekanligini ta'kidlashadi. Hokimiyatshunoslikda mashhur misolni biz ham keltiramiz: Chorrahadagi nozir qo'lidagi tayoq, hushtak, qo'l ishoralari bilan haydovchini to'xtashga, o'nga—chapga burilishga v h. majbur qiladi. Nozir iltimos yoki taklif qilmaydi, u buyuradi. Militsiya hodimi (subyekt) shofyor va yo'lovchi (obyekt) uchun tushunarli imo-ishora tilida gaplashadi va shu tariqa o'z hokimiyatini amalga oshiradi. Obyektning subyekt irodasiga bo'ysunishga tayyorligi hokimiyat mavjudligi yoki e'tirofining muhim shartidir. Agar bunday bo'lmaganda edi militsioner shofyorni o'z aytganini kuch bilan qildirishi ham mumkin edi (uni qo'lidagi tayoq bilan urishi, qamashi, otib tashlashi). Lekin, bu holatda gap hokimiyat to'g'risida emas, kuch, zo'rlik ishlatish haqida ketgan bo'lar edi.

Ushbu misoldan kelib chiqadigan xulosa shuki, hokimiyat subyekt va obyekt o'rtasida, asosan, ixtiyoriy ikki tomonlama muloqot natijasida vujudga keluvchi hodisadir.

Siyosiy hokimiyat resurslari subyektning hokimiyat obyektiga ta'sirini ta'minlovchi barcha vositalardir. Ishontirish, rag'batlantirish, qo'rqitish — subyekt obyektga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vositalaridir. Xususan, X.Vamberida shunday guvohlikni uchratamiz: "Ulug' amaldorlar o'z vazifalarini bajargan paytda, soliqlar yig'ish vaqtida yumshoq muomala qilishlari shart bo'lgan. Qamchi ishlatish man qilingan. Bu to'g'rida Temurning o'zi aytadi: "Har bir vali o'zining qamchisi kabi ahamiyatga ega bo'lmasa, u kishi to'ralik mansabiga loyiq emas". Bu yerda gap — avtoritet to'g'risida ketayapti.

Jamiyat rivojlanishiga qarab hokimiyat qo'llaydigan asosiy resurslar ham o'zgarib borgan. Masalan, ibtidoiy jamiyatlarda hokimiyat, asosan, yetakchi, qabila boshlig'i avtoritetiga tayangan. Keyinchalik ularning o'rnini boylik, kuch egallagan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda hokimiyat tayanuvchi asosiy resurs - tashkilot, ya'ni byurokratiya, partiyalar, - harakatlar bo'lib qoldi. Zamonaviy jamiyatlarning eng asosiy resurslari - bilim, axborot, deb ta'kidlanayapti.

Utilitar resurslar - bu, kishilarning kundalik ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan moddiy va boshqa ijtimoiy vositalardir. Bu vositalardan kishilarni rag'batlantirish uchun ham, jazolash uchun ham foydalaniladi.

Majburlovchi resurslar - bu ma'muriy jazolash bilan bog'liq bo'lgan vositalardir. Bu vositalardan, odatda, utilitar resurslar ish bermay qolgan paytda foydalaniladi. Bunga iqtisodiy sanksiyalardan hayiqmaydigan ish tashlovchilarni sud orqali ta'qib etishni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Me'yoriy resurslarga-insonning ichki dunyosi, qadriyatlar va xulq — atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar kiradi. Ular bo'ysunuvchilarga rahbar va ijro etuvchilar manfaatlarining umumiyligini tushuntirishga, hokimiyat subyekti xarakatlarining ma'qullanishini, uning talablari qabul qilinishini ta'minlashga qaratilgan.

Ilmiy adabiyotlarda hokimiyatning resurslarini inson va jamiyat faoliyatining muhim sohalari — siyosiy- huquqiy, iqtisodiy, sotsial, madaniy — axborot, kuch ishlatuvchi sohalarga binoan turkumlashtirish ham keng tarqalgandir.

Siyosiy — huquqiy resurslar — bu ijtimoiy tartibni, xavfsizlikni, barqarorlikni, fuqarolarning tinchligi- osoyishtaligini, jamiyatning yaxlitligi va bir butunligini ta'minlovchi vositalardir. Bu vositalarga dasturiy hujjatlar, Konstitutsiya, qonunlar va ularni ishlab chiqish, irodasini amalga oshiruvchi vosita sifatida foydalanilganda, hokimiyatning resursi bo'lib yuzaga chiqadi. Umuman, inson nafaqat hokimiyatning resursi, balki uning subyekti va obyektidir.

5.3. Hokimiyatning turlari

Politologiya va sotsiologiyaga oid adabiyotlarda hokimiyat turlarini aniqlashning xilma — xil usullari uchraydi. Ulardan eng asosiysi quyidagilar:

Mavjudlik sohasiga ko'ra, quyidagi hokimiyat turlari ajratiladi: iqtisodiy, axborot, ijtimoiy, siyosiy, harbiy, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlari. Keyingi uch hokimiyat turli davlatga tegishli.

Hozirgi dunyoda respublika boshqaruvi amal qilayotgan jamiyatlarning deyarli barchasida davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlariga bo'lingan. O'z vaqtida, Arastu hokimiyatning uch turi mavjudligini aytib o'tgan. Ammo, cheksiz hokimiyatni nazorat qilish va bo'lish mexanizmi sifatida bu g'oya ilk bor Jon Lokk (1632 — 1704) tomonidan 1688-yil ingliz "Shonli inqilobi" davrida monarx hokimiyatini parlament foydasiga cheklash masalasini hal qilish jarayonida mukammal ishlab chiqildi. Lokk xalq suvereniteti asosidagi konstitutsion hukumat amal qilishini, qonunlar parlament tomonidan ishlab chiqilib, hukumat ularni ijro etishi lozimligini talab etgan.

Ammo hokimiyatlar bo'linishi g'oyasining muallifi, deb Sharl Lui Monteske (1659 — 1753) e'tirof etiladi. U-yagona davlat hokimiyatini uch teng vakolatli va mustaqil qismga: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga ajratishni taklif etdi. Hokimiyatlarning hech biri cheksiz bo'lishi yoki boshqalardan ustun bo'lishi mumkin emas. Sud hokimiyati parlament va hukumatning konstitutsiya va qonunlarga amal qilishini kafolatlashi kerak bo'lgan.

Bu tamoyil huquqiy tarzda ilk bor AQSh Konstitutsiyasida 1778 yilda bayon etildi. Unda Monteske nazariyasi tutib turish va bosim mexanizmlari bilan to'ldirilgan.

Hokimiyatlar bo'linishi tamoyilining amal qilishi, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining hokimiyat faoliyatini tahlil va tanqid qilish erkinligini, hamda kuchli qonun asosida faoliyat ko'rsatuvchi muxolifatni nazarda tutadi.

Turli mamlakatlarda hokimiyatlar bo'linishi tamoyilining mazmuni va amalga oshirilishi turlichadir. Ammo ularning o'zaro hamkorligi va nazorati mexanizmi hokimiyat faoliyati samaradorligini ta'minlaydi, qonun ustivor, huquqiy — konstitutsion davlat shakllanishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy hokimiyat — iqtisodiy imkoniyatlar, moddiy boyliklar ustidan nazoratdir. Iqtisodiy hokimiyatga quyidagi tarkibiy qismlarni birlashtirish orqali erishiladi:

1) moliyaviy qudrat. Moliyaviy imkoniyatlar faqat iqtisod uchun emas, balki turli imtiyozlar, bosim o'tkazish va o'ziga ma'qul siyosiy qarorlarni qabul qilinishiga erishish (lobbizm), foydali munosabatlar o'rnatish v.x. vositasi sifatida iqtisodiy omillarni boshqalariga konvertatsiya qilishning ajoyib qurolidir.

2) axborot ta'siri. Tezkorlik bilan undirilgan axborot pulga oson almashinadi. Aytishlaricha, biron Rotshild bu imkoniyatni muvaffaqiyatli qo'llagan ekan: Vaterlo jangida Napoleon mag'lubiyati haqidagi xabarni kaphtarlar vositasida birinchi bo'lib olganidan so'ng u bu xabarni bir necha soat ichida birjadagi spekulyatsiya vositasida millionlarga aylantirib oldi. Hozirgi vaqtda kapital boshqarish — banklar, moliya tuzilmalari, korporatsiyalarni birlashtiruvchi keng tarmoqli axborot tizimlaridan iborat.

3) moliyaviy ittifoq tarkibida o'z o'rnini to'g'ri aniqlash. Bu o'rin nafaqat subyektning iqtisodiy qudrati, balki u egalik qilayotgan va shu ittifoq uchun zarur hokimiyat elementlari bilan ham belgilanadi.

4) davlat bilan aloqalarning (korrupsiya emas) mavjudligi.

5) kuch bosimi mavjudligi.

F.Xayek bir o'rinda "iqtisodiy nazorat — inson hayotining" sohalaridan biri ustidan «oddiy» nazorat emas: bu — barcha maqsadlarimizga erishish vositalari ustidan nazoratdir," — deb ta'kidlagan edi. Iqtisodiy hokimiyat siyosatga kuchli ta'sir o'tkazadi. Negaki, odamlarning asosiy hayotiy ehtiyojlari iqtisod sohasida yotdi. Bu yerda esa pul, boylik, manfaat singari omillar universal, doimiy, sezilmas vosita sifatida saylovchilar, siyosatchilar, deputatlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatib keladi.

Ijtimoiy hokimiyat jamiyatlardagi mavqe, maqom, imtiyozlarni taqsimlaydi.

Ma'naviy axborot hokimiyati — bilim va axborot ustidan nazoratdir. Keyingi vaqtda OAV, universitet va maktablar hokimiyatning muhim omiliga aylanmoqda: muloqotning an'anaviy shakllari (oila, qo'shnichilik, qarindoshchilik, hamkasablik)dan inson juda kam foydalanib, axborotni, asosan, televideniye, radio, matbuotdan olishi; ta'sirining sezilmasligi, globalligi, tezligi va manipulyatsiya imkoniyatlari cheksizligi — buning asosiy sababidir.

Demokratik jamiyatda axborot institutlari odamlarning bilimini chuqurlashtirish, dunyoqarashini kengaytirish vazifasini bajaradi.

Yuqoridagi barcha shakllar ichida siyosiy hokimiyat eng asosiysi bo'lib xizmat qiladi. Bu — uning ko'plab manfaatlarni muvofiqlashtirish vositasi ekanligi, kuchga legitim tarzda tayanishi, qarorlarining boshqa hokimiyat turlari uchun majburiyligi, suverenligi, imkoniyatlarining xilma—xilligi, qarorlar qabul qilinishi bir markazlilik bilan bog'liq.

Ijtimoiy munosabatlarning tabiati (formatsion turi) ga ko'ra: quldorlik, feodal, kapitalistik hokimiyat ajratiladi;

Xokimiyat subyekti va obyekt xususiyatlariga ko'ra, individual va kollektiv hokimiyat, davlat va nodavlat hokimiyati singari turlariga ajratiladi;

Jamiyatda amal qilish usuliga ko'ra, hokimiyat demokratik, avtoritar va totalitar shakllarga ega;

Obyektning subyektga itoati manbalari va sabablariga ko'ra hokimiyatning quyidagi shakllari mavjud: kuch, majburlash, rag'batlantirish, ishontirish, manipulyatsiya va avtoritet. Kuch shaklidagi hokimiyat subyektning ko'zlagan maqsadiga obyektga jismoniy yoki ruhiy ta'sir o'tkazish, yoinki uning harakatlarini cheklash orqali erishish qobiliyatini bildiradi; majburlashda obyekt subyektga itoat etmagan holda unga nisbatan kuch ishlatish tahdidi mavjud; rag'batlantirish asosida hokimiyat subyekti obyekt manfaatdor bo'lgan imtiyoz va xizmatlarni unga taqdim eta olish qobiliyati yotadi; ishontirish manbai bo'lib hokimiyat subyektga obyektga itoat ettirish uchun qo'llashi mumkin bo'lgan dalillarga egalik xizmat qiladi; manipulyatsiya subyektning obyektga yashirin ta'sir o'tkaza olish qobiliyati; avtoritet shaklidagi hokimiyatda subyektga xos muayyan xususiyatlar birligi obyektning buyrug'ini qabul qilishga undaydi.

Itoat manbaiga ko'ra avtoritet shaxsiy, an'anaviy yoki letal bo'lishi mumkin.

5.4. Hokimiyatning legitimligi

Fransuz politologi J.L.Kermonn legitimlikni biror mamlakat siyosiy hokimiyatining shu mamlakat qadriyatlariga muvofiqligi, deb ta'riflaydi. M.Dyuverje yana bir qo'shimcha qiladi: xalq birdam bo'lgan har qanday tartib — legitimdir.

Aslida legitimlik tushunchasi tahlili nima uchun odamlar hukmronlikka da'vo qiluvchilarga itoat etadilar; hukmronlikni oqlovchi ichki asoslar qaysi va qanday tashqi vositalar unga tayanch bo'lib xizmat qiladi? degan savollarga javob berishi kerak. M.Veber mana shunday ichki oqlash, ya'ni legitimlik asoslarining uch turini ko'rsatgan. "Birinchidan, — deb yozadi u, bu "doimo o'tmishdagi" ning: azaliy, mazmun va unga rioya etish odati bilan ilohiylashtirilgan fe'l-atvorlar avtoriteti uni patriarx yoki eski ko'rinishdagi patriamonial knyaz amalga oshirgan tarzidagi "an'anaviy hukmronlikdir", so'ngra ilohiy shaxsiy qobiliyat (xarizma) avtoriteti, biror insonda daho, yetakchilik sifatleri: mo'jiza, qahramonlik v.b.larning mavjudligi tufayli kelib chiqadigan turli shaxsiy sadoqat va shaxsiy ishonch, uni payg'ambar yoki siyosat sohasida, buyuk knyaz — lashkarboshi, plebissitar hukmdor yoxud buyuk notiq yohud siyosiy partiya rahnamosi amalga oshirgan tarzida xarizmatik hukmronlik; va nihoyat, belgilangan qoidalarni itoat bilan bajarishga qaratilgan hukmronlik, uni zamonaviy "davlat xizmatchisi" va unga o'xshash qobiliyat egalari amalga oshirgan tarzda- qonuniylik tufayli hukmronlikdir."

An'anaviy legitimlikni an'analarga sodiqlik tarzida baholash mumkin. Asli tushunchasining kelib chiqishi ham (fr. — legitim "qonuniy") — "monarxistik", Hali ham Fransiyada taxt qonuniy vorislari, tarafdorlarini legitimistlar, deb atashadi. Bu turdagi legitimlik barcha jamiyatlarda uchraydi. Xususan, Amir Temurning xonlik mavqeini egallashi tarixi — buning yorqin dalilidir.

Xarizmatik legitimlik-yetakchi shaxsgagina ishonch, sadoqat tufayli uning hokimiyatini tan olishdan iborat. M.Veberning o'zi bu holda — tarixiy vaziyat taqozosi bilan yangi sulola, tartib o'rnatishi lozim bo'lgan g'olib — yetakchini nazarda tutgan. Amerikaning birinchi prezidenti J.Vashington, Fransiya -Prezidenti — general Sh. de Goll, mamlakatimiz prezidenti — I.Karimov — xarizmatik yetakchilardir.

Ratsional — qonuniy legitimlik an'ana yoki shaxsiy sifatlarga emas, siyosiy hokimiyat kelib chiqishi va faoliyati demokratik huquqiy tartib — talablarga mos kelishiga asoslanadi.

2000-yilda AQSH Prezidentligiga o'tkazilgan saylovlar jarayoni ratsional — qonuniy legitimlikning yorqin misoli bo'la oladi: qonunda ko'zda tutilgan tadbirlar asosida g'olib aniqlanadi va tomonlar ushbu qarorga bo'ysunadilar.

Legitimlikning boshqa turlari ham mavjud. Demokratik davlatlarda ratsional — huquqiy legitimlik, asosan, tarkibiy yoki institutsional legitimlik shaklida namoyon bo'ladi. U fuqarolarning ayrim shaxslarga emas (shaxsiy legitimlik) davlat tuzilishiga bo'lgan ishonchiga asoslanadi.

Mafkuraviy legitimlik mohiyati hokimiyatni mafkura yordamida oqlashdan iborat. Mafkura hokimiyatning xalq, millat yoki sinf manfaatlariga muvofiqligini, boshqarish huquqini asoslaydi. Mafkura kimga yo'naltirilganligiga va qanday g'oyalardan foydalanishga ko'ra mafkuraviy legitimlik sinfiy yoki etnik legitimlik tabiatiga ega bo'lishi mumkin, ya'ni jamiyatni boshqarish huquqiga muayyan sinf (millat) gina egaligi asoslanadi.

Sobiq sotsializm mamlakatlarida sinfiy legitimlik, tarqalgan edi. XX asrning ikkinchi yarmida juda ko'p yosh davlatlar aholi e'tirofi va madadiga ega bo'lish uchun o'z hokimiyatlarini millatchilik g'oyalari (etnik legitimlik) asosida legitimlashga urinadilar va etnokratik rejimlar o'rnatadilar.

Shunday qilib, legitimlik — hokimiyat va jamiyat munosabatlarining shunday sifatiki, unda itoat etuvchilar hokimiyatini eng oliy qadriyat sifatida tan olib, uning boshqarish huquqini ixtiyoriy ravishda e'tirof etadilar. Legitimlik — hokimiyatning odamlarda mavjud siyosiy - institutlarning samaradorligiga bo'lgan ishonchini shakllantirish va tutib turish qobiliyatiga asoslanadi.

Legitimlik va legallik (qonuniylik) tushunchalarini bir — biridan farqlash kerak. Legallik — hokimiyatning huquqiy asosini, uning huquqiy me'yorlarga muvofiqligini anglatadi, legitimlik — hokimiyatga ishonch va uni xalq tomonidan qabul qilinishini anglatadi. Ko'ryapsizki, ikkinchi holda biz ma'naviy sifat bilan to'qnash kelyapmiz. Qonun chiqaruvchi va uning bajarilishini ta'minlovchi har qanday hokimiyat — legal, ya'ni qonuniydir. Ayni vaqtda, u xalq tomonidan e'tirof etilmasligi va nolegitim bo'lishi mumkin. Yorqin misol: Hindiston Milliy — ozodlik harakatining oxirgi bosqichida ingliz (legal) hokimiyati qarorlarining aholi tomonidan bajarilmay qo'yilganligi — inglizlarning Hindiston mustaqilligini tan olishiga majbur qilgan kuchli omil bo'lgan.

Hozirgi vaqtda legitimlik bilan bog'liq jarayonlar, asosan, ratsional — qonuniy tarzda tartibga solinadi. Shu o'rinda zamonaviy siyosiy tashkilotlar faoliyatini belgilovchi qoidalar o'zgarmas doimiy (konstitutsion) va o'zgaruvchan bo'lishini ham aytib o'tish lozim. Konstitutsiya va konstitutsion tartibga legitimlik dahldor emas, chunki ular o'zgarmasdir (xalqning, jamiyatning pirovard maqsadlari bilan bog'liq). Amaldagi hokimiyat esa, aksincha, o'z legitimligini tasdiqlatib borishi lozim. Masalan, zamonaviy saylovlar instituti ayrim tadqiqotchilar tomonidan legitimlikning o'ziga xos sun'iy inqirozi, deb ataldi. Konstitutsion tamoyillar va umumiy qoidalar asosida o'tadigan raqobatli saylovlar davomida siyosiy hokimiyat o'z legitimligini har gal yangidan tasdiqlab oladi. Shuning uchun, masalan, Prezident va parlament xalq nomidan so'z yuritish huquqiga ega yagona siyosiy tashkilot deb hisoblanadi. Har bir tarixiy davrda siyosiy hokimiyat o'z rivojlanishida o'ziga xos tendensiyalariga ega bo'ladi.

Bundan hozirgi davrdagi siyosiy hokimiyatning rivojlanishi ham mustasno emas. Hozirgi davrda siyosiy hokimiyatning rivojlanishida quyidagi tendensiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Dunyodagi ko'p mamlakatlarda totalitar va avtolitar tartibot shakllaridan voz kechish huquqiy demokratik, huquqiy davlatni qurishga intilish hozirgi davrda siyosiy hokimiyat taraqqiyotining asosiy tendensiyasi hisoblanadi. Bu yo'l ko'p mamlakatlarning Konstitutsiyalarida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatni demokratik yo'ldan rivojlantirishning siyosiy dasturidir. Unda Respublika ijtimoiy hayotini demokratlashtirishning asosiy tamoyillari asoslab berilgandir.

Hozirgi sharoitda siyosiy hokimiyatning rivojlanishida demokratik tendensiyalarning kuchayishini nafaqat Konstitutsiyalarda, balki real hayotda ham kuzatish mumkin. Bu ijtimoiy-siyosiy harakatlar va nodavlat birlashmalarning hokimiyatga ta'sirining ortib borishida, fuqarolik jamiyatining qaror topishi va rivojlanishida ko'rinadi.

Hokimiyat bo'linishining chuqurlashuvi – hozirgi davrda siyosiy hokimiyat rivojlanishining eng muhim tendensiyasi hisoblanadi. Bu hokimiyat shahobchalari vakolatlarining qayta taqsimlanishida, ya'ni ijro etuvchi hokimiyat vakolatlarining qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati foydasiga qayta taqsimlanishida ko'rinadi.

Hokimiyatning nomarkazlashuvi – hozirgi davrda siyosiy hokimiyat rivojlanishining yana bir muhim tendensiyasi hisoblanadi. Bu markaziy davlat tuzilmalari vakolatlarining mahalliy tuzilmalar foydasiga qayta taqsimlanishida, ya'ni o'z-o'zini boshqarishning rivojlanishida kuzatiladi. Hozirgi davrda siyosiy hokimiyat rivojlanishining yana bir muhim tendensiyasi – hokimiyatning ixchamlashuvi bilan bog'liqdir. Bu tendensiya byurokratik boshqaruv apparatining qisqarishi va uni saqlashga ketadigan xarajatlarning kamayishida ko'rinadi. Davlat xizmatchilari byurokratlar jamiyat manfaatlariga mos kelmaydigan egoistik manfaatlarga moyildirlar. Shuning uchun ham, ularning qisqarishi hokimiyat tuzilmalarini mustahkamlashga imkon beradi.

Hozirgi davrda siyosiy hokimiyatning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalardan yana biri – hokimiyat shahobchalarit faoliyatining baynalminallashuvidir. Bu tendensiya xalqaro miqyosdagi globallashuv natijasi bo'lib, alohida olingan mamlakat siyosiy hokimiyatiga xalqaro muammolar ta'sirining ortib borishida parlamentlararo, hukumatlararo aloqalarning kuchayishida ko'rinadi. Bugungi dunyoda har bir milliy davlat hokimiyati umumbashariy muammolarning ta'siri kuchayib borayotganligini inkor eta olmaydi. U ushbu muammolarning yechimini topish uchun birgalikda harakat qilishi majbur. Shu boisdan ham, har bir milliy davlat hokimiyatning olib borayotgan ichki siyosati xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlarning tarkibiy qismiga aylanmoqda.

SAVOLLAR

1.Hokimiyatning manbai nima ?

2. Jamiyatda tartib — intizomni saqlab turish uchun hokimiyat nima uchun majburlash resurslaridan foydalanadi? Xokimiyatning zo'rlikdan foydalanishi uning legitimligi bilan qanday kelisha oladi?

6- BOB. JAMIYATNING SIYOSIY TIZIMLARI

6.1. Siyosiy tizim tushunchasi

Siyosiy tizim tushunchasining paydo bulishi politologiya fani rivojlanishi mantiqi bilan bog'lik. Politologiya fani, xususan undagi bixevioristik yondashuv natijasida siyosiy faoliyatning alohida ko'rinishlari, alohida siyosiy institutlar va tashkilotlar faoliyati to'g'risida katta hajmda empirik ma'lumotlar to'plandi. Bu ma'lumotlar siyosatning shakli va mazmuniga doir etarli tasavvurlarni shakllantirgani holda jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar, xarakatlar, jarayon haqida keng ko'lamda fikr yuritishga hali imkom bermas edi. Siyosatni, uni tashkil etgan tarkibiy qismlar o'zaro aloqadorligi, jarayon sifatida o'rganish ham amaliy, ham nazariy dolzarb masala bo'lib qoldi.

Amerikalik sotsiolog olim T.Parsons (1902-1979) o'zi yaratgan ijtimoiy tizim nazariyasida uning qarashlariga nemis idealizmi M. Veber orqali kuchli ta'sir ko'rsatganini va u yana o'ziga zamondosh olimlar Xenderson, Pareto, Shumpeter, Emersonlar yaratgan nazariyalardan foydalanganini ta'kidlab o'tadi. Uning ta'kidlashicha, Pareto tizim modelini mexanikadan olgan va bu modelni iqtisod va sotsiologiyaga nisbatan qo'llashga xarakat qilgan.

Shu tarzda "ijtimoiy tizim" tushunchasi vujudga keldi. Xenderson, o'z navbatida, fizik va ximik tizimlar tushunchasini oydinlashtirib berib, "jonli tizimlar" ning o'ziga xosligi haqida fikr yuritish imkonini berdi. Nihoyat, Emerson organik dunyodagi jonli tizimlar bilan insoniyatning ijtimoiy-madaniy tizimlari o'rtasida fundamental bog'liqlik va uzviylik g'oyasini ilgari suradi.

Shu tariqa, Parsons tashqi muhit bilan uzviy aloqadorlikda bo'lgan va unga doimo moslashib boruvchi ijtimoiy tizim nazariyasini yaratdi.

T.Parsons zamonaviy g'arb jamiyatini to'liq ob'ekti sifatida tanlaydi. Unga ko'ra, zamonaviy jamiyatni murakkab, ichki bo'lingan tizim sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Uning tuzilishini to'rt o'zgarish ko'rsatkich: qadriyatlar (madaniy soha), me'yorlar (ijtimoiy soha), jamoalar (siyosiy soha) va rollar (iqtisodiy soha) asosida tahlil qilish taklif etiladi. Jamiyat yuqoridagi ko'rsatkichlarga amal qiluvchi to'rt kichik tizimga bo'linadi. Ular bir kichik tizim o'ziga xos funktsiyalarni bajaradi, ular ayni vaqtda boshqa kichik tizimlar bilan doimiy va chuqur aloqadorlikda, o'zaro ta'sirda bo'ladi, hamma kichik tizimlar birligi yahlit faoliyat tizimini (jamiyatni) tashkil etadi. Natijada jamiyat taraqqiyotini tashqi muhitga uzluksiz moslashishi va nazorat jarayoni tarzida o'rganish imkoniyati tug'iladi.

Jamiyatni mustaqil, o'zaro bog'liq tarkibiy qismlar birligi sifatida o'rganish modeli muayyan jamiyatning muammolari, jarayonlari, istiqbollari haqida to'liq va to'g'ri bilimga ega bo'lish imkonini beradi. Go'yo yaxshi shifokor inson tanasining faqat kasal a'zosinigina emas, barcha a'zo va ruhiyatni davolagani singari, jamiyatshunoslikda ham jamiyatning holatini o'rganishda barcha omillar va muhit ta'sirini hisobga olish va xulosalar chiqarish imkonini aynan tizimlar nazariyasi yaratdi.

Parsons g'oyasining uzviy rivoji tarzida D.Istonning siyosiy tizim nazariyasi yaratildi. Istons yondoshuvi siyosatning jamiyatdagi o'rnini oydinlashtiradi va undagi ijtimoiy o'zgarishlar mexanizmini tushuntirib beradi. Siyosat — Insonga ko'ra — nisbatan mustaqil soha bo'lib, uning asosiy vazifasi — resurslarni taqsimlashdan iborat.

D.Iston nazariyasi asosida "talab" — manbalarning taqsimlanishiga doir hokimiyatga qaratilgan norozilik yoki rozilik impulslaridir. "Madad" hokimiyatning faoliyatini qo'llab — quvvatlovchi impuls, ularning ko'payishi — siyosiy tizim kuchayishini, kamayish esa aksincha, zaiflashishini anglatadi. Madadning shakllari xilma-xil: ular soliqlarni vaqtida to'lash, harbiy burchni ado etish, qonunlarni hurmat qilish kabilardan iborat.

Talab va madad impulslarining haddan tashqari, ortib yoki kamayib ketishi tizim faoliyatini yomonlashtiradi.

Apatiya siyosiy loqaydlik; siyosiy voqea - hodisalarga nisbatan befarqlikni anglatadi. U siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish imkoni va qobiliyati yo'qolganida tug'iladi.

Siyosiy qarorlar "kirish" dagi talab, madad va partiyaga siyosiy tizim javobi tarzida vujudga keladi. U qonunlar, imkoniyatlar va maqsadlar haqidagi bayonnomalar shaklida bo'ladi. Qarorlar bajarilishiga oid hokimiyatning xatti- harakatlari ham belgilab beriladi.

Biz tizimli yo'nalish asoschilarining faqat ikkitasigagina tegishli nazariyalarni juda umumiy tarzda yoritib berdik, xolos.

Shuni ta'kidlash lozimki, g'arb politologiyasida jamiyat siyosiy tizimiga yagona qarash mavjud emas. Uning bir nechta mustaqil nazariyalari bor. Yuqorida sanab o'tilgan D. Istons tizimli tahlili G. Almond K. Doych siyosiy tizim nazariyasi bilan to'ldiriladi. Bundan tashqari, D. Trumens nazariyasi, G. Pauell va M. Kaplan nazariyalari mavjud v.h. Dastlabki ma'ruzalarimizda ta'kidlaganimizdek, tizimli yondashuv XX asrning o'rtalaridan boshlab siyosatni mustaqil, ichki bo'lingan, lekin doimiy aloqadorlikdagi rivojlanish sohasi sifatida o'rganuvchi fan yo'nalishiga asos soldi. Zamonaviy politologiya ko'p darajada — tizimli politologiyadir.

Siyosiy tizim nazariyalarining ko'p xilligi ular ta'riflarining ham xilma — xilligini keltirib chiqaradi. Ular ba'zan bir — birini inkor etadi. Eng umumiy tarzda jamiyat siyosiy tizimi — siyosatni shakllantirish va amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar, harakatlar, tashkilotlar, me'yorlar, qadriyatning umumlashgan ifodasidir. Tushuncha siyosiy faoliyatning barcha turlarini va sohalarini qamrab olish va tahlil qilish imkonini beradi.

Politologlarning aksariyati siyosiy tizim nazariyasining ahamiyatini — ta'kidlab, uni "ijtimoiy va siyosiy tahlilning nihoyatda qimmatli vositasi" deb baholashadi, ko'p hollarda uni hatto "muammolarni hal qiluvchi" kontsepsiya, deb ham atashadi. Bu bilan ular siyosiy tizim nazariyasining nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini ham ko'rsatadi.

Jamiyat siyosiy tizimi tushunchasi "barqarorlik", "turg'unlik", "muvozanat" kabi hodisalarning mohiyatini chuqurroq ochib beradi va ularning rivojlanishidagi u yoki bu bosqichi holatiga to'g'ri baho berish, ahvolni tuzatish bo'yicha oqil yo'l-yo'riqlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ushbu nazariya, shuningdek, davlat, partiyalar, ijro etuvchi hokimiyat, sud organlari, jamoat birlashmalari kabi institutlarni jamiyat siyosiy tizimining tarkibiy qismlari sifatida o'rganadi, ularning mohiyatini o'zaro aloqadorlikda va o'zaro ta'siri jarayonida ochib berish imkonini oshiradi.

Siyosiy tizim nazariyalari mualliflaridan biri Gabriel Almondga ko'ra siyosiy tizimlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Siyosiy ijtimoiylashuv — jamiyat a'zolarini siyosiy faoliyatga jalb-etish;

2. Manfaatlarni artikulyatsiyasi — siyosiy qarorlarni qabul qilishga aloqador qatlamlarga talablarni etkazish.

Z. Manfaatlarni umumlashtirish va e'tirozlarni, talablarni kelishtirish orqali ularni bir siyosiy platforma, siyosiy bayonot ko'rinishiga keltirish. Bu vazifa, ko'pincha, partiyalar tomonidan amalga oshiriladi.

4. Siyosiy muloqot — siyosiy tizim ichida va tashqi muhit bilan turli vositalar, shu jumladan, axborot almashuvi orqali amalga oshiriladi.

5. Fuqarolar va siyosiy tizim institutlari, tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi normalarni ishlab chiqish.

6.2. Siyosiy tizim turlari

Siyosiy tizim haqidagi nazariyalarda ularni turli xil mezonlarga ko'ra turkumlashga xarakat qilinadi.

Ushbu tipologiyalarning ko'pchiligi siyosiy sohaning murakkabligi va xilma-xilligi bilan asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, har bir amalda mavjud siyosiy tizim turli bo'linishi aniq emas, bunday sharoitda kuch — hal qiluvchi rol o'ynaydi;

- 4) totalitar siyosiy tizimlarda jamiyat to'laligicha davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Z. Bzejnskiy va S. Xantingtonlar siyosiy tizimlarni instrumental va mafkuraviyga bo'ladi. Instrumental siyosiy tizimlar (masalan, III) ijtimoiy va siyosiy rivojlanishning tabiiy yakuni sifatida vujudga keladi. Mafkuraviy siyosiy tizimlar esa ma'qul, deb topilgan model asosida sun'iy ravishda tashkil topadi.

Hokimiyat, jamiyat va shaxs munosabatlari tabiati va usullariga ko'ra totalitar, avtoritar va demokratik siyosiy tizimlar ajratib ko'rsatiladi. Siyosiy tizimlarning ushbu ko'rinishiga zamonaviy siyosiy nazariyada alohida diqqat qaratiladi. Shuning uchun keyingi paragraflarda ularga batafsil to'xtab o'tamiz.

6.3. Totalitarizm

Totalitarizm - (lot. Totalita.) — to'liq, butunlik, g'oyalar, fikrlar, nuqtai-nazar sifatida juda qadimiy ildizlarga ega. Miloddan avvalgi V asrda Geraklit donolik va mukammal bilim asosida barcha narsalarni boshqarish mumkin, deb hisoblagan. Aflotun, T. Mor, T. Kampanella, G. Babef. Sen - Simon, J. J. Russo davlatning aynan totalitar modellarini ishlab chiqishgan. Keyingi mualliflardan Fixte, Gegel, Marks, Nitshe, Lenin, Sorel, Zombart asarlarida bu g'oyalar rivojlantirilganini ko'ramiz.

Totalitarizm tushunchasi XX asr boshlarida K. Shmitt asarlarida, huquqiy davlat paradigmasini tanqidiy qayta ko'rib chiqish munosabati bilan, nazariy asoslab berilgan. 20 — yillarning oxirida tushuncha Italiyadagi real siyosiy tartibotni baholash uchun Djovani Amendola va Perro Gobetti tomonidan ko'llandi. Ularning maqsadi totalitarizmning despotizm, oligarxiya, tiraniya kabi tartiblardan farqini ko'rsatish bo'lgan. Mussolini va uning tarafdorlari totalitarizm tushunchasiga ijobiy ma'no berishgan, uni ko'klarga ko'tarishgan. 20 — yillardan "totalitarizm" politologiyaning terminlaridan biriga aylandi. XX 40—50 yillarida R. Aron, "Demokratiya va totalitarizm" „X. Arendt, "Totalitarizm manbalari", K. Fridrix va Z. Bzejnskiy, "Totalitar diktatura va avtokratiya" asarlarida totalitarizm kontseptsiyasi yaratdilar.

Bu kontseptsiyalarni bugungi kunda "statik" deb ataladi, negaki ularda totalitar boshqaruv belgilarini aniqlash- bosh maqsad bo'lgan. Demak, totalitarizmga xos belgilarni aniqlash, so'ngra esa shu belgilarga mos yoki mos emasligi asosida u yoki bu jamiyat siyosiy tizimining totalitar yoki totalitar emasligini asoslashga xarakat qilingan.

Masalan, K.Y. Fridrix va 3. Bjezinskiy totalitarizmning sindromi (belgisini) ishlab chiqqan. Bular, etakchi, mafkura, davlat partiyasi, qurol va aloqa vositalariga davlat yakka hokimligi, terroristik yashirin politsiya va iqtisod ustidan davlat nazorati.

Totalitarizmning zamonaviy kontseptsiyalarida totalitarizmi huddi demokratiya, avtoritarizm singari siyosiy tizim turi sifatida qaraladi, unda hokimiyat amal qilishi usuli tahlil qilinadi. Shunga ko'ra totalitarizm butun jamiyat ustidan o'z nazoratini o'rnatishga xarakat qiluvchi, o'z legitimligini baxtli kelajak va {totalitar} mafkura bilan asoslovchi, absolyut haqiqatga da'vo qiluvchi tizimdir. Totalitarizm jamiyatda har qanday, shu jumladan, siyosiy plyuralizmni yo'q qilishga intiladi, buning uchun ommaga suyanadi, jamiyatni esa eng zamonaviy, eng ilg'or, deb xalqni ishontirishga urinadi. Totalitar jamiyatda davlat—partiyaga suyanuvchi mafkuraviy davlatdir. Siyosiy tizimni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar o'zlarining asl vazifalarini bajarmay, hukmron partiya—davlat birlashmasining ko'rsatmalarini bajaradi.

Totalitarizm modellarining amalda qaror topishi muayyan ijtimoiy sharoitlardagina mumkin bo'ldi. Totalitarizmning bosh va umumiy negizini jamiyatning industrial rivojlanish bosqichi tashkil etadi. U ommaviy kommunikatsiya tizimini vujudga keltirdi, ijtimoiy aloqalarni murakkablashtirdi, muntazam mafkuraviy ta'sir ko'rsatish, shaxs ustidan to'liq nazorat o'rnatish imkonini berdi. Iqtisodiy sohada — monopoliyalar tashkil topib, kuchayib borayotgan davlat bilan aloqalarini mustahkamlaydi. Hokimiyat hayotida ratsionalizm, tartib, boshqaruv elementlarining ko'payishi, fan, texnika, ta'lim sohalaridagi yutuqlar bilan uyg'unlikda butun jamiyat miqyosida oqilona tashkil qilingan va yalpi boshqarilishi mumkin bo'lgan hayot shaklini qurish imkonini berayotgandek. Ana shu yalpi tashkilotning markazi bo'lib kuch-qudratli davlat hokimiyati maydonga chiqa oladi. Totalitarizm manbalaridan yana, biri — kollektivistik dunyoqarashdir, shaxsning an'anaviy kollektivistik qadriyatlar emirilishidan ruhiy noroziligi, qoniqmasligi hamdir. Bu asos ayniqsa ijtimoiy—iqtisodiy inqirozlar davrida kuchayadi. Inqiroz davrida original guruhlar totalitarizm tarafdorlari bo'lib chiqadi. Masalan, Germaniyada natsional — sotsializmning ijtimoiy suyanchig'i bo'lib yangi oraliq sinf - idora xizmatchilari, mashinistkalar, o'qituvchilar, sotuvchilar, mayda xizmatchilar v.x.lar chiqdi. Ularning iqtisodiy ahvoli kasaba uyushmalari va davlat qonunlari bilan himoyalangan ishchilarnikidan ancha yomonlashgan edi.

Ammo sanab o'tilgan asoslardan faqat muayyan siyosiy sharoit mavjud bo'lgandagina foydalanish mumkin. Siyosiy manbalarga davlat ta'sirining keskin kuchayishi - "etatizm", totalitar xarakatlar va yangi tipdagi partiyalar, mafkura, etakchi, ommaviy, yarimxarbiy tarkibli, to'liq itoatga asoslangan tashkilot mavjudligi kiradi.

Totalitar tartibotlar quyidagi belgilari va ko'rinishlari bilan ajralib turadi:

1. Butun jamiyat hayoti mafkuraga bo'y sundiriladi. Hukmron mafkuraga absolyut haqiqat maqomi beriladi. Mazmuniga ko'ra totalitar mafkura inqilobiydir. U yangi inson va yangi jamiyat ko'rishni asoslaydi.

2. Axborot manbalarining to'laligicha hokimiyat qo'lida ekanligi. Aholining siyosiy madaniyati siyosiy axborotlardan xabardorlik bilan almashinadi. g'oyaviy muholiflar dushman sifatida baholanadi;

3. Davlat mavqeining kuchayib, fuqarolar jamiyati, har qanday shaxsiy hayotining yo'qqa chiqarilishi; Totalitarizmning asl maqsadi — fuqarolik jamiyatining har qanday ko'rinishlarini yo'q qilish. Inson yoki ijtimoiy guruhlarining mustaqilligini ta'minlovchi barcha, narsalar emiriladi, inson siyosatdan mutlaqo begonalashgani holda, siyosat sub'ekti deb baholana-veradi;

4. Rahbar partiya davlat apparati bilan birlashib ketishi natijasida jamiyatni nihoyatda markazlashgan davlat — partiya nomenklaturasi boshqaradi;

5. Ijtimoiy nazorat va zo'rlik apparati kuchayadi;

6. Markazlashgan iqtisod davlat mulkining barcha shakllari ustidan qattiq nazorat o'rnatishi;

Yuqorida sanab o'tilgan umumiy belgilar bilan birga totalitar tuzumlar muayyan farqlar, o'ziga xos belgilarga ham ega. Bu — ularning bir nechta ko'rinishlarini ajratib, o'rganish imkonini beradi. Hukmron mafkuraga ko'ra ularni kommunistik, fashistik, natsional — sotsialistik tartibotlarga bo'linadi. Totalitarizmning tarixan birinchi va klassik ko'rinishi — sovet tarzidagi kommunizm sotsializmdir. G'arbda uni "sul totalitarizm", deb ham baholanadi. Kommunistik jamiyat xususiy mulkni bekor qilish bilan shaxs erkinligini ham yo'q qiladi, davlatning mutloq hokimiyatini ta'minlaydi.

Fashizm Italiyada 1922 yilda o'rnatilgan. Italiya fashizmi asosan millat ravnaqi, Rum imperiyasi buyukligi tiklash vazifasini qo'ygan. Fashizm "ruhi"ni poklash, madaniy yoki etnik asosda kollektiv bir xillikni ta'minlash, jinoyatchilikni yo'qotish da'volari bilan chiqadi.

Natsional — sotsializm 1933 yilda Germaniyada vujudga keldi. U fashizmdan o'sib chiqqan bo'lsa—da, ko'p xususiyatlarini sovet kommunizmidan olgan. Xususan, inqilobiylikni, sotsialistik g'oyalarni, totalitar partiya va davlat tuzish shakllarini v.h. Faqat "sinf" tushunchasining o'rnini — "millat", "sinfy manfaatlar"ni, "milliy va irqiy manfaat" oladi. Kommunistik tizimlarda kurash tig'i ichki, sinfiy dushmanga qaratilgan bo'lsa, natsional-sotsializm tashqariga, boshqa xalqlarga qarshidir. Ushbu totalitar tuzumlarning asosiy farqi ularning turli maqsadlarida — (kommunizm, imperiyani tiklash, oriylarning dunyo hokimiyati) va suyanadigan ijtimoiy kuchlarning xar-xilligidadir (ishchilar sinfi, rimliklarning avlodlari, german millati). Shu uch totalitar davlat turlari ichida ham aynan o'xshashlari kam, ma'lum xususiyatlari bilan ular farqlanib turadi. Masalan, SSSRdagi stalinizm bilan Kampuchiyadagi Pol-Pot rejimi. Bu farqlarning manbaini albatta, madaniyatlaridagi farqlaridan izlash lozim.

Totalitar tartibotlarda siyosiy barqarorlik yuzaki, bu, ayniqsa, rahbarlar almashinuvi jarayonida kuzatiladi. Negaki, bu tartibotlarda hokimiyatlarning bir shaxsdan ikkinchisiga o'tishi tartibi, tadbirlari ishlab chiqilmagan, ishlamaydi. Totalitar davlat o'z zimmasiga juda ko'p vazifalarni yuklaydi, shu jumladan o'ziga xos bo'lmaganlarini ham, ammo, ularni to'la ko'lamda bajara olmaydi. Natijada bunday tartibotlar yoki emiriladi, yoki asta-sekin liberallashadi.

6.4 Avtoritarizm

Avtoritarizmning dastlabki ma'nosi – avtoritet va an'anaga asoslangan kattalar hokimiyatini hurmat qilish. U jamoa manfaatlarining shaxs manfaatlaridan ustunligiga asoslanadi.

Avtoritarizmning shakllari absolyut monarxiya, diktatura, posttotalitar rejimlardir. Avtoritar rahbarlar qo'rqitish, qirg'in, zo'rlikni qurol qilib olishlari, hamda shu bilan birga, ommaning ishonchini qozonishga, qonunga suyanishga v.h. vositalarga ham murojaat qilishlari mumkin. Tarixdagi barcha avtoritar tartibotlar hukmronlikning an'anaviy va xarizmatik turlariga asoslangandir. Totalitar tartib yemirilgandan so'ng, tashkil topgan davlatlarning ko'pchiligida avtoritar rejimlar amal qiladi. Uning zaif va kuchli tomonlarini yaxshi bilish lozim. Avtoritarizm zaif tomonlarini: siyosatning ayrim shaxs yoki guruh irodasiga to'laligicha bog'liqligi: fuqarolarning siyosiy hayotda chetlanganligi; butun jamiyatning siyosiy o'yinlar, avantyuralar qurboni bo'lish potentsial xavfining doimiy mavjudligi; umid, O'rta asrlardagidek, podsho, rahbar, yetakchining adolati, zakovatiga bog'liqligi tashkil etadi. Shu bilan birga, avtoritar tuzumlarning bir qator ijobiy tomonlari ham borki, ular, ayniqsa, o'tish davrini boshidan kechirayotgan jamiyatlarda o'z samaradorligini, amalda - ko'rsatadi. Avtoritar hokimiyat — kuchli hokimiyat, shuning uchun, uning jamiyatda tartibi, barqarorlikni ta'minlash qobiliyati bir muncha yuqoriroq. Bu hokimiyat turli kuchlar qarshiligini sindirib jamiyatda tarkibiy o'zgarishlarni tez o'tkaza oladi va butun imkoniyatlarni eng dolzarb muammolarni hal qilishga yo'naltira oladi. Tub islohotlar va o'zgarishlar davrida ana shunday kuchli hokimiyatning mavjud bo'lishi, albatta, afzalroqdir. Avtoritar tartibotlar ichki mohiyatiga ko'ra turlicha bo'lali. Avtoritar tuzumlarning aksariyati zamonaviylashuv yo'lidan boradi. Hozirgi vaqtda avtoritar tartibotlar

demokratiyaga yo'nalganligi bilan xarakterlanadi. Bunday yo'nalgan siyosiy rejimlar jamiyatda bozor munosabatlarini qaror toptirish, o'rta qatlam nufuzini orttirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, qonun ustivorligini ta'mirlash, jamiyatni siyosiy va umumiy, har qanday plyuralizmga tayyorlash vazifalarini bajaradi. Ularning faoliyat davrlari turlicha. Bir necha yuz yillik tarixga ega barqaror monarxiyalardan to bir necha kunlik harbiy diktaturalargacha. Avtoritarizmning quyidagi asosiy xususiyatlari ko'rsatiladi:

1. Hokimiyatning bir shaxs yoki kichik bir guruh qo'lida to'planganligi;
2. Hokimiyatning cheklanmaganligi, fuqarolar tomonidan nazorat qilina olmasligi (hokimiyat qonunlar asosida ish ko'rishi mumkin, ammo bu qonunlar hokimiyat ehtiyojlariga ko'ra qabul qilinadi);
3. Kuchga suyanish. Avtoritar tuzum xalq tomonidan quvvatlanishi, repressiyalar, zo'rlik ishlatilmasligi mumkin. Ammo, u yetarli kuchga ega bo'lib, istalgan vaqtda itoat va tartib o'rnatish layoqatiga ega;
4. Hokimiyat va siyosat sohasida yakka hukmronlikning o'rnatilishi, amalda muxolifat va raqobatga yo'l qo'ymaslik. Avtoritarizm sharoitida bir qancha partiyalar, kasaba uyushmalari va h.lar mavjud bo'lishi mumkin, lekin ular hokimiyat nazoratida bo'ladilar. Ba'zan muxolifatning yo'qligi jamiyatning shunga tayyor emasligi, ehtiyojini yo'qligi bilan ham izohlangan.
5. Jamiyatning siyosatdan boshqa sohalarga kam aralashishi. Hokimiyat birinchi navbatda o'z xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini o'rnatish, mudofaa, tashqi siyosat bilan shug'ullanadi. Ammo, iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga ta'sir etishi, faol ijtimoiy siyosat olib borishi ham mumkin.
6. Siyosiy elitani raqobatli saylovlar jarayonida emas, yuqoridan tayinlash yo'li bilan shakllantiradi. Avtoritar tartibotlarda hokimiyat biror yetakchi mafkura yoki siyosiy partiyalarga emas, armiya, din, an'anaviy qadriyatlar v.h.larga suyanadi, jamiyatga yangi qadriyatlar tizimini kiritishga "yangi insonni" shakllantirishga harakat qilmaydi. Avtoritar tartib keng va turg'un ijtimoiy negizi muhtoj, shuning uchun, u fuqarolik jamiyatini yo'q qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, jamiyatning shakillangan, an'anaviy tartibini saqlab qolishga avtoritar hokimiyat o'zini cheklovchi mexanizmlarga ega. Masalan, iqtisodda-mulkchilikning ko'p shakllarga egaligi, ijtimoiy sohada-ijtimoiy bir xillikning yo'qligi, sinf, qatlamlarning muxolif sifatida yo'q qilinmasligi, mafkura sohasida-turli qarashlar va nuqtai nazarlarning cheklangan va yashirin (latent) holda mavjud bo'lishi. An'analar-avtoritar hokimiyatning asosiy cheklovchilaridir.

6.5. Demokratiya

Hozirgi davrning butun murakkabligi va ziddiyatlariga qaramay uning siyosiy sohasidagi umumiy yo'nalish-demokratiya ekani shubhasiz. U haqda ko'p gapirishadi, ko'p yozishadi, qarorlarning to'g'riligini u bilan asoslashadi, siyosiy faoliyatning uslublari, vositalari, maqsadlarini ro'y berayotgan jarayonlarning uning nomi bilan izohlashadi. Yangi tashkilot, harakatlar, shu jumladan, milliy harakatlar ham demokratik liboslarga burkanadi. Inqirozdan chiqishning yagona yo'li-ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirish va jozibali ideal-demokratik jamiyatdir, degan fikr qayta-qayta takrorlanadi.

Demokratiya-xalq hokimiyati sifatida tarjima qilinadi. Bu ma'noda, yoki "boshqaruvda to'g'ridan – to'g'ri ishtirok" ma'nosida demokratiyani qabila – urug'chilik jamiyatlaridayoq uchratish mumkin. Politologlar xalq hokimiyatining mukammal shaklini Yunonistonning shahar-davlatlari bilan bog'laydilar. Ijtimoiy jamiyatdagi o'z - o'zini boshqaruv demokratik edi: har bir qabila a'zosining jamoa hayotida ishtiroki tabiiy ravishda belgilanar edi. Bu davr jamoa va uning a'zolari manfaatlarini bir - biriga mos tushar, hozirgi ma'nodagi siyosat yo'q edi.

Qadimgi demokratiya jamoa a'zolarining jamoa ishlarida to'g'ridan – to'g'ri ishtirokiga asoslangan. Demokratiyaning bu elementlari hamma xalqlarda uchraydi. Xususan, akademik Bartoldning "eski turklarda... demokratiya turi mavjud edi", - degan xulosasi mavjud.

Siyosatning murakkablashib borishi, ya'ni ko'plab manfaatlarning ajralib chiqishi bilan hukmronlik itoat munosabatlari qaror topdi. Hokimiyat pogonaviy tus oldi. Yunon davlatchiligi tarixi ana shu munosabatlarning (avtoritar) mazmunini yangi, demokratik ma'no bilan to'ldirdi. "Hokim – oq suyak - zodagonlar - demos (xalq)" pog'onaviy hukmronlik tartibi o'rnini" xalq yig'ini - (chek, saylash, rotatsiya asosida) tayinlanuvchi lavozim egalari- yetakchi munosabatlari egalladi. Yog'in - xokimiyatni tayinlovchiga aylandi, ya'ni oliy hukmron ustidan hukmronlikka ega bo'ldi, ya'ni xalq - hokimiyatning manbaiga aylandi.

Shunday qilib, antik davridayoq demokratiya rivojida ikki yo'nalish belgilandi: birinchisi, o'z –o'zini boshqaruvchi demokratiya, ya'ni fuqarolarning to'g'ridan- to'g'ri ishtirokini nazarda tutuvchi tartib. Bu tartib u yoki bu tarzda barcha jamiyatlarda amal qiladi, xususan, bizning tariximizda ham boshqaruv elementi tarzida mavjud bo'lib kelgan. Ikkinchisi, umumxalq demokratiyasi. U fuqarolarning tengligi, burchlar, qonun oldida javob berish va qonun asosida hukm yuritish tamoyillariga asoslanadi.

Hozirgi vaqtda demokratiya – xalqni hokimiyat manbai, deb e'tirof etuvchi, fuqarolar tengligi, ozchilik huquqlarini himoyalovchi, davlatning asosiy organlari - saylovlar natijasida shakllanuvchi siyosiy jamiyat tizimi, sifatida tushuniladi.

Demokratiyaning jamiyat hayotini tashkil etish usuli sifatidagi eng muhim afzalliklari u mavjud boshqa boshqaruv usullariga nisbatan hokimiyatni cheklash, uning barqarorligini saqlash va uni bir qo'ldan ikkinchisiga o'tishi mexanizmlarini atroflicha ishlab chiqqanligidir. Mana shu xususiyatlari, hamda jamiyatdagi ixtiloflarni tinch yo'l bilan muhokama, yon bosish, kelishuv orqali hal qilishga asoslanganligi - bugungi kunda ko'p mamlakatlar uchun demokratiyani jozibali va ma'qul rivojlanish yo'liga aylantirmoqda.

Demokratiyaning bir nechta mumtoz modeli mavjud:

Antik yoki to'g'ridan-to'g'ri ishtirokka asoslangan demokratiya. Yuqorida aytilganidek, bu davrning o'zida demokratiya rivojida ikki yo'nalish belgilandi. Birinchisi, o'z - o'zini boshqaruvchi, ya'ni fuqarolarning to'g'ridan- to'g'ri ishtirokini nazarda tutuvchi tartib va ikkinchisi, umumxalq demokratiyasi, ya'ni xalqni hokimiyatning manbai sifatida qarab, uning nomidan hokimiyati amalga oshiruvchi tartib.

Mumtoz liberalizm demokratiyasi modeli. Liberalizm ijtimoiy fikr tarixida birinchi bor individni jamiyat va davlatdan, ikki muxtor sohani- davlat va fuqarolik jamiyatini bir - biridan ajratdi, davlatning fuqarolik jamiyati va shaxs bilan munosabatlarini qonun va vazifalar jihatidan chekladi, ozchilikning ko'pchilikka nisbatan muxtoriyati va huquqlarini himoya qildi, barcha fuqarolarning siyosiy teng huquqliligini bayon etdi, shaxsni siyosiy tizimning bosh elementi sifatida fundamental, begonalashmaydigan huquqlar bilan ta'minladi.

Mumtoz liberal demokratiya modeli XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshida G'arbiy Yevropa va AQSHda amal qilgan. U quyidagi belgilarga ega:

1.Hokimiyat manbai bo'lgan xalq qatoriga mulkdor erkaklarga kiritilib, quyi qatlamlar, avvalo yollanma ishchilar, ayollarni saylov huquqiga ega fuqarolar safiga qo'shilmasligi. G'arb demokratiyalarining ko'pchiligida XXasr boshi va o'rtalarigacha mulkiy v.b. senzlar (chegaralar) mavjud bo'lgan bo'lib, ularsiz inson ovoz berish huquqiga ega emas edi. (AQSHning ba'zi shtatlarida o'ziga xos mulkiy senz - saylov solig'i - 1961 yildagina bekor qilindi, umumiy .saylov huquqi 1848 - yilda - hammadan avval kiritilgan. Shveysariyada ayollarga 1971 - yilgacha bu huquq kafolatlanmagan edi).

2.Individualistik ekanligi, shaxsni hokimiyatning birlamchi va bosh, manbai, deb bilishi, individ huquqlarining davlat qonunlaridan ustunligini tan olishi. Himoyalaniish maqsadida inson huquqlari Konstitutsiyada belgilanadi, ularning toliq bajarilishini esa, mustaqil sud nazorat etadi. Shu bilan birga, liberal demokratiyaning ijtimoiy- siyosiy cheklanganligi, fuqarolarni ijtimoiy himoya qila olmasligi, tengsizlikning zo'rayishi, shaxs siyosiy ishtirokining cheklanganligi, davlat "tungi qorovul" roli bilangina cheklab qo'yilishi uning muhim kamchiliklari hisoblanadi.

Demokratiyaning yakka bir modeli - identitar demokratiya. U jamiyat va shaxs (millat, sinf) manfaatlarining umumiyligi, xalq - hokimiyatning yagona manbai ekanligi, vakolatli hokimiyat - to'laligicha xalq manfaatini ifodalashidan kelib chiqadi.

Identitar demokratiya nazariy modelini J.J.Russo ishlab chiqqan. U sotsialistik demokratiya tarzida XX asr davomida amal qildi. Hozir ham, masalan, XXR o'z islohotlarida kollektivistik demokratiya modeliga asoslanyapti.

Ko'pgina farqlariga qaramay turli kollektivistik demokratiya nazariyalari bir qator umumiy belgilariga ega. Ularga quyidagilar kiradi: 1) xalqni kollektiv talqin etish, xalqni yagona, bir turdagi, ob'ektiv mavjud bo'lgan umumiy manfaat va irodaga ega butunlik sifatida tan olish; 2) xalq ichida qarama - qarshilik yo'qligi, siyosiy muholifatni dushman yoki yot narsa sifatida qarash va uni kuch vositasida yo'q qilish; 3) erkinlikni kollektivistik, (antik davrdagiga yaqin) ya'ni fuqaroning o'z davlati va jamiyati ishida faol, teng huquqli ishtiroki sifatida tushunish; 4) amalda hokimiyatning o'zini xalq (sinf, millat) bilan bir narsa sifatida ko'rsatuvchi totalitar, hamma sohaga kirib boruvchi mutloq tabiatga ega ekanligi, kamchilik, shu jumladan, alohida shaxslarning himoyasizligi; 5) davlat - bir butunlik sifatida - o'z tarkibiy kismlarining tinchligidan manfaatdor bulganligi sababli - inson huquqlari masalasining umuman yo'q qilinishi; 6) umumiy siyosiy mobilizatsiya, 7) ijtimoiy demokratiyani targ'ib etish, asosiy diqqatni siyosiy huquqlarni yuridik jixatdan e'tirof etishdan fuqarolarning boshqaruvda ishtirok etishlari uchun ijtimoiy sharoitlarni yaratishga ko'chirish.

Kollektivistik demokratiya nazariyasi o'zining noqobilligini amalda ko'rsatdi. Uni ko'llashga intilish totalitarizmga olib kelgan. Shu bilan birga bu ulkan nazariy va amaliy tajriba siyosiy fikr rivojlanishi va demokratik boshqaruv shakllari taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Plyuralistik demokratiya modeli – liberal siyosiy tizimdan - o'sib chiqqan va uning asosiy tashkiliy tamoyillarini meros qilib olgan. Bu tamoyillarga konstitutsionalizm, hokimiyatlar bo'linishi, shuningdek, shaxsiy erkinliklar, inson huquqlari, ozchilik muxtoriyati kabi kadriyatlar kiradi. Plyuralistik demokratiya-ijtimoiy manfaatlar va ularni bayon etish shakllarining xolma - xilligiga asoslanadi.

Plyuralistik demokratiya nazariyasi dunyoning ko'p mamlakatlarida e'tirof etildi va amalda qo'llana boshlandi. Ammo uning g'oyalari shubhasiz emas va tanqid qilib kelinadi. Bu nazariyaning boshlang'ich kamchiliklardan biri – voqelikni ideallashtirish, axolini rypuhlappa mansubligi hissini, fuqarolarning manfaat guruhlarida ishtirokini oshirib yuborish. Real xayotda, /arb mamlakatlarida, aholining uchdan bir kismidan ko'p bo'lmagan miqdori manfaat guruhlarida birlashgan. Shuning uchun ham plyuralistik model asosidagi demokratiya ko'pchilik hokimiyati bo'lolmaydi.

Plyuralistik demokratiya modeli ham kamchiliklar va zaif tomonlardan holi emas. Ammo bugungi kunda xalq hokimiyatchiligi ideali va real hayotga bundan yaqinroq modellar mavjud emas. Shuning uchun ham plyuralistik demokratiya modeli siyosiy fikr va amaliyotga keng ta'sir ko'rsatadi. Asosiy diqqatni xalqning siyosat sub'ekti sifatida murakkab guruhiiy tarkibiga qaratgani holda bu nazariya, albatta, zamonaviy demokratiyalarning barcha jihatlarini aks ettira olmaydi va bir qator boshqa kontseptsiyalar bilan to'ldiriladi.

Reprezentativ demokratiya – xalq oldida mas'ul, malakali vakolatli boshqaruv g'oyasiga asoslangan. U xalq nomidan, jamiyatni malakali va mas'uliyatli shaxslar boshqarishi zarur, degan tamoyildan kelib chiqadi.

Reprezentativ demokratiyaning ancha aniq ta'rifini nemis olimi Ralf Darendorf beradi: "o'zining tom ma'nosiga qarama - qarshi o'laroq, - deb yozadi u, -demokratiya "xalq hokimiyati" emas; bunaqasi umuman bo'lmaydi. Demokratiya - bu xalq tomonidan saylanadigan, kerak bo'lsa uning o'zi chaqirib oladigan hukumat; bundan tashqari bu - o'z yunalishiga ega bo'lgan hukumat" 1.

Partitsipatorlik (ishtirok) demokratiyasi-xalq hokimiyati sifatidagi me'yoriy idealga toliq mos kelishiga va uning zamonaviy davlat va jamiyat tuzilishiga moslashishiga da'vogarlik qiladi. Unga ko'ra boshqaruvda ko'p odamlarning ishtirok etishi qarorlar qabul qilish uchun intellektual potentsialni kengaytiradi, ularning eng ma'qullarini tanlash ehtimolini oshiradi va, demak, siyosiy tizim barqarorligi va boshqaruv samaradorligi ortadi. Bundan tashqari, fuqarolarning siyosiy jarayonda faol ishtiroki mansabdor shaxslar ustidan samarali nazoratni ta'minlaydi,

hokimiyatni suiste'mol qilishning, deputatlarning xalqdan uzilib qolishini, amaldorlarning byurokratlashuvining oldini oladi, deb hisoblaydi.

Bugungi kunda g'arb madaniyatiga mansub bo'lmagan mamlakatlarda ham demokratiyaning qaror topish hollari mavjud. (Turkiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Braziliya v.h.). Bu esa jahonda demokratiyaning yangi modellari vujudga kelishi jarayoni davom etishini anglatadi.

Jamiyatdagi siyosiy munosabatlarning asoslarini demokratik tamoyillar va demokratik tadbirlar tashkil etadi. Demokratik tamoyillarga: hokimiyat asosiy organlarining saylanishi; hokimiyatlarning bo'linishi; siyosiy plyuralizm, erkinlik va mas'uliyatning birligi; qonun ustuvorligi; jamoatchilik fikrining hisobga olinishi; ijtimoiy kamchilikning o'z nuqtai nafari va oshkoralikka ega bo'lishi huquqi. Demokratik tadbirlarga saylovlar, hisobotlar, vakillarni chaqirib olish, qonun loyihalari v.b. xujjatlarni umumxalq muhokamasi, referendumlar, orqali qabul qilish so'rovlar, mitinglar, majlislar, s'ezdlar, namoyishlar, chet el tashriflari v.h.larni kiritish mumkin. Ammo bularning mavjudligi xali jamiyatda demokratlashtirish yalpi tus olganligini bildirmaydi. Demokratlashtirishning yana bir muhim tomoni - demokratik madaniyatning shakllanishidir.

Har bir xalq mentaliteti va jamiyat zaminida muayyan sharoitlarda bozor munosabatlari va siyosiy demokratiya qadriyatlarini o'zlashtirishga tayyor elementlar mavjud.

Markaziy Osiyoda mamlakatni idora etishda qadimdan jamoatchilikning erkin fikriga alohida etibor berilib kelingan. Xalqning fikrini bilish, turli ijtimoiy guruhlar va tabaqalar bilan bamaslahat ish yuritish ko'plab hukmdorlar, beklar, hokimlar uchun qonun-qoida hisoblangan. Davlat ishlari jamoatchilik bilan birgalikda, murosayu - madora, muruvvat, bag'rikenglik va sabr- toqat bilan yurgizib kelingan.

O'zbekistonda ham demokratiyaga o'tishda o'ziga xos yo'ldan borilmoqda. Unda milliy an'analar, urf - odatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, milliy davlatchilik an'alarini asrab - avaylab saqlash va rivojlantirish yo'lidan shoshilmasdan, izchil, bosqichma-bosqich borilmoqda.

Yuqorida aytilgan fikrlardan xulosa shuki, demokratiya barcha muammolarni hal qilib beruvchi sirli kalit yoki "orzudagi jamiyat" emas. Uning totalitarizm va avtoritarizmdan muhim farqi yolg'iz shundaki, u jamiyatni tashkil etuvchi ozod va erkin fuqarolarning irodasi, manfaatlari, ehtiyojlarining ko'pligi va bir-biriga o'xshamasligini e'tirof etgani va bu xilma - xillikni qadrlagani holda, fuqarolarga kelishuv, yon bosish, muhokama, munozaralar uchun rasmiy, qonuniy yo'llarni ochib berish va ko'pchilikka ma'qul qarorlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Demokratik jamiyatda inson yakka hokim yoki guruh irodasiga ko'ra emas, o'z irodasi va imkoniyatlariga ko'ra o'z hayotini quradi va farzandlari hamda o'zining baxti uchun, eng avvalo, o'zi zamin yaratadi.

Siyosiy tizimlar nazariyasi ijtimoiy tizimlarni "ilg'or - qoloq", "yaxshi - yomon" nuqtai nazaridan, emas, mavjudlik-samaradorlik nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Bugungi kunda "avtoritarizm - yomon", "demokratiya - yaxshi" singari umumiy qaydlar yetarli emas. Yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega va o'z xalqining farovonligini ta'minlagan avtoritar davlatlarning mavjudligi bunday yondashuvlarning yuzaki ekanligini tasdiqlab turibdi. Jamiyat negizida uzoq tarixiy taraqqiyot davomida har bir siyosiy tizim "genlari" mavjud, ular yonma - yon yashaydi, u yoki bu sohada namoyon - bo'lib boradi. (Masalan, zamonaviy g'arb politologlarini chuqur o'ylatadigan masala - demokratik siyosiy tizim sharoitida iqtisodda boshqaruvning avtoritarligi masalasi) "Sof" demokratik yoki "sof" avtoritar, hatto "sof" totalitar jamiyatlar faqat nazariyalardagina mavjud, real hayot esa, tarixning ulkan tajriba maydonchasi ekanligini doimo yodda tutishimiz kerak.

SAVOLLAR

1. Jamiyat siyosiy tizimi nazariyasining ahamiyati qanday?
2. Totalitarizm qaysi davr mahsuli?
3. Avtoritarizm haqidagi ma'lumotlardan qaysilari sizga muhim bo'lib tuyuldi?

4. Demokratiya rivojidagi ikki yo'nalish haqida siz qanday fikrlarni qo'sha olasiz?
5. Demokratiyaning "o'zbek modeli" o'ziga xosligi va boshqa modellar bilan umumiyligi nimada?

Sh BO'LIM. SIYOSAT SUBYEKTLARI VIII-BOB. INSON VA SIYOSAT

7.1. Inson - siyosatning obyeksi va subyekti sifatida.

Inson - siyosatning subyekti masalasini tushunish avvalo "subyekt" va "obyekt" tushunchalari ustida to'xtalib o'tishni taqozo etadi. Bu tushunchalarni ko'rib chiqmasdan, inson - siyosatning subyekti masalasini tug'ri tushunish mushkuldir.

"Subyekt" - lotincha "Subjectus" so'zidan kelib chiqqandir. Bu so'z amaliy faoliyat tashuvchasi degan ma'noni anglatadi. Hozirgi zamonda "subyekt" tushunchasi "obyekt"ga, tashqi dunyoga qarama - qarshi turuvchi, intilishga, faoliyat ko'rsatishga, yo'naltirishga qodir bo'lgan va faol harakat qiluvchi insonni anglatadi. "Obyekt" tushunchasi esa sub'ektning faoliyati qaratilgan, undan tashqarida mavjud bo'lgan narsalar va hodisalarni anglatadi.

"Subyekt" va "obyekt" - bilish nazariyasining qo'shloq tushunchalaridir. Bu tushunchalar birgalikda, o'zaro aloqadorlikda ishlatiladi. Obyektsiz subyekt, subyektsiz obyekt tasavvur etib bo'lmaydi.

Adabiyotlarda "subyekt" va "obyekt" tushunchalari bilan bir qatorda, "subyektivlik" va "obyektivlik" tushunchalari ham keng ishlatiladi. Bu tushunchalar mazmunan bir - biriga yaqin, bir tartibdagi tushunchalardir. Ularni "subyektivizm" va "obyektivizm" tushunchalari bilan almashtirib yubormaslik lozim. Ular bir - biridan jiddiy farq qiladi.

"Subyektivizm" tushunchasi obyektiv qonuniyatlarga zid bo'lgan, bir tomonlamalik va ehtiroslar ustunlik qilgan xato qarorlar va harakatlarni anglatadi. Bunday faoliyat kasbiy tayyorgarlikka, zarur bilim va tajribaga ega bo'lmagan kishilar tomonidan sodir etiladi. "Subyektivlik" tushunchasi esa, subyektga ta'rif berishni bildiradi. Bu tushuncha real voqelikni hisobga oluvchi, uning qonuniyatlariga binoan harakat qiluvchi inson faoliyatini anglatadi. "Obyektivlik" va "obyektivizm" ham bir xil mazmundagi tushunchalar emas. Ular ham bir - biridan tubdan farqlanadi. "Obyektivizm" - voqelikni tanqidiy baholashdan voz kechish, qadriyatni yondashuvni inkor etishdir. Bu tushunchada subyektiv omilga oid barcha narsalar inkor etiladi. Obyektivlik tushunchasi esa subyektga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan narsa va hodisalarni anglatadi. Endi "inson - siyosatning subyekti" tushunchasini ko'rib chiqamiz. Siyosiy adabiyotlarda "siyosat" tushunchasi bilan bir qatorda, "inson - siyosatning subyekti" tushunchasi ham keng qo'llaniladi. Bu tushuncha siyosiy kategoriyalar tizimida o'ziga xos o'ringa egadir. Xo'sh, "inson - siyosatning subyekti" tushunchasi nimani anglatadi? Bu tushuncha inson siyosiy borliqning yaratuvchisi, bunyodkori, ijodkori, uning faol, ongli va maqsadli ishtirokchisi ekanligini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, individning tor tasavvurlar doirasidan chiqishi, o'z ehtiyojlariga mos ravishda, xatti - harakatlari bilan jamiyat siyosiy tizimiga faol va izchil ta'sir ko'rsatishi, yangi ijtimoiy - siyosiy munosabatlarning shakllanishiga imkon berishi "inson - siyosatning subyekti" tushunchasining ma'no va mazmunini tashkil etadi. "Inson - siyosatning subyekti" tushunchasi ijtimoiy - siyosiy fanlar uchun muhim ahamiyatga ega. Bu tushuncha "siyosat", "hokimiyat" tushunchalarini mazmunan yanada to'ldiradi va boyitadi, ularga aniqlik kiritadi.

"Inson - siyosatning subyekti" tushunchasi boshqa siyosiy tushunchalar kabi siyosiy fikr taraqqiyotining mahsulidir. Bu tushunchani tadqiq etishga siyosiy fikr tarixida ulkan va uzluksiz e'tibor qaratib kelinmoqda. Buyuk yunon faylasufi Arastu inson o'zining tabiatiga ko'ra siyosiy mavjudot ekanligini asoslab bergan edi. U inson siyosatda o'zining borligini ifoda etishini, harbiy, sud va qonun chiqarish ishlari bilan bevosita shug'ullanishini, siyosiy organizmlarning ajralmas qismiga aylanishini ko'rsatib o'tadi.

Umuman, siyosiy fikr tarixida, u xoh Sharqda, xoh g'arbda bo'lsin, inson doimo ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning markaziga qo'yib o'rganilgan.

O'rta asrda Markaziy Osiyolik ulug' mutafakkir Abu Nasr Farobiy "inson - siyosatning subyekti" tushunchasini ishlab chiqish va uni boyitishga katta hissa qo'shdi. U insonning siyosatda faol ishtirok etishining sabablarini, mohiyatini ochib beradi. Uning fikricha, inson – boshqa kishilar bilan muomalada bo'lishi, siyosatda faol ishtirok etishi orqaligina baxtli hayotga, tinch - totuvlikka erishuvi mumkin.

Yangi davrda "inson - siyosatning subyekti" tushunchasining yanada rivojlantirilishi ingliz faylasufi J.Lokk va boshqalarning nomi bilan bog'liqdir. J.Lokkning ta'kidlashicha, siyosat, qonun - shaxs erkinligini ta'minlash va kengaytirishning asosiy vositasidir. U hech bir inson hech qayerda siyosat, qonun va qonuniylikka amal qilmasdan yashay olmaydi, deb hisoblaydi.

Umuman, siyosiy fikr tarixida birorta ham mutafakkir inson siyosatning subyekti ekanligini inkor etmagan. Barcha mutafakkirlar inson ijtimoiy subyektgina emas, balki siyosiy subyekt ekanligini ham qayd qilganlar. Darhaqiqat, inson - siyosatning subyektidir. U siyosat olamidagi o'zgarishlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan buyuk zotdir. Alloh taolo insonga ijtimoiy - siyosiy hodisalarni bilish, ularni o'zgartirish uchun aql - idrok ato etgan. Aynan aql - idrok orqali inson siyosat subyekti bo'lib maydonga chiqadi, ijtimoiy hodisalarni biladi, ularni o'zgartiradi. Yer yuzida hukmronlik qilayotgan davlatlararo tinch - totuvlik, ijtimoiy xavfsizlik, barqarorlik, millatlararo hamjihatlik, erkinlik, ozodlik - bularning barchasi inson siyosiy faoliyatining natijasidir.

Inson siyosatning subyekti sifatida ko'p yoki oz darajada muayyan vazifalarni bajaradi. U saylovchi sifatida ovoz beradi, askar sifatida Vatanni himoya qiladi, kurashchi sifatida turli siyosiy aksiyalarda ishtirok etadi, o'z e'tiqodini namoyish qiladi, zulmga, xavfsizlikka, adolatsizlikka qarshi kurashadi, xalq vakili sifatida davlat organlari, jamoat tashkilotlarining ishida, boshqaruv qarorlari va siyosiy yo'lni ishlab chiqish hamda qabul qilishda qatnashadi, yetakchi sifatida ijtimoiy - siyosiy harakatga boshchilik qiladi, uni uyushtiradi va baxt - saodatga yo'naltiradi.

Umuman, siyosatdan xoli bo'lgan inson bo'lmaydi. Ular bir inson ko'proq yoki kamroq darajada siyosat bilan bog'langan bo'ladi. Kimdir o'zini siyosatdan xoli deb hisoblaydigan bo'lsa, xato qiladi. Chunki, har bir inson davlat va jamiyatda yashab, uning siyosatidan tashqarida bo'la olmaydi. U siyosatda faol ishtirok etmagan vaqtda ham uning manbai hisoblanadi. Ertami yoki kech, baribir, anson uylanishga, oqu qorani ajratishga, o'zligini anglashga, siyosiy faolligini namoyish etishga majbur bo'ladi. Sababi, ijtimoiy hayotdagi jiddiy muammolar, to'siqlar o'zidan – o'zi barham topmaydi. Bu muammolar har bir kishidan mustaqil fikrlashni, voqealarni tahlil etishni, muayyan xulosalar chiqarishni, faol harakat qilishni, boshqalarga ta'sir ko'rsatishni, o'zligini namoyon etishni talab etadi.

Har bir inson har doim ham siyosatning haqiqiy subyekti hisoblanadimi, degan savol tug'ilishi mumkin. Bu savolga yo'q, deb javob berish to'g'ri bo'ladi. Chunki, u yoki bu inson muayyan siyosiy sifatlarni egallaganda, o'zligini to'la va to'g'ri anglaganda, o'zini jamiyatning tarkibiy qismi, deb bilganda, o'zgalarning manfaatlariga xolisona yondosha olganda, boshqalarga ta'sir ko'rsata olganda, siyosatning haqiqiy subyekti hisoblanadi.

Siyosat subyekti bo'lgan inson qaysi guruhga, millatga mansub bo'lishidan qat'i nazar tor doiradagi fikrlashdan xoli bo'ladi. U o'zini butun insoniyatning tarkibiy qismi, deb biladi, keng doirada fikrlaydi, millat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yadi, xalqlarni bir - biridan uzoqlashtirishga emas, balki bir - biriga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Inson siyosatning haqiqiy, faol sub'ekti bo'lishi bu- komillik darajasiga ko'tarilish, mustaqil, xolisona fikrlash, Vatanga, el - yurtga sitqidildan fidoyilik bilan xizmat qilish, irodali, jasur, o'zgalarga nisbatan ibrat, ularga rom – shafqatli, mehr - muruvvatli bo'lish demakdir. Yetuklikka ko'tarila olmagan, irodali, fidoyi bo'lmagan inson siyosatning haqiqiy subyekti bo'la olmaydi. Inson siyosatning subyekti sifatidagi faoliyati ko'rinishlari bir xil emas. U xilma - xil shakllarda namoyon bo'ladi. Jamiyat siyosiy tizimining sifat va xususiyatlariga bog'liq holda inson siyosiy faoliyatining bir qator shakllarini, avvalo, bevosita va bilvosita shakllarini ajratib ko'rsatish "mumkin. Inson siyosiy faoliyatining bevosita shakllariga: saylovlar, petitsiyalar,

yig'ilishlar, umumxalq so'rovi, referendumlarda qatnashishlari kiradi. Uning bevosita shakllarini, parlament, hokimiyatning mahalliy organlari, jamoat tashkilotlari va birlashmalariga saylangan kishilarning faoliyati tashkil etadi.

Insonning siyosat subyekti sifatidagi faoliyatiga muassasaviy, qonun tomonidan ruxsat etilgan yoki nomuassasaviy, huquqqa zid shakllar ham kiradi. Uning muassasaviy, qonun tomonidan ruxsat etilgan shakllariga: kishilarning saylov kampaniyalari va saylovlarda davlat hokimiyati, oliy va mahalliy davlat organlarining ishlarida, siyosiy partiyalar faoliyatida ishtirok etishlari kiradi; nomuassasaviy, huquqqa zid shakllariga esa: ruxsat etilmagan mitinglar, qo'zg'olonlar, hokimiyatni o'zboshimchalik bilan egallashlarda qatnashishlari va hokazolar kiradi.

Xo'sh, inson siyosiy faoliyati qanday turlarga bo'linadi? Insonning siyosiy faoliyati o'zining maqsadlariga ko'ra konstruktiv - pozitiv yoki negativ-destruktiv, huquqiy me'yorlarni buzuvchi, g'ayriijtimoiy, g'ayrikonstitutsiyaviy bo'lishi mumkin. Agar insonning konstruktiv - pozitiv siyosiy faoliyati jamiyatning siyosiy sistemasini barpo etishga va mustahkamlashga, ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirishga xizmat qilsa, uning destruktiv- negativ siyosiy faoliyati esa, siyosiy sistemani beqarorlashtirishga, uni buzishga, yakson etishga qaratiladi. Siyosiy faoliyatning birinchi turiga erkin, demokratik saylovlar, referendumlar, yig'ilishlar, muzokarlarda ishtirok etishlar misol bo'lsa, ikkinchi turiga esa, siyosiy terrorizm yaqqol misol bo'la oladi.

Insonning siyosat subyekti sifatidagi faoliyati o'zining mohiyatiga ko'ra, haqiqiy yoki soxta, nomigagina bo'lishi mumkin. Idora etish funksiyalari va huquqlarini, siyosiy faollik shakllari va usullarini yuqori darajada egallagan va ulardan samarali tarzda foydalana biladigan irodali, fidoyi inson - siyosatning haqiqiy subyekti hisoblanadi. U jamiyat "dardini" o'zining "dardi" tarzida anglaydi, jamiyat siyosiy hayotining o'zgarishi uning shaxsiy, oilaviy hayotiga qay darajada ta'sir etishi mumkinligini aniq payqaydi, ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda jasurlik va fidoyilik ko'rsatadi. Agar u yoki bu inson xudbinlik girdobiga o'ralib qolsa, xalq taqdiriga panja orasidan qarasa, konyukturaga, shamolning qaysi tomondan esishiga qarab harakat qilsa, o'ziga foydali bo'lgan paytdagina faollik ko'rsatsa, uni siyosatning haqiqiy subyekti deb bo'lmaydi. Bunday inson soxta, nomigagina subyekti bo'lib qolaveradi.

Insonning siyosiy faoliyati o'zining mazmuniga ko'ra, faol yoki sustkash bo'lishi mumkin. Jamiyat muammolarini to'g'ri va teran anglaydigan, ularni hal etishda real, izchil va to'la ishtirok etadigan inson siyosatning faol subyekti hisoblanadi.

Siyosiy faollik yarim - yorti tadbirlar, noizchil harakatlar bilan sig'isha olmaydi. Agar siyosiy shaxs ishtirok etish shakllarini va usullarini puxta va pishiq egallagan bo'lsa, ulardan samarali foydalana olmasa, bunday insonni faol siyosat subyekti deb hisoblab bo'lmaydi. Ko'pincha, bunday kishi nimanidir qo'llab ko'rmaydi, nimagadir intilmaydi. Unda jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqealarga siyosiy indifferentslik – befarqlik, loqaydlik ustun turadi.

Insonning siyosiy faoliyati o'zining amalga oshirish usuliga ko'ra ham bir xil emas. U avtoritar yoki demokratik faoliyat bo'lishi mumkin. Agar avtoritar siyosiy faoliyat ma'muriy – buyruqbozlik usullariga tayansa, demokratik siyosiy faoliyat esa, o'zaro ishonch va hamkorlikka tayanadi.

Insonning siyosat subyekti sifatidagi faoliyati turlari yuqorida e'tirof etilganlar bilan chegaralanib qolmaydi. U cheklanmagan yoki cheklangan, tinch yoki agressiv, ko'ngilli yoki majburiy, an'anaviy yoki noan'anaviy, legal yoki nolegal, legitim yoki nolegitim, uyushgan yoki stixiyali bo'lishi ham mumkin.

7.2. Inson siyosatning subyekti sifatida shakllanishining asosiy omillari

Xo'sh, nima uchun inson siyosatning haqiqiy, faol subyekti emas, balki obyekt bo'lib qoladi? U siyosatning haqiqiy subyekti sifatida shakllanishi uchun qanday omillar sabab bo'ladi?

Ma'lumki, muayyan ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy - ma'rifiy omillar, shart - sharoitlar negizida siyosat subyekti bo'lib shakllanadi. Bunday omillar mavjud bo'lmas ekan, inson siyosatning subyekti bo'lib shakllanmaydi. U siyosatning obyektligicha qolaveradi.

Inson siyosatning haqiqiy subyekti sifatida shakllanishi, avvalo, ijtimoiy - siyosiy omil - demokratik siyosiy rejimning mavjudligiga bog'liqdir. Jamiyatda bunday munosabatlar mavjud bo'lmasa, mustahkamlanib borilmasa inson siyosatning subyekti bo'lib shakllanmaydi. Jamiyatda mavjud bo'lgan avtoritar, ma'muriy- buyruqbozlik siyosiy tizimi esa, insonning siyosat subyekti bo'lib shakllanishiga imkon bermaydi. Aksincha, bu tizim insonni qullikka mahkum etadi, uni hokimiyatdan begonalashtiradi, biqlik, befarqlikni tug'diradi, boshqaruv apparatlarini xalqdan uzoqlashtiradi.

Jamiyatda demokratik siyosiy tizimning mavjudligi va uning mustahkamlanib borishi - inson siyosatning subyekti bo'lib shakllanishining hal qiluvchi shartidir. Bunday siyosiy tizim inson siyosiy faoliyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi, uni rag'batlantiradi. Jamiyat siyosiy tizimi qanchalik demokratik bo'lsa, inson shunchalik siyosiy hayotda faol ishtirok etadi.

Inson siyosatning subyekti sifatida shakllanishi jamiyatda faqat demokratik siyosiy tizimning mavjudligi bilan belgilanib qolmaydi. U jamiyat iqtisodiyotining taraqqiy etib borishi darajasiga, xalqning moddiy farovonligiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Jamiyat iqtisodiyotining yuqori darajada taraqqiy etishi fuqarolik xizmatining bilimdon, malakali, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan boshqaruv kadrlari korpusining shakllanishi uchun zarur baza bo'lib xizmat qiladi. Yetishmovchilik, qashshoqlik sharoitida demokratiya negizida samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan umumta'lim va kasb tayyorgarligining yuqori darajasiga ommaviy miqyosda erishish qiyin. Bunday sharoitda kadrlarni shakllantirishda, ulardan foydalanishda bilimdonlik va kasbga bo'lgan talablar boshqa tamoyillar: qon - qardoshlik, yurtdoshlik, oshna – og'aynigarchilik, boshliqqa sodiqlik va boshqalar bilan almashtiriladi. Davlat xizmati, siyosiy faoliyatga tezda boy bo'lib ketish maqsadida shaxsiy manfaatlarni qondirishning vositasi sifatida qarash boshqarish tizimi uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqaradi.

Davlat iqtisodiyotining taraqqiy etishi, xalqning farovonligiga erishuvi - inson siyosatning sub'ekti sifatida shakllanishining asosiy shartlaridan biridir. Jamiyat qanchalik iqtisodiy jihatdan taraqqiy etib borsa, u idora qilishning demokratik shakllariga shunchalik ochiq bo'ladi. Xalq qanchalik boy va badavlat, farovon yashasa, u shunchalik demokratiyani qo'llab - quvvatlaydi va himoya qiladi.

Insonning siyosat subyekti sifatida shakllanishi jamiyatning ma'naviy, ma'rifiy jihatdan rivojlanishiga ham bog'liqdir. Sababi, ma'naviy, ma'rifiy jihatdan taraqqiy etmagan jamiyat hech qachon insonni siyosat subyekti sifatida shakllantira olmaydi. Bunday jamiyat va uning fuqarolari siyosiy manipulyatsiya - firibgarlikning obyekti bo'lib qolaveradi. Ma'naviy qashshoq, savodsiz bo'lgan inson siyosatdan tashqarida bo'ladi. U siyosiy harakatlarning subyekti emas, balki obyekti bo'lib qoladi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, insonning ma'lumotlilik darajasi qanchalik katta bo'lsa, u shunchalik siyosiy bilimdon va siyosiy faol bo'ladi. Eng asosiysi, demokratik yo'l, ko'rsatmalar, xatti - harakatlarga moyil bo'ladi. Xususan, yuqori bilim insonning siyosiy dunyoqarashini kengaytiradi, sabr – toqatli, mehr – oqibatli bo'lishga yordam beradi, ekstremistik g'oyalarga aloqador bo'lishdan saqlaydi, saylov kompaniyalari davrida uning odil va oqilona yo'lni tanlash qobiliyatini oshiradi. Yuqori ma'lumotga ega bo'lgan shaxs hukumatning qarorlarini, ko'rsatmalarini yaxshi anglaydi, siyosiy xabarlarini chuqur biladi, keng doiradagi masalalar bo'yicha o'zining mustaqil fikriga ega bo'ladi. Inson qanchalik ma'lumotli bo'lsa, uning siyosiy bahs - munozaralarda ishtirok etish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. U o'zini kichik bir muruvvat emas, balki hukumatga ta'sir ko'rsatishga qodir inson, deb hisoblaydi. Indivud qanchalik ma'lumotli bo'lsa, u muayyan jamoat tashkilotlarining faol a'zosi bo'lishi, o'zini o'rab turgan ijtimoiy - siyosiy muhitga ishonch bildirish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

Shunday qilib, inson siyosatning subyekti sifatida muayyan ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy- ma'rifiy omillar, shart - sharoitlar negizida shakllanadi. Bu omillar yo inson siyosiy faoliyatining rivojlanishiga, uning siyosiy arbob sifatidagi potensial fazilatlarining ochilishiga,

shaxsning jamiyat siyosiy hayotining haqiqiy subyekti sifatida shakllanishiga yordam beradi yoki bu jarayonlarni qiyinlashtiradi va siyosiy negizini konservatsiya qiladi.

7.3. Inson huquqlari

Inson o'zini siyosat subyekti sifatida namoyon qilishi - "inson huquqlari" tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, faqat demokratik jamiyatgina insonni siyosat subyekti sifatida qaror topishini to'la ta'minlaydi. Demokratik jamiyatdagina inson huquqlari va erkinliklarini to'la tan olinishi va kafolatlanishi asoslanadi. Inson huquqlari tushunchasining paydo bo'lishi jamiyat, davlat, insonning rivojlanishi bilan bog'liq. Tarixan tabiiy huquq g'oyasi va birinchi ming yillikda paydo bo'ldi va rivojlandi. Ammo, bu davrda huquq monarx (shoh) tomonidan fuqarolarga berilgan imtiyozlar sifatida talqin qilingan. Inson huquqlari tushunchasining zamonaviy talqinini g'arbiy Yevropa liberal mutafakkirlari Lokk, Monteskye, Russo, Kant v.h.lar asoslab berishgan. Ular insonning yashash, erkin bo'lish, mulkka ega bo'lish, zulmga qarshilik ko'rsatish kabi bosh huquqlarini tabiiy, begonalashmaydigan va muqaddas, deb baholashdi.

Bunda huquqlarning tabiiyligi deganda, ular insonga tug'ilishdan xos ekanligini, begonalashmasligi ularsiz individlar o'z insoniy sifatlarini namoyon eta olmasligini, muqaddasligi insoniy qadriyatlar ichida ularning eng yuqori o'rin tutishini anglatadi.

Hozirgi vaqtda negativ (erkinliklar) va pozitiv inson, huquqlarini ajratish qabul qilingan.

Negativ huquqlarga ko'ra, insonning hayotiga kimning bo'lmasin davlat, odamlarning aralashuvi taqiqlanadi, shaxs huquq va erkinliklari absolyut, asosiy hisoblanadi. U, asosan, erkinliklar va fuqarolik (shaxsiy) huquqlaridan tashkil topadi. Negativ huquqlarning amalga oshishi davlat resurslari, mamlakatning rivojlanish darajasiga bog'liq emas.

Aksincha, pozitiv huquqlar davlat, shaxslar, tashkilotlarning fuqarolarga imtiyozlar berish, huquqlarni ta'minlash borasidagi faoliyatini belgilab beradi. U, asosan, ijtimoiy huquqlarni o'z ichiga oladi.

Inson huquqlarini yana quyidagicha bo'lish qabul qilingan:

- shaxsiy huquqlar;
- siyosiy huquqlar;
- iqtisodiy huquqlar;

Ularni, odatda, birinchi avlod huquqlari deyiladi. Negaki, ularning barchasi negativ tabiatga ega va insonni boshqalar tajovuzidan himoya qilishni maqsad qilib qo'yadi.

Ikkinchi avlod huquqlariga davlat va jamiyat moddiy resurslarini jalb qilish orqaligina amalga oshishi mumkin bo'lgan huquqlar kiradi va ular davlatning har bir insonga munosib hayot ta'minlanishi bilan bog'liq.

- ijtimoiy huquqlar;
- madaniy huquqlar;
- ekologik huquqlar;

Bundan tashqari, kollektiv huquqlar (oilalar, ishlab chiqarish jamoalari, seksual yoki milliy kamchiliklar, xalqlar huquqlari v.h.) ham mavjud.

Inson huquqlari masalasi hozirgi davrning eng murakkab va ko'p qirrali muammolaridan biri bo'lib kelyapti. Bir tomondan bu ming yillar davomida donishmandlar, faylasuflar, arboblarni o'ylantirayotgan muhim nazariy masala bo'lsa, ikkinchi tomondan, har bir inson kundalik hayoti davomida to'qnash keladigan dolzarb amaliy masaladir. Inson huquqlari masalasi siyosat va mafkura bilan belgilanishidan tashqari, turli madaniyatlar, sivilizatsiyalar doirasida turlicha amal qiluvchi hodisadir. BMT va xalqaro hujjatlarning shu masalada yaratilishi tarixini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning asosini inson huquqlarini tushunishning yevroatlantik standarti tashkil etishini ko'ramiz. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini tayyorlash jar ayonidayoq e'tiborsiz qoldirilgan bir nechta nuqtai nazar aniqlandi: masalan, Janubiy Afrika ittifoqining irqar tengligi to'g'risidagi yoki bir guruh musulmon davlatlarining e'tiqod erkinligi tug'risidagi, sobiq SSSRning ijtimoiy– iqtisodiy huquqlarning siyosiy huquqlardan ustunligi tug'risidagi

g'oyalari turli sabablarga ko'ra rad etildi. 1. Ular 70-80-yillardagi hujjatlarda qisman o'z aksini topgan.

Ammo, hozirgi dunyoda turli madaniyatlarga xos turli yondashuvlar o'ziga yo'l ochib boryapti.

Inson huquqi masalasi - siyosiy masala, negaki u jamiyat va shaxs muammolarini hal qilish bilan bog'liq. Bir sohadagi erkinliklarga ega bo'lish boshqa sohada ularning cheklanishiga olib kelishi - tabiiy huquqlarga siyosiy huquqlarning qo'shilishiga olib keldi. Ammo tabiiy va fuqarolik huquqlariga ega inson siyosiy vositalar bilan vaziyatni to'g'irlashi va o'zini himoya qilishi mumkin, degan umid amalda o'zini oqlamadi. Hozirgi vaqtda ham inson huquqlarini ta'minlash ko'p hollarda davlatning zimmasiga yuklanib boryapti.

SAVOLLAR

1. Bizning mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi qanday qonunlarni hamda tashkilotlarni bilasiz?
2. Shaxsning siyosiy faoliyatda ishtiroki qanday shakllarda amalga oshirilishi mumkin?

8 - MAVZU. IJTIMOIIY GURUHLAR - SIYOSAT SUBYEKTLARI SIFATIDA

8.1. Ijtimoiy tabaqalashuv

Jamiyatda siyosiy hokimiyat amal qilishi, uning chegaralari, qoidalariga doimiy ta'sir ko'rsatuvchi kuchlar mavjud. Agar biz siyosiy hokimiyatni-barcha guruhlar manfaatlari borasidagi doimiy o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sirning oliy ko'rinishi tarzida baholaydigan bo'lsak, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslar siyosiy hokimiyatning asosiy subyektlari, deb qaralishi lozim bo'ladi. Ammo, shaxs hayotda turli rollar va turli vazifalarda namoyon bo'lishini yaxshi bilamiz. Masalan, yigit (qiz) oilada - farzand, o'quv dargohida - talaba, to'garakda - shogird, siyosiy harakat yoki uyushmada - xayrixoh, faol a'zo yoki yetakchi singari rollarni bajaradi. U turli maqsad va vazifalar doirasida faoliyat ko'rsatadi. Bundan tashqari, yosh, jins, millat, kelib chiqishi, egallayotgan (yoki egallab bo'lgan) kasbiga ko'ra bog'liqliklar ham mavjud.

Shunday qilib, inson o'z ijtimoiy yoki siyosiy faoliyatini turli guruhlar ichida olib boradi. Siyosiy fanda ana shu faoliyatlarning hammasi emas, faqat hokimiyatga qaratilganlarigina o'rganiladi. Deylik, tadbirkor o'z ish faoliyati yuzasidan turli jamoalar, guruhlar bilan bog'lanadi, ular bilan birgalikda yoki ularga zid ravishda harakat qiladi. O'z - o'zidan tushunarliki, tadbirkorning bu faoliyati politologik tahlil obyekti bo'la olmaydi. Ammo, tadbirkor o'z muammolarini siyosiy hokimiyat orqaligina hal qila oladigan hollar mavjud. Masalan, soliq siyosatini o'zgartirish, davlat miqyosida u yoki bu qonunni qabul qilish yoki bekor qilish. Bu holda tadbirkor o'ziga o'xshash boshqa tadbirkorlar bilan uyushadi, yoki agar shunday uyushma mavjud bo'lsa, unga murojaat etib, hokimiyat organlarida o'z manfaatini himoya qiluvchi qaror qabul qilinishini talab etadi. Shu tarzda bosimni kuchaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik, mutaxassislar muhokamaga tortiladi va h. Siyosatda uyushgan ijtimoiy guruhlar ta'siri samarali, deb hisoblanishi ana shundan. Tadbirkorning shu tarzda faoliyati - bevosita politologik tahlil obyekti tashkil etadi. Shunday qilib, jamiyatni undagi mavjud ijtimoiy guruhlar yoki qatlamlar nuqtai nazaridan o'rganish-siyosiy fanda yana bir muhim yo'nalishlardan biridir. Jamiyatlar barcha davrlarda ichki bo'lingan. Taraqqiyot davomida bu bo'linish murakkablashib borib, jamiyatlar bag'rida yangidan - yangi qatlamlar vujudga kelgan. Ijtimoiy qatlamlarning siyosatdagi muhim o'rnini allomalarimiz Forobiy, Ibn Sino, Nizomulmulk, buyuk Amir Temur alohida ta'kidlagan. Jamiyatlarning rivojlanishi bilan bu o'rin yanada mustahkamlandi. Demokratik jamiyatda ijtimoiy guruhlar siyosatning faol subyektiga aylanadilar. Boshqacha qilib aytganda, demokratik jamiyat o'z manfaatlariga ega bo'lgan va shu manfaatga erishish uchun faoliyat ko'rsatuvchi turli ijtimoiy guruhlarining birligidir. Jamiyatni aynan shu tarzda qarash va o'rganish demokratik an'anaga xosligini yana bir bor ta'kidlaymiz.

Siyosiy tizimlarning ichida faqat demokratiyagina guruhlarining keng siyosiy ishtiroki, muhokama, murosaga asoslanadi.

Demak, "xalq" deb ataluvchi yaxlit birlik aslida har xil manfaatlar, ehtiyojlarga ega turli ijtimoiy guruhlardan iborat ekanligi va bu hol qonuniyligi e'tirof etildi. Bu guruhlar jamiyatda tutgan o'rinlari, ega bo'lgan resurslari, uyushish darajasiga ko'ra farqlanadi. Shuningdek, bu guruhlar o'rtasidagi farqlar demografik, etnik, konfessional bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy qatlamlashuv-o'zaro bog'liq va pog'onlashuv asosida tashkil topgan qatlamlar birligidan iborat ijtimoiy tengsizlik tizimi. Har qanday jamiyatni turli omillarga asosan turli xil ijtimoiy guruhga bo'lish mumkin. Ijtimoiy guruhlarining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- demografik guruhlar. Masalan, yoshlar - qariyalar, ayollar - erkaklar, oilalar va oila ko'rmaganlar v.h. Jamiyatda ushbu har bir guruhning o'z muammolari, ehtiyojlari, talab va istaklari mavjudligi demografiya yoki sotsiologiyada chuqur o'rganiladi.
- etnik jamoalar (guruhlar) odamlarning tarixiy, barqaror ijtimoiy birligi sifatida qabilalar, elatlar, millatlardan iborat. Millat - etnosning oliy ko'rinishi. Uni, odatda, hudud, iqtisodiy aloqalar, til, ruhiy o'ziga xoslik, madaniyat va o'z - o'zini anglashning umumiy jihatlariga ko'ra farqlashadi. Siyosatga, etnik jamoalar (guruhlar)ning doimiy bosimi mavjud va bu uning eng nozik, eng murakkab yo'nalishi. Negaki, etnik masalalarni to'la ko'lamda faqat davlat miqyosidagina hal qilish mumkin. Shuning uchun, har bir millat hokimiyatga o'z ta'sirining doimiy va barqarorligidan manfaatdor.
- e'tiqod asosida birlashuvchi ijtimoiy - guruhlar. Bularga dindorlar va ateistlar, turli e'tiqod tarafdorlari kiradi.
- sinflar. Daromadi, bilimi, malakasi, nufuzi, hokimiyatga ta'sir darajasi bilan ajralib turuvchi guruhlar.

Shunday qilib, mohiyatiga ko'ra siyosiy boshqaruv mexanizmi - turli - jamoalar (guruhlar) o'zaro munosabatining birligidan iborat. Jamiyatda mavjud har qanday manfaat hokimiyat tomonidan tenglik asosida qabul qilinmaydi. U yoki bu ijtimoiy manfaatni siyosatda hisobga olinishi uchun u "eshitilishi", "ko'zga ko'rinarli" bo'lishi, "bosim ko'rsata" olishi lozim.

Guruhlar va fuqarolar o'z resurslarining cheklanganligini yengib o'tishga doimo intiladilar. Ana shu intilishlarni boshqara bilish, ularni tinch yo'lga yo'naltirish siyosiy sohada hal qilinuvchi masalalardan biridir. Chunki, biron guruh ijtimoiy mavqeining ortishi doimo boshqa guruhning hisobiga ro'y beradi. Guruhlar o'rtasidagi farqlar doimiy va o'zgarmas tabiatga egami?

An'anaviy jamiyatlarda, bunday tengsizlik holati barqaror bo'lib, u jamiyatda muayyan ixtiloflar va keskinlikning manbai bo'lib xizmat qiladi. Bir ijtimoiy guruh, masalan, ayollar maqomining jamiyatda kattiq chegarada saqlanib turilishi, manfaatlarining doimiy ravishda inkor etilishi - shu qatlam noroziligining kuchayishiga olib kelishi mumkin. An'anaviy jamiyatlarda buning oldini olish uchun zo'rlik, muayyan urf - odatlarning kuchayishi kabi vositalar qo'llanadi.

Siyosiy jarayonning bevosita subyektlari - davlat, partiyalar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy - siyosiy harakatlar mohiyatiga ko'ra jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning manfaatlarini bayon etish, ularni siyosiy hokimiyat doirasiga olib chiqish, hal etish, uchun faoliyat ko'rsatadi. Agar shunday bo'lmasa, ya'ni partiya, jamoat birlashmasi yoki harakat muayyan ijtimoiy guruh manfaatini emas, tashkilot, ya'ni o'zining manfaatini ifodalash uchungina faoliyat ko'rsatsa, bunday tashkilotni nodemokratik, deb atashga toliq acogga egamiz. Yuqorida aytib o'tilgan manfaatlarni bayon etish vazifasi "vakolat", "vakolatlilik", "vakolat tizimi" tushunchalari bilan chambar chas bog'liq.

8.2. Ijtimoiy vakolat g'oyasi va tamoyillari

"Vakil" tushunchasi juda ko'p ma'nolarda ishlatiladi. Masalan, muayyan bir shaxs to'g'risida o'z millati, kasbi, ijtimoiy guruhi v.h.ning "tipik vakili" biror mamlakat vakili, davlat rahbari vakili, u yoki bu savdo kompaniyasining vakili deyiladi: Siyosiy so'zlashuvda "vakil", "vakolatlilik" deyilganda biror guruh, partiyalarning muayyan bir shaxsga, tashkilotga, idoraga

o'z manfaatlarini hokimiyat tarkibida himoya qilish uchun vakolatlarning berilishi nazarda tutiladi.

Alohida olingan har bir individ davlat boshqaruvida bevosita ishtirok eta olmaganligi tufayli, aholining turli qatlamlari manfaatlarining muayyan vakolat va huquq berilgan maxsus vakillar himoya qilishi mumkin. Saylangan vakillar xalq manfaatlarini xalqning o'zidan ko'ra yaxshiroq amalga oshirishi va himoya qilishi ehtimol qilingan. Vakolatlilikning qanchalik yuqori ahamiyatga molik bo'lganligini, masalan, Dj. Medison respublika boshqaruvini vakolatlilik bilan bir narsa, deb baholaganida ko'rish mumkin.

Avval, vakolatlilikni amalga oshirishning samarali yo'llari va vositalarini izlay boshlandi.

Angliyada amaliy vakolat nazariyasi qaror topdi. Uning mohiyati shundan iboratki, parlament a'zolari aholining ayrim qatlamlari (yoki guruhlar) ning emas, butun millatning vakillaridirlar. Shuning uchun ular qanday qilib, kimlarning orasidan va qaerda saylanganlarining ahamiyati yo'q. Shu qarash mualliflari—viglar—parlament a'zolari saylanganlaridan so'ng o'z saylovchilariga boshqa bog'liq bo'lmasliklari kerak, deb ishonishardi. Konservatorlar parlament — qandaydir har hil, bir — biriga dushman manfaatlarining elchilari to'plangan joy emas, balki umon manfaatini amalga oshirishga intilayotgan; butun ingliz xalqi vakillarining kengashi bo'lishi kerakligini zo'r berib ta'kidlagan.

Sh.L: Monteske fikricha, odamlar o'z aholi punktlari, shaharlari, regionlari manfaatlar va muammolarini mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan yaxshiroq biladilar. Shuning uchun hokimiyat organlariga vakillarni butun mamlakatdan emas, saylov okruglariga aylantirilgan alohida shaharlar, joylardan saylash kerak. Shu tariqa amaliy vakolat nazariyasi geografik vakolat g'oyasi bilan to'ldirildi. U Amerikada qaror topdi. Unga ko'ra qonun chiqaruvchi yig'ilish a'zolari davlatning butun aholisi vakillari sifatida emas, muayyan hudud vakillari sifatida: saylanishlari kerak bo'lgan.

Bu ikki shakl bilan Fransiyada vujudga kelgan fraksion va milliy vakolat nazariyalari uzviy bog'lik Fraksion nazariya J.J.Russoga borib taqaladi. U xalq suvereniteti odamlar suverenitetidan kelib chiqadi, degan fikrga asoslanadi. Masalan, davlat o'n ming fuqarodan iborat. Bu holda har bir fuqaro hokimiyat suverenitetining o'n mingdan bir qismiga ega.

Zamonaviy fraksion suverenitet nazariyasiga ko'ra har bir fuqaro o'z deputatiga taqdim etgan mandatda ulushga ega. U, shuningdek, mandatning imperativ harakterini, ya'ni deputat o'z faoliyatida saylovchilar irodasi bilan bog'liqligini nazarda tutadi. Bizning kunlarda bu nazariya demokratiyaning muhim qirrasini tashkil etadi. Unga "bir inson — bir ovoz" tamoyili toliq mos keladi.

Milliy vakolat nazariyasi ham vakolatlilikni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Buyuk fransuz inqilobi davrida uning Konstitutsion Assambleyasi suverenitet alohida fuqarolarga emas, ularning ayrim birligi millatga mansubligi to'g'risidagi g'oyani asoslab berdi. Unga ko'ra har bir deputat o'z saylovchilarining vakili emas. Aksincha, deputatlar millat irodasini bayon etib, millat ularga topshirgan mandatni amalga oshiradilar. Shunga ko'ra, fraksion vakolat nazariyasidan farqlicha, mandat o'z imperativ harakterini yo'qotadi, ya'ni depugatlar endi o'z saylovchilari irodasini emas, butun millat irodasini ifodalaydilar.

Vakolat nazariyasining ahamiyati shundaki, u respublika va demokratik boshqaruv shakllarining keng miqiyosda yoyilishiga turtki bo'ldi. Yuqorida aytib o'tilganidek, "to'g'ridan — to'g'ri" demokratiya nisbatan kichik jamoalarga xos edi, negaki, u barcha yoshi katta fuqarolarning eng muhim qarorlarni qabul qilishda ishtirokini shartlar edi. Zamonaviy aholisining soni millionlarni tashkil etuvchi, davlatlarda bunday modelni tatbiq etib bo'lmaydi. Aynan vakolat institutining shakllanishi milliy davlat doirasida respublika yoki demokratik boshqaruv shakllarining qaror topishi imkonini berdi. Bu vaqtda hatto boshqaruvning bunday shakli — yolg'iz milliy davlat bilan uzviy bog'liq, degan fikr ham qaror topdi "Jamiyat qancha kichik bo'lsa, — deb yozadi Dj.Medison, — aniq farqlanuvchi partiyalar va manfaatlar paydo bo'lishi uchun shuncha imkoniyat kam va ko'pchilikning bir partiyada bo'lib qolishi ehtimoli ko'proq. Maydon kengayishi va aholi sonining ko'payishi bilan "partiyalar soni va manfaatlar xilma-

xilligi ancha ko'payadi"". Aynan shu holat, Medison fikricha, respublika sharoitida fraksion kurashni xavfsiz qiladi.

Vakolat prinsiplari va turli ijtimoiy qatlamlar vakillarining qonun chiqaruvchi v.b. hokimiyat organlariga saylanishi o'z — o'zidan bu prinsiplarni amalga oshirish vositalari va qurollari to' g'risidagi masalani qo'ydi. Ana shunday vosita sifatida hozirgi iqtisodiy rivojlangan davlatlarda siyosiy partiyalar, harakat, uyushmalar qaror topdi.

O'xshash manfaatli va dunyoqarashli odamlar oxir— oqibatda yagona maqsadga erishish uchun birlashadilar. Bir- biri bilan kelisha olmaydigan turlicha manfaatlar va fraksiyalar mavjudligining qonuniyligini tan olish hokimiyat tizimida bu manfaatlar va fraksiyalarni siyosiy tizimda ifodalash vositalari, ya'ni partiyalar, harakatlar, uyushmalar qonuniyligini tan olishga olib keladi.

Vakolat prinsipi ahamiyati oshishining yana bir sababi — siyosiy jarayonga yangi — yangi aholi qatlamlarining kirib kelishi, xalqning ijtimoiy — siyosiy hayotdagi roli ortganligidir.

Zamonaviy jamiyatlarda esa siyosiy hokimiyat turli ijtimoiy qatlam vakillarining bir qatlamdan ikkinchisiga o'tishi, yoki butun bir qatlamlar maqomining o'zgarishi (masalan, tadbirkorlikning sinf sifatida jamiyatimizdagi ta'sirining kuchayib borishi) jarayonini kuzatib, boshqarib, muvofiqlashtirib boradi. Masalan, O'zbekistonda ham, barcha zamonaviylashuv jarayonini boshidan kechirayotgan mamlakatlar singari, marginal qatlamga mansub odamlar soni keskin ortib ketdi. Buning obyektiv va jiddiy sabablari juda ko'p. Shulardan biri, sobiq tuzum davrida ko'pchilik odamlarda shakllangan boqimandalik kayfiyatidir. Mehnatining samarasini ko'rmay ishga borib — kelishining o'zi uchungina, oydan — oyga kafolatli ish haqi olib o'rgangan odamlar bozor iqtisodiyotiga o'tishning doimiy hamrohlar - tengsizlikning kuchayishi, inflatsiya, ishsizlik, tanlov asosida ishga kirish kabi holatlarga tayyor bo'lmaganlar. O'tgan o'n yil davomida bu jarayonlarda o'z yo'lini topib, yangi ijtimoiy munosabatlar tizimida o'z egallagan maqomidan qoniqqan odamlar bilan bir qatorda, shu vaziyatda turli sabablar bilan o'z maqomini yo'qotgan shaxslar ham mavjud. Shu bilan birga yangi ijtimoiy munosabatlar tizimida o'z o'rnini topa olmagan yoshlar ham marginal qatlam safiga kirib keladi. Ushbu qatlamni o'z mavqeidan norozilik, quyi bilim yoki past kasbiy malaka darajasi, umidsizlik va, eng muhimi, o'z ahvolini oson va tez o'zgartirishga intilish ajratib turadi. Bu qatlamning son jihatdan ko'payishi va muammolarining uzoq vaqt hal qilinmasligi jamiyat barqarorligiga jiddiy xavf soladi.

Shaxs, guruh yoki qatlam mavqeining o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarni "ijtimoiy mobillik" yoki "ijtimoiy siljish", deyiladi. Ijtimoiy mobillik ijtimoiy barqarorlik tushunchasi bilan bevosita bog'liqligini yuqoridagi misollarda ko'rdik. Agar ijtimoiy—iqtisodiy munosabatlar doirasida guruhlarining siljishi—jamiyat uchun odatdagi chegaralarda amalga ohsa, bu — sezilarli o'zgarishlarga olib kelmaydi. Ijtimoiy—iqtisodiy o'zgarishlar keskinlashganda, guruhlarining siyosatga bosimi kuchayadi, barqarorlik uchun xavf tug'iladi. Demak, ana shu turdagi keskinliklarni oldini olish — davlat siyosatining muhim yo'nalishi. Shaxs yoki guruh mavqeining o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarning ochiqligi, ya'ni inson yoki guruh sifatлари, bilimi, malakasi, samarali faoliyati kabi jihatlariga ko'ra o'z maqomini o'zgartira olish imkonining mavjudligi bu borada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ixtiloflarni va ziddiyatlarni yumshatadi, jamiyatdagi guruhlarining o'zaro hamkorligi, manfaatlarining yaqinlashishiga olib keladi.

Jamiyatda aniq—ravshan ajralib turuvchi ijtimoiy guruh sifatida, birinchi navbatda, sinflar ajratib ko'rsatiladi. Sinflar — daromad miqdori, kasbining nufuzliligi, bilimi, hokimiyatga ta'siri darajasiga ko'ra belgilanuvchi, ijtimoiy maqomi taxminan bir xil bo'lgan odamlar guruhidir. Ushbu ta'rifga ko'ra, jamiyat ishchi - dehqonlarga emas, turmush tarzi, qadriyatları, xulq— atvori, qarashları o'xshash bo'lgan odamlar guruhi — yuqori sinf, o'rta sinf, bo'yicha sinfga ajraladi. Mazkur "Amerikada demokratiya" asarining muallifi Aleksis de Tokvil Arastudan XX asr so'ng jamiyatda faqat "o'rta sinf" ning ko'pligi — barqarorlik va tinchlikni ta'minlovchi asosiy omil ekanligini ta'kidlagan. Yuqori sinf (juda boylar) yoki buyi sinf (kambag'allar) ning ko'payib ketishi - jamiyatda zulm va istibdodning ortishiga olib keladi, Tadqiqotlar ham shuni tasdiqlaydi. Yuqori sinf nafaqat boylik, balki yuqori bilim, malaka, axborotga ko'proq darajada

egaligi sababli yangliklarga ochiq, muhokama va muloqotga tayyor ekanligi sotsiologik tahlil bilan isbotlangan. Shu bilan bir qatorda, bu qatlam vakillari quyi sinf muammolari — ish sharoitini yaxshilash, ish haqini oshirish, ijtimoiy himoya masalalariga ancha loqaydliklari bilan ajralib turishi ham aniqlangan. O'z navbatida, quyi sinf vakillari ta'lim darajasi pastligi, malakasizligi, axborotga ega emasligi natijasida hokimiyat bilan munosabatlarida ko'proq o'z shaxsiy tasavvurlari, mish-mishlarga suyanishlari, o'z ahvollarini yaxshilash uchun keskin, radikal choralar qo'llash tarafdori ekanligi bilan ajralib turadi. Masalan, "davlatning barcha tashkilotlarida nazorat o'tkazib, tartib o'rnatish kerak" qabilidagi "g'oyalar" singari.

Faqat o'rta sinfgina jamiyatni barqaror tutib turuvchi ijtimoiy kuch bo'la oladi, Bir tomondan, bu sinf vakillari yetarli darajada bilim, axborot, malaka, boylik, obro'ga ega bo'lganlari uchun keng fikrlay olish, jamiyatdagi jarayonlarga to'g'ri baho bera olish layoqati va resurslariga ega bo'lsalar, ikkinchi tomondan, ular boshqa qatlamlar manfaatlari va harakatlarini kuzatib borish, muammolar yechimini izlash, ularni hal qilishdan to'la manfaatdorlar.

O'tish davri jamiyatlarida ijtimoiy sohada hal qilinishi lozim bo'lgan asosiy masalalardan birini, shu tariqa, jamiyatda o'rta sinf, ya'ni o'z oyog'ida mahkam turgan, mulkdor odamlar guruhini shakllantirishdan iborat, deyishimiz mumkin. Bunda mulk, albatta, do'kon, firma, korxonagina emas, hunar, bilim ham bo'la oladi.

Jamiyatda aniq — ravshan ajralib turuvchi demografik guruhlarni: qadriyatlar, yoshlar, ayollar singari toifalarga bo'lish mumkin, Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlari, manfaatlari asosida ijtimoiy guruh sifatida qaraladi. Ular bir jamiyatda ana shu guruhlar muhim ta'sir kuchiga egalar. Masalan, zamonaviy jamiyatlarda resurslari yetarlicha foydalanilmayotgan ijtimoiy guruh sifatida ayollar qaraladi. Ayollar muammolariga eng ko'p diqqatni qaratayotgan jamiyat azal — azaldan eng ma'qul jamiyat, deb hisoblangan. Shu bilan birga, ma'lumotlarga ko'ra, ayol huquqlarini erkaklar bilan tenglashtirishda eng ko'p muvaffaqiyatlarga erishgan Shvetsiyaga ham BMT ekspertlari fikricha, to'la tenglikka erishishi uchun yana 100 — 150 yil kerak ekan.

Zamonaviy jamiyatlarda din siyosatdan ajratilgan. Fuqarolarning e'tiqod erkinliklari davlat va jamiyat tomonidan e'tirof etilib, kafolatlangani holda, birorta diniy guruhning o'z qarashlari va aqidalarini butun jamiyat uchun zo'rlik bilan kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Etnik jamoa (guruh) — qabila, elat, millat kabi barqaror guruhlardan iborat. Bu guruhlarining har birini ba'zan "xalq", deb ataladi. Ba'zan "etnik jamoa" tushunchasi bilan bir necha xalqlarni nomlashadi. Masalan, o'zbek, qozoq, turkman, qirg'izlar — turkiy etnik jamoasi tarkibiga kiradi.

Milliy o'z — o'zini anglaganlik — milliy jamoa a'zolarining o'z tarixi, buguni va kelajagi, boshqa jamoalar qatoridagi o'z o'rni va ular bilan munosabatlarga doir, qarashlar, fikrlar, baholar birligidir. Milliy o'z- o'zini anglash natijasida ijtimoiy — etnik guruh siyosat subyekti sifatida shakllanadi. Bu jarayonda milliy manfaatlar ham muhim ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy guruhlarining ichida ochiq — ravshan ko'rinib turuvchi va o'z manfaatlarini yuqori darajada anglaganligi, uyushqoqligi, yuqori malakaviyligi va hokimiyatga bevosita kuchli ta'sir eta oluvchi byurokratiya — siyosatning faol sub'ekti, deb qaralishi mumkin.

By hodisani tahlil etganda, unga ikki xil yondashuvni bir — biridan ajratish lozim. Birinchisi, byurokratiyani davlat boshqaruvi mexanizmi sifatida, asosan, tanqidiy baholovchi ommaviy ong va, ikkinchisi, uni hukmronlik uslublari va usullari haqidagi bilim egalari sifatida o'rganuvchi politologik va sotsiologik yondashuvlardir.

SAVOLLAR

1. Ijtimoiy tabaqalashuv nima uchun siyosat doirasida chuqur o'rganilishi lozim?
2. Ijtimoiy mobillikning ochiq tizimi qay tarzda jamiyatdagi ixtiloflarning keskinligini pasaytirish, ularning oldini olish vositasi bo'la oladi?

9BOB. SIYOSIY ELITA VA SIYOSIY YETAKCHILIK

9.1. Siyosiy elita tushunchasi

Politologik adabiyotlarda "siyosiy sinf", "hukmron sinf", "boshqaruvchi sinf" singari turli nomlarga ega siyosiy elitalar bugungi kunda ham jamiyat taraqqiyoti uchun ulkan hissa qo'shuvchi ijtimoiy guruh hisoblanadi.

Zamonaviylashayotgan jamiyatlarda islohotchilarning muvaffaqiyatlari to'g'ridan — to'g'ri ana shu guruh salohiyati, irodasi va tashabbusiga bog'lanadi.

Xo'sh, siyosiy elita nima? Uning siyosiy jarayonlarga belgilovchi ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi?

"Elita" ning lug'aviy ma'nosi fransuzchadan "saralangan", "saylangan", deb tarjima qilinadi. Ya'ni bu so'z — narsalar, hodisalar, insonlarda eng yaxshi xususiyatlar, sifatlar mujassam etganini anglatadi. "Siyosiy elita" siyosiy nazariyada — muayyan sifatlarga yoki hokimiyatga kuchli ta'sirga ega ijtimoiy guruhga mansublikni bildiradi.

Siyosiy elita jamiyat rivojini maqsadlari va yo'nalishlarini ishlab chiqadi. U strategik jihatdan muhim qarorlarni qabul qiladi va ularni amalga oshirish uchun davlat hokimiyati egalik qilayotgan barcha manbalarni ishga soladi.

Jamiyat eng qadimgi davrlardanoq aslzodalar, oq suyaklar, oliy tabaqaga va xalqqa ajratib kelingan. Bunday ajratish hayotda mavjud asl holatni aks ettirgan. Jumladan, bizning buyuk ajdodlarimiz qalamiga mansub asarlarning aksariyatida kelib chiqishi (zoti), nasabi, aql — zakovati, jasorati bois xalq mehrini qozongan va xalq boshida turgan qahramonlar, beklar, shohlar obrazlari tahlil qilinadi.

Ammo, faqat XIX asr oxiriga kelib elitalarning kelib chiqishi, jamiyatdagi o'rni, vazifalari haqidagi qarashlar ilmiy tahlil tusini oladi. Deyarli bir vaqtda ushbu masalalar haqida o'z fikrini bayon etgan italiyalik ikki olim — G.Moska va V. Pareto va nemis olimi R.Mixels elitalarni siyosatning alohida subyekti sifatida ajratib, uning amaliy faoliyatini o'rgana boshladilar, Ularning ijodi elitologiya faniga asos soldi va unda "makiavelli maktabi" yo'nalishini tashkil etdi.

G.Moska har qanday jamiyatning ikki sinf - boshqaruvchilar va boshqariluvchilarga bo'linishini azaldan mavjud va tabiiy hol, deb biladi. Uning fikricha, yolg'iz bir kishi ham (u har qanday buyuk sifatlarga ega bo'lmasin), hamma barobar ham hokimiyatni amalga oshira olmaydi. Shuning uchun G.Moska fikricha, uyushgan kamchilikning uyushmagan ko'pchilik ustidan hukmronligi muqarrardir. Bu — kelishib va bir xil faoliyat ko'rsatuvchi odamlar o'zaro kelisha olmagan minglab odamlar o'zoro kelishi olmagan minglab odamlar ustidan g'alaba qozonadilar. Uning tarkibiga kiruvchi individlar ommadan bir qator sifatlari bilan ajralib turadi. Bu sifatlar ularga muayyan moddiy intellektual va, hatto, ma'naviy ustunlik beradi. Boshqacha qilib aytganda, ular o'zlari yashayotgan jamiyatlarida nihoyatda qadrlanadigan va ularga obro', nufuz qo'shadigan qandaydir fazilatlariga ega bo'lishlari kerak. Moska vaqt o'tishi bilan bunday sifatlarning o'zgarishini aytib o'tadi. U siyosiy elitani "siyosiy sinf", deb ham atagan. Unga ko'ra, uch sifat odamlarga siyosiy sinfga yo'l ochadi: harbiy jasorat-harbiy aslzodalikka; boylik — moliyaviy hukmronlikka va avliyolik - diniy aslzodalikka. Moska fikricha, siyosiy elita qotib qolgan yopiq ijtimoiy guruh emas, u uch usul bilan yangilanib boradi: vorislik, saylanish va kooptatsiya. Siyosiy sinif rivojlanishida olim ikki yo'nalish mavjudligini ta'kidlaydi: aristokratik va demokratik. Aristokratik yo'nalishning ustunlik qilishi siyosiy elitaning yopiqligi va, oqibatda, turg'unlikka olib keladi, elita — "ayniydi". Demokratik yo'nalishdagi taraqqiyotda uning yangilanishi, o'zgaruvchanligi va samaradorligi ortadi.

G.Moska bilan bir davrda va undan mustaqil ravishda siyosiy elitalar ta'limotini V.Paretto ham ishlab chiqdi. V.Paretto fikricha, jamiyatni har doim alohida psixologik va ijtimoiy sifatlarga ega bo'lgan elitalar guruhi boshqa rib kelgan va boshqarishlari lozim. Jamiyatni boshqarishning u yoki bu sohasida yuksak va samarali faoliyat ko'rsatayotgan individlar guruh elitalarni tashkil qiladi. Ushbu guruhlar hukmron, ya'ni hokimiyatni boshqarishda bevosita ishtirok etuvchilar va kontrelitalar, ya'ni yuksak sifatlarga ega bo'lgan, lekin hokimiyatni bevosita boshqarishda ishtirok etmayotgan kishilardan iboratdir. Jamiyat taraqqiyoti elitalarning davriy ravishda almashinishi vositasida ro'y beradi. Hukmron elita guruhlar o'z imtiyozlari va ijtimoiy mavqelarini meros tariqasida noelitar avlodlariga berishga harakat qiladilar, bu — o'z

navbatida elita tarkibi sifatining buzilishiga, kontrelita guruhlarining o'sishiga olib keladi. Bunday sharoitlarda hukmronlikdan norozi kontrelita guruhlarini ommani safarbar etish vositasida hukmron elita guruhlarini ag'daradi va o'z hukmronligini o'rnatadi.

Shunday qilib, Pareto elitalarning vujudga kelishini ko'p darajada psixologiyaga bog'laydi. U "siyosiy elita" atamasi bilan bir qatorda "tanlangan sinf" atamasini ham qo'llaydi. Unga ko'ra, elita terminining bosh g'oyasi ustunlikdir. Ya'ni aql, xarakter, chaqqonlik singari xilma — xil qobiliyatlarga oliy darajada ega odamlar- elita deyiladi.

Elitalar to'g'risidagi ta'limotlar taraqqiyotiga R.Mixels ham yirik hissa qo'shgan. U jamiyatda elitarlikni vujudga keltiruvchi ijtimoiy mexanizmlarni tadqiq qildi. R.Mixels hukmron qatlamning tashkilotchilik qobiliyatlariga, shuningdek, jamiyatning tashkiliy strukturalariga elitarlikni vujudga keltiruvchi vosita sifatida katta e'tibor berdi. R.Mixels fikricha, jamiyat tashkil etilishining o'zi elitarlikni talab qiladi. Jamiyatda "oligarxik tendensiyalarning temir qonuni" amal qiladi. Uning mohiyati shundaki, yirik tashkilotlar muqarrar ravishda elitaning shakllanishiga olib keladi. Jamiyatda rahbarlik hamma tomonidan ham amalga oshirila olmaydi, shu sababdan ham, ushbu tashkilotlarning samaradorligi rahbarlik qiluvchi yadro va apparatning ajralishiga olib keladi, u esa oddiy a'zolar nazorati ostidan chiqib, ulardan ajralib siyosatni yolg'iz rahbariyatning manfaatlariga bo'ysundirishga va birinchi navbatda, o'z imtiyozlarini, ahvolini saqlab qolishga harakat qiladi. Omma esa, yetarli darajada haqqoniy axborotga ega emasligi natijasida, bunday holatga va tashkilotlarning kundalik faoliyatiga loqayd qaraydi, shu jumladan, demokratik jamiyatda ham aslida elitalar hukmronlik qiladi.

"Makiavelli maktabi" oqimini yaratgan olimlar elitalarga xos bir qator xususiyatlar asosida ularni boshqa ijtimoiy guruhlardan farqini ko'rsatib berdilar. Demak,

- elitarlik — har qanday jamiyatga xos;
 - elitalar alohida sifatlarga ega; ularda guruhviy hamjihatlik kuchli va uning asosini hokimiyatga intilish yoki hokimiyatga egalik tashkil etadi;
 - elitalar hukmronligi legitim tabiatga ega;
 - elitalar tarkibi almashinish, yangilanish xususiyatiga ega.
- Makiavelli maktabi vakillari xalqning irodaviy bo'shlig'i, mas'uliyatni o'z qo'lga olishni istamasligi bois, jamiyatdagi ushbu parchalanishni yengib bo'lmaydi, degan xulosani asoslaganlar.

Zamonaviy jamiyatlarning tuzilishi va mazmunidagi o'zgarishlar "hukmron sinf" ning jamiyatdagi mavqeini ham, uning vazifalarini ham, u tayanadigan resurslarini ham, elitalarni jipslashtiruvchi omillarni ham o'zgartirib yubordi. Elitalarning zamonaviy konsepsiyalari ana shu jarayonlarni aks ettirishga harakat qiladi. Shu tariqa, elitalarga qadriyat, institutsional, reputatsion yondashuvlar vujudga keldi. Elitalar pluralizmi nazariyasi ana shu yondashuvlarni umumlashtirib, hozirgi vaqtda jamiyatda xilma — xil elitalar faoliyat ko'rsatishi (siyosiy, iqtisodiy, madaniy, harbiy) va birortasi mustaqil holda, yolg'iz o'zi hokimiyatni amalga oshira olmasligini aniqladi. Avval siyosiy resurslar (pul, boylik, maqom) bir qo'lda — aristokratiyada to'plangan bo'lsa, zamonaviy jamiyat, siyosiy tengsizlikni saqlagani holda, resurslarni butun jamiyatga tarqatib yubordi. Jamiyatda xilma — xil va ko'p sonli elitalar guruhlarini shakllantirdi. Bu esa, demokratiya bilan elitarlikni yarasttirar edi.

9.2. Elitaning turlari va funksiyalari

Shunday qilib, elitalarning mavjudligi obyektiv hol. Elitalarning mavjudligi jamiyatda boshqa ijtimoiy guruhlarning mavjudligi singari juda muhim. Siyosiy elitalar esa, jamiyat siyosiy xayotini professional asosda boshqarish uchun juda zarur.

Siyosiy elita — hokimiyat vositalariga ega bo'lgan odamlar guruhi. U murakkab tuzilishga ega. Siyosiy elita o'z ichida yana bir qancha turlarga bo'linadi. Bunda asosiy ko'rsatkich — hokimiyatga egalik darajasidir. Siyosiy elitalar oliy, o'rta qatlam, ma'muriy elitalarga bo'linadi.

"Oliy elita" ni qarorlar qabul qiluvchi yoki bu jarayonga bevosita ta'sir etuvchi odamlar tashkil etadi. Ularning soni unchalik ko'p emas. Rivojlangan demokratik davlatlarda har bir million aholiga oliy elitaning 50 vakili to'g'ri keladi.

"O'rta elita" ga mansublik daromad miqdori, kasbiy maqomi, ma'lumoti kabi uch ko'rsatkich asosida aniqlanadi. O'rta elitaga katta yoshdagi aholining 5% mansub, deb hisoblanadi. Yuqoridagi ko'rsatkichlarning bitta yoki ikkitasi yo'q bo'lganda, nomzod "marginal elita" ga mansub, deb hisoblanadi.

Ma'muriy elitaga yuqori darajadagi davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar kiradi.

Elitalarning eng muhim turlaridan yana biri iqtisodiy elitadir. Unga yirik mulk egalari, sanoatchilar, eng boy odamlar kiradi. Iqtisodiy elita aholi bandligi, ish haqi, odamlar daromadlari kabi muhim omillar bilan belgilanadi va o'z iqtisodiy hokimiyati, moliyaviy hukmronligiga tayanadi.

Elitaning yana bir turi harbiy elitadir. U siyosatda hal qiluvchi vosita sifatida qo'llanadi, jamiyat hayotida siyosiy jarayonlarda muhim rol o'ynaydi.

Ilmiy — texnik elita — intellektual elitaning eng saralangan qismini o'z ichiga oladi. Uning ahamiyati fan- texnika taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi.

Ma'naviy va madaniy elita — san'at, adabiyot, ma'rifat va ijodkorlarning eng nufuzli qismidan iborat.

Elitalarning boshqa turlariga yashirin va muxolif elitalar kiradi.

Siyosiy elitalar tarkibiga kimlar kiradi? Ularning tarkibiga: oliy rahbar kadrlar, boshqaruvchilar va katta obro'ga ega bo'lgan g'oyaviy ish bilan shug'ullanuvchilar, intellektuallar, artistlar, ruhoniylarning vakillari kiradi. Ammo, elitalar tarkibiga nafaqat boshqaruvda bevosita ishtirok etuvchi shaxs va guruhlar, balki eng ko'zga ko'ringan iqtisodiy va ma'muriy doiralari, ommaviy axborot vositalari, ta'lim-tarbiya muassalarining rahbarlari ham kiradi. Siyosiy elitalar tarkibiga siyosat bilan rasmiy jihatdan bog'langan, lekin siyosiy qarorlar qabul qilinishiga chetdan ta'sir o'tkazadigan hukmron sinfnin vakillari ham kiradi.

Siyosat subyektlari orasida elitalar muhim o'rinni egallaydilar. Siyosat-elitalarining mahsulidir.

Hozirgi davrda demokratik jamiyatlar uchun dolzarb vazifalardan biri — elitar guruhlariga qarshi kurash emas, balki jamiyat uchun foydali siyosiy elitalar guruhini shakllantirishdir, unda ijtimoiy vakolatlikning o'z vaqtida sifat jihatdan yangilanib turishini ta'minlash, oligarxiyalashuvi, xalqdan begonalashuvi va yopiq hukmron, imtiyozli tabaqaga aylanishining oldini olishdir. Elitalar ijtimoiy vakolatligiga, uning sifatiga va samaradorligiga elitarni, a'zolarini tanlab olish tizimi muhim ta'sir ko'rsatadi. Elitaga tanlab olishning ikkita asosiy tizimi, gildiya va antreprenur tizimi mavjud.

Gildiya tizimiga talabgorlarni yopiq holda tanlash, quyi xizmat pillapoyalaridan, yuqori qarab o'sish, tanlab olishga, murakkab talablar tizimi (bularga partiya a'zolari, ish staji, ma'lumoti, egallab turgan lavozimi, rahbariyatning ijobiy tavsifnomasi va hokazalar kiradi) xos.

Antreprenur tizimi gildiya tizimiga qarama-qarshi bo'lib, bu tizim quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- Ochiqlik, yetakchi pozitsiyalarni egallashga har qanday ijtimoiy guruhlariga keng imkoniyatlar berilishi;
- Rasmiy talablarning ko'p emasligi;
- Istagan kishi da'vogarlik qila olishi;
- Tanlab olishdagi yuqori raqobat;
- Shaxsiy xususiyatlarning yetakchi ahamiyatga egaligi va h.k.

Jamiyatda siyosiy elitalar bir qator muhim vazifalarni bajaradi. Avvalo, ular butun jamiyat, alohida qatlamlar manfaatini ifodalovchi yangi g'oyalarni ishlab chiqaradilar va jamiyat rivojining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Bu — strategik funksiyadir. Siyosiy elita o'z dasturlarida jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarning manfaatlari aks etishiga intilishi bilan, ikkinchi, kommunikativ funksiyani bajaradi. Siyosiy elita tashkilotchilik, ya'ni ishlab chiqilgan rejalarni hayotga tatbiq etish vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, siyosiy elita jamiyatning

barqarorlik va birligini, uning iqtisodiy va siyosiy tizimlari turg'unligini, ixtiloflarning oldini olish orqali jamiyatni birlashtirish funksiyasini bajaradi.

9.3. Siyosiy yetakchilik tushunchasi

Siyosatda kechadigan jarayonlarni, odatda, yetakchi shaxs nomi bilan bog'lash qabul qilingan. Bu haqda to'g'ridan - to'g'ri aytilganda ham, birorta yetakchi ismi tilga olinmaganda ham, jamiyatni (tashkilotni, guruhi) boshqarayotgan siyosiy yetakchi ro'y berayotgan voqea - hodisalar uchun bevosita mas'ul ekanligi nazarda tutiladi. Ijtimoiy hodisa sifatida yetakchilik — inson tabiatining qirralaridan biri. Bu ma'noda u insoniyatning doimiy yo'ldoshi. Doimo — oiladan tortib, barcha — barcha ijtimoiy pog'onalarda — hayotning o'zi tajribali, dono, kuchli odamlarni yetakchi mavqeiga ko'tarib kelgan. Jamiyat shu tariqa shaxsiy yetakchilikdan yetakchilik institutlariga, (masalan, monarx, prezidentlik instituti) va guruhiiy etakchilikka (masalan, muayyan guruhlar nomidan chiquvchi partiyalar, ijtimoiy harakatlar etakchiligi) o'tgan.

Bugungi kunda siyosiy etakchilarni yaratuvchi butun boshli siyosiy industriya faoliyat ko'rsatadi (imidjmeckerlar va RRmeckerlar timsolida).

Xo'sh, siyosiy etakchilikning mohiyati nimadan iborat? Xuddi hokimiyat, siyosat singari etakchilik butun jamiyat miqyosida uchraydigan hodisa. Etakchilik — yo'l boshlovchi, rahbar ma'nosini beradi. Etakchilik — boshqa odamlarga ta'sir o'tkaza olish, ularni ma'lum maqsadga erishish yo'lida birlashtirish qobiliyatidir. Ana shu qatorda siyosiy etakchilik hodisasi alohida ajralib turadi. Bu — siyosiy etakchilik qandaydir alohida xususiyatlarga ega ekanligi bilan emas, ijtimoiy hayotda uning yaqqolroq namoyon bo'lishi, siyosiy etakchilar faoliyati natijalari butun jamiyat manfaatlari, taqdiriga ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi.

Jamiyatda siyosiy etakchilikning roli nihoyatda kuchli. U xalq, jamiyat faoliyatini tinchlik, barqarorlik, rivojlanish yo'lga safarbar etishi ham mumkin, urush, nizolar, vayronagarlik domiga ham tortishi mumkin. Ayniqsa o'tish davrlarida etakchining ahamiyati cheksiz ortadi. Bunday vaqtda ro'y berayotgan o'zgarishlar, mamlakatdagi ahvol bevosita yetakchi shaxsi bilan bog'lanadi, (masalan, Turkiyaning demokratiyaga o'tishi Kamol Ota Turk nomi bilan chambarchas bog'liq, Hindiston Mustaqillikka erishishi Maxatma Gandi nomiga uzviy bog'lanib ketgan v.x.).

Siyosiy yetakchilik siyosiy psixologiyada keng va batafsil o'rganiladi. Siyosat nazariyasida bu hodisa odamlar, guruhlar, institutlar va umuman jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solish muvofiqlashtirish mexanizmi sifatida qaraladi. Uning mohiyatini hukmronlik va itoat, ta'sir va izdoshlik munosabatlari tashkil etadi.

Yondoshuvdagi xilma — xillik siyosiy yetakchilik hodisasining ko'p qirrali va murakkabligidan dalolat beradi. Odatda siyosiy yetakchilikka doir xilma, — xil yondoshuvlarni bir nechta umumiy yo'nalishga birlashtiriladi.

Belgilar nazariyasi. Unga ko'ra muayyan sifatlarga ega shaxslar yetakchi bo'la oladi. Bu sifatlarni uni boshqa odamlar ichidan ajralib chiqishiga va bir necha pog'ona yuqori mavqe'ni egallashiga sabab bo'ladi. Turli mualliflarda yetakchi mavqeiga da'vogar shaxs ega bo'lishi lozim bo'lgan turli xil sifatlarni keltiriladi. Ayrim hollarda ular bir — birini inkor ham etadi. Garchand belgilar nazariyasi shakllanishida XIX asr ingliz ruhshunos va antropologi F.Golton xizmatlari alohida ta'kidlansa — da, biz Markaziy Osiyo mutafakkirlari ushbu masalaga qo'shgan hissalarini takidlamay o'tolmaymiz. Buyuk allomamiz Farobiy "Fozil odamlar shahri" hukmdori "tabiatan o'n ikki xislat — fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur", — deb hisoblaydi, "Temur tuzuklari" da Amir Temur vazirlar to'rt fazilatga ega bo'lishi shartligini ta'kidlaydi; 1) asllik, toza nasllik va ulug'vorlik; 2) aql - farosatlilik; 3) sipoh bilan raiyat ahvolidan bohabarlik va ularga g'amxo'rlik ko'rsatish, ular bilan yaxshi muomalada bo'lish; 4) sabru - bardosh, muloyimlik.

Hozirgi vaqtda davlat, partiya rahbarlari imidjini yaratishda yetakchi ega bo'lishi zarur, deb hisoblangan sifatlarga albatta o'tkir zakovat, iroda, jismoniy baquvvatlilik (ko'pgina siyosiy

arboblar, sport bilan shug'ullanadilar), tashkilotchilik, istarasi issiqlik, notiqlik; samimiylilik kabilar kiradi.

Ammo belgilar nazariyasi mukammal emas. Amerikalik R. Stogdil yetakchilikka doir 124 tadqiqot, natijalarini umumlashtirib, ularda mualliflarning barchasi e'tirof etgan birorta fazilat uchramaganini qayd etgan. Bu nazariya turli davrda, turli ijtimoiy — siyosiy kuchlar yetakchilarga turli talablarni qo'yishini hisobga olmaydi. Barcha vaziyatlar uchun umumiy yetakchi idealini ishlab chiqish mumkin emasligini tan olmaydi. Bundan tashqari, siyosiy jarayonda ishtirok etish davomida yetakchida yangi sifatlar ham shakllanib borishi e'tibordan chetda qoladi.

Bu yondoshuvning kamchiliklarini belgilar nazariyasining keyingi bosqichida shakllangan omiliy-analitik konsepsiya to'ldiradi. Bu konsepsiyaga ko'ra siyosiy yetakchining siyosiy jarayonda ishtiroki davomida uning "ikkinchi tabiati" vujudga keladi, vaziyat, muhit ta'sirida: siyosiy etakchining hulq-atvori, ish uslubi shakllanadi. Bu belgilar shaxsning "o'z" tabiatidan mutlaqo farq qilishi ham mumkin, uning sifatlariga mos ravishda uyg'unlashib, uni kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Vaziyat nazariyasi yetakchilikning muayyan shart - sharoitlarga bog'likligidan kelib chiqadi. Yetakchi — muayyan vaziyat mahsulidir. Aynay vujudga kelgan muayyan vaziyatlar siyosiy yetakchilarni tanlab oladi va uning hulq—atvorini belgilaydi. Tarixda tasodifiy yetakchilar bo'lmaydi. Ular bir yetakchi o'z davrining, tarixiy vaziyatining mahsulidir. Iskandar Zulqarnayn, Oliver Kromvel, Chingizxon, Amir Temur, Napoleonlar o'z davrining yetakchilari edilar. Shu bilan birga vaziyat kontsepsiyasi kuchli shaxs ham muayyan vaziyatni keltirib chiqarishi mumkinligini hisobga olmaydi.

Vaziyatlar ta'limotiga aniqlik kiritish, rivojlantirish va sifat jihatlaridan boyitish natijasida siyosiy etakchilikni, uning izdoshlari va tarafdorlari yordamida tushuntiruvchi ta'limot vujudga keladi.

Zamonaviy siyosat nazariyasida tarafdorlar tushunchasi keng qamrovli bo'lib, siyosiy faollarni tashqari etakchining saylovlari, shuningdek, u bilan o'zaro munosabatda bo'luvchilar ham bu tushuncha mazmuni tarkibiga kiritiladi. Tarafdorlarni o'rganish- siyosiy etakchining hulq-atvorini qabul qilinadigan qarorlarini oldindan bilish imkoniyatini beradi.

Yetakchi – tarafdorlar munosabatlarining shakllanish va amal qilishda siyosiy faollarning roli kattadir. Aynan, tarafdorlar uning shaxsiy sifatleri va imkoniyatlarini etarli baholay oladilar, uni qo'llab-quvvatlaydilar. Bu qarash bir muncha kamchiliklarga ham egadir. Ushbu nazariya va vaziyatlar ta'limoti siyosiy etakchining hokimiyatini egallagandan keyingi faoliyatidagi mustaqillikni, faollikni tushuntirib bera olmaydi. Tarix saboqlari ko'rsatadiki, ko'pgina siyosiy rahbarlar, uni hokimiyat tepasiga keltirgan qatlamlar va guruhlar manfaatiga qarshi qaratilgan faoliyat yuritganlar. Buni Stalin misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Hokimiyatga chiqqandan keyin o'n besh yil davomida u o'zini hokimiyat tepasiga keltirgan bolsheviklarni deyarli butunlay, bundan tashqari o'z partiyasi a'zolarining-yarmini yo'q qildi. Bunga o'xshash holni Gitlerda ham ko'rishimiz mumkin, u ham o'zini hokimiyat tepasiga keltirgan eski natislar partiyasi a'zolarini deyarli butunlay yo'q qildi.

Bu ko'pgina dalillar shuni ko'rsatadiki, yetakchi va tarafdorlar o'zaro ta'sirini ikki tomonlama harakat sifatida qarash kerak. Yetakchilar o'z ijtimoiy tayanchlarini muayyan darajada o'zgartirishlari mumkin. Bunday hol ayniqsa, avtoritar va totalitar siyosiy tizimlarda fojeali tus olishi mumkin. Har qalay, mavjud yondoshuvlarning barchasi bir-birini inkor etishdan ko'ra, to'ldirishga xizmat qiladi va keltirilgan omillarning hech birini mutlaqlashtirish mumkin emas. Har bir siyosiy yetakchi va uning faoliyatini unga ta'sir etuvchi barcha omillar birligi tarzida tahlil qilish, bunda muayyan sharoit, amal qilayotgan stereotiplar, jamiyatdagi ijtimoiy — iqtisodiy, siyosiy ahvol - siyosiy, huquqiy madaniyat turi va x.larni inobatga olish zarur bo'ladi.

Yuqoridagi yondoshuvlarni umumlashtirib, shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, yetakchilik, shu jumladan, siyosiy yetakchilik ayrim shaxs xususiyati, deb qaralishi mumkin emas. Yetakchilikni shu ma'noda muz tog'lari aysberglarga o'xshatsa bo'ladi. Aysberg haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish uchun uning ko'zga ko'rinuvchi va suv ostidagi qismini birgalikda

ko'z oldimizga keltirishimiz kerak. Shu singari, siyosiy etakchilik muayyan davr, muayyan vaziyat va muayyan manfaatlarni ifodalovchi ijtimoiy - siyosiy xodisadir. U obyektiv tabiatga ega: jamiyat o'z taraqqiyoti negizida mas'uliyatni o'z zimmasiga ola biladigan, uzoqni ko'ra oladigan, keng fikrlovchi, ko'pchilik manfaati uchun qayg'uruvchi shaxslarga muhtoj.

Shunday qilib, siyosiy yetakchilik — insoniyatga xos bo'lgan eng qadimgi universal institutlardan biri va u davlat hamda jamiyat miqyosida hokimiyat funksiyalarini bajaruvchi subyektlardan biridir. Biz uni bir shaxs odamlarni hamkorlikka va umumiy maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltira olishi bilan bog'ladik. Ammo bu vazifani bajaruvchi shaxs bir nechta umumiy talabga javob berishi kerak. So'z siyosiy yetakchilikning mezonlari haqida ketyapti. Avvalo, siyosiy yetakchining odamlarga ta'siri doimiy bo'lishi lozim. Siyosiy jarayonga katta, lekin birgina ta'sir ko'rsatgan shaxslar siyosiy yetakchi sifatida baholanishi mumkin emas. So'ngra yetakchining ta'siri alohida shaxslarga emas, butun guruhga, tashkilotga yoki jamiyatga nisbatan amal qilishi kerak.

Rahbar va uning izdoshlari, hayrixohlari munosabati ikki tomonlama ta'sirga ko'rigan. Yetakchi o'z faoliyatida guruhga, tashkilotga yoki butun jamiyatga tayanadi. Ammo u quyidan kelayotgan ta'sirlar domiga tushmasdan, bir qadam ilgarida borib, o'z guruhi, tashkiloti yoki jamiyatga oshkora ustun ta'sirga ega bo'lishi kerak. Va nihoyat, yetakchining ta'siri kuch, zo'rlik, qo'rquv emas, ishonch, avtoritetga asoslanishi lozimdir.

Siyosiy yetakchining saralanishi, odatda, bosqichma-bosqich boradi: Avval, ijtimoiy xarakter shakllanib, uning ichida yetakchilar ajralib chiqadi; so'ngra dasturlar, tashkiliy tamoyillar, intizom iyerarxiyasi ishlab chiqiladi; va nihoyat, hokimiyat uchun kurash, hokimiyatga egalik, mamlakatni boshqarishda ishtirok, rahbarlarning yetishib chiqishi kuzatiladi.

9.4. Siyosiy yetakchilik turlari

Yetakchilikning mumtoz, hisoblash mumkin bo'lgan uch turini M. Veberning “Siyosat - ham mayl, ham kasb sifatida” maqolasida bergan ligetim hukmronlikning uch ko'rinishidan keltirib chiqariladi.

- An'anaviy yetakchilik. Yetakchilikning bu turi an'analar, marosimlar, odat kuchi kabi mexanizmlarga tayanadi. Itoat qilish odati an'analarining muqaddasligiga va hokimiyatning meros tariqasida o'tishiga asoslangan yetakchilikning bu turi dohiylar, oqsoqollar, shohlar boshqaruvi uchun xosdir.

- Xarizmatik yetakchilik. Hukmdor – yetakchining ilohiy qudratiga xalqning cheksiz ishonchiga asoslanadi.

- Ratsional - oshkora yetakchilik. Yetakchini saylash tarkibi, unga berilgan hokimlik vakolatlarining oqilligi qonuniyligi to'g'risidagi tasavvurlarga asoslanadi. Ushbu klassifikatsiya o'zining kamchiliklariga qaramasdan, uni qo'llashda oddiy va qulaydir. Birinchi turdagi yetakchilik asosida odatlar ikkinchisida e'tiqod va hissiyotlar yotadi. Uchinchisida tafakkur, M.Veber xarizmatik yetakchilikni tahlil etishga alohida e'tibor beradi. U yetakchilikning ushbu turini inqiroz davrida jamiyatni inqilobiy tarzda yangilashning muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraydi, chunki, xarizmatik dohiy obro'-e'tibori o'tmish bilan bog'liq bo'lmasdan, u ommani ijtimoiy yangilanish vazifalarini yechishga safarbar etishga qodirdir. Jamiyat taraqqiyotiga nisbatan tinch davrda esa, tarixiy an'analarini avaylab –asrovchi va zaruriy islohotlarni amalga oshiruvchi ratsional – legal yetakchilik maydonga chiqadi. Uni byurokratik yetakchilik, deb ham atashadi. Bu holda siyosiy yetakchilik qonuniy byurokratik tadbirlar natijasida shakllanadi.

Tadqiqotchilar dohiylarni va yetakchilarni farqlashadi. Dohiylilikda, oliy hokimiyat timsoli bo'lgan shaxsga sig'inish e'tiqodga asoslansa, yetakchilik ancha madaniy jamiyatlar uchun xos va u siyosatchi amal qiladigan barcha e'tirof etadigan qoidalarga asoslanadi.

Faoliyatining ko'lamiga ko'ra, umummilliy, xalqaro darajadagi muayyan ijtimoiy qatlamlar, partiyalar yetakchilarini ajratish mumkin.

V. Pareto yetakchilarni sherlar va tulkilarga ajratgan. Tulki sifatli siyosatchi vaziyatni tez anglaydigan, o'zining asl maqsadlarini sir tuta oluvchi, ayyor, ehtiyotkor, izlarini yashira oladigan, ustomon bo'lishi kerak. Sher sifatli siyosatchilar to'g'ri so'z, dangalchi, qo'pol bo'lganlari tufayli, boshqalar qo'ygan qopqonga tezgina tusha qoladi. Uning bosh tamoyili — raqibini ochiq jangda yengish. Siyosatchining ideal turi — sherning kuchi va bardoshiga hamda tulkining epchilligi va ayyorligiga ega shaxsdir. Bunday siyosatchilar tarixda juda kam uchraydi. Amir Temur hazratlari shunday siyosatchi, deb e'tirof etilishga loyiq.

Amerikalik politolog Robert Taker siyosiy yetakchilikning uch turini ajratib ko'rsatgan:

- Konservatorlar — jamiyatdagi munosabatlarni qanday bo'lsa — shunday saqlab qolishga qaratilgan faoliyat olib boradi.
- Islohotchilar — hokimiyat tarkibini keng qamrovli islohotlar vositasida tubdan o'zgartirishga intiladilar.
- Inqilobchilar — odatda, qurol kuchi bilan boshqa ijtimoiy tuzumga tez, sakrash orqali o'tishni rejalashtiradi.

Zamonaviy siyosat nazariyasida yetakchilarning to'rt yig'ma obrazi qo'llaniladi: bayroqdor, xizmatchi, savdogar va o't o'chiruvchi. Bayroqdorni voqelikni shaxsiy idrok etish, ommani jalb etishga qodir bo'lgan g'oyalari, ideallar ajratib turadi. Bunday turga Jaloliddin Manguberdi, Boburlarni kiritish mumkin.

Xizmatchi — yetakchi ham o'z tarafdorlari va saylovchilarning manfaatlarini ifoda etishga intiladi va ular nomidan ish ko'radi, uning butun faoliyati izchil ravishda ana shu manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan.

Savdogar — yetakchi uchun o'zining g'oya va rejalarini chiroyli qilib ko'rsatish, fuqarolarni ularning afzalligiga ishonitirish, ularni bu g'oyalarni “sotib olishga” jalb etish xosdir. Va nihoyat, o't o'chiruvchi - yetakchi eng dolzarb ijtimoiy muammolarni, davrning, muhim talablarini mo'ljalga oladi. Uning xatti—harakatlari konkret vaziyatga ko'ra aniqlanadi. Real hayotda bu to'rt obrazdagi yetakchilar alohida holda uchramasdan, siyosat arboblarda aralashgan holda uchraydi.

Hokimiyatga munosabatiga ko'ra yetakchilarni hukmron va muxoliflarga ajratish mumkin. O'z navbatida, muxolif - yetakchilar ham ikki xil bo'ladi: ayirmachi-muxolif etakchi va konstruktiv muholif etakchi. Ayirmachining yagona maqsadi hokimiyat. Unga har qanday vositalar bilan erishishga intiladi. Shuning uchun, u mavjud hokimiyatning murosasiz dushmani, uni qanday bo'lmasin ag'darib tashlashga intiladi. Hokimiyat tepasiga bunday siyosiy yetakchining kelishi mamlakat rivojini tubdan o'zgartirishga, nobarqarorlikka olib keladi.

Konstruktiv muxolif — yetakchi hokimiyatga tomon qonuniy harakat qiladi, hukmron yetakchini tanqid qiladi, omma ichida bo'ladi, o'z obro'si va imkoniyatlarni oshirib boradi va keyingi saylovlarda g'alaba qozonishi uchun zamin tayyorlaydi. Bunday yetakchining hokimiyat tepasiga kelishi qonuniy tarzda amalga oshib, mamlakat hayotida tub o'zgarishlarga olib kelmaydi, hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Siyosiy yetakchilarning yana bir turi populist yetakchidir. U xalq muhabbatini tez qozona oladi, negaki u odamlarning intilishlari, ehtiyojlari, dard – u alamlarini bayon etadi. Populist yetakchi ommaning noroziligi, g'azabi, hissiyotlariga tayanib, qandaydir dolzarb g'oyani targ'ib qiladi. Masalan, imtiyozlarni bekor qilish, millatchilik v.h. Ko'pincha, u murakkab muammolarni nihoyatda soddalashtirib ko'rsatadi, o'zi ilgari surgan shiorlar va g'oyalarning ijtimoiy va siyosiy oqibatlarini jddiy tahlil qilib ko'rmaydi. U muammolarni "tez va oson hal qilish yo'llarini taklif etganida, haqiqatan, o'zi ega bo'lgan imkoniyatlardan emas, xalqqa ma'qul gap aytib, o'z obro'sini ko'tarish maqsadidan kelib chiqadi. Ammo, siyosatda oson yo'llar yo'q. Populizm keng quloqchilik yoyishining sabablaridan biri esa fuqarolarning siyosatdan, mulkdan begonalashganligi, xilma — xil va'dalarga oson ishonishidir. Bunday vaziyatda chuqur o'ylab, tahlil qilib ko'rilmagan va'dalarini beruvchi siyosatchi o'z mavqeini ko'tarishini o'ylar ekan, garovga mamlakat tinchligi va osoyishtaligini qo'yishi ma'lum.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ayrim yetakchilik turlari haqida keltirilgan fikrlar bu - hodisaning naqadar serqirra va murakkabligini ko'rsatib turibdi.

Adabiyotlarda yetakchilikning, asosan, quyidagi oltita funksiyasi ko'rsatiladi:

1. Jamiyatni jipslashtirish, ommani birlashtirish. Yetakchi o'zida va boshqa davlatlar bilan munosabatlarda milliy birlikni gavdalantirishi va namoyish qilishi, fuqarolarni umumiy maqsadlar va qadriyatlar yo'lida birlashtirishi, Vatanga, davlatga, xalqqa xizmat qilishda o'rnak bo'lishi lozim.

2. Eng ma'qul siyosiy qarorlarni ishlab chiqishi va qabul qilishi. Yetakchilar xatolar qilishdan kafolatlanmagan bo'lsa ham, ijtimoiy vazifalarni hal qilishning eng ma'qul yo'lini topa olishlik qobiliyatlari, odatda, ularning rahbarlik lavozimlarini egallashlarini oqlaydi.

3. Ijtimoiy hakamlarlik va homiylik, ommani qonun buzilishlari, amaldorlarning o'zboshimchaligidan himoya qilish, tartib va qonunchilikni nazorat, rag'batlantirish va jazolash choralari bilan saqlab turish.

4. Hokimiyat va ommaning siyosiy va hissiy aloqa kanallarini mustahkamlash va shu bilan fuqarolarning siyosiy rahbarlikdan begonalashuvining oldini olish. Ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, televideniye, shuningdek, saylovchilar bilan o'zaro uchrashuvlar va boshqa tadbirlar orqali prezidentlar va boshqa siyosiy rahbarlar xalq bilan bevosita aloqada bo'lishi uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

5. Yangilanishning tashabbuskori bo'lish, optimizm va ijtimoiy energiyani to'plash, ommani siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga safarbar qilish. Yetakchi xalq an'analari ni avaylab-asrashi, o'z vaqtida yangiliklarni ilg'ay olishi, jamiyat taraqqiyotini ta'minlashi, xalqda ijtimoiy ideallar va g'oyalarga ishonch uyg'otish lozim.

6. Tizimni legitimlashtirish. Bu funktsiya, asosan, totalitar jamiyat yetakchilariga xosdir. Siyosiy rejim tarixiy xalq an'analari va demokratik tadbirlarda o'z-o'zini oqlay olmaganida, u buni xarizmatik yetakchining alohida xususiyatlaridan izlashga harakat qiladi. Bunda yetakchilarning qobiliyatlari haddan tashqari bo'rttiriladi, oz yoki ko'p darajada ilohiylashtiriladi. Masalan, Mao Tsze — Dun, Saddam Husayn v.h.

Ular bir mamlakatda yetakchilarni yetishtirib beruvchi kadrlar tayyorlash tizimi mavjud. U jamiyat siyosiy tizimi maqsadlari, siyosiy mafkura qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq. Shunga ko'ra, kadrlar tayyorlash tizimlarini uchga ajratish mumkin:

1. Liberal — demokratik tizim: uning ikki ko'rinishi mavjud: g'arbiy va sharqiy.
2. Totalitar. Unda yetakchiga, tizimga va mafkuraga sodiqlik alohida qadrlanadi.
3. Teokratik tizim diniy mafkura amal qiladigan mamlakatlarda mavjud.

Siyosiy yetakchining ijtimoiy ahamiyati to'g'ridan-to'g'ri siyosiy madaniyat darajasi va ommaning faolligi bilan bog'liqdir. Faol siyosiy madaniyatning, barqaror demokratik an'analarning mavjudligi, davlat tomonidan nazorat qilinmaydigan fuqarolik jamiyati va siyosiy muxolifatning borligi no'noq, zaif yetakchilar uchun imkoniyatlarni kamaytiradi, turli xil o'zboshimchalikning, hokimiyatni suiste'mol qilishning oldini oladi va shu bilan birga siyosatda individual qobiliyatlar va iste'dodni namoyon qilishga keng yo'l ochib beradi.

Hozirgi dunyoda yetakchilik rivojlanishida beshta tendensiya shakllandi:

1. Milliy yetakchilar global muammolarni endilikda chetlab o'ta olmaydilar. Ular o'z ichki siyosatlarini umumjahon, global jarayonning bir qismi sifatida qarashlari lozim bo'ladi;
2. Norasmiy yetakchilarning roli va ta'siri ortib borayapti;
3. Yetakchilar faoliyati iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga ko'proq jalb qilinayapti. Bu yetakchi faoliyati bilan bog'liq ravishda u yoki bu millat turmush darajasining ortishida namoyon bo'layapti. O'z navbatida, bu faoliyat davomiyligi ham ortayapti.
4. Xarizmatik siyosatchilarning paydo bo'lishi ehtimoli kamayayapti.
5. Hokimiyatlar bo'linishi va fuqarolik jamiyati chegaralarining kengayishi, hisobiga siyosiy yetakchi hokimiyati ham cheklanayapti.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda siyosiy yetakchilik instituti o'tish davriga xos bo'lgan muammolarni to'la ko'lamda o'z boshidan kechirayapti. L.Levitin ta'kidlaganidek, O'zbekiston Mustaqilikka erishishi arafasida uning rahbarligida Islom Abdug'anievich Karimovdek kuchli xarizmatik shaxs turganligi — O'zbekistonliklarning katta omadi edi. O'zbekiston totalitar sovet tizimidan ajralib chiqib, yangi ijtimoiy — siyosiy tizim qurmoqda. Bunday davrlarda xarizmatik

yetakchilarga ehtiyoj nihoyatda ortadi. O'z bilimi, tajribasiga tayanib, bunday shaxslar jamiyat rivojini yangi yo'lga burib yuboradilar, taraqqiyotni ta'minlaydilar.

Shu bilan bir qatorda, demokratik jamiyat qurish vazifasi — siyosiy yetakchilik institutini ham demokratik tamoyillar asosida tashkil etishni talab etadi, ya'ni jamiyatning turli manfaatlariga ega turli qatlamlarga bo'linishini (masalan, tadbirkorlar, fermerlar, ziyolilar, ishchilar, yoshlar, ayollar singari), bu qatlamlar o'z manfaatlarini yaxshi anglashlari va uyushishlari (harakatlar, uyushmalar, partiyalar, jamg'armalar v.h.) va shu asosda, shu qatlamlar manfaatlarining ifodachilari sifatida turli xil, bir — biriga o'xshamaydigan, siyosiy yetakchilarning paydo bo'lishini; ushbu jarayonlarsiz demokratik jamiyat qurish mumkin emas. Chunki demokratiya — turli xil manfaatlarning ijodiy bahsi, siyosiy hamjihatlik, hokimiyat sari qonuniy harakatdir.

O'zbekistonda bugun siyosiy yetakchilik institut, barcha demokratik institutlar singari, sanab chiqsa bo'ladigan yutuqlardan ko'ra istiqbolda erishishi kutilayotgan marralar sarhisobiga boyroq. Bu — o'sish, shakllanish jarayonlari bilan bog'liq hodisa. Jamiyatimizda mustaqilik yillarida sezilarli salmoqqa ega bo'layotgan ijtimoiy guruhlar (tadbirkorlar, bankirlar, fermerlar, amaldorlar, yoshlar, ayollar) o'z ijtimoiy manfaatlarini to'laroq ko'lamda anglab borib, shuningdek, demokratik siyosiy madaniyat negizida, jamiyatimizda ratsional — legal siyosiy yetakchilik institutiga o'tilishini ta'minlashlari kuzatiladi.

SAVOLLAR

1. Jamiyatda siyosiy elitalarning mavjudligi demokratik tamoyillar bilan qanchalik mos keladi?
2. Jamiyatda siyosiy elitalar bo'lmasligi mumkinmi?
3. Siyosiy yetakchilik nima uchun siyosiy institut tarzida qaraladi?
4. Dunyoga ma'lum va mashhur siyosiy arboblardan misolida siyosiy yetakchilar turlarini tahlil qilib ko'ring.
5. Xarizmatik va an'anavny yetakchilar davri o'tib, ratsional — qonuniy yetakchilar davri keldi, degan fikrga munosabatingizni bildiring.

IV BO'LIM. SIYOSIY INSTITUTLAR

10-BOB. DAVLAT — BOSH SIYOSIY INSTITUT

10.1. Davlat — siyosiy tahlil obyekti sifatida

Ijtimoiy fanlarda davlat va siyosiy hokimiyat tushunchalari bir butun qaraladi, negaki davlat hokimiyati oliy siyosiy hokimiyat tarzida namoyon bo'ladi. Hokimiyatga doir kundalik tasavvurlar uni "boshqaruv", "davlat hokimiyati" doirasi bilan cheklaydi. Bu leksikada ham o'z ifodasini topgan: Masalan, fransuz tilida hokimiyat (le pouvoir) — markaziy hokimiyatni ham anglatadi, inglizchada (the power) — (kuchli, qudratli) davlat ma'nosida ham qo'llanadi, nemischada (che ge walt) — qudrat, zo'rlik ma'nolarida ham keladi. Ruschada "vlast" — boshliqni, "vlasti" esa — davlatning hokimlik muassasalarini bildiradi. O'zbek tilida "hokimiyat" so'zining ma'nolaridan biri — davlat boshqarmasi va "uning organlari; hukumat, siyosiy hukmronlikni anglatga, "hokimiyat" tushunchasi "o'z izmiga yurgizuvchi, o'z fikrini o'tkazuvchi", hukmron ma'nolarida keladi.² Bu an'ana-barcha xalqlar "tarixiy taraqqiyotining muayyan davrlarida davlat - hokimiyatni o'z qo'lida to'liq mujassam etgan tashkilot bo'lganidan kelib chiqadi.

Ammo siyosiy hokimiyatning davlatdan tashqari boshqa institutlarda ham mujassam bo'lishini kuzatish mumkin: siyosiy partiyalar, assotsiatsiyalar, OAVlari v.h. Shuning uchun ham hokimiyat — ijtimoiy hodisa sifatida — ko'p qirrali, ko'p o'lchovidir. Bu — uning ta'riflarining xilma — xilligida namoyon bo'ladi. Ammo, siyosat nazariyasi nuqtai nazaridan, bu ta'rifning o'zi yetarli emas, Negaki, "davlat hokimiyati" tushunchasi mazmunida hokimiyatning yakka markazda to'planishi nazarda tutiladi va shu tariqa siyosatning amalda ko'p omilli ekanligini inkor etish, hisobga olmaslik mavjud. Bugungi kunda ham siyosiy hokimiyat eng ko'p darajada

davlatda mujassamlashgan bo'lsa — da, jamiyatda siyosiy hokimiyatga kuchli ta'sir eta oladigan, yoki uni o'zida aks etuvchi boshqa institutlar ham mavjud (partiyalar, lobbi guruhlari, OAVlari, korporativ guruhlari, ijtimoiy harakatlar elitalar v.h.). Ushbu mavzu doirasida davlatning aynan siyosiy hokimiyatga doir jihatlariga e'tibor qaratamiz.

Davlatni hokimiyat namoyon bo'lishi shakli tarzida qarash — siyosat nazariyasida yakka markazli va ko'p markazli davlat modellarini ajratish imkonini beradi. Tabiiyki, ko'p markazli davlat hokimiyati modeli demokratik siyosiy tizimlarda amal qilib, uning asosiy vazifasi — turli ijtimoiy hokimiyat ko'lamiga ega siyosiy kuchlar muvozanatini ta'minlash. Siz bilasizki, demokratik tizimlarda hokimiyat "dispersiya"si — "yoyilishi" hodisasi mavjud bo'lib, bu — ko'p ta'sir markazlarining mavjudligi davlatning zaiflashuviga emas, kuchayishiga olib keladi. Shunday qilib, bu o'rinda gap hokimiyatning ko'pchilik qo'lida to'planishi to'g'risida ketadi. Ammo, kuchli markaziy hokimiyatsiz mamlakatda qonun ustuvorligini, tinchlikni ta'minlash, butun jamiyat samarali taraqqiyot yo'lini ishlab chiqish va amalga oshirish mumkun emas. Barcha rivojlangan demokratiyalar-kuchli markazlashgan davlatga modelida davlatning o'ta markazlashishiga to'sqinlik qiluvchi mexanizmlar ishlab chiqilgan va ular amalda qo'llanadi. Bu mexanizm bir necha sohada amal qiluvchi kafolatlar tizimidan iborat. Quyida ularga qisqacha to'xtalamiz.

- Siyosiy sohada siyosiy tizimini erkinlashtirish, hokimiyat bo'linishi tamoyillarini amalga oshirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va hokimiyatning mahalliy organlari vakolatlarini kengaytirish. Bu kafolatlarining "ishlay boshlashi" hokimiyatning barcha darajalaridagi o'zaro munosabatlar mohiyatini tubdan o'zgartiradi.

- Iqtisodiy sohada-jamiyat mulkning turli shakllari mavjudligi, bozor munosabatlari qaror topish-iqtisodiy mustaqilligini oshirish va siyosiy hokimiyatning bu sohadagi ta'sir imkoniyatlarini ancha cheklaydi.

- Huquqiy sohada – hokimiyat turli darajalarning vakolatlari qonun bilan belgilanishi va qonunning jamiyatda ustuvorligi ta'minlanishi.

Ijtimoiy sohada turli ijtimoiy qatlamlarga o'z manfaatlarini ifodalash uchun barcha sharoitlarning mavjudligi, fuqarolik jamiyatining mavjudligi; Davlat hokimiyatining yakka markazli modeli (monarxiya, diniy, harbiy v.h. davlat) hokimiyatning bir markazda to'planishini aks ettiradi. Hatto eng ilg'or jamiyatlarda ham davlat hokimiyatining yakka markazda to'planishga intilishi tendentsiyasi kuzatiladiburokratiya, texnokratiya, meritokratiya).

Hokimiyatning yakka markazli modeli an'anaviy davlatchilikka xos. Xususan, qadimgi Xitoyda legizm nomi bilan mashhur bo'lgan ta'limot — davlatda yagona qonunchilik amal qilishi lozimligi va shu qonun oldida jamiyatdagi barcha tabaqalar va guruhlarining tengligi tamoyilini o'rnatish orqali markaziy hokimiyat tomonidan boshqariladigan va burch hamda ijtimoiy maqsadlarga sidqidildan xizmat qilishga qaratilgan davlatni yaratishni maqsad qilib qo'ygan. Bunday davlatda barcha qonun oldida teng: "mukofotlashning yagona qoidolari" — faqat xizmat natijalariga ko'ra belgilanishini, "jazolashning yagona qoidolari" — lavozim va avvalgi xizmatlari jazodan holi qilmasligini anglatgan.

Legistlar davlat hududlarini ma'muriy qismlarga bo'lib, ularning markaziy hokimiyatga itoat etishini talab etganlar.

Mana shu kabi g'oyalar O'rta Osiyo davlatchiligi tarixida ham keng tarqalgan. Xususan, Amir Temur imperiyasining tashkiliy tuzilishi va mazmuni — adolat, qonun ustivorligiga asoslanganligini yaxshi bilamiz. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asaridagi quyidagi fikr ham har sohada qonun amal qilishiga ajdodlarimiz qanchalik katta ahamiyat berganliklarini tasdiqlaydi: "Qachonki podshohlik tartibi va siyosat qoidasi bir izga solinsa, adolat ishlari ham huddi shunday bo'ladi".

Agar an'anaviy jamiyatlar uchun "davlat" va "jamiyat" asosan mos tushunchalar bo'lsa, zamonaviy jamiyatlar, albatta shartli ravishda, davlat va fuqarolik jamiyatiga bo'lib o'rganiladi. Lekin har ikkala holda ham davlatning tabiatini aniqlashda uning umumiyligi yoki universaligi xususiyati ta'kidlanadi. Davlat — umumiy qadriyat. Insonlar bugungi kunda davlat shaklidan boshqa tarzda o'zlarining hamkorlikdagi hayotlarini tashkil eta olmaydilar. Odamlar nazarida

davlat- nafaqat ularni birlashtirish uchun, balki alohida xalq (millat, jamoa) ma'naviyligini saqlash uchun ham zarurdir.

Davlat ega bo'lgak muhim belgi—suverenitetdir. Davlat suvereniteti to'g'risida so'z ketganda, jamiyatdagi barcha boshqa jamoa, gyph, tashkilotlar unga nisbatan quyi, tobe vaziyatni egallashi anglashiladi. Muayyan hududda davlat hokimiyatidan ustun hokimiyat yo'q. U barcha hokimiyatlar ustidan suverendir, boshqa barcha hokimiyatlar undan o'z legitimligini oladilar. Shuning uchun davlat suvereniteti quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- hududining birligi va bo'linmasligi;
- hudud chegaralarining dahlsizligi;
- ichki ishlarga aralashmaslik.

Suverenitet ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Ichki suverenitet — milliy hududda yashovchi va ushbu davlatning fuqarosi bo'lgan (yoki fuqarosi bo'lmagan) barcha odamlar ustidan hukmronlik qilish huquqi va vakolati. Tashqi suverenitet — mamlakat hududining yaxlitligi va tashqi kuchlarning davlat ichki ishlariga aralashmasligini ta'minlashni anglatadi.

Zamonaviy nazariyalarda davlat suvereniteti cheksizligi g'oyasi o'zgarib, u ijtimoiy tashkilotlar va uyushmalar tomonidan cheklanishi tamoyili kiritildi. Eng ko'p o'zgarishlarga bu tushuncha federativ tuzilishga ega davlatlarda uchraydi.

Davlatning umumiyliigi va universalligini ta'minlovchi yana bir muhim xususiyati — qonundir. Ma'lum ma'noda qonun suverenitet ifodasidir. Faqat davlatgina butun jamiyat uchun majburiy qonunlarni ishlab chiqish huquqiga ega. Hokimiyat qonunda va qonun orqali muhim o'zgarishlarga uchraydi: u o'zboshimchalik va zulmdan — hamma uchun majburiy qoidaga aylanadi.

Qonun davlatdan ustun turadi, uning faoliyatini me'yorga soladi. Ammo har doim ham shunday bo'lgan emas. Qadimgi davrlarda qonun siyosiy hokimiyatni ifodalar edi (legislarni eslang), keyinroq qonun hech kim o'zgartira olmaydigan an'anaga aylandi. Bir qator muhim g'oyalari bilan davlatchilik taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olim – Monteske: "inson jamiyat qabul qilgan qarorlarni bajarishi lozim" degan aqidani, "inson ham, jamiyat ham qonunlarni bajarishlari lozim" degan aqidaga o'zgartirdi. Shu tariqa birinchi bor, inson qo'liga uni jamiyat, davlat zo'ravonligidan himoya etuvchi qurol-qonun berildi.

Qonun-jamiyat hayotini tartibga soluvchi, barqarorlashturuvchi vositaga aylanadi.

Davlatning yana bir belgisi – uning ommaviy hokimiyatga, ya'ni muayyan ma'muriy-boshqaruv apparati va huquqiy-tartibot organlariga tayanishdir.

Davlat-kuch, zo'rlik ishlatishning legitim huquqiga ega yagona siyosiy tashkilot. Buning uchun u maxsus vositalar (qurol, qamoqxona kabi) va maxsus organlarga (armiya, politsiya, xavfsizlik xizmati, sud, prokuratura) ega.

Davlat-fuqarolik institutiga tayanadi. Bu uning yana bir belgisi. U fuqorolik xatti-harakatlarini ularning ijtimoiy, diniy, malakaviy yoki boshqa sifatlaridan qat'iy nazar umumiy o'lchov bilan baholaydi.

Davlat fuqaro bilan ish ko'radi, ular manfaatlari, huquqiy, erkinliklarini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi.

Davlat o'z tabiati va belgilaridan kelib chiqib jamiyat oldida turgan masalalarni hal qilish borasida muayyan yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi. Uning bu faoliyati boshqa siyosiy institutlarining faoliyatidan ajralib turadi. Xususan, davlat ichki va tashqi funksiyalarini bajaradi.

Davlatning ichki funksiyalariga quyidagilar kiradi.

1. Siyosiy funksiya siyosiy barqarorlikni ta'minlash, siyosiy rivojlanish istiqbollari ishlab chiqishda ko'rinadi. Ko'plab empirik tadqiqotlar ko'rsatishicha, jamiyat singari murakkab tizimlarda siyosiy deyarli barcha jarayonlar va holatlar mohiyatini tashkil etadi, barcha odamlar manfatlariga ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi dunyoning murakkab, ehtilofli muammolarni faqat texnologik yangiliklar yoki iqtisodiy vositalar yordamida hal qilish mumkin emas. Zamonaviy jamiyatlarning murakkab ichki tuzilishi va manfatlarning nihoyatda xilma-xilligi sharoitida aynan siyosat sohasida institutsionallashtirilgan kelishuvlar mavjudligini taqazo etadi. Siyosat, birinchi navbatda, davlat siyosati, zamon talablariga muvofiq ravishda zarur yondoshuvlarni

ishlab chiqadi, turli ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalardan barcha ijtimoiy sinflar va guruhlarining manfaatlarini eng ma'qul tarzda muvofiqlashtiruvchi va ularni umummilliy manfaatlariga bo'ysundiruvchi strategiyani tanlaydi. Davlat oliy birlashtiruvchi kuch sifatida jamiyatda mavjud siyosiy muloqotning timsoli bo'lib chiqadi va barqarorlik tartib, rivojlanish kafili vazifasini bajaradi;

Davlat — jamiyat miqyosida manfaatlarni amalga oshirish, ularni muvofiqlashtirish, ihtiloflarning oldini olish yoki ularni bartaraf etish uchun mo'ljallangan maxsus tashkilotlar, muassasalar, devon va ular faoliyatini amalga oshirish va nazorat qilish mexanizmlariga ega. Aslida ijtimoiy munosabatlarni tartibga - soluvchi tashkilot tarzida vujudga kelgan davlatning-siyosiy funksiyalari ortib borayotganligi va u tobora siyosiy tashkilotga aylanib borayotganligini amerikalik sotsiolog T.Parsons XX asr 70 — yillarida qayd etib o'tgan.^{1 2} Davlatning iqtisodiy funksiyasi iqtisodiy jarayonlarni soliq va kredit siyosati, iqtisodiy o'sish sharoitlarini yaratish yoki jazo choralarni qo'llash vositasida tartibga solishida namoyon bo'ladi. Davlatning iqtisodga aralashuvi me'yoriy va pozitiv tahlil qilinadi. Me'yoriy yondashuv mamlakatda amal qilayotgan siyosiy tartib bilan belgilanadi va hukumat fuqarolarning farovonligini oshirish uchun nima qilishi kerakligini belgilab beradi. Pozitiv yondashuv hukumatlarning amaliy xatti — harakatlarini tahlil qiladi.

XX asrda ko'p mamlakatlarda davlatning iqtisodiy funksiyasi kengayishi kuzatildi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda davlatning ichki yalpi mahsulotdagi umumiy ulushi o'rta hisobda 1913-yildagi 12% dan 1995 yilda 459ga o'sdi. Ammo XXI asr boshida ko'p davlatlar siyosatida yana "ortga qaytish" ro'y berganligi, davlatlar o'zlarining iqtisodga aralashuvlarini cheklashga harakat qilayotganligi sezilyapti

3. Ijtimoiy funksiya: odamlarning mehnat qilish, turar joy, sog'liqni saqlash kabi ehtiyojlarining davlat tomonidan qondirilishi; qariyalar, nogironlar, ishsizlar, yoshlarga ijtimoiy kafolatlar tizimining mavjudligi; hayot, mulk va sog'liqni sug'urta qilish bilan bog'liq vazifalar. Sizga ma'lumki, liberal g'arb davlatlari bu vazifani keng ko'lamda faqat XX asrning o'rtalariga kelib bajara boshladi. Ammo ijtimoiy himoya tamoyili davlat haqidagi eng - qadimgi konsepsiyalarda (masalan, pater nalistik konsepsiyalarda) mavjud bo'lib kelgan. U asrlar davomida davlatning "asosiy vazifalaridan biri bo'lgan. Shu bilan birga, g'arb mamlakatlarida an'anaviy ijtimoiy institutlar (oilalar, mahalla) mazmun — mohiyatidagi o'zgarishlar g'arb-davlatchiligi bilan sharq davlatchiligida mavjud muammolarning bir— biriga o'xshamasligini keltirib chiqaradi.

4. Huquqiy funksiya: huquq—tartibotni ta'minlash, huquqiy me'yorlarni joriy etish, jamiyatni ichki va tashqi xavfdan himoya qilish (ekstremizm, terrorizm).

Ushbu funksiya har qanday davlatning, ayniqsa, sharq davlatining eng muhim jihatini tashkil etadi. Azaldan davlatga — adolat tayanchi, - kafili sifatida aqraladi. Hukumatga iqtisodiy va boshqa xatolarini surunkasiga kechirib kelgan fuqarolar, davlatga huquq, tartib, adolat, fuqarolarni shaxsiy va mulkiy xavfsizligiga jiddiy xavf tug'dirgan vaziyatlarni kechirmaydi.

5. Madaniy-tarbiyaviy funksiya aholining ma'naviy, ma'rifiy, madaniy o'sishini ta'minlash, ijod imkoniyatlarini yaratishda namoyon bo'ladi.

6. Ekologik funksiya — davlat o'z zimmasiga tabiatni asrash, o'z fuqarolari uchun munosib, sog'lom yashash muhitini ta'minlash majburiyatini oladi. Faqat davlatgina vujudga kelgan ekologik muammolarni nazorat qilish, bartaraf etish vazifasini bajara oladi. Bugungi kunda jahonda vujudga kelgan ekologik muvozanatni saqlab qolish butun dunyo hamjamiyatining vazifasi ekanligini yaxshi bilamiz.

Davlatning tashqi funksiyasi — mamlakatni tashqi xavfdan himoya qilish, boshqa davlatlar bilan o'zaro foydali ko'p tomonlama munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishdan iborat.

10.2. Davlatning tuzilishi

Davlat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud, armiya va huquqni muhofaza qiluvchi organlardan tashkil topgan. Davlatlarni turkumlashning yana bir nechta usuli mavjud: Oliy hokimiyatni tashkil etish usuli bo'yicha davlatlar monarxiya va respublikaga bo'linadi. O'z navbatida, monarxiyalar bo'linishi quyidagicha: a) absolut monarxiya- siyosiy hokimiyat to'raligicha bir shaxs — monarx qo'lida to'plangan bo'ladi (Saudiya Arabistoni, Katar, Omon); b) konstitutsion monarxiya: monarx hokimiyati Konstitutsiya bilan cheklangan, qonun chiqarish vazifasi parlamentga; ijro etish vazifasi —hukumatga berilgan; (G'arbiy Yevropa monarxiyalari).

Respublikalarning ham parlamentar, prezidentlik va aralash shakllari mavjud. Parlamentar respublikalarda saylovlarda g'olib chiqqan partiya vakillaridan hukumat tuziladi va u parlament oldida mas'ul hisoblanadi. Bunday Respublikalar hozirgi vaqtda Italiya, Germaniya, Hindiston, Avstriya, Shvetsariya, Turkiya v.b. bir qator mamlakatlarda mavjud. Parlament respublikasida parlament — davlatda markaziy o'rinni egallaydi. Tabaqaviy vakillik organi sifatida u Angliyada XIII asrda paydo bo'lgan bo'lsa-da, davlat hokimiyatining mustaqil, qonunchilik va vakillik tashkiloti tarzda, zamonaviy mohiyatida XVII — XIX asrlarda shakllanib bo'ldi, hozirgi kunda parlament demokratik siyosiy tizimlarning ajralmas tarkibiy va funksional elementidir.

Parlamentlar bir yoki ikki palatali bo'ladi. Ikki palatali parlamentning quyi palatasi va bir palatali parlament to'g'ridan—to'g'ri saylovlar natijasida shakllanadi. Yuqori palatalar esa turlicha tashkil topishi mumkin: AQSHda, Italiyada to'g'ridan—to'g'ri saylovlar natijasida; GFR, Hindiston, Rossiyada — bivosita saylovlar yo'li bilan; Buyuk Britaniya, Kanadada yuqori palataning a'zolari vorislik yoki tayinlash natijasida o'z o'rinlarini egallaydilar. (U hozirgi kunda Buyuk Britaniyada ana shu qoidani qayta ko'rib chiqish masalasi hal bo'layapti).

Parlament a'zolarining mustaqilligi masalasi alohida ahamiyatga ega. Parlament a'zolari xalq tomonidan to'g'ridan—to'g'ri saylanishining o'zi ularning mustaqilligini ta'minlaydi.

Prezidentlik respublikalarida, odatda, prezident ayni vaqtda xukumat boshlig'i vazifasini ham bajaradi. Qonun chiqaruvchi organ parlament — alohida saylovlar natijasida, prezident — alohida saylovlar natijasida shakllanib, bir—birlaridan mustaqildirlar. Tarixan boshqaruvning bu shakli AQSH Konstitutsiyasi asosida 1787-yilda kiritilgan.

Prezidentlik instituti. Respublikamizda prezidentlik institutining kiritilishi va unda prezidentlik respublikasi boshqaruvining qaror topishi prezidentlik institutiga, turli siyosiy tizimlarda uning amal qilish xususiyatlariga e'tiborni kuchaytirdi. Shuni ta'kidlash lozimki, prezident (lot. — "oldida o'tiruvchi") lavozimi tarixda birinchi bor AQSHda — davlat va hukumat boshlig'i lavozimlarini bir shaxsda birlashtirish natijasida vujudga keldi. U xuddi shu yerda davlat boshlig'ini umumiy saylovlar orqali saylash an'anasi kiritildi. Hozirgi kunda prezident — ko'pgina siyosiy tizimlarning ajralmas qismi. Ammo, har bir davlat o'z prezidentining siyosiy hayotdagi o'rnini o'zi belgilaydi. Prezidentning siyosiy tizimdagi o'rnini, odatda, Konstitutsiyada belgilab beriladi. Konstitutsiya Prezidentning maqomini belgilash bilan birga, odatda, unga xos ma'naviy — siyosiy va fuqarolik majburiyatlarini qayd etib o'tadi. Odatda, davlat rahbari Konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz rioya etishi talab etiladi. Ayrim davlatlarning Konstitutsiyalari prezidentga jamiyatdagi turli kuchlarni birlashtiruvchi hakam vazifasini topshiradi.

Ko'pgina mamlakatlar o'z konstitutsion me'yorlarida prezident ayrim guruhlarining emas, butun jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib faoliyat ko'rsatish lozimligidan kelib chiqadi.

Prezidentlikka saylashning ikki yo'li mavjud: to'g'ridan-to'g'ri va bivosita saylovlar. O'z navbatida, to'g'ridan-to'g'ri prezidentlik saylovlari umumiy saylovlar yoki referendumlar ko'rinishida kechishi mumkin. Bivosita prezidentlik saylovlari uch ko'rinishga ega:

- 1) prezidentni parlament saylaydi;
- 2) parlament va shtat, viloyat, turli siyosiy kuchlar vakillari saylaydi;
- 3) saylovchilar kollegiyasi saylaydi.

Odatda, prezidentlikka nomzodlarning ko'pchiligi yoki partiya yetakchilari, yoki partiyalar ilgari surgan nomzodlardir. Chunki, aynan partiyalar saylovchilar bilan ishlash texnologiyalarini juda yaxshi o'zlashtirganliklari sababli g'alaba qozonishning ham eng ko'p

imkoniyatlariga egalar. Lekin, demokratik davlatlarda mustaqil nomzodlar ham saylovda faol ishtirok etishlari mumkin.

Ko'p mamlakatlarning Konstitutsiyalarida prezidentlik muddati alohida ko'rib chiqiladi. Odatda, bu muddat 4 yoki 5 yilni tashkil etadi. Prezidentni 1 yilga saylash (Shvetsariya) yoki umrbod saylash (ayrim Afrika, Osiyo mamlakatlari) tajribasi ham uchraydi.

Prezidentlikka nomzod uchun konstitutsion va me'yoriy qoidalar mavjud. Deyarli barcha mamlakatlarning Konstitutsiyalariga prezidentlikka nomzod o'z mamlakatining fuqarosi bo'lishi lozimligini talab etuvchi, turg'unlik senzi tushunchasi kiritilgan. Masalan, AQSH prezidenti mamlakatda 14 yildan kam bo'lmagan muddat yashagan bo'lishi kerak. Meksikada bu muddat 1 yil, deb belgilangan. Bizda — nomzod mamlakat hududida kamida 10 yil yashagan bo'lishi talab etiladi.

Ko'pchilik mamlakatlarda prezidentlikka nomzodlar harbiy xizmatga aloqador bo'lmashligi talab etiladi. Nomzodlarning yoshiga qo'yiladigan talablar minimal yosh chegarasini belgilash bilan cheklanadi. Odatda bu 35 yosh. Maksimal yosh belgilanmaydi.

Prezidentlik saylovlarida g'olib chiqqan nomzodning o'z lavozimiga o'tishining ikki yo'li mavjud. Prezident umummilliy saylovlar orqali saylanganida 1 oydan (O'zbekiston) 3 oygacha (AQSH) o'tgan muddatda avvalgi rahbariyat ishining yakunlanishi va yangi prezidentning lavozimni qabul qilishi bilan bog'liq o'tish davri mavjud. Bu davrda yangi saylangan prezident davlat va hukumat boshlig'i vakolatlariga ega bo'lmagan holda yangi hukumatni tuzishga oid tashkiliy masalalarni hal qiladi.

Prezidentlik respublikalarida partiyalar va prezident o'rtasidagi munosabat o'ziga xos xususiyatlarga ega. Prezidentlikning turli modellarida u turlicha namoyon bo'ladi. Osiyo — Afrika modellarida prezident ayni vaqtda hukmron partiya rahbari hamdir. Amerika modelida prezident o'z partiyasida ancha mustaqil O'zbekistonda prezident partiyalar, ittifoqlar, harakatlardan yuqori turadi va butun jamiyat manfaatini ifodalaydi.

Prezidentning davlat apparatini boshqarishdagi o'rni, roli va vakolatlari davlat hokimiyati tizimi bilan belgilanadi.

Aralash turdagi respublikalarda kuchli prezident hokimiyati parlamentning hukumatni kuchli nazorat qila olishi bilan to'ldiriladi. Ya'ni hukumat ham prezidentga, ham parlamentga bo'ysunadi. Bunday respublikalar Avstriya, Irlandiya, Portugaliya, Polsha, Finlyandiya, Fransiya, Bolgariya amal qiladi. Aralash turdagi respublikalar barqaror belgilarga ega emas va saylov natijalariga ko'ra u prezidentlik yoki parlament respublikasi shakliga oson o'ta oladi.

Ma'muriy — hududiy tashkil topishiga ko'ra davlatlarning bo'linishi. Siyosat nazariyasida ma'muriy-hududiy bo'linish haqida gap ketganda, davlat hokimiyatining munosabat prinsiplari va mexanizmlari nazarda tutiladi. Amalda bu prinsiplar unitarizm, federalizm, konfederatsiyalarda o'z aksini topadi.

Aksariyat davlatlar unitar tashkilot sifatida vujudga kelgan. Ularda umummilliy va mahalliy boshqaruv darajalari mavjud. Unitar davlat demokratik yoki avtoritar, monarxiya yoki respublika bo'lishidan qat'i nazar, hokimiyat va sudning yagona tizimi, yagona huquqiy va konstitutsion me'yorlar bilan belgilanadi. Barcha boshqaruv tashkilotlari, pastdan yuqorigacha markaziy hokimiyatga bo'ysunadi va ma'muriy bulimlar hisoblanadi. Bir qator unitar davlatlarda ba'zi hududlar ma'muriy mustaqillikka egalar (XXR, Buyuk Britaniya, Italiya). Unitar davlatlar rivojlanishida keyingi yillarda ko'zga tashlanayotgan muhim belgilar, birinchidan, mahalliy hokimiyatlar imtiyozlarining ko'payishi bo'lsa, (Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya); ikkinchidan, ba'zi ko'p millatli, lekin unitar davlatlarning federatsiyaga o'sib o'tishidir. Masalan, unitar Ispaniya 1978-yilgi Konstitutsiyasi qabul qilinganidan so'ng federatsiyaga qarab rivojlanayapti: Basklar mamlakati, Kataloniya, Galitsiya, Andalussiyalar avtonomiyaga ega bo'lishdi. Belgiya 30 yil (1962 — 1993) ichida federatsiyaga aylandi.

Federatsiya — bir nechta yoki ko'p davlatlardan tarkib topgan davlatlar ittifoqidir. Federatsiya ijtimoiy hayotning iqtisodiy va siyosiy birligini ta'minlagani holda, boshqa sohalarda nisbatan mustaqillikni anglatadi. Federativ tuzilish eng ko'p munozaralarga sabab bo'lgan va hali tugal ishlab chiqilmagan nazariya. Undagi markaziy va eng murakkab masala — suverenitet

masalasidir. U hozirgi vaqtda Meksika, Nigeriya, AQSH, Germaniya, Rossiyalar federatsiyalar hisoblanadi.

Konfederatsiya — mustaqil, davlatlar ittifoqi bo'lib, har biri deyarli to'la ko'lamda o'zining asosiy, belgilovchi huquqlarini va hokimiyatni saqlab qoladi. Shuning uchun, markaziy hokimiyat konfederatsiya a'zolaridan u yoki bu masalani hal qilish uchun izn so'raydi va ular markaziy hokimiyatga qanday ko'lamda vakolatlar berishni hal qiladi. AQSH mustaqil deb e'lon qilinganidan (1776) to konstitutsiya qabul qilingunga qadar (1787), aniqrog'i u amal qila boshlaguncha (1789) konfederatsiya edi. 1815—1867-yillardagi Germaniya ittifoqi — konfederatsiya edi. Shvetsariya konfederatsiyasi 1291 yilda Shved, Uri, Untervald qonunlarining ittifoqi sifatida vujudga keldi va XIX asr o'rtalarigacha shunday bo'lgan, hozir ko'proq federatsiya belgilariga ega.

Ma'muriy apparat (devon)-davlat institutlarini vertikal va gorizontal bo'yicha bir butun qilib birlashtiruvchi asosdir. Davlat ma'muriy apparati hukumat bilan birgalikda turli vazirliklar, idoralar, maxsus qo'mita va komissiyalarning ulkan va qudratli tizimidir. Davlat ma'muriy apparati — shaxssiz hokimiyatning mutlaqo yangi turi—zamonaviy burokratik davlatni keltirib chiqardi. Burokratiya —zamonaviy siyosiy tizimlarning ajralmas qismiga aylandi, qiyida uning M.Veberga ko'ra belgilari keltiriladi: 1) o'zaro itoat va mas'uliyat iyerarxiyasi; 2) shaxssizlik, ya'ni faoliyatning aniq belgilangan me'yorlar va qoidalarga asosan olib borilishi; 3) doimiylik — xizmatda ko'tarilish va imtiyozlarga ega bo'lish kafolati asosida faoliyatning uzluksizligi; 4) malakaviy yuqori bilim va tajribaga ega bo'lish.

Oliy hokimiyatdan farqli o'laroq devon saylovlar va o'zgarishlar natijalariga bog'liq emas. Amaldorlar o'z ishlarini hukumat inqirozlari, parlament tarqatib yuborilishi, muddatidan avvalgi saylov v.h. holatlarda ham davom ettiraveradi. Burokratiya bilan bog'liq, ijobiy tomonlar (samaradorlik, professionalizm, intizom, tezkorlik) va salbiy tomonlar (davlat ma'muriy apparatining doimo o'sishga intilishi (Pareto qoidasiga ko'ra, 20% xodimlar 80% foydali ishni bajaradi); amalda qarorlar ishlab chiqish vakolatiga ega noiblar emas, ularning yordamchilari qo'lga o'tib ketgani; uyushgan qatlam sifatida burokratiya davlat qarorlari bajarilishiga xalaqit bera olishi, ularni buzib talqin eta olishi, o'z manfaatiga moslashtira ola bilishi) ma'lum va turli davlatlar faoliyatida ular doimo hisobga olib kelinadi.

10.3. Davlatning tarixiy shakllari

Davlat —sivilizatsiya tengdoshi. Uning rivojlanishi jamiyat rivojlanishi bilan barobar kechgan. Hozirgi kunda biz an'anaviy, (tabaqaviy, partikular), konstitutsiyaviy, huquqiy, burokratik, korporativ, milliy kabi davlat shakllarini ajratamiz. Mavzu doirasida tabaqaviy, burokratik davlatlar haqida qisman ma'lumotlar berildi. Hozir diqqatni konstitutsiyaviy — huquqiy davlat tushunchasiga qaratmoqchimiz. Fransuz politologi Janlui Shabo o'zining "Siyosatga kirish" (1991) darsligida Konstitutsiyaning amaliy va rasmiy ta'riflarini keltiradi. Unga ko'ra, amalda Konstitutsiya "siyosiy hokimiyat amalga oshirilishi va topshirilishini belgilovchi me'yorlar birligi". Demak, konstitutsiyada hokimiyatga kirish va uni amalga oshirish usullari sanab berilishi kerak, xolos. Rasmiy ta'rifga ko'ra konstitutsiya — qonunchilik holatlari birligi bo'lib, ularni qabul qilish tadbirlari ularni oddiy qonunlardan ustun qo'yadi. Bu ta'rifda konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish yoki uni qayta qabul qilish shartlarining murakkabligiga va odatdagi qonunlar albatta Konstitutsiyaga mos kelishi-kerakligiga diqqat qaratilayapti. Konstitutsiyalar oddiy yoki fakti huquqiy davlatdir. Huquqiy davlatda barcha huquqiy hujjatlar asosiy qonun Konstitutsiyaga muvofiq kelishi nazarda tutiladi. "Huquqiy davlat" atamasini nemis huquqshunosi Robert fon Mol (1799 — 1875) kiritgan. Huquqiy davlat formulasi Konstitutsion tarzda birinchi bor GFRning 1949-yil Konstitutsiyasida bayon etilgan. Hozirgi vaqtda uni ideal, shior, konstitutsion tamoyil sifatida qarash ma'qul, deb hisoblanadi. Negaki, bu tamoyilga yaqin kelgan, shuningdek, uni endigina kiritgan davlatlar mavjud, ammo uni to'liq amalga oshirgan davlatlar yo'q.

XX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy davlat g'oyasi keng tarqaldi. Ijtimoiy davlat-fuqarolari uchun munosib turmush sharoitini yaratuvchi davlat hokimiyati shakli.

Ijtimoiy davlat fuqarolarining barchasini qo'llab-quvvatlaydi, jamiyatda totuvlikni ta'minlaydi. Uning vazifasi kam ta'minlangan, qariya, nogiron, ishsizlar to'g'risida g'amxo'rlikdangina iborat emas, balki barcha fuqarolarning erkin va farovon turmushlarini ta'minlashdir. Ijtimoiy davlat g'oyasi Ikkinchi jahon urushidan so'ng amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Ijtimoiy davlat konstitutsion tamoyil sifatida 1947-yil Yaponiya Konstitutsiyasining 25 – moddasida va yana Germaniyaning 1949-yil Konstitutsiyasi 20 — moddasida bayon etildi. Keyingi yillarda bu tamoyil Italiya, Fransiya, Shvetsiya, Portugaliya, Ispaniya Konstitutsiyalarida aks etdi.

Tarix tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, hokimiyat ham, huquq ham qonunlar jamiyat tomonidan e'tirof etilmasa, qabul qilinmasa, ularning bajarilishini kafolatlamaydi. Fuqarolar yetarli darajada yuqori madaniy, iqtisodiy va ma'rifiy rivojlanish darajasida fuqarolik jamiyatiga uyushadilar va jamiyat hamda davlatning qonunlarga amal qilishini ta'minlay oladilar, jamiyat va davlat tomonidan adolatsizlik va huquqbuzarliklarning oldini ola biladilar. Shunday qilib, huquqiy davlatning birinchi va asosiy sharti fuqarolik jamiyatining mavjudligidir. Haqiqiy huquqiy munosabatlarni suverenitet va unga umumiy itoat bilan birga huquqning demokratik xalqchil mazmuni ham ajratib turadi. Jamiyatda odamlar mulk egasi bo'lganliklari uchun uni ko'paytirish va himoya qilishga o'zlarini mas'ul, deb biladilar. Bu mas'uliyat hayot, turmush darajasini belgilovchi barcha narsani, jumladan, siyosiy huquq va kafolatlarni ham o'z ichiga oladi. Davlat bu vaziyatda umumiy xavfsizlik va barqarorlik uchun javobgar bo'lib qoladi.

Fuqarolik jamiyati odamlar o'rtasida mavjud iqtisodiy, madaniy, huquqiy, siyosiy nodavlat munosabatlari tizimi, ko'ngilli nodavlat tashkilotlari birligidir. Bu ommaviy harakatlar, partiyalar, manfaat guruhlari, sohasi. Fuqarolik jamiyati davlat hokimiyatining o'z—o'zini boshqarish organlariga bir qism vakolatlarini olib berish orqali uni cheklaydi. Fuqarolik jamiyati tarkibiga nodavlat ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar va institutlar (mulk, mehnat, tadbirkorlik); davlatdan mustaqil ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar (xususiy firmalar), xususiy mulkdorlar; ijtimoiy tashkilotlar va uyushmalar; siyosiy partiyalar va harakatlar; tarbiya va nodavlat ta'limi sohasi; ommaviy axborot vositalarining nodavlat tizimi oila; din kiradi.

Fuqarolik jamiyati demokratiya qaror topishining sharti. U demokratik jamiyatlarda tugal yaxlit tizim holida to'laqonli faoliyat ko'rsatadi. Boshqa turdagi jamiyatlarda (avtoritarizm) uning elementlari mavjud bo'lishi va u davlat hokimiyatiga ta'sir ko'rsata olishi mumkin.

Davlatning tarixiy shakllaridan yana biri milliy davlatdir. XXR, Yaponiya, Albaniya, Germaniya, Fransiya, Portugaliya, Gretsiya, Shvetsiya — milliy davlatlardir, chunki ularda etnos va demos (aholi) deyarli mos tushadi.

Zamonaviy davlatlar shakllana boshlagan davr XV acp bilan belgilanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Yevropa xaritasida 1500-yilda mavjud bo'lgan bir necha yuz siyosiy ittifoqlar soni shu jarayon tufayli 1900-yilga kelib 25 taga qisqargan. Zamonaviy davlatlarning tashkil topishi urug'-qabila, qon-qarindoshlik munosabatlarining o'rnini hududiy birlashuv tamoyili olganda boshlangan. Millatlarning shakllanishi bilan davlat qurilishida bu masala tobora jiddiy tus olayapti. Hozirgi davlatlarning aksariyati ko'p millatli. Bir qiyosga ko'ra, zamonaviy millatlarning yer yuzida joylashishi shaxmat taxtasidagi kataklar sifatida emas, tugun holida bo'yalgan va keyin yoyib yuborilgan mato tarzida idrok etilishi haqiqatga to'g'ri. Bunday vaziyatda millat va davlat munosabatlari masalasi eng nozik, eng og'ir masalaga aylanishi, shubhasiz.

Shu o'rinda "millat" va "davlat" tushunchalari o'rtasidagi farqlarni aniqlab olsak.

Millat, davlatdan farqlicha, ma'muriyatga ega emas. Milliy manfaatlarni ifodalovchi shaxslar, xarakatlar, tashkilotlar mavjud, ammo ular davlat ma'muriyatidan o'zgacha maqomga egalar, Millatga tegishlilikni belgilovchi aniq qoidalar, shuningdek, millatni tashkil qiluvchi odamlardan bajarishni talab qilish mumkin bo'lgan huquq va burchlar mavjud emas.

Millatlar va ularning nomidan chiquvchi millatchi yetakchilar davlat singari soliqlar yig'ish, qonuniy tarzda kuch ishlatish kabi vositalarga ega emaslar. Faqat davlatgina millat (yoki millatlar) rivoji uchun zarur bo'lgan barcha omillarni yaratib berishi mumkin.

Shunday qilib, millat davlat ega bo'lgan har qanday tashkiliy xususiyatlardan mahrum: unga mustaqillik xos emas, uning amaldorlari, nizomi, qonunlari yo'q. Millat faqat uni tashkil etuvchi odamlarning ruhiy birdamligi singari ichki birdamlikka asoslanishi mumkin.

Shu bilan birga, millatning — "davlatga uyushgan" sifatida ta'riflanishi millat bilan davlat o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni aks ettiradi.

Millatning rivojlanishi mustaqillik, milliy davlatchilik masalalarini ko'ndalang qilib qo'yadi. Shu o'rinda milliy davlatchilik tushunchasiga yaqinlashdik. Milliy davlatda yetakchi millat manfaatlariga urg'u beriladi, uning tili — davlat tili, deb e'lon qilinadi, ramzlari, madaniyati davlat miqyosida amal qiladi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, ko'p millatli davlatlarda davlat barcha fuqarolar huquqlarining tengligi va shaxsiy huquqlarning kafolatlanishini ta'minlashi kerak. Bundan tashqari, davlat turli millat jamoalariga tegishli institutlarni (milliy markaz, ommaviy axborot vositalari, maktablarning shu millat tilida faoliyat ko'rsatishi) ruxsat etishi, ularga moliyaviy yordam ko'rsatishi lozim v.h. Shunda milliy davlat qurilishi jarayoni demokratlashuv jarayonlari bilan ziddiyatga kirishmay, uyg'un borishi mumkin.

SAVOLLAR

1. Siyosat nazariyasida davlatning qaysi jihatlari o'rganiladi?
2. Davlatlarning belgilarini sanab bering.
3. Davlatning funksiyalari qanday?
4. Parlament, prezidentlik va aralash turdagi respublikalarning tub farqi qanday?
5. O'zbekistondagi yangi davlatchilik xususiyatlarini sanab bera olasizmi?

11 BOB. SIYOSIY PARTIYALAR

11.1. Siyosiy partiyalar: kelib chiqishi, mohiyati, funksiyalari

Odamlar o'z manfaatlarini himoya qilish va hokimiyatga erishish uchun hamma davrlarda birlashganlar. Shu ma'noda siyosiy partiyalar juda qadimdan mavjud. Zamonaviy partiyalar Angliyada XVII asrda vujudga kelgan, ammo 1832-yil saylov islohotidan keyingina hozirgi ko'rinishini olgan. AQSHda partiyalar 1830-yillarda, prezident Jekson davrida, tashkil topa boshlagan. Fransiya va Yevropaning boshqa mamlakatlarida parlament guruhlar va siyosiy klublarning ommaviy tashkilotlarga aylanishi 1848-yil inqilobi bilan bog'liq. G'arb institutlarini birinchilardan bo'lib import qilgan Sharq mamlakatlaridan biri — Yaponiyada partiyalar birinchi jahon urushigacha bo'lmagan.

Siyosat nazariyasida siyosiy partiyalar tarixini bosqichlarga bo'lishda M.Veber tomonidan taklif etilgan quyidagi davrlashtirish qabul qilingan: aristokratik koteriyalar (to'garak); siyosiy klublar; ommaviy partiyalar. Amalda yuqorida sanab o'tilgan davrlarni faqat ikki ingliz partiyasi — liberal partiya (viglar) va konservativ partiya (torilar) o'tgan. Tori va viglarning koteriyalari XVII asrning ikkinchi yarmida shakllangan. Ular o'rtasidagi farqlar, asosan, diniy tabiatga egaligi (viglar- puritanlar, torilar — anglikanlar) va turli sulolalarga moyillik bilan belgilanar edi. Siyosiy klub bosqichi siyosatga burjuaziya kirib kelishi bilan boshlanadi. 1831-yilda torilar "Charlton klub", 1836 yilda viglar "Reform klub" tashkil etdilar. Torilar yirik yer egalari, viglar esa—liberal burjuaziya manfaatlarini ifodalar edi. Boshqa siyosiy partiyalar tarixi ancha qisqa. Ularning ko'pchiligi bir yo'la ommaviy partiya sifatida shakllangan. Shuning uchun ham, koteriya va klub bosqichlarini siyosiy partiyalar tarixining ibtidosi, deb hisoblash mumkin. Birinchi ommaviy siyosiy partiya (liberal partiya) yana Angliyada, 1861-yilda tashkil topgan. 1863-yilda Olmoniyada Lassal boshchiligidagi umumiy german ittifoqi tuziladi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib G'arbiy Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida ommaviy partiyalar mavjud edi. Ommaviy partiyalarning tashkil topishiga bu

mamlakatlarda joriy qilinayotgan umumiy saylov huquqi va kengayib borayotgan ishchilar harakati sabab bo'ldi.

Shu o'rinda, har bir mintaqada partiyalar tashkil topish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligini ta'kidlab o'tish joiz.

AQSH avval boshdanoq burjua davlati sifatida shakllangan. Bu yerda taraqqiyot yo'li masalasida yakdillik mavjud bo'lgani holda, ichki siyosatda respublikachilar fermerlarga tayansalar, federalistlar savdo — sanoat va moliya kapitaliga tayanganlar. Tashqi siyosatda respublikachilar Fransiya moyillik ko'rsatsalar, federalistlar — Angliya bilan ittifoq tarafdori edilar.

Yevropada vaziyat boshqacharoq edi: bu yerda taraqqiyot yo'li haqidagi munozaralar juda keskin kechgan, ko'tarilib kelayotgan burjua sinfiga iqtisodning feodal uklad, feodal an'analar va kuchli hukmron elitalar qarshi turgan. Shuning uchun, siyosiy hayotdagi kurash qattiq bo'lgan va mafkura juda muhim omil rolini o'ynagan.

O'zbekiston va O'rta Osiyoda partiyalar shakllanishi ham o'z yo'lida borgan. Ularning paydo bo'lishi, asosan, jadidlar bilan bog'liq. XX asr boshlariga kelib shakllangan «Ittihad va taraqqiy», «Erk», «Birlik», «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar» haqidagi matbuotdagi munozaralardan shunday xulosaga kelish mumkinki, asoschilari ularni partiya sifatida qaragan taqdirda ham, ular klub bosqichidagi partiyalar edi.

«Partiya» lotinchadan «qism», “guruh” sifatida tarjima qilinadi.

Agar qadimgi ma'nolarida partiyalar ayrim manfaat shaxs atrofida uyushgan kishilar guruhini anglatgan, zamonaviy ma'nosida partiyalar ko'proq mafkura, hokimiyat masalalarida tashkilotga birlashgan odamlar guruhini bildiradi. Shu ma'noda siyosiy partiyalar fuqarolar jamiyati negizida shakllanadi va siyosiy tizimning eng muhim elementi vazifasini o'taydi.

Siyosiy partiyalar jamiyatda muayyan funksiyalarni bajaradi. Siyosiy partiyalarning bosh funksiyasi — fuqarolar ijtimoiy qatlamlar, manfaat guruhlarining ko'plab xususiy manfaatlarini yagona siyosiy manfaatga keltirishdan iborat.

Shu ma'noda ular jamiyat siyosiy tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanganlar. Ular mavjud siyosiy tizim doirasida jamiyat taraqqiyotiga oid raqobatlashuvchi dastur egalari sifatida chiqadilar.

Jamiyat siyosiy tizimida partiyalar turli ijtimoiy guruhlar manfaatini ifodalabgina qolmay, bu manfaatlarini shakllantirishda ham faol qatnashdilar. Partiyalar vakolat vazifasi bilan bir qatorda, vositachilik vazifalarini ham bajaradilar. Ular davlat darajasida qaror qabul qilish jarayonini muvofiqlashtiruvchi va nazorat etuvchi institut sifatida shakllangan.

Partiyalar fuqarolik jamiyatini davlat bilan bog'laydi, ular o'rtasidagi tabiiy ziddiyatlarni yumshatadi. Partiyalar vakolat tizimi orqali parlament va hukumat faoliyatida ishtirok etadi. Ta'kidlash lozimki, kuchli partiyalar jamiyat va davlat aloqalarini mustahkamlash, davlat ustidan nazoratni ko'paytirish orqali davlatni kuchaytiradi, zaif partiyalar — davlatni ham zaiflashtirishi mumkin.

Partiyalar jamiyatning ham vertikal, ham gorizontal bo'yicha barcha sohalarini qamrab u yerda axborot tarqatish va tashviqot faoliyatini olib boradi, tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, siyosiy arboblarni tayyorlaydi. Barcha siyosiy institutlarni qamrab olgan holda partiyalar davlat hokimiyatining barcha darajalari va shahobchalari o'rtasidagi aloqalarni ta'minlaydi, kompromissga asoslangan siyosiy qarorlarni ishlab chiqadi, o'z saylov bazalarini tashkil etgan turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi. Ayni vaqtda, partiyalar ijtimoiy fikrni safarbar etadilar, saylov kampaniyalarini g'oyaviy va tashkiliy jihatdan ta'minlaydilar, hokimiyatning barcha darajalariga nomzodlarini ilgari suradilar.

Har bir jamiyat oldida undagi bir — biriga qarama-qarshi manfaatlarini muvofiqlashtirish vazifasi turadi. Partiyalar ana shu ziddiyatli manfaatlarini bayon etishning doimiy kanallaridan biri sifatida jamiyat barqarorligi oshishiga olib keladi.

Ko'p davlatlarda partiyalarning maqomi va faoliyati maxsus qonunlar yoki konstitutsion me'yorlar bilan tartibga solinadi. Dunyo Konstitutsiyalarida siyosiy partiyalarning roli masalasiga besh xil yondashuv mavjud:

1) birinchi yondashuvda partiyalarga "fuqarolar klubi" tarzida qarash ustunlik qiladi. Kanada, AQSH, Avstraliya, Shvetsariya, Buyuk Britaniya v.h. davlatlarning Konstitutsiyalarida partiyalar to'g'risida hech narsa yozilmagan. Ularda siyosiy partiyalar faoliyati va tuzilishini tartibga soluvchi maxsus qonunlar ham yo'q. Avval Britaniya mustamlakasi bo'lgan ayrim mamlakatlarda ham shunday ahvol mavjud. Masalan, Hindistonda birinchi marta siyosiy partiya tushunchasi Konstitutsiyaga 52 — tuzatishda 1985-yilda ishlatilgan. U ham bo'lsa, parlament ichki tartibiga oid bo'lgan tuzatishdir. Shu bilan birga, keyingi yillarda, Buyuk Britaniya, Kanada va AQSHda partiyalarning saylov kampaniyasida ishtiroki, ularning moliyaviy ta'minotiga doir ayrim qonunlar qabul qilindi.

2) ikkinchi yondashuvda Konstitutsiyalarda siyosiy partiyalarning jamiyatdagi roli to'g'risida batafsil to'xtab o'tildi. GFR (1949), Fransiya (1958), Portugaliya (1976),

Ispaniya (1978), Bolgariya (1991), Ruminiya (1991), Belorussiya (1996), O'zbekiston (1992) yilgi Konstitutsiyalari. Ularda, shuningdek, partiyalarni tashkil etish va faoliyatiga doir ayrim tamoyillar aks etgan. Masalan, "partiyalar milliy suverenitet va demokratiya tamoyillarini hurmat qilishi lozim" (Fransiya Konstitutsiyasi); "davlatning hududiy yaxlitligi va huquqiy tartibini hurmat qilishlari lozim" (Ruminiya Konstitutsiyasi); "etnik, diniy, irqiy asosda yoki hokimiyatni zo'rlik bilan egallash maqsadida partiyalar tashkil etish mumkin, emas" (Bolgariya Konstitutsiyasi). Bu holatlar partiyalar to'g'risidagi maxsus qonunlarda kengaytirilgan.

3) totalitar yandoshuv asosida bir partiyaviylik yotadi. Odatda, bu davlat Konstitutsiyalarida boshqa partiyalarni tashkil etish ta'qiqlanmaydi. Ammo, amalda ularning tuzilishi va faoliyat ko'rsatish mexanizmlari mavjud bo'lmaydi. (Sobiq SSSR, XXR Konstitutsiyasi).

4) ayrim islom davlatlarida (Katar, Kuvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Omon, Saudiya Arabistoni singari) har qanday siyosiy partiyalar ta'qiqlangan. Islom qonunchiligiga ko'ra, partiyalarga birlashish — umma (jamo'a) birligiga ziyon yetkazadi, deb hisoblanadi.

5) ayrim avtoritar davlatlarda qo'llaniladigan beshinchi yondashuvning mohiyati shundaki, ularda Konstitutsiya yoki maxsus qonunlarda aniq ko'rsatilgan partiyalargina amal qilishi mumkin. Masalan, Braziliyada 1964-yilgi harbiy to'ntarishdan so'ng, o'tgan 25 yil ichida faqat ikki partiya faoliyati ruxsat etilgan: ulardan biri — hukumat partiyasi, ikkinchisi unga nisbatan xayrixoh muxolifat rolini o'ynagan. Indoneziyada 1975-yil qonuni bilan davlat mafkurasi — parchalanishini tan oluvchi uchta partiya faoliyatigina ruxsat etilgan v.h.

Partiyaga berilgan huquqiy ta'rif ham umumiy, ham alohida belgilarni o'z ichiga oladi. Bu belgilardan eng muhimlari: saylovlarda ishtirok etishning majburiyligi, partiyalar faoliyatining doimiylik, siyosiy ishtirok etishning, uyushganlikning darajasi, a'zolarining soni va partiyaning nomidir. Bu ta'rifga ko'ra, faoliyati doimiy bo'lmagan tashkilotlar, masalan, faqat saylovoldi davrida faoliyat yurituvchi saylovchilar ittifoqi kabi tashkilotlar partiya, deb hisoblanmaydi. Partiyaning rasmiy tan olinishini ko'rsatuvchi, unga davlat himoyasini beruvchi muhim adolat — bu ro'yxatdan o'tkazishdir. Partiya ro'yxatdan o'tgandagina unga saylovlarda ishtirok etish huquqi va moliyaviy imtiyozlar beriladi.

Partiyalarni ro'yxatdan o'tkazish shartlari tufayli davlatlarda turlicha bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida partiyalar Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkaziladi va buning uchun ma'lum muddatgacha 8 ta viloyatda yashovchi partiya a'zolarining 5000 dan kam bo'lmagan imzosi to'planishi zarur. Ispaniya, Italiya, Fransiya kabi davlatlarda partiyalar, ichki ishlar vazirligida, Belgiya va Niderlandiyada — Adliya vazirligida, Portugaliyada — Oliy sud, Braziliyada — Oliy saylov sudida ro'yxatdan o'tadilar v.h.

Shunday qilib, siyosiy adabiyotda partiyaning xilma — xil ta'riflari mavjud ekan: — Ana shulardan kelib chiqib, siyosiy partiya quyidagicha ta'rif berish mumkin: siyosiy partiya-siyosiy hokimiyatni egallash yoki unga doimiy ta'sir o'tkazish maqsadida mafkuraviy asosda tashkil topgan ixtiyoriy ittifoq.

Odatda, zamonaviy siyosiy partiyalar quyidagi ichki tuzilishga ega:

- yetakchi (yetakchilar) va rahbarlar guruhi;
- apparat;

- faol a'zolar;
- passiv a'zolar.

Samarali faoliyat ko'rsatish uchun partiya siyosiy faoliyat bilan faol va maxsus shug'ullanuvchi "malakali siyosatchilar" rahbarligiga muhtoj. Ular partiya faoliyatini tashkil etadilar va muvofiqlashtiradilar.

Partiyalar, odatda, burokratik apparatga ega. U tashkilotda ishlovchi va o'z mehnati uchun haq oluvchi odamlardan iborat.

Partiyaning faol a'zolari — uning rahbariyati yoki burokratik apparatiga kirmagan holda tashkilot faoliyatida doimo ishtirok etuvchi shaxslardir. Partiyaga kirishga ularga turli sabablar ta'sir etadi: siyosiy manfaatlar, moddiy omillar, hokimiyat, obro'ga intilish v.h.

Partiyaning passiv a'zolariga tashkilotga kirgan, ammo uning faoliyatida dam—badam qatnashib turadigan shaxslar kiradi.

Partiyaga xayrixoh guruh mavjud bo'lishi mumkin. Ular tashkilotga kirmagan holda uning mafkuraviy va pirovard maqsadlarini qo'llab — quvvatlaydilar. U xayrixohlarning roli saylov kompaniyalari davrida, ayniqsa, beqiyos ortadi.

Partiyalar hayotida moliyaviy jihatdan ularni qo'llab- quvvatlaydigan tashkilot yoki alohida shaxslarning roli juda muhim. Ularga yirik kapital egalari yoki milliy, chet el tadbirkorlik, kasaba, diniy va madaniy tashkilotlar kiradi. Partiyalarga ko'rsatgan moliyaviy yordamlari tufayli homiylar unga ta'sir eta olish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

1.2. Siyosiy partiyalarni turkumlash

Siyosiy partiyalarni turkumlashning ko'plab asoslari mavjud. Quyida ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

Dasturining ijtimoiy yo'nalishi va faoliyat yo'nalishiga ko'ra siyosiy partiyalar

- sotsial — demokratik;
- liberal-demokratik;
- kommunistik;
- milliy;
- irqiy;
- diniy;
- davlat - vatanparvarlik;
- xalq partiyalariga ajratiladi.

Faoliyatining g'oyaviy asoslariga ko'ra siyosiy partiyalar quyidagicha bo'linadi:

- doktrinal (o'z mafkurasini himoya qiluvchi);
- pragmatik (maqsadga muvofiqlikdan kelib chiquvchi);
- xarizmatik (muayyan siyosiy yetakchi atrofida birlashuvchi).

Dasturni amalga oshirish uslublariga ko'ra:

- inqilobiy (jamiyatni tubdan qayta isloh qilishga intiluvchi);
- islohotchi (ijtimoiy hayotni keskin tarkibiy o'zgarishlarsiz o'zgartirish tarafdori).

Siyosiy faoliyat tabiatiga ko'ra siyosiy partiyalar:

- reaksiyon;
- konservativ;
- radikal;
- ekstremistik;
- mo'tadil bo'lishi mumkin.

Hokimiyatda ishtirokiga ko'ra siyosiy partiyalar:

- hukmron;
- muxolif (oshkora, yashirin) larga bo'linadi.

Siyosat maydonida joylashishiga ko'ra:

- markaz partiyalari;
- o'ng partiyalar;

- so'l partiyalar mavjud.
- Tashkiliy tuzilishiga ko'ra siyosiy partiyalar:
- parlament partiyalari (birlamchi tashkilotlari sifatida hududiy qo'mitalar kiradi);
 - leyboristik partiyalar (parlament partiyalarining bir ko'rinishi bo'lib, kollektiv a'zolik, shu jumladan, mehnat jamoalarining partiyaga kollektiv a'zoligiga ruxsat etadi);
 - avangard partiyalar (demokratik sentralizm va a'zolarining hududiy — ishlab chiqarish asosida birlashtirish tamoyiliga asoslanadi).

Parlament partiyalari o'z navbatida parlamentdagi ta'siri nuqtai nazaridan:

- majoritar, ya'ni eng ko'p mandat oluvchi va hukumat tuzuvchi partiyalar;
- ustun partiyalar, ya'ni nisbatan ko'p mandat egalari;
- minoritar partiyalarga bo'linadi (kam mandatli). A'zolik tabiatiga ko'ra partiyalar:
- kadrlar partiyalari (kam sonligi, a'zolikning erkinligi, tashkiliy bo'shligi);
- ommaviy (ko'proq a'zolarga ega bo'lishga intiluvchi, qattiqqo'l intizomga asoslanuvi) bo'linadi.

XX asrning 60 – yillarida ko'pgina mamlakatlarda sinflar yoki hatto mafkuralararo dasturlar ishlab chiqib, to'liq elektoratga qaratilgan "saylovchilar" partiyalari shakllandi. Hozirgi kunda ko'p ommaviy partiyalar o'z dasturlarini "saylovchilar" partiyalariga moslab o'zgartirayaptilar. "Saylovchilar" partiyalarining bosh g'oyasi — turli ijtimoiy kuchlarni birlashtirishga imkon beruvchi maqsadlarni ilgari surishdan iborat.

"Milliy partiyalar" tushunchasi. Milliy partiya hududiy chegaralarda emas, butun davlat miqyosida amal qiluvchi partiya bo'lib, u parlamentga saylovlar mobaynida (ba'zan prezidentlikka to'g'ridan — to'g'ri saylovlar mobaynida) doimiy ravishda muayyan foiz ovoz oladi (odatda 2 - 3% dan kam bo'lmagan), o'z nizomi, dasturiga ega, ro'yxatdan o'tgan, muayyan miqdorda a'zolarga ega (masalan, Meksikada 1947-yil qonuniga ko'ra shtatlarning yarmidan 65 mingdan kam bo'lmagan a'zolar soni). Milliy deb e'tirof etilgan partiyalar (odatda bu — markaziy saylov qo'mitasi tomonidan qilinadi) saylovlarda bir qator ustunlikka ega bo'ladi. Masalan, ular uchun ushbu partiya nomzodlarini quvvatlovchi imzolar yig'ish shart emas. Milliy partiyalar konsepsiyasi saylov tizimini bir muncha soddalashtirish, ortiqcha harakat va sarflardan qochish, vaqtni tejash imkonini beradi. Ba'zi mamlakatlarda partiyalarni milliy deb tan olinishi ikki bosqichga ega. Birinchi bosqichda partiya umummilliy saylovlarda belgilangan miqdorda ovoz olishi kerak. (masalan, Meksikada 1,5 %). Shunda u milliy partiya sifatida shartli ravishda ro'yxatdan o'tadi. Keyingi umummilliy saylovlarda qatnashib, shu partiya yana belgilangan ovozlar miqdorini olsa, u umummilliy, deb e'tirof etiladi.

11.3. Partiya tizimlari

Siyosat nazariyasida partiya tizimi deyilganda, hokimiyat uchun kurashda va uni amalga oshirishda ishtirok etuvchi barcha partiyalar birligi tushuniladi. Partiya tizimlari shakllanishiga va uning o'ziga xosligigiga juda ko'p omillar ta'sir etadi. Xususan, amaldagi Konstitutsiya, qonunchilik, saylov turi, shuningdek, jamiyatda amal qiluvchi siyosiy madaniyat, an'analar, milliy, diniy omillar, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar — partiya tizimi tabiatini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Tarixan partiyaviy tizimlarning quyidagi turlari shakllangan: bir partiyaviy, ikki partiyaviy (ba'zi adabiyotlarda "mukammal ikki partiyaviy tizim" va ikki yarim partiyaviy tizim) hamda ko'ppartiyaviy tizim (ba'zi adabiyotlarda "mukammal ko'ppartiyaviy tizim" va "hukmron partiyali ko'ppartiyaviy tizim").

Bir partiyali tizimda yagona partiya davlat hokimiyatiga ham egalik qiladi. Yorqin misoli — sobiq SSSR Kommunistik partiyasi.

Umummilliy saylovlarga mamlakatda amal qilayotgan partiyalarning faqat ikkita — yetakchisigina — ovozlarning 90% va undan ortig'ini to'plasa — "mukammal ikki partiyaviy tizim" to'g'risida fikr yuritish mumkin bo'ladi. Bunday tizim — AQSda mavjud.

“Ikki yarim” partiyaviy tizimda ikki yirik partiya saylovchilar ovozlarining 75-80% ga ega bo'lib, “uchinchi” partiya saylov natijalariga jiddiy ta'sir ko'rsata oladigan darajada ovoz to'plagan bo'ladi. Yirik partiyalar “uchinchi” partiya bilan, yoki o'zaro bir-biri bilan ittifoqlar tuzishga majbur bo'ladilar. Bu tizim, masalan, GFR da amal qiladi.

Ammo, vaziyat butunlay qarama-qarshi ham bo'lishi mumkin: mamlakatda amal qilayotgan partiyalar ichida birining mavqei shunchalik yuqori-ki, unga birorta boshqa partiya yetib olamaydi. Ba'zan u saylovda mag'lub bo'lishi mumkin. Chunki, qolgan partiyalar unga qarshi ittifoqda chiqadilar. Ammo, juda qisqa vaqt ichida bu partiya yo'qotgan mavqeini tiklab olish qobiliyatiga ega. Bunday tizimlar “hukmron partiyali ko'p partiyaviy tizimi” deb ataladi. Bunday tizimlar hozirgi kunda bir qator g'arb demokratiyalarida uchraydi: Shvetsiya, Norvegiya, Daniya. Bu yerda hukmron sotsial-demokratik partiyalar o'z mavqelarini muxolifatning ko'p sonligini va uyushmaganligi tufayli ham uzoq vaqt davomida saqlab qola olayaptilar. Shu jihati bilan bu partiyalar bir partiyaviy tizimdagi yagona partiyadan farq qiladi.

Ko'pgina mamlakatlarda mavjud ko'p partiyaviy tizimlarda bir qator partiyalar hokimiyat uchun kurashda deyarli bir xil imkoniyatlarga ega. Shuningdek, ular turli ittifoqlar, partiya bloklari tuzishlari mumkin. Bunday tizimlardagi partiyalarning sonlari turlicha bo'ladi: 3 tadan (Belgiya, Avstriya) 12 ta (Niderlandiya) va undan ortiq.

Ko'ppartiyaviylik shakllanishiga bir qator omillar ta'sir etadi. Ko'p qatlamlar, sinflarga ega mamlakatlarda ko'ppartiyaviylik shakllanishi oson (Rossiya). G'arbiy Yevropa mamlakatlarida mafkuraviy va diniy, shuningdek, tarixiy va milliy omillar ko'ppartiyaviylik shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Partiyalar soniga saylov tizimining turi ham ta'sir etadi. Xususan, M.Dyuverje uch sotsiologik qonunni bayon etgan:

- 1) proporsional vakillik ko'ppartiyaviylikka olib keladi;
- 2) majoritar tizim asosidagi ikki bosqichli saylovlar ittifoqlar bilan yumshatiluvchi ko'ppartiyaviylikka olib keladi;
- 3) bir bosqichli majoritar tizimdagi saylovlar ikki partiyaviylikka olib keladi.

Xo'sh, sanab o'tilgan partiyaviy tizimlardan qaysi biri mukammal? Albatta, bu savolga uzil — kesil javob berib bo'lmaydi. Bir partiyaviy tizim demokratiyaga mutlaqo yotligini nazarda tutib, ikki va ko'ppartiyaviy tizimlarning afzalliklari va kamchiliklari to'g'risida to'xtalib o'tamiz:

Ikki partiyaviy tizimda g'olib chiqqan partiya hukumatni tuzadi va o'zi faoliyat ko'rsatgan muddatdagi barcha yutuqlar va kamchiliklar uchun yakka o'zi mas'uldir. Bunday hukumat barqaror bo'ladi, negaki, hukumat a'zolari bir partiya vakillari bo'lishi bilan birga, shu partiya parlamentdagi mandatlarining ham, ko'pchiligiga ega bo'lishi mumkin. Aholi ishonchini oqlamagan taqdirda ham norozilik siyosiy tartibga emas, hokimiyat partiyasiga qaratilgan bo'ladi. Ikki partiyaviy tizim partiyalar o'rtasidagi mafkuraviy ixtiloflarni yumshatishga xizmat qiladi, deb hisoblanadi. Bu esa siyosiy tizimni ancha barqarorlashtiradi. Faqat ikki partiyaviy tizimgina mas'uliyatli boshqaruv talabiga javob beradi. Partiyalardan biri hokimiyat tepasida turadi, ikkinchisi — muxolifatda. Saylovchilar saylovlardan partiyalarni nazorat etish uchun foydalanishadi. Ikki partiyaviy tizimlar, haqiqatan ham, barqarorligi va samaradorligini namoyon etdilar.

Ko'p partiyaviy tizim ikki partiyaviy tizimdagi muhim bir kamchilikni to'ldiradi — u jamiyatdagi barcha manfaatlarning bayon etilishini ta'minlaydi va shu tariqa davlat hokimiyatiga, kim tomonidan bo'lmasin, ta'sirining monopollashishiga yul qo'ymaydi. Bu esa, ayniqsa, o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda demokratik islohotlarning yana bir kafolati bo'lib xizmat qiladi. Ammo, ko'ppartiyaviylikning bir qator kamchiliklari ham bor: har bir partiya faqat o'zi bayon etayotgan tabaqa manfaati bilan cheklanib, jamiyatdagi talablarni uyg'unlashtirishga intilmaydi. Shu tariqa, u jamiyatdagi manfaatlarni saralash funksiyasini yaxshi bajarmaydi. Ko'p partiyaviylik uchun siyosiy hukumat inqirozlari xos. Ko'ppartiyaviylikda — yetarlicha siyosiy madaniyatga ega bo'lmagan odam to'g'ri qarorga kelishi qiyin, negaki u xilma-xil partiyalarning dasturlaridagi barcha qirralarni chuqur anglab yetish, tushunishi, ularni farqlashi kerak bo'ladi.

11.4. O'zbekistonda partiyaviy tizim shakllanishi xususiyatlari

O'zbekistonda bugungi kunda ko'ppartiyaviy tizim shakllanib bo'ldi. Ammo, bu jarayon hali tugallangani yo'q. Iqtisodiy islohotlar, mulkchilikning turli shakllari rivojlanib borishi bilan aholining ijtimoiy mobilligi ortib boradi va, demak, bugungi partiyalar va harakatlar tarkibi va mazmunida o'zgarishlar ro'y berishi muqarrar. Oliy Majlis tuzilishida belgilangan o'zgarishlar ham partiyalar va elektorat faollashishi, partiya dasturlarining konkretlashishi, partiya tayanuvchi ijtimoiy qatlamlarning saralanishiga olib keladi, deb ehtimol qilishga imkon beradi. Garchand, O'zbekistondagi olimlar, jamoatchilik vakillarining bir qismi mamlakatimizda ikki partiyaviy tizim amal qilishi tarafdorlari sifatida partiyalar sonining kamayishini bashorat qilsalar—da, fikrimizcha, yaqin yillar ichida O'zbekistonda ko'ppartiyaviy tizim saqlanib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Jamoat birlashmalari" nomli XIII bobining 60 - moddasida siyosiy partiyalarga quyidagi ta'rif berilgan: "Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarining moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organlarga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar".

O'zbekistonda partiyalar faoliyati huquqiy jihatdan bir qancha hujjatlar bilan tartibga solinadi:

1. O'zbekiston Konstitutsiyasining 34 - moddasida fuqarolarning erkin tarzda kasaba uyushmalariga, siyosiy partiya va ijtimoiy harakatlarga birikishlari mumkinligi belgilangan.
2. O'zbekiston Konstitutsiyasining 60 - moddasida siyosiy partiyalarning o'zlari saylab qo'ygan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etishlari ta'minlanadi.
3. "O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari" to'g'risidagi (1991 yil 31 avgust) Qonun.
4. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari to'g'risida" (1991-yil 18 sentabr) Qonuni.
5. "O'zbekiston Respublikasi Fuqaroligi to'g'risida" (1992 yil 2 iyul) Qonun.
6. "Siyosiy partiyalar to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi) Qonuni. "Xalq so'zi" 1997-y. 7-yanvar.
7. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov" to'g'risidagi Qonun (1993-yil 28-sentabr) Qonuni v.h.
8. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil qilish to'g'risida"gi Qonun. 1993-yil 2-sentabr.

Hozirgi kunda O'zbekistonda mavjud partiyalar faoliyati, sustligini fuqarolar ham, mutaxassislar ham ta'kidlayapti. Buning bir qator obyektiv sabablari bor. Ma'ruzadan bilib olganimizdek, partiyalar fuqarolik jamiyati negizida fuqarolar, guruhlar, qatlamlar manfaatini davlatga bayon etuvchi tashkilot sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ammo, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati endi shakllanayapti, xususiy mulkchilik negizida yangi qatlamlar vujudga kelishi va manfaatlarning saralanishi hali uzoq davom etadigan jarayon. Shuning uchun ham, partiyalarimiz dasturlari va tayanch bazalari o'xshab ketadi, dasturlarda bayon etilgan maqsadlar bilan amaliy faoliyat o'rtasida farq mavjud. Partiyalar kasaba uyushmalari yoki davlat tashkilotlariga o'xshash vazifalarni bajarib kelayapti. Bu vaziyatda partiyalar apparatida ishlash uchun ko'proq politolog, sotsiolog, psixologlar jalb qilinib, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, bu boradagi yuzaga kelayotgan manfaat va talablarni bayon etib, saralab, davlat hokimiyati organlariga yetkazish, aholi siyosiy madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishlari maqsadga muvofiq bo'lib ko'rinadi. Partiyalarning bugungi O'zbekiston siyosiy tizimidagi o'rni demokratik jamiyat qurishda davlatga yaqindan yordam berishdan iborat.

SAVOLLAR

1. Partiyalar tashkil topishining qanday bosqichlarini bilasiz?

2. O'zbekistondagi siyosiy partiyalarning dasturlarini tahlil qilish asosida ularni turkumlovchi o'z jadvalingizni tuzing.

12-BOB. MANFAAT GURUHLARI VA IJTIMOIIY-SIYOSIY HARAKATLAR

12.1. Manfaat guruhlari: tushunchasi, funksiyalari.

Demokratik siyosiy tizimlarning alohida xususiyati – ularda xalqning siyosiy jarayonlarda ishtiroki mexanizmlari faol qo'llanishidir. Xalq saylovlarida ovoz berish referendumlarda o'z idorasini bayon etish bilan birga, kundalik hayotda o'z manfaatlarini, talablarini, takliflarini hokimiyatga yetkazish, ularni hal qilish, hokimiyatni nazorat etish kabi vazifalarni amalga oshirish, ya'ni tom ma'noda siyosat subyekti tarzida faoliyat ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi. Demokratik jamiyatda siyosiy partiyalar bilan bir qatorda, turli xil jamoat birlashmalari va ijtimoiy — siyosiy harakatlar faoliyat ko'rsatadi.

Jamoat, birlashmalarini bir o'rinda manfaat guruhlari, boshqa bir o'rinda bosim guruhlari, deb nomlash qabul qilingan. Xo'sh, manfaat guruhlari, deganda nimani tushunamiz?

Manfaat guruhlari — siyosat subyektlarining o'ziga xos turidir. Ular rasmiy hokimiyat tashkilotlaridan farq qiladi, ammo ushbu tuzilmalar ichida ham vujudga kelishi mumkin. Ayni vaqtda, ular partiyalar bilan ham bir narsa emas (ular siyosiy hokimiyatni egallashga intilmaydilar).

G'arb demokratik konsepsiyalarida "manfaat"ni birinchi bor shaxs bilan emas, guruh bilan bog'lagan siyosatshunoslar Jeyms Medison, Artur F.Bentli, Devid Trumenlardir. 1908-yilda nashr etilgan "Boshqaruv jarayoni" asarida A.F.Bentli XIX asr oxiri XX asr boshi ingliz faylasuflarining "guruh — jamiyatning asosiy birligi" haqidagi g'oyalarini rivojlantirib, jamiyatni turli xil manfaat guruhlari majmuasi tarzida o'rganishni taklif etdi. Unga ko'ra, siyosiy tahlil obyekti — siyosiy maqsadlarga erishish uchun ixtiyoriy ravishda guruhlarga birlashgan odamlar faoliyati tashkil etishi kerak. Shu tariqa, siyosatga "guruh" tushunchasi konseptual tarzda kirib keldi, ya'ni guruh, deganda jamiyatdagi mavhum jismoniy shaxslar birligi emas, manfaat va maqsadlar birligi bilan ajralib turuvchi fuqarolar ittifoqi nazarda tutila boshlandi.

Fuqarolar va ijtimoiy tabaqalarning turli — tuman manfaatlarini ifoda etish va bu haqda hokimiyat tuzilmalarini xabardor qilish, jamiyat siyosiy tizimida manfaatli guruhlar siyosiy partiyalarning ijtimoiy rollari o'xshashligidan dalolat beradi.

Biroq, bu umumiylik, o'xshashlik ular o'rtasidagi muhim farqlarni inkor etmaydi, balki taqozo etadi.

Manfaatlar guruhlari maqsadi, vazifalariga ko'ra siyosiy partiyalardan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, siyosiy partiyalar jamiyat manfaatlarini himoya qilishning eng muhim vositasi — hokimiyatni egallash va uni qo'lda ushlab turish deb hisoblaydilar. Manfaatli guruhlar esa o'z oldiga bunday maqsadni qo'ymaydilar. Ular o'z a'zolarining manfaatlarini hokimiyat tuzilmalariga ta'sir ko'rsatishi bilan himoya qiladilar.

Ikkinchidan, siyosiy partiyalar, odatda, o'zining ijtimoiy bazasini kengaytirishga intiladilar va o'z saflarida manfaatlari turli — tuman bo'lgan kishilarni birlashtiradi. Maxsus manfaatli guruhlar esa, o'z a'zolarining xususiy (o'ziga xos) manfaatlarini himoya qilish uchun uyushadi.

Uchinchidan, siyosiy partiyalar hokimiyatni egallash uchun saylov kompaniyalarini tayyorlaydilar va o'tkazadilar. Manfaatli guruhlar esa bunday ish usulidan foydalanmaydilar. Ular hokimiyat organlarini shakllantirishda qarashlari o'zlariga ma'qul bo'lgan siyosiy partiyalarni qo'llab — quvvatlash bilan ishtirok etadilar.

Manfaatli guruhlar siyosiy jarayonning subyektlari sifatida muayyan funksiyalarni bajaradi:

- Ijtimoiy manfaatlarni ifoda etish. Manfaatli guruhlar fuqarolar, aholining turli tabaqalari va qatlamlarining xususiy manfaatlarini yuzaga chiqarish, asoslab berish va shakllantirishni ta'minlaydilar.

- Ijtimoiy manfaatlarga vakil bo'lish. Manfaatli guruhlar o'ziga a'zo bo'lgan fuqarolar, ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ifoda etish, aniq talablarni shakllantirish bilan cheklanib qolmaydilar. Ular bu talablarning amalda ro'yobga chiqishlarini ta'min etadilar. Manfaatli guruhlar fuqarolar, aholining turli tabaqalari bilan davlat organlari o'rtasida vositachilik rolini bajaradilar.

- Siyosiy qarorlar qabul qiladigan organlarni ogoh qilish. Manfaatli guruhlar hokimiyat tuzilmalarini fuqarolar, ijtimoiy tabaqalarning haqiqiy ahvolidan, ularning muammolaridan doimo xabardor qilib turadilar.

Bu esa hokimiyat tuzilmalari faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon berishi shubhasizdir.

Shunday qilib, manfaatli guruhlar-kishilarning xususiy manfaatlarini ifoda etadigan va ularni davlat va boshqa siyosiy institutlar bilan bo'ladigan munosabatlarida himoya qiladigan ko'ngilli birlashmalardir.

12.2. Manfaat guruhlarining turlari

Manfaatli guruhlarining tabiatini chuqurroq va kengroq tushunish — ularning xilma — xil turlarini, shakllarini ko'rib chiqishni talab etadi. Busiz manfaatli guruhlarini to'la tasavvur etish qiyin. Manfaatli guruhlar ham xuddi siyosiy partiyalar kabi turli mezonlarga ko'ra qator turlarga bo'linadilar. Ular, avvalo, kelib chiqishining xarakteri va uyushqoqlik darajasiga ko'ra anomik va muassasaviy guruhlariga bo'linadilar.

Anomik guruhlarining xususiyati shuki, ular stixiyali tarzda paydo bo'ladi va yemiriladi. Ular uzoq yashamaydilar, tashkiliy jihatdan tarqoq va davlat organlari bilan muntazam aloqada bo'lmaydilar. Anomik guruhlariga stixiyali paydo bo'ladigan mitinglar, namoyishlar, boshqa norozilik aksiyalari ishtirokchilarining guruhlarini misol bo'la oladi. Ko'pincha ularning harakati kuch ishlatish, majbur qilish shaklini oladi.

Muassasaviy guruhlar — aniq tashkiliy tuzilmaga, barqaror funksiyalar va mutaxassis kadrlar apparatiga ega bo'lgan kishilarning formal birlashmalaridir. Tashkiliy jihatdan tuzilmaning nisbiy murakkabligi, uyushqoqligi bu guruhlariga hokimiyat organlariga sezilarli va muntazam ravishda ta'sir o'tkazib turishga imkon beradi.

Manfaatli guruhlar tuzilish prinsiplari bo'yicha uyushmagan va uyushgan guruhlariga turkumlanadi.

Uyushmagan guruhlar — aniq tashkiliy tuzilmaga ega bo'lmagan norasmiy guruhlardir. Bu turdagi manfaatli guruhlariga xilma — xil ijtimoiy harakatlar misol bo'ladi. Ular na nizomlarga, na tuzilmaga, na a'zolikka, na aniq, miqdoriy chegaralarga ega. Bu guruhlarda yuzlab, minglab va undan ham ko'proq kishilar ishtirok etadilar. Guruh ishtirokchilari o'rtasidagi aloqa g'oyaviy xarakterda bo'ladi, ammo uyushgan tashkilotlardan farqli o'laroq bilan to'ldirib, boyitilib borimaydi. Uning tashkiliy shakllari epizodlik xarakterga ega. Bu mitinglar, namoyishlar, turli xil murojaatnomalardir. Ommaviy harakatlar qoida bo'yicha o'zining rahbar o'rinlarini tuzsa-da, bu organlar harakat «a'zolari» tomonidan eams, balki jamoatchilik vakillari-kishilarning siyosiy kayfiyatini va ularning muayyan aniq maqsadini hayotda amalga oshirishda qatnashishga tayyor ekanligini ifoda etuvchi turli-tuman jamoat tashkilotlarining vakillari tomonidan saylanadilar.

Harakatlar uzoq muddat va qisqa muddatli bo'lishlari mumkin. Ko'pincha ular maqsadga erishganlaridan so'ng o'z-o'zidan tarqalib ketadilar.

Uyushgan guruhlar yuqori darajadagi ixtisoslik va tashkilotlarga (masalan, Kasaba uyushmalari, tadbirkorlarning birlashmalari etnik assotsiatsiyalar va boshqalar) egadirlar. Bu guruhlariga quyidagi belgilar xosdir:

- a) formal tashkiliy birlik, birlashmaning ixtiyoriyligi tashkilotning faoliyatida o'z a'zolari bilan birgalikda ishlab chiqarilgan maxsus hujjatlar, nizomlarga amal qilish;
- b) ularning oldindan aniq maqsadni ko'zlab tuzilganligi;
- c) tarkibi va tuzilishining, a'zolar o'rtasidagi aloqalarning barqarorligi.

Ko'plab mavjud bo'lgan uyushgan tashkilotlar klassifikatsiyasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin;

- Muayyan masadlarni amalga oshirishdan manfaatdor bo'lgan shaxsning ixtiyoriy a'zolari prinsipiga tayanadigan tashkilotlar (kasaba, yoshlar va boshqalar);
- Muayyan dasturlarni yoki shaxsni qo'llab-quvvatlash maqsadida tuziladigan tashkilotlar.

Uyushgan tashkilotlarning ish olib borishi ularning qonun ta'sirida bo'lishini taqozo etadi. Bu – uyushgan tashkilotlarning ro'yxatdan o'tishida, ularning faoliyati ustidan davlat organlarining nazoratini amalga oshirish mumkinligida o'z ifodasini topadi.

Uyushgan tashkilotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi. Avvalo, birlashmani tuzish uchun davlat organlaridan dastlabki ruxsatnoma olinadi. Ta'sis etilgan tashkilot mavjud huquqiy me'yorlar tomonidan belgilangan tartibda davlat organlarida ro'yxatda o'tadi. Birlashmani tuzishni xohlovchi fuqarolar bu haqida davlat organlariga ariza berib xabardor qilib qo'yadilar. Manfaatli guruhlar jamiyatning qaysi sohalarida faoliyat ko'rsatishiga qarab ham turlarga bo'linadi. Bu quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiy soha mehnat munosabatlari sohasida tashkil etilgan guruhlar (tadbirkorlik uyushmalari, matbuot ittifoqlari, kasaba uyushmalari);
- Ijtimoiy sohada tashkil etilgan guruhlar (qariyalarning birlashmalari, nogironlar jamiyati, mehr-shafqat ittifoqlari);
- Bo'sh vaqt va dam olish sohasida tashkil etilgan guruhlar (sport jamiyatlari, filatelistlar ittifoqlari va boshqalar);
- Fan, madaniyat, din sohasida tashkil etilgan guruhlar (ilmiy assotsiatsiyalar, rassomlar, yozuvchilar, san'atkor ittifoqlari, sektalar, cherkovlar, machitlari va boshqalar);
- Siyosiy sohada tashkil etilgan guruhlar (ekologik harakatlar, tinchlik uchun, inson huquqlari uchun kurash olib boruvchi xarakatlar va boshqalar);

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarda manfaatli guruhlariga kiruvchi tadbirkorlik ittifoqlari va birlashmalari juda muhim vazifalarni bajaradilar. Ular turli mamlakatlarda bajaradigan funksiyalari, faoliyat metodlari, aloqa shakllari bilan bir – biridan farq qiladi.

Tadbirkorlik ittifoqlari va birlashmalari o'zining tuzilmalariga ega. Bu tuzilmalar rahbar organlarini (kengashlar, boshqaruv) turli mintaqaviy bo'limlarni o'z ichiga qamrab oladi. Ular davlat organlari va tashkilotlariga ishsizlik, inflyatsiya bilan kurash, ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqa masalalar bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadilar.

Jamiyat siyosiy tizimida muhim ijtimoiy — siyosiy vazifani mehr — shafqat jamg'armalari bajaradilar. Ular kuchli va ta'sirchan tashkilotlar qatoriga kiradilar. Mehr — shafqat jamg'armalari O'zbekiston Respubkasida ham keng tarqalgan va rivojlanib bormoqda. Ular jamiyat barcha qatlamlarining manfaatlarini ifoda etuvchi umumijtimoiy funksiyalarni bajaruvchi guruhlardir. Mehr — shafqat jamg'armalari ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot sohalarida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ularning faoliyati kadrlar tayyorlash, onalik va bolalikni himoya qilish, ijtimoiy kam ta'minlangan oilalarni moliyaviy va boshqa yo'llar bilan qo'llab — quvvatlashga qaratilgandir.

Manfaatli guruhlarning yangi yunalishlaridan biri ijtimoiy — siyosiy klublar va birlashmalardir. Bu klublar "Saylovchilar ittifoqi"; "Saylov"; "Afg'on urushi ishtirokchilari klubi"; "Fidoyi yoshlar klubi" va boshqa yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda. Bu harakatlarning maqsadi — siyosat subyekti sifatida shaxsning rolini tiklash, o'z-o'zini boshqarishga intilishdir.

Jamiyat siyosiy tizimida xususiy klublar muhim ijtimoiy va siyosiy funksiyalarni ado etadilar. Ular o'z qatorlarida yetakchi tadbirkorlarni, bankirlarni, taniqli siyosiy arboblarni, obro'li jurnalistlarni va boshqalarni birlashtiradilar. O'zining xarakteriga ko'ra yopiq hisoblangan, tanlangan va cheklangan a'zolarga ega bo'lgan xususiy klublar jamiyatning yuqori, boy tabaqalarini jipslashtirishga, ularning ijtimoiy — siyosiy qarashlari va tasavvurlarini shakllantirishga, ularning elitaga xos bo'lgan hissiyotlarini ishlab chiqish va mustahkamlashga, ular uchun muhim bo'lgan siyosiy va boshqa qarorlarni birgalikda muhokama etishga qaratilgandir. Ularni chinakamiga "siyosiy hokimiyatning yopiq markazlari", o'zining nooshkora

faoliyati bilan siyosiy hukmronlikni ta'minlash uchun shart — sharoit yaratadigan noyob muassasalar deb ataydilar.

Jamiyatda kasaba uyushmalari muhim vazifalarni bajaradi. Bu uyushmalar bir xil mutaxassislikdagi yoki ishlab chiqarishning bir xil tarmog'ida band bo'lgan mehnat kishilarini birlashtiradigan tashkilotlardir.

Kasaba uyushmalari mehnatnatkashlarning ommaviy jamoat tashkilotidir. Bu tashkilot mehnatnatkashlarning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishga, ularning madaniy — ma'rifiy saviyasi darajasini ko'tarishga qaratilgandir. Hozirgi sharoitda milliy va xalqaro miqyosda kasaba uyushmalari mehnatnatkashlarning manfaatlarini himoya qilishning yangi yo'llarini, usullarini izlab topishga intilmoqda, iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy ziddiyatlarning yanada ko'proq chirmashib-chatishib ketishi tadbirkorlarning yirik ijtimoiy-mehnat ixtiloflaridan qochishga, kasaba uyushmalari bilan hamkorlik qilishning yangi yo'llarini izlab topishga bo'lgan intilishini kuchaytirmoqda. Ijtimoiy sheriklik siyosati mehnat ixtiloflarining keskinligini kamaytirishga qaratilgandir.

Mehnat munosabatlarini sheriklik, kelishuv ruhida tartibga solishning yo'lga qo'yilgan mexanizmi O'zbekistonda ham mavjuddir. Respublikada ijtimoiy sheriklik siyosatining faol tarafdorlari sifatida kasaba uyushmalari, tadbirkorlarning uyushmalari chiqmoqdalar. Ular tomonidan tuzilgan qo'shma komissiya budget, investitsiya, ishchi kuchlar, soliqlar, ish haqi, baho va raqobat sohasida siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda faol qatnashmoqdalar.

Manfaatli guruhlarining mustaqil yo'nalishi sifatida huquqni himoya qilish tashkilotlari maydonga chiqmoqdalar. Bu tashkilotlar "Ijtimoiy himoya komiteti", "Himoya" va boshqa nomlarda faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Diniy uyushmalar jamiyatning kuchli va ta'sirchan tashkilotlaridan hisoblanadi. Sababi, dunyoda tinchlikni saqlash, kishilarni tarbiyalash, ular o'rtasida umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish yo'lida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlari kattadir. Diniy uyushmalar ham boshqa jamiyat tashkilotlari singari inson va jamiyatni to'g'ri yo'lga, tinch — totuvlikka, oliyanoblikka, hamkorlik va hamjihatlikka chaqirmoqda. Ular ham o'g'rilik, bosqinchilik, talonchilik, zo'ravonlik va adolatsizlikni qoralaydilar. Bu tashkilotlar ham umidsiz dillarga taskin va yupanch bagishlaydilar, umidbaxsh a'mol sifatida singan ko'ngillarni ko'tara oladilar. Ayni paytda dinni niqob qilib olib undan g'arazli maqsadlarda foydalanuvchi, jamiyatdagi hamjihatlik, davlalararo, millatlararo va dinlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi diniy ekstremistik uyushmalar ham yo'q emas. Ularning ko'rinishlari ham xilma — xildir. Bunga misol qilib, musulmon mamlakatlardagi «musulmon birodarlarini»; «toliblar harakati»; «vahobiylar harakatini» ko'rsatish mumkin. Bu ekstremistik tashkilotlar va harakatlarning maqsadi, ular boshlagan jaholatparastlik faoliyati qanday oqibatga olib kelishi jahon jamoatchiligiga tabora ko'proq ayon bo'lmoqda. Ko'plab mamlakatlarda diniy ekstremistik guruhlarining faoliyati ta'qiqlab qo'yilmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida irqiy, millatchilik, terroristik, fashistik va jinoiy guruhlar ham faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bu guruhlarining faoliyati ham davlatlar va uyushgan jamoatchilik tomonidan munosib diqqat-e'tiborni qaratishni talab etmoqda.

Hozirgi vaqtda milliy va xalqaro darajada manfaatli guruhlar muhim o'zgarishlarni o'z boshlaridan kechirmoqdalar. Ular stixiyali tashkil etilgan tashkilotlardan o'zining ichki tuzilmalari to'la qaror topgan, aniq dasturga ega bo'lgan jamiyatning siyosiy tizimida o'zining munosib o'rnini topgan tashkilotlarga aylanish davrini o'tamoqdalar. Bu tashkilotlarning o'zgarishlar faoliyati o'ziga sinchkovlik bilan diqqat-e'tiborini qaratishni talab etmoqda.

12.3. Ijtimoiy-siyosiy harakatlar

Ijtimoiy-siyosiy harakatlar - ijtimoiy taraqqiyotning asosiy xarakterlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Ular siyosiy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy hayotni o'zgartiradi va rivojlantiradi. Ijtimoiy-siyosiy harakatlar, haddan tashqari xilma-xil siyosiy kuchlardan tashkil topadi. Ularga koalitsion prinsip asosida turli siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, yoshlar, xotin-qizlar tashkilotlari va boshqa guruhlar kiradi. Harakat qiluvchi

tashkilotlar va guruhlardan har biri o'zining mustaqilligini saqlab qoladi. Harakat ishtirokchilari tomonidan ilgari surilgan talablar o'zining miqyoslari hamda ustuvorligi jihatdan bir xil emas. Ulardan ayrimlari hozirgi zamonning eng o'tkir umumbashariy muammolari — tinchlikni himoya qilish, atrof — muhitni muhofaza etishga borib taqalsa, ba'zilar esa umumilliy vazifalarni: ishsizlikni bartaraf etish, milliy ozodlik teng huquqlilik, uy — joyga ega bo'lish huquqi, unga to'lanadigan haqni kamaytirish, oziq — ovqat mahsulotlari ekologik soflik uchun va boshqa talablarni ilgari suradilar.

Ijtimoiy — siyosiy harakatlar ishtirokchilarining, maqsadi va vazifalariga quyidagilar kiradi:

- jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish;
- u yoki bu masala bo'yicha hukumat siyosatiga ta'sir ko'rsatish;
- o'zlari yashab turgan jamiyatni kuch ishlatmasdan o'zgartirish;

Demokratik harakatlarning qaror topishi va mustahkamlanishi jarayonida, uning alohida bo'limlari foydalanadigan kurash shakllari va usullari yuksalib va takomillashib - boradi. Hozirgi sharoitda ham ommaviy manifestatsiya va mitinglar, imzolarni yig'ish — ilgarigidek bu chiqishlarning tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Ammo vaqt o'tishi bilan yanada ko'proq uyushgan xarakterga ega bo'lgan: tinchlik yurishlari (GFR, Daniya, Finlyandiya) tinchlik va qurolsizlanish uchun harakatlar kuni (Fransiya, Italiya, AQSH) tinchlikning bahorgi, kuzgi yurishlari katta ahamiyat kasb etmokda. Tinchlik lagerlari (Buyuk Britaniya, Italiya) tinchlik, poyezdlari, GFR korxonalaridagi amal qilayotgan tinchlik uchun kurash qo'mitalari demokratik harakatlarning noan'anaviy usullaridir.

Ijtimoiy — siyosiy harakatlar turli — tuman ko'rinishlarda namoyon bo'ladilar. Ularning asosiy ko'rinishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

"Fuqarolik tashabbuslari" (volontarizm). Bu ko'ngilli harakatning negizida insonparvarlik tamoyillari yotadi. Ular xalqni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, ishsizlikni bartaraf etish, davlat funksiyalarining bir qismini aholiga berish, o'z — o'zini boshqarish kabi talablar va tashabbuslar bilan chiqadilar.

"Fuqarolik tashabbuslari" harakatining kuchayishi hozirgi zamonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu harakatlar dunyoning ko'plab mamlakatlarini, turli ijtimoiy guruhlarini o'z ichiga qamrab oldi.

«Fuqarolik tashabbuslari» harakatida katta yoshdagi aholidan AQSHda - 34mln. kishi, Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada, Fransiyada 3mln.dan 5 mln.gacha kishi ishtirok etdilar. Bu harakat sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, xalqaro faoliyat sohalarida mehr-shafqat, xayri-ehsonning turli shakllarini o'z ichiga oladi. Voluntarizm hokimiyatini nomarkazlashtirish, davlat funksiyalarining bir qismini uyushgan aholiga berish orqali kishilarni siyosiy hayotning demokratik shakli va xalq hokimiyatiga jalb etish vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Muqobil turmush-tarzi uchun harakat. Bu harakat mamlakatning turmush ukladi bilan xayrixoh bo'lmagan aholining katta qismini (asosan yoshlarni) o'z ichiga qamrab oladi. Uning maqsadi – atrof-muhitdagi, ijtimoiy hayotdagi barcha illatlari tugatish, rivojlangan industrial va noindustrial jamiyatning insonga ta'sirining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, jamiyatni pastdan turib o'zgartirishdan iboratdir.

Muqobil harakat – bu xulq-atvorning yangi tarzini; tinchlik, adolat, birdamlik va o'z-o'zini ro'yobga chiqarish tamoyillari negizida tuziladigan ishlab chiqarish, madaniy tarbiyaviy va h.k. «muqobil» muassasalarda mehnatni tashkil etishning yangi shakllari bilan uzviy bog'langan maishiy va uy-joy jamoalarida oilaviy va shaxslararo munosabatlarning yangi shakllarini izlash ham demakdir.

Ekologik harakat. Bu harakatning maqsadi – inson faoliyati va atrof-muhitning uyg'un munosabatlarini izlab topishdan iboratdir. Dunyoda birinchi ekologik partiya 1973 yilda Buyuk Britaniyada tuzilgan edi. Hozirgi vaqtda «yashil» deputatlar G'arb mamlakatlarining ko'plab parlamentlarida ish olib bormoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis deputatlari ham atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirmoqda. Bu yo'nalishda bir qator qonunlar, dasturlar qabul qilinadi. Hozirgi vaqtda Xalqaro ekologik tashkilotlar qaror

topdi. Xususan, "Grinpis" (17 mamlakatdan 2.5 mln. kishini birlashtiradi), "Yer do'stlari" (34 mamlakatdan guruhlar ishtirok etadilar), "AYFA" (o'monlarni muhofaza qilish yoshlar federatsiyasi), "Tabiatning yosh do'stlari" (G'arbiy Yevropa mamlakatlarida 1000 dan ortiq markazlari bor) atrof — muhitni muhofaza qilish bo'yicha xayrli va savobli ishlarni olib bormoqdalar.

"Yoshlar harakati". Bu harakat, asosan, yoshlarni qamrab oladi. Bu harakat ham yoshlarga xos bo'lgan, ham umumsiyosiy, ham umumijtimoiy bo'lgan maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'yadi.

Hozirgi yoshlar harakati oldingi yillardagi yoshlar harakatidan ancha farq qiladi. Bu harakatga an'anaviy hokimiyat institutlariga nisbatan chuqur tanqidiy munosabat, o'z qarashlarini ifoda etishda — mustaqillik, kengroq erkinlik, faoliyat usullarida xilma — xillik xos.

Hozir dunyoda 50 dan ortiq Xalqaro yoshlar tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ulardan eng ommaviy va obro'lisi — Jahon demokratik yoshlar federatsiyasi (JDYOF) va Xalqaro Talabalar Ittifoqi (XTI). Bu tashkilotlarda dunyoning barcha mintaqalarida 100 dan ortiq mamlakatlardan progressiv yoshlar va talabalarning milliy uyushmalari ko'rsatilgandir. Ularning faoliyati BMT, YUNESKO va boshqa hukumatlararo tuzilmalar tomonidan tan olinadi va yuqori baholanadi.

O'zbekistonda yoshlarning "Kamolot" ijtimoiy — siyosiy harakati — mustaqil yurtimizning kelajagi bo'lgan yoshlarning ma'naviy barkamol, vatanparvar, jismonan sog'lom bo'lishi uchun faoliyat ko'rsatadi.

Xotin-qizlyar harakati. Hozirgi dunyodagi demokratik harakatlarning turli yo'nalishlari orasida xotin — qizlar harakati alohida ko'zga tashlanadi. Sababi, xotin — qizlar insoniyatning yarmidan ko'pini tashkil etadi, moddiy va ma'naviy boyliklarning taxminan 1,3 qismini ishlab chiqaradilar. Insoniyatning ana shu qismining manfaatlarini xotin — qizlar harakati ifoda etadi va himoya qiladi. Xotin — qizlar harakatining maqsadi xotin — qizlarning erkaklar bilan tengligiga amalda erishishdir. Bu oliyjanob maqsadga erishish yo'lida turli Xalqaro tashkilotlar rahnamoligida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. 1976-yildan 1985-yilgacha bo'lgan davr BMT tomonidan "Tenglik, taraqqiyot, tinchlik" shiori ostida "Xotin — qizlar o'n yilligi" deb e'lon qilingan. Bu dunyoning turli mintaqalarida yashovchi aholi tomonidan ma'qullandi va tan olindi.

O'zbekistonda, mana bir necha yildirki, "Oila yili", "Ayollar yili", "Sog'lom avlod yili", "Ona va bola yili" dasturlari asosida hukumat ayollarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, sharoitini yaxshilash, ayollar muammolariga e'tiborni qaratish bilan jiddiy shug'ullanadi. O'zbekistonda ayollarning "To'maris" ijtimoiy harakati, "Tadbirkor ayol" nodavlat uyushmasi faoliyat ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda "kulrang panteralar" harakati mavjud bo'lib, ular shuning uchun ham o'zlarini "kulrang", deb ataydilarki, ular davlat siyosatiga aralashmaydilar. Belgiyada ayollarning "keksalar partiyasi" faoliyat ko'rsatib keladi.

Hozirgi xotin — qizlar harakatining yo'nalishlaridan biri — neofeminizmdir. Feministik tashkilotlar qator mamlakatlardagi xotin - qizlar harakatida asosiy o'rinni egallaydi. Bunga AQSH yaqqol misol bo'ladi. Bu mamlakatdagi xotin - qizlar harakatida feministik mafkura eng yorqin va to'la o'z ifodasini topgan. Keyingi yillarda feministik mafkura va harakatda ikki oqim: liberal islohotchilik va radikal oqimlar qaror topdi. Liberal — islohotchilik oqimining vakillari, xotin - qizlarning erkaklar bilan tengligiga industrial jamiyat doirasida ijtimoiy - iqtisodiy va huquqiy islohotlar, asosan, tinchlik mafkurasini izchil qat'iyat bilan yoyish va egalitarizm prinsiplariga binoan oilaviy rollarni o'zgartirish orqali erishish mumkin, deb hisoblaydilar. Ular shaxsning kamol topishi uchun mehnatning rolini alohida ko'rsatadilar. Chunki, kasbiy faoliyat o'z qadr - qimmatini his etishga shakllanishiga imkon beradi. Bu oqim kasb va oila rollarining uyg'unligini yoqlab chiqadi. Radikal oqim xotin - qizlar harakatida XX asrniig 60-70 — yillarida qaror topdi. Bu oqim vakillarining fikricha, xotin - qizlarni ekspluatatsiya qilishning ildizi — generativ funksiyalarga borib taqaladi, biologiya masalalari — sotsial va siyosiy, jinslar o'rtasidagi munosabatlar — sinfiy munosabatlar hisoblanadi. Yosh xotin - qizlarning radikal

qarashlari "Qizil paypoqlar", "Feminalistkalar", "Jodugarlar" kabi tashkilotlarning faoliyatida o'z ifodasini topgan. Bu tashkilotlar "toqat qilib bo'lmaydigan" erkaklardan chetlashishni, aholining erkak qismi bilan dushmanlikda bo'lishni targib va tashviq qiladilar. Feministik tashkilotlar AQSHdan tashqari Angliya va Skandinaviya mamlakatlarida ham keng tarqalgan.

1995-yil 27-martda Toshkentda O'zbekiston "Xalq birligi" harakati tashkil topib, uning maqsadi, O'zbekiston xalqining birligini yanada mustahkamlash, fuqarolarda mustaqil O'zbekistonning buguni, kelajagiga nisbatan mas'uliyatni oshirishdir.

Manfaat guruhlari va ijtimoiy — siyosiy harakatlarning maqsadi — hokimiyatga erishish emas, unga kuchli bosim o'tkazib, kerakli qarorlarni qabul qilishga majbur etishdan iborat, deb aytib o'tdik, Buning uchun hokimiyatga bevosita ega bo'lmagan tashkilotlar turli usullarni qo'llaydilar.

Manfaatli guruhlarning hokimiyat organlarida ta'sir ko'rsatishining keng tarqalgan shakli — bosim o'tkazishdir. G'arbning rivojlangan mamlakatlarida lobbistlar — zarur axborotlarni to'plashga va hokimiyat organlarini o'zlari mansub bo'lgan guruhlar foydasiga qaratilgan qarorlar qabul qildirishga qodir bo'lgan yuqori malakali mutaxassislardir. Lobbistlar o'zlarining mijozlari uchun moliyaviy foyda yoki boshqa imtiyozlarni qo'lga kiritadilar. Ular tez — tez manfaatli guruhlar bilan siyosiy arboblardan, shu jumladan, qonun chiqaruvchilar va hukumat a'zolari o'rtasidagi turli kelishuvlarda vositachi rolini bajaradilar va shu bilan mamlakatning siyosiy yo'lini shakllantirishga muhim ta'sir o'tkazadilar.

Lobbizm yoki bosim o'tkazish hozirgi kunda san'at darajasiga ko'tarilgan sohaga aylandi. Unga ommaviylik, moliyaviy qudrat, OAVning faol ishtiroki, yuqori malakaviylik, jamoatchilik fikri va madadiga suyanish xos.

Lobbizm eng zamonaviy texnologiyalarga asoslanadi. U tadbirlarni kompyuterlash, "Internet" orqali ittifoqchilar topish, ma'lumotlar topish, elektron pochta orqali xat yuborish, video — telefon anjumanlarini o'tkazish, yer yulduzlari orqali dunyoning turli chekkalari bilan aloqa o'rnatish singari imkoniyatlardan to'liq, foydalanadi.

Lobbizm reklama uslublaridan to'la ko'lamda foydalanadi. U barcha shakldagi reklama, shu jumladan, tadbirni moliyalash, tovarning siljishi (promoushn), bozorni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bosim o'tkazish texnologiyasining muhim jihati — jamoatchilik bilan aloqalar sohasidir.

Lobbizm to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilganda - bosim o'tkazilishi zarur bo'lgan obyektga shaxsiy uchrashuvda qarindoshlari, do'stlari va h.lar orqali ta'sir etiladi.

Bavosita lobbizm — obyektga tashqi ta'sir o'tkazish bilan unda masala haqida bosim o'tkazayotgan guruh nuqtai nazarini aks ettiruvchi tasavvur shakllantirishdir. Uning eng tarqalgan yo'li — deputat saylangan okrug saylovchilaridan kelgan xatlar yordamida bosim o'tkazish.

XX asr oxiridagi lobbistik kampaniyalarda ikki yo'nalish aniq namoyon bo'ldi:

1) ommaviy kampaniyalar tashkil etish bilan birga (bu - eski, bavosita lobbizm), ijtimoiy fikrni reklama, jamoatchilik bilan aloqalar va h. yordamida shakllantirish;

2) "hududlar" bilan ishlashga e'tibor kuchayganligi. Aholi bilan ishlash siyosatining bir muhim qirrasini mavjud: aholi ichida bosim subyektlarining doimiy madad guruhlari va bunday guruhlarini o'qitish tizimi mavjudligi (xat yozish qoidalari, qonunchilar bilan muloqotning psixologik va axloqiy qoidalari v.g.). 1

SAVOLLAR

1. Manfaat guruhlari bilan partiyalarning uxshash va farqli tomonlarini aytib bering.
2. Siz yana kanday ijtimoiy — siyosiy xarakatlarni bilasiz?
3. Uzbekistondagi manfaat guruhlari va ijtimoiy- siyosiy xarakatlar to'g'risida nimalarni bilasiz?

Siyosat nafaqat obyektiv voqelik, balki subyektiv voqelikdir. Bu voqelikni chuqur o'rganmay turib siyosatni to'liq tushunish qiyin.

Siyosatni subyektiv voqelik sifatida o'rganish — uni bilishning zarur shartidir.

13.1. Siyosiy ong: tushunchasi, manbai va funktsiyalari

Xo'sh, siyosiy ong nima? U boshqa ijtimoiy ong shakllaridan qanday farq qiladi? Siyosiy ong — siyosiy fanning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. U o'zining mohiyati, manbai, funktsiyalariga ko'ra iqtisodiy, huquqiy, falsafiy, axloqiy, estetik, diniy ongdan farq qiladi.

Siyosiy ong — siyosiy borliqning subyektiv in'ikosidir. U jamiyatning alohida mustaqil — siyosiy sohasini aks ettiradi. Kishilar o'z faoliyatida mavjud siyosiy voqelikni shunchaki ko'rish bilan qanoatlanib qolmaydilar. Ular hamisha bu voqelikni bilishga, anglashga va uni o'zgartirishga intiladilar. Kishilarning ana shu siyosiy borliq haqidagi bilimlari, qarashlari, tasavvurlari ularning siyosiy ongini tashkil etadi. Siyosiy ong-kishilarning siyosiy bilimlari, tasavvurlari, maslakhatlari, e'tiqodlari va o'zlari yashab turgan siyosiy tuzumni baholashlarining yig'indisidan iboratdir.

Siyosiy ong — siyosiy borliqning faol, jonli, ijodiy in'ikosidir. U orqali jamiyat siyosiy tizimining o'zini-o'zi anglash sodir bo'ladi. Siyosiy ong siyosiy voqelikni qanday bo'lsa, shunday, yaxlitligicha va bir butunligicha aks ettiradi.

Biroq, siyosiy ong siyosiy voqelikni oyna kabi qanday bo'lsa, shunday, mexanik tarzda, jonsiz aks ettirmaydi. U siyosiy voqelikning ma'no-mazmuni, sir - asroriga "kirib" boruvchi, uning muammolarini va ularni hal qilishning yo'llarini aniqlovchi, ijtimoiy siyosiy jarayonlarning o'zgarishi va rivojlanishini bashorat qiluvchi in'ikosidir. Siyosiy ong — jamiyatning siyosiy hayoti va uning barcha boshqa sohalariga katta ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan ijtimoiy ong shaklidir. Bundan tashqari, alohida olingan kishilarning ham, jamiyat ijtimoiy — siyosiy birlashmalarining ham xulq—atvori va faoliyatlarining xarakteri ko'p jihatdan siyosiy ongning shakllanish va rivojlanish darajalariga bog'liqdir. Shuning uchun ham, ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, tartibga solish amaliyotida, ham jamiyatning, ham uni tashkil etuvchi individlar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning siyosiy ongi holatini hisobga olish o'ta muhimdir. Bu o'rinda hokimiyatlar, siyosiy partiyalar ijtimoiy — siyosiy muvozanatni saqlab turishga imkon beradigan, jamiyatning taraqqiyoti ehtiyojlarini to'la ifoda etadigan siyosiy ongni shakllantirish va rivojlantirishga intilishlari zarur bo'ladi.

Siyosiy ong ko'pincha siyosiy tasavvurlar yig'indisida iborat bo'ladi. Siyosat ma'naviy dunyosining o'zi tasavvurlardan tashkil topadi. Ongsiz, tasavvurlarsiz kishilik jamiyati bo'lmaganidek, siyosiy ongsiz, tasavvurlarsiz hech qanday siyosiy sohaning bo'lishi ham mumkin emas.

Siyosiy ongning muhim belgisi — uning aniq-tarixiy tabiatga ega ekanligidir. Siyosiy ongda, birinchi navbatda, jamiyatda hukmronlik qiluvchi ijtimoiy guruhlarining tasavvurlari va qadriyatlari umumlashtiriladi. Shu bilan birga, amal qiluvchi qarashlar tizimida o'tgan davr ma'naviyati ham ishtirok etadi. Masalan, erkinlik tushunchasi — qandaydir biror—bir sinfning emas, balki umuminsoniyatning yutug'idir. Ammo, bu va boshqa siyosiy tushunchalar turli davrlarda turli mazmunga ega bo'ladi.

Siyosiy ongning muhim xususiyati — uning dinamikligi, tez o'zgaruvchanligidir. Bu siyosiy borliqning o'ziga xosligi bilan bog'liqdir. Agar iqtisodiy, ijtimoiy tizimlarning o'zgarishi uchun o'n yilliklar kerak bo'lsa, siyosiy tuzilmalar va munosabatlar bir necha kun yoki oylarda keskin ravishda o'zgarishi mumkin.

Siyosiy ong ijtimoiy va siyosiy amaliyot bilan bevosita bog'langan. U jamiyatda paydo bo'layotgan ziddiyatlar va ixtiloflarga tezda munosabat bildiradi.

Siyosiy ong — ijtimoiy tabiatga ega bo'lgan ongdir. Har bir kishi ma'lum ijtimoiy guruh, tabaqaning a'zosi, birorta millatning vakili, biror davlatning fuqarosi hisoblanadi. Mana shu mansublik kishilar siyosiy ongining ijtimoiy mazmunini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy ong kishilar tomonidan o'zlarining biron — bir ijtimoiy guruhga mansub ekanliklarini

anglash asosida shakllanadi. Ijtimoiy guruhga mansublik esa, o'z navbatida, kishilarda muayyan siyosiy pozitsiyaga egalik hissini tug'diradi.

Siyosiy ong nafaqat ijtimoiy, balki individual tabiatga ham egadir. U muayyan guruh, elat, millatga mansub bo'lgan ayrim kishilarning ongidir. Unga individuallik, betakrorlik xosdir.

Siyosiy ong aniq tarixiy shart — sharoitning, muayyan omillar ta'sirining mahsulidir. Uning shakllanishi va rivojlanishiga quyidagi manbalar asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi manba — insonning oilaviy muhitidir. Siyosiy g'oyalar va hissiyotlar unga oiladagi tarbiya orqali beriladi. Bunga to'g'ri keluvchi ijtimoiy — ruhiy qarashlar — siyosiy ongning poydevorini barpo etadi. Uning negizida esa fuqaro shaxsi shakllanadi.

Ikkinchi manba — bu keng ma'nodagi axborotdir. U insonga ham muomala, muloqot orqali, ham ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, matbuot) orqali "kirib" boradi.

Uchinchi manba — bu individning shaxsiy tajribasidir. Bu shaxsiy tajriba olingan bilimni ag'dar-to'ntar qiladi yoki tasdiqlaydi. Biroq, ular qanday holatda ham siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga muhim ta'sir ko'rsatadi.

- Yuqorida qayd etilgan manbalar insonga siyosat dunyosini tahlil etishga va unga nisbatan munosabatini belgilab olishga imkon beruvchi bilimlarning yig'indisini tashkil etadi. Bunda oilada olingan bilimlar turli avlodlar tomonidan to'plangan tajriba sifatida ham bo'lishi mumkin, ammo shu bilan birga, xurofot ham bo'lishi mumkin. Axborot ham haqiqiy, yoki yolg'on bo'lishi mumkin. Insonning hayotiy tajribasi ham tipik bo'la olmasligi va siyosiy voqelikni aks ettira olmasligi ham mumkin. Shuning uchun, siyosiy ong shakllanishida quyidagi shartlarning amal qilishi juda muhimdir:

- inson o'zining biror guruhga mansubligini idrok etishi;
- inson o'zining muayyan siyosiy qarashlar, nuqtai nazarlar tarafdori ekanligi, o'zining subyekt sifatidagi maqomi, huquqlar, erkinliklar egasi, hokimiyatga ta'sir eta oluvchi shaxs ekanligini anglashi;
- o'zi mansub bo'lgan guruh manfaatlarini siyosiy hokimiyat bilan muloqotga kirishmay - turib hal qilish mumkin emasligini anglashi, kishilarning siyosiy muammolarni anglashi, siyosat dunyosi haqidagi tasavvurlari, qiziqishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, og'ir ahvolda qolgan korxona ishchisi, muassasa xodimi ishdan bo'shatishni ko'zda tutmaydigan qarorlarni — vaziyatni to'g'rilash bo'yicha yaxshi qarorlardir, deb hisoblaydi. Boshqarayotgan partiyaning faoli, agar hokimiyatga muholifat kelsa, mamlakatda iqtisodiy vaziyat yomonlashadi, deb o'ylaydi. Agar biror siyosiy arbob korrupsiyada ayblansa, bunga o'zining siyosiy mavqeini sabab deb hisoblaydi.

Demak, voqelik o'zidan-o'zi, to'g'ridan-to'g'ri siyosiy ong orqali baholanmaydi. U kishilarning avvalgi e'tiqodlari va manfaatlariga ham bog'liq bo'ladi.

Siyosiy ong yakka holda emas, balki ijtimoiy ongning boshqa shakllari: iqtisodiy qarashlar, falsafiy ta'limotlar, huquqiy nazariyalar va me'yorlar, axloqiy qonuniyatlar, estetik qadriyatlar bilan o'zaro bog'liq holda va birgalikda harakat qiladi.

Ko'p siyosiy ta'limotlar va qadriyatlar siyosiy ongning mahsuli bo'laturib, hozirgi jamiyatda g'oyaviy ahamiyatga egadir. Ular faqat kishilarning siyosiy madaniyatini takomillashtirish uchungina emas, balki insoniyatning ma'naviy, ma'rifiy, madaniy taraqqiyoti uchun ham juda muhimdir.

Shu bilan birga, ayrim davlatlar va ulardagi birlashmalar, ijtimoiy guruhlar, millatlar, partiyalarning siyosiy faoliyati jarayonida siyosiy ongning u yoki bu pozitsiyasi to'g'ri kelmay, qolishi, qarama - qarshilikka, murosasizlikka o'sib o'tmasligi, uning tinch, madaniy xarakterda bo'lishi juda muhimdir.

Siyosiy ongning mohiyati uning funksiyalarida o'z ifodasini topadi. Quyida ana shu funksiyalarni ko'rib chiqamiz.

1. Bilish — axborot berish. Kishilar ertami yoki kechmi, xohlaydimi yoki yo'qmi, ammo qat'iy ravishda siyosat dunyosiga duch keladi. Ular bu soha bilan shug'ullanishni

xoxlamasalar-da, siyosat ular bilan, baribir, "shug'ullanadi". U kishilarning hayotiga va taqdiriga davlat, partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlari orqali ta'sir ko'rsatadi. Siyosat kishilarga siyosiy axborot ko'rinishida "kirib" boradi.

Hozirgi hayotning mexanizmlari shundayki, kishilar doimo biror yo'lni, shu jumladan, siyosiy yo'lni tanlab olishga majburdirlar. Bu ularni siyosat olamini bilishga, siyosiy axborotlarni egallashga undaydi. Siyosiy ong bu tomondan qaraganda kishilarga siyosiy bilimlar va axborotlarni o'zlashtirishga, ijtimoiy — siyosiy hayotda o'z o'rnini belgilashga va unda to'g'ri mo'ljalni olishga yordam beradi.

2. Baholash. Siyosiy ong ijtimoiy — siyosiy voqelikni nafaqat biladi, izohlaydi, balki uni baholaydi. Kishilar u yoki bu siyosiy hodisalar va voqealarni anglash jarayonida, ularga o'z munosabatlarini bildiradilar, o'zlari uchun muayyan xulosalarni chiqaradilar. Aynan siyosiy voqelikni baholash asosida kishilar o'zlarining siyosiy qarashlarini, e'tiqodlarini, pozitsiyalarini, qiziqishlarini shakllantiradilar.

3. Yo'naltirish. Siyosiy ong kishilarga o'zlarini jamiyat va davlat oldida nafaqat burchlarga, majburiyatlarga, balki muayyan huquqlar, erkinliklar va siyosiy manfaatlarga ega bo'lgan fuqarolar ekanliklarini anglashga yordam beradi. O'z navbatida, fuqaro deb, o'zini-o'zi idrok etish, kishilarni voqelikni sust, bir tomonlama anglashdan ijtimoiy — siyosiy hayotda aniq va faol ishtirok etishga undaydi. Siyosiy ong o'zining yo'naltiruvchilik funksiyasi orqali kishilarning siyosiy xulq—atvorini belgilaydi, sotsial siyosiy manfaatlarni himoya qilishlari uchun ijtimoiy hayotda ishtirok etishlari, siyosiy partiyalarga, jamoat tashkilotlari va boshqa siyosiy uyushmalarga o'zlarining ham fikrlari bilan birlashishlari zarurligini anglatadi.

4. Tartibga solish. Siyosiy ong voqelikni idrok etish asosida hamda uning tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy g'oyalar, me'yorlar, tasavvurlar va e'tiqodlar negizida kishilarning ijtimoiy xulq—atvorlarini tartibga soladi. Siyosiy ongning tartibga solish funksiyasiga ehtiyoj jamiyat taraqqiyotining keskin burilish bosqichlarida, inqirozli davrlarida mislsiz ortadi. Aynan siyosiy tizimning samaradorligi, voqealarning rivojlanish yo'li, ijtimoiy — siyosiy o'zgarishlarning yo'nalishi jamiyat keng qatlamlarining siyosiy ongiga, siyosiy ko'rsatmalarga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, siyosiy ong-sotsial subyektlar (individlari, guruhlar, sinflar, ijtimoiy birliklar)ning ijtimoiy hayotning siyosiy sohasi haqidagi bilimlari, tasavvurlari va baholashlarining yig'indisidan iboratdir. U bir qator funksiyalarni: bilish-axborot berish, baholash, yo'naltirish, tartibga solish kabi funksiyalarni bajarish bilan jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi.

13.2 Siyosiy ongning darajalari va shakllari

Siyosiy ong nazariy va empirik daraja va shakllarda namoyon bo'ladi.

Nazariy siyosiy ong — siyosiy xarakterga ega bo'lgan turli xildagi g'oyalar, kontseptsiyalar, qarashlardir. Bu ongning sohiblarini elitalar emas, balki olimlar, ilmiy jamoalar va tashkilotlar tashkil qiladi. Ular siyosatning nazariy kontseptsiyalarni ishlab chiqadilar. Bu kontseptsiyalar esa partiya va davlat tashkilotlarining dasturlarida, ko'rsatmalarida ifodalanadi.

Siyosiy kontseptsiya — siyosiy institutlar faoliyati asosiga qto'siyilgan rahbar g'oya, etakchi fikrdir. U siyosiy amaliyotning bevosita mo'ljal bo'lib xizmat qiladi. Uning asosida faoliyatning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqiladi.

Nazariy siyosiy ongning belgilari quyidagilardan iborat:

- yaxlitlik;
- sistemalashganlik;
- bashorat qilishga qobiliyatlilik.

Mazkur ong darajasi fan va u yoki bu ijtimoiy sinfnig, hukmron doiralarning mafkurasi bilan chambar-chas bog'langandir. U muayyan ijtimoiy guruhlar tomonidan siyosiy jarayonlarni maxsus tahlili asosida shakllanadi. Nazariy siyosiy ong siyosiy mafkura orqali namoyon bo'ladi. Siyosiy nazariyalar va ta'limotlarda quyidagi muammolarni tadqiq etish maqsad qilib qo'yiladi:

a) siyosatning ma'no — mazmunli ko'rinishlari;
b) qonuniy siyosiy tendentsiyalar va jarayonlar;
c) ularni keltirib chiqaradigan sabablar;
d) siyosiy pozitsiyaning real yo'li;
e) qonunchilik, ma'muriy va sud organlari tomonidan qabul qilinadigan siyosiy qarorlarning haqiqiy va kelajakda sodir bo'ladigan oqibatlari.

Nazariy siyosiy ongning xususiyati—uning iqtisodiy, huquqiy, xarbiy — strategik va boshqa reallik bilan chambarchas bog'liqligidir. Siyosiy ongning ushbu shakli siyosiy nazariyalarning kerakli siyosiy dasturlar, deklaratsiyalar va doktrinalar bo'lib shakllanganligi bilan ham farq qiladi.

Amaliyotda joroy etiladigan ushbu dasturlar, deklaratsiyalar va doktrinalar siyosiy ongni siyosatning etakchi elementi sifatida mustahkamlab qo'yadilar. Siyosiy munosabatlar va siyosiy institutlar, tashkilotlar va muassasalarning xarakteri o'z navbatida bu elementga bog'liqdir.

Nazariy ong darajasi va shaklida siyosatni anglash quyidagilarga imkon ham beradi:

Partiya tomonidan nazariy va amaliy voz kechilgan va bartaraf etilgan qoidalar, urf— odatlar jamiyatning siyosiy ongida uzoq vaqtgacha asorat sifatida shaklanib qolishi mumkin. Bu xolni ko'plab siyosiy arboblardan, donishmandlardan ta'kidlaydilar.

Teskari vaziyat ham bo'lishi mumkin: ommaviy siyosiy ongda u yoki bu siyosiy xarakterning, qandaydir siyosiy qarorlar bo'lishining zarurligi e'tirof etiladi, maxsus ong esa bunga tayyor emas. Masalan, mamlakatda ko'p partiyaviylikning zarurligi haqidagi g'oya jamiyatda oldindan o'z tasdiqini topgan 60'lsa ham, kerak bo'lgan tashabbus xukmron partiya, davlat tomonidan ancha kechikib qilinishi mumkin.

O'z-o'zidan yaqqol ko'rinib turibdiki, jamiyatning konstruktiv va barqaror ijtimoiy— siyosiy taraqqiyoti uchun maxsus va ommaviy siyosiy ongning o'zaro xarakati juda muhimdir. Ularning kishilar va jamiyatning, uni tashkil etuvchi ijtimoiy guruhlarining ichki dunyosidagi, kayfiyatidagi o'zgartirishlarga birgalikdagi aniq va o'z vaqtidagi reaksiyasi, javobi bundan ham muhimroqdir.

Nazariy ong darajasi va shaklida siyosatni anglash quyidagilarga imkon beradi:

a) uning maqsadlari va fundamental (strategik), ham kundalik (taktik) vazifalarni qo'yish va hal etishga;

b) ularga erishishning vositalari va usullarini aniqlashga;

c) dolzarb muammolarni hal qilishda tashkiliy — siyosiy jihatdan ta'min etishning yo'nalishlari va yo'llarini aniqlab olishga;

d) siyosiy qarorlar va maqsadli dasturlarning bajarilishi ustidan sotsial nazoratga kontseptual yondashuvlarni ishlab chiqishga;

e) amaliy tajribani hicodga olgan holda siyosatga tuzatishlar kiritishga.

Empirik siyosiy ong — bu bevosita amaliyotga, siyosiy jarayonda alohida kishilar kichik, mayda va yirik sotsial birliklarning jonli ishtirok etishlariga asoslangan siyosiy ong darajasi va shaklidir. U nazariy siyosiy ongning zamini bo'lib xizmat qiladi.

Empirik siyosiy ong — siyosiy voqelikni xissiyotlar, tasavvurlar, homxayollar, kechinmalar shaklida aks ettiradi. U birinchidan, ommada siyosat va siyosiy arboblarga nisbatan jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun ozuqa bo'lib;

Ikkinchidan, jamiyat siyosiy madaniyatining ma'naviy negizi bo'lib xizmat qiladi.

Siyosiy ong umuminsoniy, Milliy va odatiy (kundalik) ong daraja va shakllarida ham namoyon bo'ladi.

Umuminsoniy siyosiy ong — siyosiy ongning eng yuqori va g'oyat murakkab darajasidir. U olam va odamni yaxlit va bir butun holda aks ettiruvchi siyosiy ong shaklidir. Bu ong insonning bashariyat, butun olam, o'zga davlatlar muammolarini anglashi, tushinishi va tinchlikni qadrlashi, himoya qilishida namoyon bo'ladi. Chunki, olamda shunday muammolar borki, ularni milliy ong chegarasida anglab va hal qilib bo'lmaydi. Masalan, olam va odamni asrash, dunyoda tinchlikni, sog'liqni saqlash, aholini oziq — ovqatlar bilan ta'minlash, maorif va madaniyatni, fan va texnikani rivojlantirish masalalari — umumbashariy muammolar sirasiga

kiradi. Bu muammolarni anglash va hal qilish uchun milliy ong darajasidan chiqish va umuminsoniy tafakkur qilish darajasiga ko'tarilish kerak bo'ladi. Umuminsoniy siyosiy tafakkur — umumbashariy muammolarning mohiyatini, tahdidini va ularni hal qilish yo'llari, vositalarini anglovchi siyosiy ong shaklidir.

Umuminsoniy siyosiy ongning sohiblari-davlatlar va ularning xalqaro birlashmalaridir. Bu birlashmalar milliy davlat chegaralaridan tashqariga chiqishga, umuminsoniyat tsivilizatsiyasi manfaatlarini anglashga va uni turli ofatlardan himoya qilishga chaqirilgandir. Odamzot, butun qurrai zamin tinchligi va taraqqiyoti muammolarini anglash va ularni hal qilishga mas'ul bo'lish — umuminsoniy siyosiy ongning eng muhim xususiyatidir.

Umuminsoniy siyosiy ong milliy ongni inkor etmaydi, aksincha, taqazo qiladi. U milliy ongga tayanadi.

Milliy ong — siyosiy ongning yuqori darajasi va shaklidir. Bu darajada mamlakat, millat manfaatlarini chuqur anglanadi, rasmiy siyosat ishlab chiqiladi, asoslanadi, amalga oshiriladi va ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi.

Milliy ongning sohiblari — xalq va uning irodasini ifoda etuvchi davlat va jamoat institutlaridir. Bu institutlar xalq irodasini Konstitutsiya, turli qonun loyihalari, dasturlar, qarorlar va boshqalarni ishlab chiqish, qabul qilish va ularni hayotga tadbiiq etish yo'li bilan ifoda etib uning manfaatlariga xizmat qiladi.

Milliy ongning eng muhim belgisi — millatning, turli — tuman ijtimoiy guruhlarining umumiy manfaatlarini ifoda etish va uni turli — tuman falokatlardan asrashdir. Bu darajada mavjud milliy siyosiy tartiblar va boshqarish tamoyillari izchillik, qat'iyatlilik bilan himoya qilinadi, jamoatchilik fikrining davlat institutlari olib borayotgan siyosatga moslashtirilishi sodir bo'ladi.

Milliy ong uchun siyosiy voqelikni oqilona- pragmatik uslubda idrok etish — hokimiyatni egallash, qo'lda ushlab turish jarayonida muvaffaqiyatga erishishni mo'ljallash ham xarakterli xususiyatidir.

Milliy ong — bu milliy manfaatlarining to'g'ri anglanishidir. Ammo, milliy ong — bu millatparastlik emas. U o'z millatini, davlatini boshqa millatlardan, davlatlardan yuqori qo'yish, unga imtiyozlar yaratishga intilish, o'z millatiga, davlatiga sajda qilib, unga hamdu — sanolar o'qish emasdir. Milliy manfaatlarini mutloqlashtirish — buyuk davlatchilik, shovinistik qarashlardan boshqa narsa emas.

Milliy ong — bu barcha millatlar, davlatlarga xurmat bilan qarash va ulardan yaxshi narsalarni o'rganish, hayotda qo'llash demakdir.

Odatiy siyosiy ong — siyosiy ongning bo'yi darajasidir. U ijtimoiy guruhlarining kundalik hayotidan bevosita paydo bo'ladigan g'oyalar, qarashlar, tasavvurlar yig'indisidir. Bu ong mazmuniga ko'ra ko'p jihatdan empirik ongga o'xshashdir.

Lekin, odatiy ong empirik ongdan farq qiladi. U muayyan mafkuraviy va nazariy elementlarga egadir. Odatiy ongga ravshan ko'zga tashlanadigan sotsial — ruhiy belgilar: ziddiyatlilik, uziluvchanlik, tizimga kirmaganlik, yuzakilik, hissiyot, kayfiyat, e'tiroslar hosdir. Bu unga o'ziga xos dinamiklik (tez o'zgaruvchanlik) siyosiy vaziyatning o'zgarishini aniq, xis etishni baxshida etadi.

Odatiy ongning tarkibida haqiqat elementlari sokolom aql va xomxayollar, bilim va ko'r — ko'rona ishonch birgalikda mavjud bo'ladi. Bu ong darajasida siyosiy voqe'lik yuzaki idrok qilinadi, hodisalar tashqi belgilari bo'yicha, ko'pincha kundalik ehtiyojlar va yangi manfaatlar nuqtai nazaridan baholanadi.

Siyosiy ongning odatiy darajasi oqilonalik va emotsionallikni jonli hayot tajribasi va an'analarning daqiqalik kayfiyat va barqaror stereotiplarning o'zaro bog'likligi bilan farqlanadi. Shuning uchun ham u beqaror, hissiyot va bevosita tajribaning o'zgarishiga bog'lik tebranishlarga maxkum etilgandir.

Siyosiy ong ijtimoiy borliqqa munosabatiga qarab demokratik va mustabid ongga bo'linadi.

Demokratik ong — har qanday bir yoqlamalikdan holi bo'lgan eng mukammal, oqilona siyosiy ong turidir. U ijtimoiy muammolarni umuminsoniy qadriyatlar — o'zaro birlik, tenglik, ishonch, hamkorlik, hamjixatlik asosida xal kilishga intiladi. Demokratik ong ijtimoiy murosasizlikni, kuch ishlatishni-ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishning xal qiluvchi usuli sifatida inkor qiladi. U ijtimoiy birlikni, hamjixatilikni, murosayu-madorani, o'z faolyaitining asosiy usuli, deb qaraydi. Mustabid ong — ijtimoiy voqe'likka bir yoqlama, tor manfaatlardan kelib chiqib yondoshiladigan nooqilona siyosiy ong turidir. U ijtimoiy muammolarni aql - idrokka, ilmiy salohiyatta tayanib emas, balki murosasiz, kuch ishlatish yo'li bilan xal qilishga intiladi.

Mustabid ong o'zaro birlik, tenglik, ishonch, hamkorlik, murosayu — madorani nazar — pisand qilmaydi va etarli baholamaydi. U ijtimoiy murosasizlikni, kuch ishlatishni — ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishning xal qiluvchi usuli, deb hisoblaydi.

Siyosiy ong tashqi ta'sirga munosabatiga qarab ochiq va yopik siyosiy ongga ajraladi.

Ochiq siyosiy ong — o'zga ijtimoiy tajriba, boshqa milliy — madaniy qadriyatlar va an'analarni idrok qiluvchi ong turidir. Bu turda siyosiy voqelik umuminsoniy manfaatlarda, o'zining inson zotiga mansubligidan ko'rib chiqib aks ettiriladi.

Yopiq siyosiy ong — korporativ, loqal, guruhiiy me'yorlar va maqsadlar doirasida qoladigan ong turidir. Bu turdagi siyosiy qarashning mazmuni guruhiiy yoki individual tasavvurlar doirasidan chetga chiqmaydi. Mazkur tasavvurlar insonning faqat xususiiy manfaatlari bilan belgilanadi.

Ochiq va yopik siyosiy ong turlari jamiyat rivojlanishining darajasiga, tarixiiy shart — sharoitiga bog'liqdir. Kishilarning yaqqol ko'zga tashlanadigan guruhiiy qarashlari inqilobiiy bo'ronlar davrida ustunlik qiladi. Jamiyatning tinch rivojlanish davrida esa umumtsivilizatsion qadriyatlar ustunlik qiladi.

Siyosiy ong ko'zlangan maqsadning ro'yobga chiqish ehtimollik darajasiga ko'ra real va hayoliiy; mavjud siyosiy tartibotga bo'lgan munosabatiga qarab xukmron va muholif ongga ajraladi. U ko'zlangan maqsadga erishish usuliga ko'ra islohotchi va inqilobiiy; mazmuniga qarab faol va sust ong bo'lishi ham mumkin.

Siyosiy ong siyosiy mafkura va siyosiy psixologiya darajalarida ham namoyon bo'ladi. Biz bu masalani keyingi boblarda alohida ko'rib chiqamiz.

Shunday qilib, siyosiy ong turli—tuman darajalarida, shakllarda va turlarda namoyon bo'ladi. Ular siyosiy voqelikni nafaqat o'zaro aloqadorlikda aks ettiradi, balki uni ijod qiladi, o'zgartiradi va rivojlantiradi.

13.3. Siyosiy ong shakllanishining asosiiy omillari

Siyosiy ong insonda o'z — o'zidan, qup — quruq joyda shakllanmaydi. U muayyan ijtimoiy — siyosiy, iqtisodiiy, ma'naviiy — ma'rifiy shart — sharoitlar negizida shakllanadi. Bunday shart — sharoitlar mavjud bo'lmas ekan, insonda siyosiy ong shakllanmaydi. U siyosatning ob'ektiligicha qolaveradi. Siyosiy ongning shakllanishi - murakkab jarayondir. Bu jarayon avvalo, ijtimoiy — siyosiy shart — sharoit — demokratik siyosiy tartibotning mavjudligiga bog'liqdir. Jamiyatda bunday munosabatlar mavjud bo'lmasa, mustahkamlanib borilmasa insonda siyosiy ong shakllanmaydi. Jamiyatda mavjud bo'lgan avtoritsetlar, ma'muriy — buyruqbozlik siyosiy tizimi esa inson siyosiy ongning shakllanishiga imkon bermaydi. Aksincha, bu tizim insonni qullikka mahkum etadi, uni hokimiyatdan begonalashtiradi, biqiqlik, befarqlikni, tug'diradi, boshqaruv apparatlarini halqdan uzoqlashtiradi.

Jamiyatda demokratik siyosiy tizimning mavjudligi va uniig mustahkamlanib borishi — insonni siyosiy ong shakllanishining xal qiluvchi shartidir. Bunday siyosiy tizim inson siyosiy onggi va faoliyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi, uni rag'batlantiradi. Jamiyat siyosiy tizimi qanchalik demokratik bo'lsa, inson shunchalik siyosiy hayotda faol ishtirok etadi.

Siyosiy ongning shakllanishi jamiyatda faqat demokratik siyosiy tizimning mavjudligi bilan belgilanib qolmaydi. U jamiyat iqtisodiiyotining taraqqiiy etib borishi darajasiga, halqning moddiiy farovonligiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Jamiyat iqtisodiyotining yuqori darajada taraqqiy etishi fuqarolik xizmatining bilimdon, malakali, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan boshqaruv qadrlari shakllanishi uchun zarur asos bo'lib xizmat qiladi. Etishmovchilik, qashshoqlik sharoitida demokratiya negizida samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan umumta'lim va kasb tayyorgarliligining yuqori darajasiga ommaviy miqyosda erishish qiyin. Bunday sharoitda qadrlarni shakllantirishda, ulardan foydalanishda bilimdonlik va kasbga bo'lgan talablar boshqa tamoyillar: qon — qardoshlik, yurt-doshlik, oshna — og'aynigarchilik, boshliqqa sodiqlik va boshqalar bilan almashtiriladi. Davlat xizmati, siyosiy faoliyatga tezda boy bo'lib ketish maqsadida shaxsiy manfaatlarini qondirishning vositasi sifatida qarash – boshqarish tizimi uchun oxir oqibatlar keltirib chiqaradi.

Iqtisodiyotining taraqqiy etishi, halqning farovonlikka erishuvi — siyosiy ong shakllanishining asosiy shartlaridan biridir. Jamiyat qanchalik iqtisodiy jihatdan taraqqiy etib borsa, u idora qilishning demokratik shakllariga shunchalik ochiq bo'ladi. Xalq qanchalik boy va badavlat, farovon yashasa, u shunchalik demokratiyani qo'llab — quvatlaydi va himoya qiladi.

Siyosiy ong shakllanishi jamiyatning, ma'naviy, ma'rifiy jihatdan rivojlanishiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Sababi — ma'naviy, ma'rifiy jihatdan taraqqiy etmagan jamiyat hech qachon insonni siyosat sub'ekti sifatida shakllantira olmaydi. Bunday jamiyat va uning fuqarolari siyosiy manipulyatsiya—firibgarlikning ob'ekti bo'lib kelaveradi. Ma'naviy qashshoq, savodsiz bo'lgan inson jamiyat anglagan siyosatdan tashqarida bo'ladi. U dunyo siyosiy xarakatlarning sub'ekti emas, balki ob'ekti bo'lib qoladi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyatning ma'naviy — ma'rifiy sohasi, insonning ma'lumot darajasi qanchalik katta bo'lsa, u shunchalik siyosiy bilimdon va siyosiy faol bo'ladi. Eng asosiysi demokratik uslub, ko'rsatmalar, hatti — harakatlarga moyil bo'ladi. Xususan, mukammal ta'lim insonning siyosiy dunyoqarashini kengaytiradi, sabr — toqatli, mehr — okibatli bo'lishga yordam beradi, ekstremistik g'oyalarga aloqador bo'lishdan saqlaydi, saylov kompaniyalari davrida uning odil va oqilona yo'lni tanlash qobiliyatini oshiradi. Yuqori ma'lumotga ega bo'lgan shaxs hukumatning qarorlarini, ko'rsatmalarini yaxshi anglaydi, siyosiy habarlarni chuqur biladi, keng doiradagi mavzular bo'yicha o'zining mustaqil fikriga ega buladi. Inson qanchalik ma'lumotli bo'lsa, uning siyosiy bahs — munozaralarida ishtirok etish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. U o'zini kichik bir muruvvat emas, balki hukumatga ta'sir ko'rsatishga qodir inson, deb hisoblaydi. Individd qanchalik ma'lumotli bo'lsa, u muayyan jamoat tashkilotlarining faol a'zosi bo'lishi, o'zini o'rab turgan ijtimoiy — siyosiy muhitga ishonch bildirishi ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

Shunday qilib, siyosiy ong muayyan ijtimoiy — siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy — ma'rifiy omillar, shart- sharoitlar negizida shakllanadi. Bu omillar yo inson siyosiy faoliyatining rivojlanishiga, uning siyosat sub'ekti sifatidagi potentsial fazilatlarining ochilishiga yordam beradi yoki bu jarayonlarni qiyinlashtiradi va eski siyosiy tizim negizini konservatsiya qiladi.

1. Siyosiy ong mazmuniga ko'ra qanaqa turlarga bo'linadi? Bu turlar qanday omillar bilan belgilanadi? Javobingizni asoslang.

2. Yangi siyosiy ongning shakllanish jarayonida siyosiy bilimlarning o'rni va roli benihoya kattadir. Buni tushuntirib bering.

14 BOB. SIYOSIY MAFKURALAR

Siyosiy mafkura haqidagi masala — siyosat nazariyasining eng muxim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu masala ilgaridan kishilar o'rtasida ehtirosli, qizg'in, qarama — qarshi fikr — mulohazalar, baxslar va munozaralarga sabab bo'lib kelgan va bugungi kunda shundayligicha qolmoqda. Biz mazkur mavzuda ana shu masalaning mazmun — mohiyati, asosiy ko'rinishlari haqida to'htalib o'tamiz.

14.1. Siyosiy mafkura: tushunchasi va funktsiyalari

Ho'sh, siyosiy mafkura nima? U qanday funktsiyalarni bajaradi? Avvalo, ana shu savollarga javob topishimiz lozim.

Dunyodagi barcha narsalar, hodisalar, odamlarning hayoti, orzu — umidarlari, taqdiri azal — azaldan, ilohiy qonunlar bilan belgilangan, inson o'zini koinotning zarrasi, deb bilgan davrlarda jamiyatni din boshqargan.

Dunyodagi barcha xalqlar tarixida diniy yoki siyosiy e'tiqod o'rnini insonning hayotiy tajribalaridan kelib chiquvchi bilim egallashi uchun kurash davri bo'lgan. Uni Uyg'onish yoki Ma'rifat davri deb atalgan. O'rta Osiyoda u Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sinolar kabi daxolarni yuzaga keltirganini bilamiz, Ammo bizda Uyg'onish davri fan, madaniyat, axloq sohasi bilan cheklangani holda /arbiy Evropada kechroq boshlangan bu jarayon butun jamiyat hayotining barcha sohalarida amal qildi. Siyosiy sohada u - insonni ozod qilinishi, barcha odamlarning qonun oldida tengligi kabi g'oyalarda namoyon bo'ldi. Har bir ijtimoiy g'ypuh dunyo, inson, jamiyat haqidagi tasavvurlaridan kelib chiqib, ijtimoiy hayotni qurishning o'z falsafasi va amaliyotini taklif etish imkoniga ega bo'ldi. Bunga yana siyosatning din qobig'idan chiqib, dunyoviy ma'no kasb etgani ham katta turtki berdi. Natijada, jamiyatda odatda din egallab turgan yuqori mavqeni egallash va odamlar, jamoalar, mamlakatlar taqdirini belgilash uchun turli mafkuralarning kurashi davri boshlandi. Dinlar - mohiyatiga ko'ra haqiqatni izlagan va shu haqiqatga so'zsiz e'tiqodni talab etgan bo'lsa, mafkuralar — o'zlari suyangan tabaqa yoki fuqaroning manfaatlarini himoyalash va o'rnatish yo'llarini izlaydilar. Mafkuraga nisbatan bir qator barqaror bo'lgan munosabatlar ham qaror topgan: jumladan, mafkura bilan fanni bir — biridan murosasiz ayirib qo'yish, mafkuraning bilish funktsiyalariga shubha bilan qarash, ularni inkor qilish. XX asr boshlaridayoq, M. Veber mafkurani va boshqa g'oyaviy, diniy tuzilmalarni ko'r-ko'rona ishonish sohasiga kiritgan edi. Bu bilan u mafkuraning ilmiyligi masalasini qo'yishni ham inkor etadi, by sohaning taniqli mutaxassisi K.Mangeym, M. Veberdan keyin har kanday mafkurani voqelikning noto'g'ri bir tomonlama aks etishi sifatida, voqealarning haqiqiy ahvolini ongli ravishda yashiradigan g'oyalar yig'indisi sifatida olib qaraydi. Mafkuraning ijtimoiy — tarixiy manbalarini chetga surib qo'yib, uni jamoani birlashtiruvchi qurol sifatida (O. Lemberg, T. Parsons) haddan tashqari funktsional taskin qilishlar ham keng tarqalgandir.

Mafkurani ayrim guruhlar va individlarning psixologiyasidan (R. Payps, D. Braun) iborat qilib ko'rsatish mollari ham kam emas. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda mafkurani — halqning, millatning dunyodagi o'rnini, manfaatlarini, orzu — intilishlarini ifodalaydigan g'oya, o'tmish va kelajakni bog'laydigan ko'priq sifatida ta'riflashlar ham mavjuddir.

Yuqorida qayd etilgan xilma — xil yondoshuvlar mafkura — murakkab ruhiy hodisa ekanligidan dalolat beradi. Siyosiy mafkura — siyosiy ongning o'ziga xos darajasi va shakli xisoblanadi. U siyosiy borliqni aks ettirish chuqurligi va adekvatligi (to'g'riligi) ga ko'ra siyosiy psixologiyadan farq qiladi. Agar siyosiy psixologiyada stixiyali tarzda shakllanadigan, yaxlit bo'lmagan, sistemalashmagan xissiyotlar, e'tiroslar ustuvorlik qilsa, siyosiy mafkurada siyosiy ongning nazariy elementlari, g'oyalar, kontseptsiyalar ustuvorlik qiladi. Aynan siyosiy mafkurada siyosiy borliq nazariy qayta ishlanadi, aniq dasturlar ishlab chiqiladi. Siyosiy mafkura o'z tabiatiga ko'ra siyosiy borliqni nazariy aks ettiradigan, yaxlitlangan, sistemaga solingan, mantiqiy izchil siyosiy ong shaklidir.

Mafkura jamiyat va siyosiy tizimning muayyan modelini e'tirof etishga, bu modelni shakllantirish yo'llari va vositalarining muayyan turlarini nazariy asoslashga intiladi. Eslab, tahlil qilib ko'ring: bizga ma'lum mafkuralarning barchasi — shunday. Boshqacha qilib aytganda, biz urushlar va inqiloblar bilan bir qatorda g'oyalar va mafkuralar ham insoniyat va madaniyat taraqqiyotini belgilab keladi, deb aytaolamiz. Eng dahshatli urushlar, eng qonli inqiloblar guvohi bo'lgan XX asrni «mafkuralar asri», deb nom olganligining o'zi — ana shu urushlar, inqiloblarning tub zaminini aslida dunyoni ikki qarama — qarshi qutbga bo'lib yuborgan mafkuralar kurashi tashkil etganligining e'tirofidir.

Ammo, bularning barchasi siyosiy mafkura siyosiy nazariyaga aynan o'xshash ekan, degan ma'noni anglatmaydi aslo. Bunday deb hisoblash masalani siyqalashtirihdan boshqa narsa emas.

Siyosiy mafkura siyosiy nazariyadan farq qiladi. U nafaqat "mavjudlik" haqidagi aniq bilimlarga, balki "bo'lishlik" haqidagi noaniq fikrlarga, taxminlar va xomhayollarga, "yashil bo'yoqlar" bilan bezashlarga ham tayanadi. U xomhayollarga berilishlik, voqelikni bo'yoqlarga bo'yashlik — mafkuraning xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan fikr - mulohazalardan kelib chiqib siyosiy mafkuraga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Siyosiy mafkura — u yoki bu ijtimoiy guruhning manfaatlarni ifodalovchi va himoya qiluvchi hamda ko'proq miqdordagi kishilarning individual o'y - fikrlarni va xatti — xarakatlarini hokimiyatdan foydalanishning muayyan maqsadlari va vazifalarga bo'ysundirishni talab qiluvchi sistemalashgan, mantiqiy izchil g'oyaviy qarashlarning yig'indisidir. Qisqacha qilib aytganda, siyosiy mafkura - bu muayyan ijtimoiy guruhning hokimiyatga intilishini yoki undan foydalanishini asoslovchi va siyosiy xarakatning u yoki bu strategiyasini ko'zda tutuvchi yaxlit g'oyaviy tizimdir.

Mafkura ijtimoiy hayotda muayyan funktsiyalarni bajaradi. Ulardan quyidagilarni ajratish mumkin:

1) mo'ljallash. Bu funktsiya shunda ifodalanadiki, mafkura jamiyat, davlat, ijtimoiy ravnaq, shaxs haqidagi muayyan tasavvurlarni va ularni amalda ro'yobga chiqarish yo'llari va vositalarini o'ziga qamrab olib, u inson faoliyatining ma'no — mazmuni, tizimini va mo'ljallarini ko'rsatib beradi.

2) safarbar etish. Yangi, fozil jamiyat g'oyasini taklif qila turib siyosiy mafkura siyosiy faoliyatning bevosita motivi sifatida chiqadi va uni amalga oshirish uchun jamiyatni, ijtimoiy guruhlarini safarbar qiladi.

3) birlashtirish. Taklif etilayotgan dunyoning yangi qiyofasi doirasida siyosiy xarakatga ma'no — mazmun bera turib, siyosiy mafkura unga shunday ahamiyat beradiki, u o'zining miqyosi bilan har qanday individual yoki guruhli manfaatdan yuqori turadi. Siyosiy mafkura xususiy manfaatlarga qarshi turadi va shu bilan birlashtiruvchi omil bo'lib maydonga chiqadi.

4) amortizatsiyalash. Siyosiy mafkura jamiyat, guruhlar, individ, ehtiyojlari va ularni qondirishning real imkoniyatlari o'rtasida nomuvofiqlik vujudga kelgan vaziyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshatishga xizmat qiladi.

5) muayyan ijtimoiy guruhning manfaatlarini ifoda etish va himoyalash. Buning ma'nosi shuki, siyosiy mafkura u yoki bu ijtimoiy guruh manfaatlarini negizida, vujudga keladi va ularni boshqa guruhlar manfaatlariga qarama - qarshi qo'yishga chaqirilgan.

Mafkura o'zining funktsiyalariga ko'ra fandan farq qiladi. Agar fanning funktsiyasi — borliqni o'rganish bo'lsa, mafkuraning funktsiyasi — aholining ommaviy siyosiy ongini egallash, unga jamiyatning bugungi va kelgusidagi taraqqiyotini baholash bo'yicha o'zining mezonlarini joriy qilish, siyosiy makonda kishilar mo'ljalladigan maqsad va vazifalarni belgilashdir. Guruhli xarakterga ega bo'laturib mafkura amalga oshirmoqchi bo'lgan yo'lning oqilona va holisona obrazini yaratishga, uning u yoki bu sinf, millat, davlat manfaatiga mos kelishiga intiladi. Bu borada mafkura u yoki bu ideallar va qadriyatlarni targibot qilish bilan chegaralanib qolmay, balki fuqarolar, partiyalar va boshqa siyosiy tuzilmalarning maqsadga muvofiq faoliyatini rag'batlantirish bilan ham shug'ullanadi.

Mafkura o'zining siyosiy vazifalarini bajarishi bilan jamiyatni yo qandaydir ijtimoiy, milliy g'uruh manfaatlarini asosida, yoki aholining muayyan ijtimoiy - iqtisodiy guruhlariga tayanmaydigan ongga ravishda ishlab chiqilgan maqsadlari negizida jipslashtirish, birlashtirishga intiladi. Aholini real birlashtirish qobiliyati mafkuraning g'oyasi va qoidalari kishilarning yaxshi turmush tarzi haqidagi kundalik qarashlari va tasavvurlariga qanchalik mos kelishga bog'liqdir.

Har qanday mafkura oqilona, nazariy asoslangan qoidalaridan tashqari o'zida real voqelikdan uzoqda bo'lgan, aholiga faqat ishonish uchun taklif qilinadigan maqsad va ideallarni ham qamrab oladi. Rasmiy mafkuralar voqelikni bo'yab ko'rsatishga, muxolif kuchlarning mafkuralari esa utopik xom hayollarga moyil bo'ladi.

Siyosiy mafkuraning amal qilish darajalari bir xil emas. U nazariy — kontseptual, dasturiy va hulq — atvor darajalarida amal qiladi. Nazariy-kontseptual darajada u yoki bu sinf, ijtimoiy qatlam, millat, davlatning manfaatlarini va ideallarini ochib beruvchi asosiy qoidalar qaror toptiriladi; dasturiy — direktiv darajada ijtimoiy — falsafiy tamoyillar va ideallar siyosiy elitaning aniq dasturlari, shiorlari va talablariga aylantiriladi va boshqaruv qarorlarini qabul

qilish, ommaning siyosiy hulq — atvorini rag'batlantirish uchun g'oyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Mafkura amal qilishining ushbu darajasi "siyosatning yaratuvchi elementi" deb etiladi.

Hulq — atvor darajasida mazkur mafkura maqsadlari va printsiplari fuqarolar tomonidan o'zlashtiriladi, hamda ularning jamiyat siyosiy hayotida ishtirok etishining u yoki bu shakllarida o'z ifodasini topadi. Bu darajada mafkura kishilarning xatti — xarakatiga aylani6 ularni jipslashtiradi, birlashtiradi, muayyan yo'lga yo'naltiradi, safarbar etadi.

14.2. Siyosiy mafkuralarning asosiy ko'rinishlari

Siyosiy mafkura zamon va makondan tashqarida bo'lgan mavhum ruhiy xodisa emas. U muayyan tarixiy sharoit bilan bog'liq — aniq ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan ruhiy xodisadir.

Ular bir tarixiy davr o'ziga xos va o'ziga mos mafkuraviy oqimlarni ilgari surgan. Bundan hozirgi zamon ham mustasno emas. U ham turli — tuman mafkuraviy oqimlarni ilgari suradi. Biz quyida hozirgi zamonning asosiy mafkuraviy oqimlarini ko'rib chiqamiz.

Hozirgi zamonning eng yirik va ko'p tarqalgan mafkuraviy oqimlaridan biri — liberalizmdir. Bu atama lotincha "liberalis" so'zidan olingan bo'lib erkin degan ma'noni anglatadi.

Liberalizm XVII — XVIII asrlarda ma'rifatparvarlik davri g'oyalari negizida tarix sahnasiga chiqib kelayotgan burjuaziya sinfining mafkurasi sifatida shakllanadi. Bu mafkuraning asosiy qoidalari J. Lokk, T. Gobbs, Sh. Monteske, A. Smit, T. Jefferson, D. Mill va boshqalarning asarlarida asoslanib beriladi.

Liberalizm — bunyodkor mafkuradir. Uning poydevorini shaxs erkinligi, uning barcha jamiyat institutlariga nisbatan eng oliy qadriyat ekanligi, shaxsning ham o'z oldida, ham jamiyat oldida mas'ulligi, barcha kishilarning o'zini o'zi po'yobga chiqarish huquqini tan olishligi kabi tamoyillar tashkil etadi. Bu mafkura parlament tuzumining muhim siyosiy muammolarni hal etishda murosayu — madora, konsensusning tarafdoridir. U davlatning xaddan ziyod iqtisodiy va sotsial funktsiyalariga salbiy munosabatdadir.

Liberalizm hokimiyatning taqimlanishi, siyosiy plyuralizm, elitalarning raqobati, qonunning ustuvorligini e'tirof etadi. U fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlashni o'zining asosiy maqsadi, deb biladi.

Mazkur mafkuraning barcha ko'rinishlarida inson shaxsining individual erkinligi, qadr — qimmat, boshqa kishilarning qarashlari va e'tiqodlariga sabr — chidamli bo'lishlik talablari doimo himoya qilinadi. Shaxs erkinligini hurmat qilish bilan bog'lab, liberalizm o'zining g'oyaviy ko'rsatmalarida, individualizm va insonparvarlik tamoyillarini uyg'un ravishda mujassamlashtiradi.

Erkinlik tamoyili liberalizm tarafdorlari tomonidan davlat cheklashlaridan erkin bo'lishlik sifatida talqin etiladi. Bu g'oyani angliyalik mutafakkirlar T. Gobbs va D. Mill yaxshi ifoda etadilar. T. Gobbs "kishilar erkinligi qonunlarning jim turishiga bog'liqdir", deb e'tirof etadi. D. Mill esa bu g'oyani quyidagicha izohlaydi: "Inson o'ziga nima kerakligini har qanday hukumatdan ko'ra o'zi yaxshiroq, biladi".

Liberalizm tarafdorlari nazarida erkinlik uchun kurash insonning iqtisodiy, jismoniy va intellektual erkinligi yo'lidagi barcha to'siqlarni, cheklashlarni tutatish uchun kurashni anglatadi. Ular hokimiyatni meros qilib qoldirishning barcha shakllariga va tabaqaviy imtiyozlarga qarshi chiqadilar. Bu ko'rsatmalar negizida "davlat — tunggi

qorovul" degan g'oya qaror topdi. Ushbu g'oyaning ma'nosi shuki, davlat faqat ijtimoiy tartibni qo'riqlash va mamlakatni tashqaridan bo'ladigan tahdiddan himoya qilishni ta'minlaydigan, eng kerakli vazifalarni bajarishi kerak. Shuning uchun aynan liberalizmda fuqarolik jamiyatining davlat ustidan ustivorligi g'oyasi qaror topdi va amalga oshirilmoqda. Angliyalik mutafakkir J. Lokk fuqarolik jamiyati bu doimiy kattalik, davlat esa undan kelib chiquvchi, deb e'tirof etgan edi.

Liberalizm mafkurasi uchun shaxsning erkin rivojlanishi va o'zini — o'zi tasdiqlash g'oyasi xarakterli bo'libgina qolmay, balki erkinlikning bozor talqinini xususiy tadbirkorlik erkinligi sifatida xarakterlash xosdir. Bu mafkura erkinlik va xususiy mulkning o'xshashligiga

asoslanadi. "Unda xususiy mulk — inson erkinligining kafolati va o'lchovi sifatida qaraladi. Iqtisodiy erkinlikdan siyosiy va fuqarolik erkinligi keltirib chiqariladi.

Iqtisodiy nazariyada liberalizm tadbirkorlik, bozor va raqobat erkinligini targ'ibot va tashviqot qiladi. Shu bilan birga bu mafkuraning tarafdorlari shaxsni bozor tizimiga amal qilishning salbiy oqibatlaridan saqlashni – xukumatning vazifasi deb biladilar.

Mumtoz liberalizmning g'oyalari anglo — sakson

mamlakatlarida; avvalo AQShning siyosiy va iqtisodiy amaliyotida o'zini to'liq, namoyon qildi. AQShda individualizm jamiyat tuzilishining bosh tamoyili sifatida qaraladi. Mustaqillik va o'zining kuchiga tayanish, raqobat erkinligi amerikacha turmush tarzining asosiy g'oyaviy ustunlaridir.

Mafkuraning har qanday ko'rinishi o'zgarmasdan qola olmasligi kabi liberalizm ham o'zgarmasdan qolmadi. U ijtimoiy — iqtisodiy o'zgarishlarning ta'siri ostida XX asrning 30 — yillarida neoliberalizmga o'sib o'tadi. Bu yangi mafkuraviy oqimning paydo bo'linishini tadqiqotchilar AQSh Prezidenti Franklin Ruzveltning "Yangi yo'li" bilan bog'laydilar. AQIII Prezidenti liberalizm mafkurasiga asoslangan siyosatga qator muhim tuzatishlar kiritadi. Bu tuzatishlar davlatning iqtisodiy va sotsial rolini qaytadan ko'rib chiqish bilan bog'liqdir.

Neoliberalalllar davlatning iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishi, fayl ijtimoiy siyosatni olib borishi zarurligini tan oladilar. Ular ijtimoiy adolatni o'rnatishni, monopoliyalarning hokimiyatini cheklashni, moddiy boyliklarni soliq tizimi va davlatning ijtimoiy dasturlari orqali jamiyatning kuchi qatlamlari foydasiga qayta taqsimlashni yoqlab chiqadilar. Neoliberalalllar siyosiy dasturining negizini boshqaruvchi va boshqarilayotganlarning o'zaro kelishuvi, siyosiy jarayonda ommaning ishtirok etishi zarurligi, siyosiy qarorlarni qabul qilish amaliyotini demokratlashtirish tashkil etadi.

Liberalizm g'arb demokratik partiyasining g'oyaviy asosidir. Bu mafkura bayrog'i ostida AQShda "odilona davlat", "yalpi farovonlik davlati", deb ataladigan model yaratilgan. Bugungi kunda neoliberalizm AQSh Demokratik partiyasi va boshqa ilg'or, demokratik mamlakatlardagi siyosiy partiyalar faoliyatining g'oyaviy — nazariy negizi bo'lib qolmoqda.

U hozirgi zamonning eng yirik va keng tarqalgan mafkuraviy oqimlaridan yana biri — konservatizmdir. Bu atama lotincha "konservare" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u saqlash, qo'riqlash degan ma'noni anglatadi. Konservatizm XVIII asrda dunyoviy va cherkov feodallari, tarix saxnasidan tushayotgan, kelajakdan hadiksiragan turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarining ifodachisi, liberalizm ning qoralovchisi, xudo tomonidan o'rnatilgan tartiblarning buzilmasligi g'oyasining ilgari suruvchisi sifatida paydo bo'ldi. Uning asosiy qoidalari Angliyalik mutafakkir va siyosatchi 3. Berk, Frantsiyaning jamoat arboblari J. de Mestr va L. De Bonald tomonidan asoslab beriladi. Bu qoidalarining negizida tabiiy ravishda qaror topgan narsalar tartibining buzilmasligi, oila, millat, din, tabaqaviy bo'linishi bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolish g'oyasi yotadi. Ana shundan kelib chiqib; konservatorlar ijtimoiy taraqqiyotda yangiliklarga nisbatan vorislikning ustuvorligini yoqlab chiqadilar. Ularning fikricha, siyosiy tamoyillarni urf odatlarga, milliy an'analarga, qaror topgan ijtimoiy — iqtisodiy va siyosiy institutlarga moslashtirish lozim. Ularda pog'onaviy ijtimoiy tuzilishning yuqoridan o'rnatilganligiga hech qanday shubxa yo'k va shuning uchun uni inson tomonidan o'zboshimchalik bilan o'zgartirib bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadiki, tenglik tamoyili inson tabiatiga zid keladi va uni jamiyat tuzilishining negiziga qo'yib bo'lmaydi. Konservatorlar har doim egalitarizm bilan bog'liq bo'lgan "hamadan tashqari demokratizm" ga qarshi chiqadilar.

Tarixiy taraqqiyot natijasida konservatizm ham liberalizm singari muhim o'zgarishlarga yuz tutdi. U burjua munosobatlari qaror topishi bilan yirik kapital manfaatlarini himoya qiluvchi g'oyaga aylandi. Konservatorlar ham liberallar singari bozor, raqobat erkinligini ta'minlashini, iqtisodiyotga davlatning aralashishini cheklashni talab qildilar.

XX asrning 70 — yillarida konservatizmning tarixida yangi bosqich — neokonservatizm (D. Bell, Z.Bjezinskiy, N. Podgorets, N. Kristoll) boshlanadi. Bu yangi oqimning paydo bo'lishini tadqiqotchilar AQShda Ronald Reygan boshchiligidagi respublikachilar, Buyuk

Britaniyada Margaret Tetcher boshchiligidagi konservatorlar, GORda Gelmut Kol boshchiligidagi XDS — XSS bloking hokimiyatga kelishi bilan bog'laydilar.

Neokonservativizmning qaror topishi tasodifiy emas. U neoliberalizm va sotsializmga qarshi turish maqsadida shakllandi. Neoliberalizm davlatning iqtisodiy faoliyatda aralashishi zarurligini tan oladi va davlat ijtimoiy dasturlarining rivojlantirishini qo'llab quvvatlaydi. Neokonservativizm esa davlatning iqtisodiyotga aralashishini cheklashni talab qiladi.

Antietatizm — davlatning ijtimoiy funksiyalarini cheklash — neokonservativizm g'oyaviy — siyosiy kurs atamalarining belgilovchi alomatidir. Neokonservatorlar qarashlariga ko'ra «kamroq boshqaruvchi hukumat — eng yaxshi hukumat».

Neokonservatorlar aholining kam ta'minlangan qatlamlari foydasiga resurslarni qayta taqsimlash maqsadida yirik kapitalga solinayotgan soliqlarga qarshi chiqadilar. Ular teng taqsimlashning ashaddiy dushmani sifatida davlatning ijtimoiy dasturlarini qisqartirishni, talab etadilar. Neokonservatorlarning fikricha, hozirgi davlat kishilari uchun natijalar tengligini emas, balki imkoniyatlar tengligini yaratib berishi zarur. Davlatning "sog'iladigan sigir" ga aylanishi insonni buzadi, ishdan chiqaradi. Har bir kishi o'z faoliyatida davlatga emas, balki o'zining kuchiga hamda o'zining yaqinlari va fuqarolariga tayanishi zarur.

Shunday qilib, konservativizm mafkurasida oila, din, ahloq, ayrim ijtimoiy guruhlarining imtiyozli o'rni haqidagi eski davrning qadriyatlarining, burjua munosobatlari davrining qadriyatlari — individualizm, bozor erkinligi bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Bu mafkura liberalizm bilan qarama - qarshi turib Fapb mamlakatlarining ommaviy ongiga katta ta'sir o'tkazadi.

Hozirgi zamonning eng ko'p tarqalgan va ta'sirli mafkuralaridan biri — sotsial - demokratiyadir. Bu mafkura XIX asrning oxirida nemis mutafakkirlari va jamoat arboblari K. Kautskiy va E. Bernshteyn tomonidan asoslab berildi. Sotsial — demokratiya mafkurasi ijtimoiy mohiyatiga ko'ra islohotchi oqimdir. Unga binoan sotsializmga sinfiy kurash orqali, inqilobiy yo'l bilan emas, balki tinch, evolyutsion yo'l bilan — burjua jamiyatni asta sekin isloh qilish bilan o'tiladi. Sotsial - demokratlar bu ko'rsatmalarni amalga oshirishni davlatning jamiyat iqtisodiy hayotiga faol aralashishni, daromadlarni yo'qsillar foydasiga qayta taqsimlash, iqtisodiyotning davlat sektorini va ko'plab davlat ijtimoiy dasturlarini rivojlantirish bilan bog'laydilar.

Jahonda sotsial — demokratiya mafkurasi negizida turli — tuman "sotsializm modellari" shakllandi. Bular ichida Shved va German modeli eng ko'p obro' qozondi. Germaniya va Shvetsiyada sotsial - demokratik partiyalar boshqaruvi davrida hayotning yuqori darajasi va sifatiga erishildi.

Ammo, 80 — yillarning oxirida bu mamlakatlarning iqtisodiyotida davlat monopoliyasi va byurokratizm, xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirishning pasayishi bilan bog'liq bo'lgan salbiy tendentsiyalar kuchaydi. Bu tendentsiyalar ushbu mamlakatlarning taraqqiyot sur'atlarini pasayishiga olib keldi. Natijada, sotsial - demokratlar ko'pchilik saylovchilar tomonidan qo'llab — quvvatlanmadi va hokimiyatni konservativ mafkura vakillariga berishga majbur bo'ldilar. 90 — yillarning oxiriga kelib sotsial - demokratlar saylovlarda g'alaba qozonib yana hokimiyatni konservatorlardan qaytarib oldilar.

Shunday qilib, sotsial — demokratiya hozirgi zamonning eng ko'p tarqalgan ta'sirchan mafkuralaridan biri hisoblanadi. U ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish yo'li bilan jamiyatni sotsialistik asosda qayta ko'rishni va xalqning farovonligiga erishishni ko'zda tutadi.

Hozirgi zamonning mafkuralari qatorida milliy mafkuralar muhim o'rinni egallaydi. Ular kelib chiqishiga, mazmun — mohiyatiga ko'ra boshqa mafkuralardan farq qiladi.

Birinchidan, milliy mafkuralar dunyo mustamlakachilik sistemasining emirilishi, yosh mustaqil milliy davlatlarning tashkil, topishi vakillarni qaramlik doirasidan chiqarish, rivojlantirish zaruriyati bilan maydonga keldi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida /arbiy Evropa milliy hayotning uyg'onishini va milliy mafkuralarning gurkirab rivojlanishini o'z boshidan kechirgan edi. U hozirgi kunga kelib bu tendentsiyalar sobiq SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatlar o'rnida tashkil topgan respublikalarda yuz bermoqda.

Ikkinchidan, milliy mafkuralar faqat ayrim ijtimoiy, irqiy, etnik guruhning, halqning manfaatigina emas, balki mustaqillik uchun, milliy hayotni rivojlantirish uchun kurash olib borayotgan xalqlarning dunyoda tutgan o'rnini, turmush tarzini, orzu — umidlarini, intilishlarini, manfaatlarini aks ettiradi.

Uchinchidan, milliy mafkuralar u yoki bu xalqlar qaramligining ob'ektiv negizlarini, ularni bartaraf etish va xaqiqiy mustaqillikka erishish yo'llarini ochib beradi.

Turtinchidan, milliy mafkuralar yosh, mustaqil davlatlar xalqlarining o'zligini anglashga, qaramlik doirasidan chiqishga, ularning chinakamiga erkin bo'lishiga, jahon hamjamiyatida munosib o'rnini topishga yordam beradi.

Albatta, milliy mafkuralarning barchasi bir xil emas. Ularning ichida reaksion, sohta tabiatga ega bulgan, u yoki bu xalq uchun alohida sharoit yaratishga da'vo qiladigan mafkuralar ham uchrab turadi.

Biroq, milliy mafkuralarning aksariyati xalqlarning xaqiqiy orzu — umidlarini, intilishlarini aks ettiradi. Ular yosh davlatlarning xalqlariga qaramlik asoratlarini bartaraf etish va mustaqillikni mustahkamlash yo'llarini ko'rsatib g'oyaviy bayroq bo'lib xizmat — qiladi.

Milliy istiqlol mafkurasini O'zbekistonni ham chetlab o'tgani yo'k. Bu yurtida ham milliy mafkura o'zining munosib o'rnini va mavqegini egallamoqda.

XX asrning oxirida O'zbekistonda ham boshqa sobiq sovet respublikalaridagi singari kommunistik mafkuraning inqirozga yuz tutishi jamiyatning mutlaqo yangi, milliy istiqlol mafkurasini ishlab chiqishni taqova qildi. Bu mafkurani yaratish va hayotga tadbiiq etish O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va ziyolilari zimmasiga tushdi. Ularning ulkan va fidokorona mehnati tufayli O'zbekiston o'z milliy istiqlol mafkurasiga ega bo'ldi.

O'zbekiston milliy istiqlol mafkurasining yaratilishi va uni xalqning ongiga singdirish ishida Prezident I.A.Karimovning xizmatlari benihoya kattadir. Uning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» va boshqa asarlarida milliy istiqlol mafkurasining bosh va asosiy g'oyalari nazariy asoslab beriladi.

Prezident I.A. Karimov o'z asarlarida eng avvalo, mustabid sho'ro tuzumidan demokratik tuzumga o'tish, qaramlik va tobelikka, biqqlik va qoloqlikka barham berish va ozod va erkin, obod va farovon hayotga erishish haqidagi g'oyani olg'a suradi. Bu g'oya milliy istiqlol mafkurasining o'zak qismini tashkil etadi.

Prezident I.A.Karimov o'z asarlarida O'zbekistonda ozod va obod hayotga erishish g'oyasini olg'a surish bilan cheklanib qolmaydi. U ozod va obod hayotni real voqeelikka aylantirishdagi to'siqlar va ularni xal qilish yo'llarini ham belgilab beradi.

ikkinchidan, Prezident I.A. Karimov o'z asarlarida, siyosiy hayotda bir partiyaning tanho hukmronligiga uzil—kesil barham beri shva haqiqiy ko'p partiyaviylik muhiti, siyosiy raqobat maydonini qaror toptirish:

uchinchidan, iqtisodiy hayotda davlt mulkining yakka hokimligiga to'la-to'kis barham berish va mulkning xilma-xilligiga, har bir kishining mulk sohibi bo'lishiligiga erishish;

to'rtinchidan, ma'naviy hayotda yakka mafkuraning hukmronligiga qat'iy chek qo'yish va fikrlarning erkinligi, xilma-xilligiga erishish;

beshinchidan, demokratiyaga — ozod va obod hayotga «inqilobiy» sakrashlarsiz, ur — yiqit, to's — to'polonlarsiz, evolyutsion, ya'ni islohotlar yo'li bilan bosqichma — bosqich o'tish haqidagi g'oyalarni ham olg'a suradi. Bu g'oyalar milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov asarlarida nazariy asoslab berilgan milliy istiqlol mafkurasining bosh va asosiy g'oyalari ana shulardan iborat. Bu g'oyalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilishlar siyosatning nazariy asosini, tag — zaminini tashkil etadi. Ayni, mana shu g'oyalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mafkuraviy negizi bo'lib xizmat qiladi.

Milliy istiqlol mafkurasini g'oyalarni ishlab chiqilishi mamlakatimiz hayotida olamshumul — tarixiy ahamiyatga egadir. Ular mavhum jamiyat, xalq chun emas, balki O'zbekiston xalqi uchun, uning erki, baxt-saodati uchun xizmat qilmoqda.

Milliy istiqlol mafkurasining g'oyalari O'zbekistonda real voqelikka aylanmoqda: ko'p partiyaviylikka asoslangan yangi, demokrvtik siyosiy tizim yaratilmoqda; ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlari shakllantirilmoqda; sog'lom va barkamol avlod tarbiyalanib voyaga etkazilmoqda. Aynan, milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarining ishlab chiqilishi va hayotga tadbiiq etilishi tufayli yurtimizda ijtimoiy barqarorlik, tinchlik – totuvlik va osoyishtalik ta'minlanmoqda.

Xullas, O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi – hozirgi zamonning aksil inqilobiiy, bunyodkor mafkuralari qatoridan o'z o'rnini topmoqda. U ilg'or mamlakatlardagi mafkuralar singari Vatan ravnaqi, el — yurt tinchligi, xalq farovonligiga xizmat qilmoqda.

Hozirgi zamonda yuqorida e'tirof etilgan siyosiy mafkuralardan tashqari o'z ta'sir kuchiga ega bo'lgagn boshqa mafkuralar ham mavjud. Bularga: etnosiiyosiiy, ekologik siyosiiy mafkuralar kiradi.

Ekologik siyosiiy mafkuralar urushdan keyingi yillarda vujudga keldi va 70 — 80 yillarda keng rivoj topdi. Bunda rivojlangan mamlakatlardagi og'ir ekologik vaziyat sabab bo'ldi.

Ekologik siyosiiy mafkuralar inson yashaydigan atrof- muhitni himoya qilishni, kerakli qonunlar va qarorlarni qabul qilish uchun o'zlarining hukumat va qonun chiqaruvchi organlariga ta'sir ko'rsatish orqali ekologiiyani yaxshilashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Hozirgi vaqtda bu oqimlar ko'plab mamlakatlarning parlamentlari va hukumatlarida o'zlarining vakillariga ega.

Etnosiiyosiiy mafkuralar keyingi yillarda nafaqat rivojlanayotgan davlatlarda, balki rivojlangan (Buyuk Britaniya, Ispaniya, Belgiya) mamlakatlarda ham ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Yugoslaviya, Chexoslovakiya, postsovet respublikalarida etnosiiyosiiy mafkuralar keng qanot yoydi.

Etnosiiyosiiy mafkuralarning ma'nosi kamsonli xalqlarning o'z davlatchiligini qo'lga kiritish va shu bilan o'zlarining o'ziga xosligi, ya'ni tili, madaniyati, an'analarini saqlab qolish uchun qulay sharoitlarni yaratishga bo'lgan intilishlardan iboratdir. Bu mafkuralarga jahondagi integratsiya jarayoni va banalminallashuv qarama — qarshi turadi.

Hozirgi zamonning mafkuralari faqat mo"tadil, bunyodkor mafkuralar bilan cheklanmaydi, balki radikal, buzg'unchi mafkuralarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Ana shunday mafkuralardan biri — sotsializm mafkurasidir. Bu mafkura XIX asrda proletariat sinfi manfaatlarining ifodachisi sifatida maydonga keldi.

Sotsializm tenglik, ijtimoiy adolat, umumiiy manfaatlarning shaxsiiy manfaatlardan ustunligiga asoslangan jamiyat xaqidagi g'oya sifatida dastavval qadimgi dunyoda paydo bo'lgan, ilk xristian jamoalarining hayoti uning negizida qurilgan.

Biroq, qadimgi dunyoda sotsializm g'oyaviiy oqim sifatida shakllanmagan edi. U yangi zamonda T. Mor, T. Kampanella, R.Ouen, Sh.Fure, A.Sen — Simon asarlarida nazariiy jihatdan ishlab chiqildi.

Sotsializm proletariatning mafkurasi sifatida nemis mutafakkirlari K. Marks va F. Engels tomonidan asoslab berildi. Bu mafkura marksizm deb nom oldi.

Marksizm mafkurasi bo'yicha tenglik va ijtimoiy adolatga kapitalizm da emas, balki sotsializm va kommunistizm da erishiladi, unga inqilobiiy yo'l bilan, proletariat diktaturasini o'rnatish orqali boriladi. Bu mafkuraga binoan sotsializm ga dunyoning rivojlangan mamlakatlari birdaniga o'tadi.

XX asrning boshlarida marksizm bir — biriga qarama - qarshi ikki g'oyaviiy oqimga: leninizm va sotsial - demokratiyaga ajralib ketdi.

Leninizm Rossiyada V.I.Lenin va uning tarafdorlari tomonidan asoslab berildi. Bu mafkuraga binoan sotsializm ga dunyoning rivojlangan mamlakatlari da birdaniga emas, balki kapitalizm ning "zaif xalqasi" hisoblangan, alohida olingan bir mamlakatda, inkilobiiy yo'l bilan — burjua davlat mashinasini sindirib tashlash va proletariat diktaturasini o'rnatish, xususi mulkni tutatish va uni ijtimoiy (davlat) mulkka aylantirish yo'li bilan o'tiladi.

Leninizm mafkurasi asosida SSSR va bir qator /arbiy Evropa mamlakatlari da sotsializm qurish tajribasi olib borildi. Biroq, bu tajriba samarasiz bo'lib chiqdi va xalq ishonchini

oqlamadi. Natijada leninizm XX asrning 90 — yillariga kelib siyosiy mafkura sifatida e'tibordan chetda qoldi va amal qilishdan to'xtadi.

Hozirgi zamonning tajovuzkor, buzg'unchi mafkuralaridan biri — fashizmdir. U XX asrning 20 — 30 yillarida /arbiy Evropada urushdan keyingi og'ir ijtimoiy — siyosiy vaziyatdan, chuqur iqtisodiy inqirozlardan chiqish yo'llarini ko'rsatuvchi, milliy tiklanish maqsadi atrofida, turli ijtimoiy guruhlarni birlashtiruvchi va jipslashtiruvchi g'oya sifatida maydonga keldi.

Fashizmning asosiy qoidalari Italiya sotsialistlari so'l qanotining sobiq etakchisi. B. Mussolini va nemis siyosiy arbobi A. Gitler tomonidan asoslab berilgan. Ular muayyan sinflar va ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi liberalizm, konservatizm, sotsializmdan farqli o'laroq, irqiy afzallik, milliy tiklanish va birlik g'oyasiga tayandilar.

Fashizmning siyosiy mafkura sifatidagi nazariy negizini rasizm va elitarizm — u yoki bu irqiy, etnik guruhning, xalqning dunyoda boshqalar ustidan afzalligi, uning o'ziga — xos tarixiy vazifasi xaqidagi g'oya tashkil etadi. Xususan, German fashizmi oriylarni (nemislar, inglizlar, shvedlar, norvegiyaliklar, daniyaliklarni) dunyoda hammadan ustun turuvchi va tartib o'rnatuvchi, "madaniyat yaratuvchi irq" deb tasdiqlaydi. U slavyanlar va Shark, Lotin Amerikasidagi ayrim davlatlarning xalqlarini "madaniyatni qo'llab — quvvatlovchi" irqqlar qatoriga qo'yib, ularning yashaydigan makonini qisqartirishni va "madaniyatni emiruvchi" xalqlarni (qora tanlilar, yaxudiylar, lo'lilarni) ayamadan, shafqatsiz kirib tashlashni targ'ib etadi). Irqning, millatning bir butunligini, yahlitligini, uning taraqqiyotini ta'minlash uchun hokimiyatning barcha imkoniyatlaridan, har qanday vositalaridan foydalanishini e'lon qiladi. Shu sababli fashizm irqiy — etnik manfaatlar yo'lida davlatning agresiv xarakatini, umuminsoniy ahlok me'yorlarini nazar — pisand qilmasdan bosib o'tishini oqlaydi.

Shuningdek, fashizm mafkurasida fyurerizm printsipi Muhim o'rinni egallaydi. Unda fashist partiyalari va davlatlarining etakchilari ijtimoiy tartibni ta'minlash uchun ilohiy qobiliyatga ega bo'lgan, milliy manfaatlarga haddan tashqari sodiq kishilar sifatida kurs atiladi. Shuning uchun ham butun omma, millat o'zining rahbariga so'zsiz itoat etishi talab etiladi.

Fashizm ham boshqa mafkuralar singari faqat mafkuraligicha qolgani yo'k. U ham turli mamlakatlarda amalda o'zining ifodasini topdi. Xususan, fashizm Germaniyada — A. Gitler, Italiyada — B. Mussolini, Ispaniyada — F. Franko boshqaruvlari davrida o'zining eng yorqin, mumtoz namunasida, Portutaliyada — A. Salazar boshqaruvi davrida "yumshoqroq" shaklida gavdalandi.

Fashizm II jahon urushi olovini yoqdi va 50 mln.dan ortiq kishining qirilib ketishiga sabab bo'ldi. Uzbekiston bu ayanchli taqdirdan chetda qolmadi. II jahon urushida qatnashgan mamlakatimiz jangchilaridan 263005 nafari halok bo'ldi, 132670 kishi dom — daraksiz yo'qoldi, 60452 kishi nogiron bo'ldi.

Fashizm mafkurasida turli mamlakatlarda turlicha shakllarda namoyon bo'lishiga qaramay, o'zining ijtimoiy tabiatini o'zgartirgani yo'q. Barcha mamlakatlarda fashizm mafkurasining amalda qo'llanilishi ichki siyosatda totalitarizmga olib keldi. Demokratiya davlat shakli sifatida inkor etildi. Ijtimoiy va shaxsiy hayot ustidan to'laligicha davlat nazorati o'rnatildi.

Fashizm g'oyalarining amalda qo'llanilishi tashqi siyosatda ekspansionizmga olib keldi. Fashistlar ko'p davlatlar va xalqlarni bo'ysundirishga intildilar. Bu hol fashizm mafkurasiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmali.

Hozirgi bosqichda fashizm mafkurasida o'zining ilgarigi o'rni va mavqe'ni yo'qotdi. Endilikda u ilgarigidek ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega emas.

Ammo, bugungi kunda ham fashizm mafkura sifatida amal qilishdan to'xtangani yo'q. Uning asoratlari hamon turli mamlakatlarda u yoki bu irqiy, etnik, sinfiy va boshqa ijtimoiy birlikning afzalligini tasdiqlovchi rasizm, antisemitizm va boshqa siyosiy ta'limotlar, harakatlar ko'rinishida uchray turadi.

Xulosa qilib aytganda, fashizm — hozirgi zamonning tajovuzkor, buzg'unchi mafkuralaridan biri hisoblanadi. Bu mafkura jamiyatni siyosiy o'zgartirishda u yoki bu irqiy - etnik guruhning, xalqning afzalligini, uning o'ziga xos urni va roli ni tasdiklaydi, bu yo'lida har qanday vositalardan foydalanishni oqlaydi va ko'zda tutadi.

Hozirgi zamonning radikal, buzg'unchi mafkuralaridan yana biri — diniy ekstremizm va fundamentalizmdir. Bu mafkuraviy oqimlarning kelib chiqishi uzoq tarixiy o'tmishga ega bo'lsa-da, faqat XX asrning oxiriga kelib keng quloch yozdi. Buning sababi shundan iboratki, keyingi o'n yilliklar mobayyiida dunyoda ro'y bergan voqealar - ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tangliklar, kommunizm tizimining emirilishi diniy ekstremizm va fundamentalizmning jonlanishi va kuchayishiga imkon berdi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida, jumladan sobiq sovet respublikalarida turli—tuman ko'rinishlaridagi diniy- ekstremistik oqimlar paydo bo'ldilar. Bu oqimlar islomni qayta tiklash shiori ostida g'arazli, tajovuzkor maqsadlarni—miliy davlatchilikni yo'q qilish va yagona halifalikni barpo etish g'oyasini ilgari surdilar.

Aqidaparastlar demokratiyani kufr nizomi, halifalikni esa eng mukammal, ijtimoiy ziddiyatlarni xal qilishning universal vositasi, deb izohlaydilar. Ular yagona islom davlatini barpo etish yo'lida umuminsoniy qadriyatlarni, me'yorlarni nazar — pisand qilmaydilar, noisloviy dunyo islomiy dunyo bilan yonma — yon va u bilan teng yashash huquqini inkor etadilar va unga qarshi jihodiy harakatda barcha imkoniyatlardan, har qanday vositalardan foydalanishni taklif qiladilar.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmning davlatchilik masalalariga bunday mas'uliyatsizlarcha yondoshuvi o'ta xavfli ekanligi va yomon oqibatlariga olib kelishligi hech kimga sir emas. Bunday intilishlarning oldi olinmasa insoniyatning diniy asosda qarama — qarshi tomonlarga bo'linib ketishiga, "tsivilizatsiyalar to'qnashuvi", deb ataladigan hodisaning yuzaga kelishiga va misli ko'rilmagan fojialarga sabab bo'lishi mumkin.

Afsuski, diniy ekstremizm va fundamentalizm Markaziy Osiyoning yirik davlatlaridan biri bo'lgan O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Bu o'lkada ham so'nggi yillarda "Vahobiylilik", "Xizbut — tahrir" (ozodlik) kabi diniy — ekstremistik oqimlar paydo bo'ldi.

Mazkur oqimlar O'zbekistonda mavjud konstitutsiyaviy demokratik tuzumni ag'darib tashlash va halifalikni o'rnatish va uning vositasida islom tartib — taomillarini hayotga tadbir etish g'oyalarini ko'tarib chiqdilar. Ularning fikricha, go'yoki O'zbekistondagi musulmon jamoalari ham islomiy qiyofalarni yo'qotgan va dinsiz, johil davlatga aylangan emish. Shuning uchun ham bu davlatni buzib o'zlari xoxlagan xalifalikni o'rnatish zarur emish.

Aqidaparastlarning fikricha, xalifalik — O'zbekistonda va boshqa mamlakatlarda yashovchi xalqlar manfaatlarini samarali himoya qilishga qodir bo'lgan birdan bir yagona davlat shakli emish. U Ushbu xalqlarga to'g'ri, haqiqat yo'lini ko'rsatib, ularni ozod va obod, erkin va farovon islomiy hayotga olib borar emish.

Diniy fundamentalistlarning islom vujudga kela boshlagan dastlabki shart — sharoitlarga qaytish, xalifalikni o'rnatish haqidagi g'oyasini asosli va real, deb hisoblab bo'lmaydi. Bu g'oya kommunistik, fashistik g'oyalar singari g'irt xomhayoldir.

Aslini olganda xalifalik — O'zbekistonda va boshqa mamlakatlarda yashovchi xalqlarni ozod va obod, erkin va farovon hayotga olib borishdan olis. U o'z mohiyatiga ko'ra xalqimizning va boshqa xalqlarning uzoq va yaqin o'tmishida o'z boshidan kechirgan mustabid davlatlarning boshqacha, niqoblangan, islomiy libosga burkangan ko'rinishidan boshqa narsa emas.

Xalifalik insonga hech qachon hur fiqrlash va vijdon erkinligini bermagan va bera olmaydi. Dininiy fundamentalistlarning xalifalikni o'rnatish haqidagi g'oyasi odamlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itishdan boshqa narsa emas. Bunday g'oya eski mustabid tuzumga, qullikka, qaramlikka qaytishning niqoblangan g'oyasi demakdir.

Ekstremistik oqimlar O'zbekistonda «bo'lajak islomiy tartib» ni o'rnatish uchun «haqiqiy» musulmonlar «sohta» musulmonlarga qarshi har qanday vositalardan foydalanishlari, «jihod» e'lon qilishlari zarur, deb hisoblaydilar. Bu oqimlar mamlakat aholisini, millatni qarama - qarshi guruhlariga — «haqiqiy» va «sohta» musulmonlarga sun'iy ravishda bo'lib tashlashni va «sohta» musulmonlarni «kofirlar» deb atashni, ularga nisbatan murosasizlik, zo'ravonlik yo'lini tutishni ilgari suradilar.

Diniy fundamentalizmning O'zbekistonda va boshqa mamlakatlarda «bo'lajak islomiy tartib» ni o'rnatish uchun har qanday vositalardan foydalanish, «jihod» e'lon qilish xaqidagi

g'oyalarini ham asosli va real deb hisoblab bo'lmaydi. Bu g'oya ham ob'ektiv voqelikdan yiroqdir.

Kuch ishlatish, majburlash, jihodiy harakat qilish, umuman biror bir kishiga ozor etkazish — musulmonlarning hayot yo'li va usuli emas. Bu yo'l va usul kommunistlar, fashistlar va boshqa yovuz kuchlarning hayot yo'li va usulidir. Ular mana shu yo'l orqali o'z maqsadlariga erishmoqchi bo'lganlar.

Aqidaparastlarning kuch ishlatish, majburlash, jihodiy harakat qilish xaqidagi g'oyasi musulmonchilikka, o'zbekchilikka, umuman sog'lom aqlga zid bo'lgan g'oyadir. Bu g'oya g'arazli maqsadni ro'yobga chiqarish uchun dinni niqob qilib olishdan boshqa narsa emasdir.

Shunday qilib, yuqorida zikr etilgan fikrlar sotsializm, fashizm, diniy ekstremizm va fundamentalizmning jargon hamjamiyati va mamlakatimiz uchun havfli, buzg'unchi oqimlar ekanligini ko'rsatadi. Buni yoshlarimiz doimo esda tutishlari, hushyor bo'lishlari va ularning ildizlarini bartaraf etishda o'zlarining burch va mas'uliyatlarini unutmasliklari zarur.

SAVOLLAR

1. Mafkuraga jamiyatda bo'lgan real ehtiyoj nima bilan belgilanadi?

2. Mafkuralar xaqidagi ma'lumotlarga asosanib ularga munosabat bildiring.

15 — BOB. SIYO SIY PSIXOLOGIYA

Siyosat olamini bilish, uni o'zlashtirish nafaqat siyosiy mafkurani, balki siyosiy psixologiyani o'rganishni ham taqazo etadi. Agar siyosiy psixologiya o'rganilmasdan, nazardan chetda qolar ekan siyosat olamini bilish, uni o'zlashtirish qiyin bo'ladi.

15.1. Siyosiy psixologiyaning tabiati

Siyosiy psixologiya — siyosiy ongning o'ziga xos shaklidir. U siyosiy voqelikni aks ettirish xususiyatlariga ko'ra siyosiy mafkuradan farq qiladi.

Siyosiy psixologiya o'z tabiatiga ko'ra siyosiy voqelikni emotsional va xissiy tarzda idrok etadigan siyosiy ong shaklidir. Agar siyosiy mafkurada siyosiy ongning nazariy elementlari ustuvor bo'lsa, siyosiy psixologiyada siyosiy ongning emotsional, xissiy elementlari (sezgilar va tasavvurlar) ustuvor rol o'ynaydi. Siyosiy psixologiya siyosatni xissiy va emotsional tarzda aks ettirib siyosiy ongning o'ziga xos "amaliy" darajasi sifatida maydonga chiqadi. Siyosiy ob'ektlarni kishilarning bevosita manfaatlari va siyosiy tajribasi ko'zgusida aks ettirish - uning farq qiluvchi belgisidir.

Siyosiy psixologiya o'z tabiatiga ko'ra sistemalashmagan va stixiyada tarzda shakllanadigan mantiqan noizchil cheklangan siyosiy tafakkur shaklidir. Agar siyosiy mafkura siyosiy voqelikni sistemali mantiqan izchil ifoda etib ob'ektiv bilimga da'volik qilsa, siyosiy psixologiya esa siyosiy voqelikning emotsional, xissiy tomonlarini, tashqi shakllari va ko'rinishlarinigina idrok etadi. U siyosiy xodisalarning bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan belgilari hakida fikr yuritishga qodir emas. Shuning uchun ham siyosiy psixologiya o'z tabiatiga ko'ra cheklangan siyosiy tafakkur shakli xisoblanadi.

Siyosiy psixologiya siyosiy borliqning hayolan tugal kiyofasini yaratishga, unda etishmayotgan bo'g'inlarini to'qiishga, qo'shishga intiladi. Bu intilish aholi orasida turli mish — mishlar va afsonalar paydo bo'lishiga turtki beradi. Bu fanda "kauzal atributsiya" (F.Xayder) deb nom olgan.

Siyosiy psixologiya o'z tabiatiga ko'ra ziddiyatli siyosiy ong shaklidir. U mafkuradan fark qilib, odamlarning siyosiy qarashlarini qandaydir umumiy ko'rsatkichga moslashtirishga intilmaydi va siyosiy borliqni qanday bo'lsa xuddi shunday, uning butun xilma — xilligida aks ettirib, bir vaqtning o'zida turli — tuman va qarama - qarshi hissiyotlarning yonma — yon mavjud bo'lishini nazarda tutadi: bu burch va mas'uliyatdan ozod bo'lishga intilish, o'zini hurmat qilish ehtiyoji va kuchli insonga itoat etish hohish — istagi, yolg'izlik hissi, hokimiyatni qoralash va unga yaqinroq bo'lish istagi va hokazolar. Mutahassislar fikricha, faqat yuqori malakali siyosatchilar qatlami va oddiy fuqarolarning taxminan uchdan bir qismida bilimga va uning bosh g'oyasiga tobelik darajasi balanddir.

Siyosiy psixologiyaning ziddiyatligiga ijtimoiy hayotdan ko'plab misollarni keltirish mumkin. Masalan sotsiologik tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik kishilar o'z

hayotini, u yoki bu sohadan olib borilayotgan ishlarni ijobiy baholaganligi holda, qolganlari esa o'z hayotidan, rahbarlar tomonidan qilinayotgan sa'yi-harakatdlardan qoniqmayotganliklarini bildiradilar.

Siyosiy psixologiya tabiatining ziddiyatlilikligi inson va jamiyat tabiati ziddiyatlilikligining ifodasidir. Qandaydir axborot yoki ijtimoiy xodisa ta'sirida inson o'z xisssiyotlarini yo'nalishini tez o'rganishi mumkin. Ammo, xisssiy ziddiyatlik ko'pincha siyosiy hulq-atvor yo'nalishini ba'zan kuchaytiruvchi, ba'zan esa zayiflashtiruvchi doimiy omil vazifasini o'taydi.

Siyosiy psixologiyaning ziddiyatli tabiatini belgilovchi sabablaridan biri – uning murakkab ichki tuzilishidir. Unda anglangan – oqilona va anglanilmagan – nooqilona ma'naviy elementlar mavjud bo'ladi.

Inson siyosiy xodisalarining mohiyati va sabablarini qanchalik kam tushunsa, nooqilona mexanizmlarning roli shunchalik ortadi. Muayyan sharoitda fiziologik xisssiyotlar hulq-atvorni baholovchi va tartibga soluvchi boshqa barcha shakllarni siqib chiqarishi mumkin. Masalan, ochlik yoki qo'rquv isyon, inqiloblarini keltirib chiqaruvchi omil bo'lishi mumkin. Ammo, ayrim xolatlarda ijtimoiy xisssiyotlar nooqilona intilishlarining ta'sirini bartaraf etishga qodir bo'ladi. Masalan, tartib, intizom, qattiqqo'llik bilan boshqariladigan jamoaga jipslashish ehtiyojning dolzarbligi kishilarga qo'rquv, ishonchsizlik, tushkunlikni engishga yordam beradi.

Tarixdan ma'lumki, ko'plab siyosiy tizimlar va hukmdorlar kishilarda nooqilona xisssiyotlarni hokimiyat va mafkuraga e'tiqodni oshirish uchun atayin qo'zg'aganlar.

Xususan, natsistlar, shu maqsada turli-tuman teatrlashgan tamoshalar, tungi mash'alali yurishlar, murakkab siyosiy ramzlarni qo'llaganlar. Bular o'zining sirililigi va mahorati bilan fuqarolarning fyurer va reyxga beixtiyor sajda qilishini shakllantirishga yordam berishni ko'zlagan edi. Botiniy xisssiyotlar va emotsiyalarni faollashtirish maqsadlariga hokimiyatning jamiyatda haddan ziyod ko'p monumental xaykallarning barpo etilishi, davlat muassasalarining ulug'vor arxitekturasini, mo'l — ko'l siyosiy tantana va marosimlarning o'tkazilishi, hamda fuqarolarning betarafligini ta'minlash bo'yicha boshqa hatti — harakatlari ham xizmat qiladi.

Siyosiy psixologiyaning ziddiyatli tabiati o'ziga xos siyosat sub'ekti olomon xodisasida ifodalandi. Bu xodisani qandaydir g'oyalar emas, balki chuqur xis qilinayotgan emotsional omil (masalan, g'azab) xarakatga keltiradi. U ma'nosizligi, ayovsizligi, mas'uliyatsizligi, qo'polligi, anarxizmi bilan ajralib turadi.

Olomonlar vazmin xarakatlar uchun vujudga kelmaydi. Ular o'zining keskin ko'rinishlarida yoki jinoiy, yoki qahramonona bo'lib isyonlar va vayronagarchiliklarga olib kelishi, yoki zolimlardan xuquq va erkinliklarni talab qilishi mumkin.

Olomon na fikrlashni, na e'tirozni qabul qiladi. Jamoaviy xislar va kayfiyatlar individlar uchun vaqtincha bo'lsa—da ustun bo'lishi ularning siyosiy qarashlarida tanqidiylikning barham topishiga, o'zlarining faoliyati ustidan nazoratning yo'qolishiga olib keladi. Ommaviy kayfiyatlarning yuqumlilikligi kishilarda bo'ysunishga qattiq ehtiyoj tug'diradi, shaxsiy manfaatlar va baholashlardan voz kechishga majbur qiladi. Olomon ichidagi odam faqat "jamoaviy irodaning irodaviy tili" ni tushunadi va "olomon irodasining azaliy qoidalariga ergashib" uning buyrug'iga itoat etadi. Faqat olomondagina inson "o'zi yolg'iz bo'lganda hech kachon yuzaga chiqarmaydigan instinktlarga ergashishi" imkonini beruvchi engib bo'lmas kuch egasiga aylanadi. Olomon shaxssiz bo'lgani uchun u bu instinktlarni jilovlashga kamroq moyildir va shuning uchun o'ziga mas'uliyatni olmaydi.

Shunday qilib, siyosiy psixologiya — individlar va ijtimoiy guruhlarining siyosiy ehtiyojlari va manfaatlari asosida vujudga keladigan izchil bo'lmagan va stixiyali shakllanadigan ziddiyatli siyosiy xisssiyotlar, fikrlar, kayfiyatlar yig'indisidir.

15.2. Siyosiy psixologiyaning tuzilishi va funktsiyalari

Siyosiy psixologiya – xilma – xil va murakkab ichki tuzilishga ega bo'lgan siyosiy ong shaklidir. Uning uchun siyosiy hissiyotlar va emotsiyalar mazmuni belgilovchi ongning individual va guruhsh shakllari alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Insonning boshqa sub'ektlar va hokimiyat institutlari bilan shaxsiy aloqalari natijasida paydo bo'lgan individual psixologik tuzilmalariga quyidagi elementlar: shaxsiy tajriba, individuallashtirgan hissiyotlarning

xususiyatlari, muhitning tashqi chaqiriqlariga hissiy reaksiyalarning o'ziga xosligi, o'z – o'zini taxlil qilish qobiliyati, shaxsiy iroda va xotira xususiyatlari kiradi. Bu elementlar individlar siyosiy xulq - atvorining har qanday shakliga takrorlanmas jilo beradi.

Siyosiy psixologiya uchun ongnig guruhii shakllari, ya'ni u yoki bu sotsial va funktsional guruhlarining tasavvurlari bilan bevositalashgan emotsional – hissiy tuzilmalarining ahamiyati kattadir. Har bir shunday guruh siyosiy hodisalarga o'ziga xos hissiy reaksiyasi, o'zining ruhiy temperamenti, xotirasi va an'analari bilan ajralib turadi.

Siyosiy psixologiyaning guruhii tavsiflarini bayon etish uchun guruhlarining ikki ko'rinishlari xususiyatlari hisobga olinadi. Odatda etakchi guruhii tuzilmalar sifatida kata guruhlar ajratiladi. Ularga sinflar, qatlamlar hududii tuzilmalar, millatlar va hokazolar kiradi. Kichik guruhlar ham alohida ajratilib, bulargakishilarning mikrosotsial birlashmalari, norasmiytuzilmalar, alohida siyosiy assotsiatsiyalar kiradi. Ushbu guruhlar vaqtinchalik yoki doimiy xarakteri bilan, tashkiliy yoki stixiyali aloqalarning ustunligi bilan, maxsus yoki tor maqsadlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Siyosiy psixologiyaning tarkibii qismlari o'zining barqarorligi, emotsional – xissiy reaksiyalarning rasmiyligi bilan ajralib turadi. Uning eng barqaror elementlariga odatda sog'lom aql, mentalitet, u yoki bu guruhning psixologik uslubii axloq va qokazolar kiritiladi. Harakatchan, beqaror, rivojlanuvchi, hissiy tuzilmalarning o'zgarishlariga eng sezgir elementlarga esa havotirlanish, kutish va kayfiyat kiritiladi.

Psixologik turlar yoki guruhning ruhiy xususiyati siyosiy muhitning doimiy va tipik chaqiriqlarga mazkur sub'ektlarning standart reaksiyasini uzoq vaqt davomida xulq - atvor va tafakkurning barqaror emotsional standartlari va stereotiplari ko'rinishidagi siyosiy qo'zg'atuvchilarga o'ziga xos ruhiy javoblar ishlab chiqadilar. Bu ruhiy elementlar milliy – madaniy taraqqiyotning u yoki bu xususiyatlarini aniqlashga, rollardan, alohida tarixii davrlardan foydalanishga yordam beradi.

Psixologik beliglar va mexanizmlar barqarorligi turli guruhlar mislulida yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, ko'plab tadqiqotlarda isbotlanishicha, yoshlarga ijtimoiy guruh sifatida hissiy beqarorlik, maksimalizm, yuqori darajada qiziqqonlik, nazorat va o'zini baholash funktsiyalari tizimining tugal shakllanib bo'lmaganligi xosdir. Bunday ruhiy xususiyatlar ularni «qiyin» siyosat sub'ektiga aylantiradi. Yoshlar har xil tuzoqlarga oson ilinib siyosiy chayqovchilik va aldovlarning qurboni bo'ladilar. Ularning intellektual jihatdan rivojlangan qismi – talabalar – doimo erk va adolat idealari uchun siyosiy kurashda faol bo'lib kelganlar.

Psixologik barqaror belgilar millatlarda ham mavjuddir. Bu hissiy mexanizmlar va belgilarning tabiati milliy o'zini – o'zi anglash insonning ijtimoiy namoyon bo'lishida qanday rol o'ynashiga bevosita bog'liq bo'ladi. Negaki, millat qiyofasi shakllanishining bosh psixologik mexanizmi – millatlararo qiyoslashdir. Shuning uchun ona tilini o'rganishda, e'tiqodda, madaniyatda jiddiy cheklanishlarni boshidan o'tkazmagan, shuningdek, millatlararo muloqotda ishtirok etib kelgan kishilar milliy omilni kamdan – kam bo'rttiradilar va boshqa halqLarga nisbatan milliy hurofotlarga kamroq chalingan bo'ladilar.

Va aksincha milliy o'zlikni anglashning u yoki bu sababga ko'ra bo'rttirilishi, milliy hissiyotlarini himoya qilish, bo'shliqni to'ldirish vazifalarini bajarish uchun jalb qilinishi turli millatlar o'rtasidagi farqlarning bo'rttirilishiga, keyinchalik esa o'z millatini haddan tashqarii bo'yab ko'rsatishga va boshqalarning qadr - qimmatini kamaytirishga olib keladi.

Jiddiyroq qilib aytganda, bu asosda misli ko'rilmagan ruhiy ko'tarinlilik «o'z» millati obrazidan ilhomlanish hislari ham shakllanishi mumkin. Lekin, ko'pincha, bu barqaror hissiyotlar oqimida boshqa millatlarga nisbatan ochiqdan – ochiq nafrat shakllanadi.

Siyosiy psixologiyadan barqaror elementlardan tashqari, boshqa harakatchan elementlar ham mavjuddir. Bu – siyosiy kayfiyatdir. Mohiyatiga ko'ra, aholining siyosatga jalb etilganligining hissiy – baholovchi ko'rsatkichi bo'lib uning mavjud siyosiy tartibga va hukmron qadriyatlarga moslashishi darajasini ko'rsatadi.

Odamlarning muayyan hissiy – ruhiy holatini ifoda etib kayfiyatlar turlicha, shu jumladan, yo'nalishiga ko'ra - qarama - qarshi siyosiy xarakatlarini, sub'ektlar va faoliyatining

impulsimligini kuchaytirishi, ijtimoiy guruh va umuman aholining ruhiy birdamligini keltirib chiqarishi mumkin. O'z vaqtida arastu ham muvaffaqiyatli boshqaruv shartlarini qayd etib, xukmdorlar «qo'zg'olon ko'tarayotgan shaxslarning kayfiyatlarini bilishlari kerak, aslida siyosiy beqarorlik va janjallar shular bilan boshlanadi», degan edi. Makiavelli ham «davlatda ro'y beradigan barchaishkalliklarning» sababi kayfiyatlarning har xilligi, deb xisoblaydi va ularning salbiy jihatiga diqqatini qaratadi.

Kayfiyatlar mazmuniga ko'ra asabiy – ruhiy zo'riqishning muayyan holatini, habar reaktsiyasini bildiradi. Bu holda u odamlar ehtiyojlari bilan talablarining, ularning imkoniyatlari hayot va faoliyat sharoitlari bilan mos kelmaganligining u yoki bu darajasini ko'rsatadi. Qisqacha qilib aytganda, bu holat maqsadlarga erishishga imkon beruvchi yoki to'siq bo'luvchi ijtimoiy — siyosiy sharoitlardan qoniqish va qoniqmaslikni anglatadi. O'z tabiatiga ko'ra kayfiyatlar tashqi sharoitlarga ham, sub'ektning ichki xolatiga ham bog'liqdir.

Kayfiyatlar muayyan davriylikka ega bir necha bosqichlarni: shakllanish, burilish, ko'tarilish, orqaga qaytish kabilarni o'z ichiga oladi. Bu davriylik takrorlanishi davomida kayfiyatlar sinusoid ko'rinishini oladi: kutishlar ketidan umidsizlik, undan so'ng qulash yana ko'garilish bilan almashinadi va hokazolar.

Siyosiy rejimlar kayfiyatlarning muhimligini tushunib nafaqat ularning rivojlanishini bashorat qilishga, balki ularni boshqarishga intiladilar. Hokimiyat o'ziga kerakli, kayfiyatlarni vujudga keltirishga harakat qiladi. U buni murakkab manipulyatsiyalarni qo'llash, aholiga axborotlarni o'z iga xos tarzda o'zlash va o'nga notug'riri axborotlar berish yordamida amalga oshiradi. Kayfiyatlardan o'zlarining siyosiy maqsadlarida foydalanishga intilish ayniqsa saylovlar vaqtida yaqqol namoyon bo'ladi. Partiyalar va etakchilarniyg va'dalari kupincha ularning real imkoniyatlari doirasidan chetga chikib ketadi.

Utish davrida siyosiy kayfiyatlar yana ham hilma — hil va ziddiyatli tus oladi. Bu davrda kelajakka ishonch kayfiyati mavjud hodisalarga salbiy munosabatda bulish, utmishini kumsash kayfiyati bilan birlashib ketadi.

Siyosiy psixologiyaning siyosatdagi roli avvalo uning amalga oshiriladigan funktsiyalarida kurinadi. Aynan ushbu funktsiyalar unyng siyosiy jarayonlarga, sub'ektlarning xolatiga, xokimiyat institutlarining amal qilish uslublariga ta'sir kilish va o'zgartirish qobiliyatini ifodalaydi.

Siyosiy psixologiya bilish funktsiyasini bajaradi. U inson tomonidan odilona—mantiliy yul bilan olingan axborotni tuldiribgina qolmaydi, balki uni uzining siyosiy pozitsiyasini tanlashda yangi ma'lumotlar asosida almashtiradi. Bu rol ayniqsa jamiyatda ma'naviy bushliq paydo bulgan inkirozlar sharoitida yorkin kurinadi. Bunday har paytda insonning individual mavqei xissiy baholashlar bilakn tuldiriladi. Boshqa har oitlarda kishilar u yoki bu mavqeini baholashda kupincha xissiyotlarni xisobga olavermaydilar.

Shunga qaramay, bilish funktsiyasi amalga oshirilishining eng tarqalgan pakti oqilona— mantiqiy uslub bilan shaklanadigan axborotni xissiy ma'lumotlar bilan tuldirishdir.

Siyosiy psixologiya moslashish (adaptatsiya) funktsiyasini bajaradi. By funktsiya insonning atrof- muhitga, siyosiy voqelikning moslashishining ta'minlanishini kuzda tutadi.

Siyosiy jarayonlar, xokimiyat institutlari faoliyatining o'zgarishi insondan o'zining siyosiy mavqeini «qayta kurib chiqishni va yangilashni talab qiladi. Bunda inson mazkur jarayonga pozitiv reaktiya qilishi ham, betaraf—konformist munosabatda bulishi ham, negativ reaktiya qilishi ham mumkin.

Insonning atrof—muxitga, siyosiy voqelikka moslashuvi asosan uch turda amalga oshiriladi.

1. Konformizm. Bu moslashuvda inson siyosiy voqealarga tinch va bamaylixotir munosabatda buladi. U kupincha xukmron rejimning xato va kamchiliklarini kurmaydi yoki kursa ham ularga katta ahamiyat bermaydi.

2. Innovatsion. Bu moslashuvda inson siyosiy axvolga mustaqil, sergak va faol munosabatda buladi. U xokimiyatning xato va kamchiliklarni keskin tanqid qiladi.

3. Ritualizm. Bu moslashuvda inson siyosiy voqelikka ramziy va notanqidiy munosabatda bo'ladi. U siyosiy rejimni har tomonlama qulab— quvvatlaydi. Inson. siyosiy voqelikka qanday munosabatda bulmasin, ya'ni kon formistmi, innovatsionistmi, ritualistmi— baribir doimo muxit talablariga moslashadi. U mavjud siyosiy tizimda ham sub'ekt, ham ob'ekt sifatida qatnashadi.

Siyosiy psixologiya motivatsiyalash (tushuntirish) funktsiyasini, ham bajaradi. Bu funktsiya individlar, guruxlar siyosiy xylq atvorning motivlarini, xususiyatlarini, usullarini tushuntiri6 berishni anglatadi.

Siyosiy psixologiyada motivatsiya funktsiyasining zarurligi tarixiy sharoitining o'zgarishi, eski siyosiy xulk-atvor turi hisoblanadi. Bu turga mansub individ davlatda, huquq— tartibotta oqilona va hurmat munosabatida bo'ladi, uning talablarini suzsiz bajaradi.

Deviant xud—atvor—hukmron me'yorlar va tamoyillardan chekinuvchi xyquq—atvor turidir. Bu turga kiruvchi individ hukmron qonun—qoidalarni kupincha mensimaydi, hilma—hil huquqbuzarliklarga yul quyadi.

Siyosiy hayotda ishtirok etish darajasiga qarab siyosiy xulq—atvor an'anaviy va innovatsnon xulk— atvorlarga bulinadi.

An'anaviy xulq—atvor—siyosiy tizimga, xokimiyatga to'liq ishonadigan va unga sust munosabatda bo'ladigan, hukmron qonun—qoidalarni kur— kurona bajaradigan xylq— atvor turidir. Bu turga kiruvchi individning siyosat hakidagi bilimlari va tasavvurlari juda tor va cheklangan bo'ladi. U hokimiyatta, siyosiy tizimga o'z—o'zidan mavjud va unga bog'liq bulmagan hodisa sifatida qaraydi.

Innovatsion xulq—atvor—siyosiy faollikning ijodiy shakllari ustunlik qiladigan xyquq— atvor turidir. Bu turga mansub individ xarakatchan, ijtimoiy—siyosiy vaziyatga mos uzgaruvchan xissiyotlar tizimiga egadir. U ijtimoiy burchini yaxshi tushunadi va hukuklarini ruyobga chiqarishga harakat qiladi, davlat institutlari qarorlarining mazmuni va xarakteriga ta'sir qilishga intiladi.

Siyosiy xulq—atvorning turlarga ajralishi yuqoridagilar bilan cheklanmaydi. U yunalishiga kura konstruktiv va ekstremistik xulq—atvorlarga ham ajraladi.

Konstruktiv xyquq—atvor—umuminsoniy, demokratik qadriyatlar va me'yorlarga asoslanadigan, maqsad va vazifalarni tinch va samarali amalga oshirishga qodir bulgan xyquq— atvor turi hi soblanadi. Bu turga mansub individ, rypyh muammolarni tadbirkorlik, hushyorlik, muloxazak orlik, murosayu—madora va konsensus asosida hal etishga intiladi.

Ekstremistik xulaq—atvor—totalitar qadriyatlar va me'yorlarga asoslanadigan, mavjud muammolarni tinch va samarali hal qilishga, tashabbus va mulohazakorlik kursatishga qodir bulmagan hulk —atvor turidir. Bu turdagi

SAVOLLAR

1. Siyosiy psixologiyaning qaysi qirralari siyosiy nazariyada urganiladi, nima uchu i?
2. Siyosiy kayfiyatlarni boshqarishning ahamiyati qanday?
3. O'zbek fuqarolarining siyosiy xulq—atvori qoshidagi mulohazalarga Siz qanday kupichcha kiritar edingiz?

VI BO'LIM. SIYO SIY JARAYoNLAR

16 — BOB. SIESIY JARAYoN

16.1. Siyosiy jarayon tushunchasi va tarkibi

Siyosat turli shakllarda namoyon bo'ladi. Uning xilma-xil jihatlari va tarkibiy qismlari mavjud. Siyosiy nazariyada siyosatning shakli, mazmuni va munosabatlarini (jarayon) ajratish qabul qilingan.

Siyosatning shaklini uning tashkiliy tuzilishi, institutlar, me'yorlar hosil qiladi va ular yordamida siyosatning barqarorligi va muvozanati ta'minlanadi. Siyosatning mazmunini uning maqsadlari, qadriyatlari, muammolari, siyosiy qarorlarni qabul qilish vositalari va mexanizmlari tashkil etadi. Siyosiy jarayonlarda siyosat turli ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, individlar

munosabati sifatida namoyon bo'ladi va siyosiy faoliyatning murakkab, kup sub'ektki va ixtilofli tabiati ochib beriladi.

Siyosiy jarayonlar ta'dilida biz hokimiyatga intiluvchi yoki siyosiy qarorlarga ta'sir etkazishni istayotgan sub'ektklar, elitalar, manfaat guruhlar, partiyalar, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, ixtilofli manfaatlar, mafkuralar, maqqsadlar, qadriyatlar ularni kelishtirish usullarini urganamiz.

Jamiyatning siyosiy tizimi—tarkibiy qismlari uzaro doimiy aloqadorlikda bulgan yagona, yaxlit birlik. Kuning uchun ham tizimli taxlilda siyosiy tizim yoki uning elementlari doimo harakatda, aloqadorlikda, uzviylikda olib qaraladi. Ya'ni jamiyat siyosiy tizimi jarayon sifatida o'rganiladi.

"Jarayon" tushunchasi biror yo'nalishga ega harakat, holatlarning izchil almashinishi, biror natijaga erishishga qaratilgan faoliyatlar birligini anglatadi.

O'z navbatida "siyosiy jarayon" tushunchasini siyosiy holatlar va xodisalarining ichki bog'liqlikka ega zanjiri, siyosat sub'ektklarining hokimiyatga qaratilgan xarakatlari birligi, deb ta'riflash maqqsadga muvofiq deb xisoblaymiz.

Bu holda siyosiy jarayonning uch xususiyatiga e'tibor qaratilyapti:

Birinchidan, siyosiy jarayonni tashkil etuvchi xodisalar, vaziyatlar, sabablar — oqibatlarining o'zaro bog'likligi, biri — ikkinchisini taqazo etishi;

Ikkinchidan, siyosiy jarayon siyosatda ishtirok etuvchi barcha sub'ektklar faoliyati natijasi ekanligi;

Uchinchidai, siyosiy jarayon siyosiy hokimiyat tizimiga karatilgan faoliyatdan iborat ekanligi.

Shunday qilib, siyosiy jarayoi — siyosiy tizim faoliyatining shakli. Ayni vaqtda, nazariy planda, "siyosiy jarayon" kategoriyasi siyosiy tizimlarni ularning o'sishi, o'zgarishida o'rganuvchi asbtrakt — nazariy modeldir.

"Jarayon" tushunchasining mohiyatini har qanday xarakat emas, ichki o'zaro bog'liqlikka ega, o'zaro bir — biriga ta'sir etuvchi, bu ta'sir natijasida bir — birini o'zgartiruvchi va birgalikda yaxlit tizimni tashkil etuvchi integrativ xarakat tashkil etadi. Siyosiy jarayon jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi va, o'z navbatida, bu sohalariga muhim ta'sir ko'rsatadi.

- siyosiy jarayon tarkibi. • siyosiy munosabatlar.
- siyosiy jarayon sub'ektklari.
- siyosiy xulq — atvor va siyosiy ishtirok.

Siyosiy munosabatlar — sub'ektklarning hokimiyat doirasidagi siyosiy manfaatlarini boshqarish va muvofiqlashtirish borasidagi aloqalar. Siyosiy munosabatlarning amalga oshishi natijasida siyosiy jarayon yangilanishi, siyosiy g'oyalar, bilimlar, tajriba, qadriyatlar, axborot v.h., shuningdek siyosiy faoliyat shakllari va usullarining to'planishi va uzatilishi ro'y beradi.

Siyosiy munosabatlar qanday shakllarda amalga oshayotganligini hisobga olish zarur. Bu — ham korlik, kompromiss, ihtilof, kurash bo'lishi mumkin.

Masalan, B. Eltsin davrida Rossiyadagi siyosiy jarayonlarda siyosiy munosabatlar ihtilof shaklida ko'prok namoyon bo'lgan bo'lsa, E. Putin davrida ular kompromiss (kelishuv) shaklini oldi.

Siyosiy munosabatlar boshqa ijtimoiy munosabatlardan farq qiladi. Bu farqning asosi — davlat hokimiyati va u bilan bog'lik qadriyatlardir.

Siyosiy munosabatlar ijtimoiy guruhlar va individlarning jamiyat siyosiy hayotidagi o'rnini belgilaydi: ular hokimlik sub'ektki yoki ob'ektki, xukmron yoki tobe, boshqaruvchi yoki boshqariluvchi bo'ladimi v.h. Siyosiy munosabatlarning tarixiy shakllari: xukmronlik, etakchilik, boshqaruv, nazorat.

Siyosiy munosabatlar asosida siyosiy manfaatlar yotadi. IIIy bilan birga munosabatlar manfaat shaklida namoyon bo'ladi. Shu xususiyati siyosiy munosabatlarning siyosiy faollik yoki siyosiy begonalashuv asosi sifatida chiqishini belgilaydi. Negaki, aynan siyosiy munosabatlar odamlarning jamiyat boshqaruvi ishlarida ishtiroki va bu ishtirok samarasini belgilaydi.

Siyosiy munosabatlar turli darajadagi subektlar o'rtasida shakllanadi.

a) sub'ekt turlariga ko'ra:

- sinflararo;
- sinf ichidagi;
- davlatlararo;
- partiyaviy v.h.

b) tabiati va mazmuniga ko'ra:

- demokratik;
- avtoritar;
- konfrontatsion (ziddiyatli);
- konsensusli (kelishuvga asoslangan);

v) amalga oshirish uslublariga ko'ra:

- kuchga, zo'rlikka suyanan;
- zo'rlikka suyanmagan;

r) munosabat asosidagi qadriyatlarga ko'ra:

- liberal;
- sotsialistik;
- natsionalistik v.h. bo'lishi mumkin

Manfaatlar:

vaqt nuqtai nazaridan — istiqbolga qaratilgan;

eng yaqin;

doimiy;

kundalik

ahamiyati jihatidan:

strategik;

taktik;

sub'ektiga ko'ra:

umuminsoniy;

gypuh manfaati v.h. larga bo'linadi.

Siyosiy jarayon sub'ektlari — siyosiy jarayon ishtirokchilaridir. Ularga shaxslar, ijtimoiy qatlamlar, etnoslar, diniy va demografik gypuhlap, ijtimoiy va siyosiy institutlar kiradi. Siyosiy jarayon sub'ektlarining ijtimoiy, xuquqiy, siyosiy maqomlari, maqsad va intilishlarining taxlili siyosiy jarayonlarga to'g'ri baho berishda juda muhim.

Sub'ektlarning siyosiy xulqi va siyosiy ishtiroki- siyosiy jarayon mazmuni va mohiyatini o'rganishning muhim jixatidir. Siyosiy xulq — shaxs, ijtimoiy guruhlarning siyosiy hokimiyatni amalga oshirishida, o'z siyosiy manfaatlarini himoya qilishda ishtiroki shakli. O'z navbatida, siyosiy ishtirok — siyosat sub'ektlarining siyosiy munosabatlarga jalb qilinganligidir. Bu xaqda batafsil keyingi paragraflarda to'xtalib o'tamiz.

16.2. Siyosiy jarayonning asosiy bosqichlari

Yagona, yahlit siyosiy jarayonni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganish mavjud. Bular: 1-bosqich- muayyan tizimning institutsionallashuvi va

konstitutsionallashuvi; 2—bosqich—siyosiy tizimning amal qilishi; 3-bosqich — tizimning rivojlanishi; 4-bosqich - tizimning inqirozi.

Har qanday yangi siyosiy tizimning vujudga kelishi unga mos keluvchi yangi siyosiy institutlar va qoidalarining shakllanishi, ba'zi eski institutlarning zamonaviylashuvi va ularning yangi tizimga uyg'un kirishib ketishi, ularni qonuniylashuvini o'z ichiga oladi.

Yangi siyosiy institutlarning, vujudga kelishi (institutsionallashuv) va ularnyng qonuniylashuvi (konstitutsionallashuv) — yagona jarayonning ikki tomonidir.

Siyosiy tizimning rivojlanishi siyosiy institutlar evolyutsiyasi bilan bog'lik. Unga ikki xil (endogen va ekzogen) omillar ta'sir etadi. Institutsional tizim ichidagi endogen o'zgarishlar muayyan siyosiy guruhlar manfaatini va maqsadlarini u yoki bu institut samarali ifodalay olmasligi yoki ularga samarali xizmat ko'rsata, olmasligi natijasida vujudga keladi.

Ekzogen omillarga madaniyatning, shaxslarning siyosii tizimga ta'sirlari kiritiladi. Insoniyat yangi bilimlarga ega bo'lib borishi bilan, yangi qadriyatlar shakllanishi bilan siyosiy institutlar ham o'zgaradi.

Siyosiy tizimning shakllanishi turli yo'llar bilan amalga oshadi (masalan, qurolli qo'zg'olon, saylovlarda g'alaba qozonish).

Siyosiy tizim amal qilishi bosqichi qaror topgan siyosiy munosabatlar va institutlar, sub'ektlar, qoidalar, qadriyatlar, ramzlar, siyosiy til — hokimiyatni amalga oshirishning barcha boshqa vositalari va rollarini doimo karta yaratishni o'z ichiga oladi.

Siyosiy tizim amal qilishi, deganda uning institutlari o'z vazifalarini o'zaro bog'liq xolda va o'zaro aloqadorlikda amalga oshirishi tushuniladi. Siyosiy tizim amal qilishini o'rganish — siyosiy institutlarning boshqarish, tartibga solish vazifalarini qanday bajarayotganliklarini, ijtimoiy g'uphlap va alohida fuqarolar hayotiga maqsadli ta'sir etish qay darajada amalga oshayotganligini, jamiyatda vujudga keluvchi ixtiloflar va ziddiyatlar qay tarzda tartibga solinishi mumkinligini aniqlash imkonini beradi. Funkpional taxlil siyosiy tizim o'z — o'zini qanchalik boshqara olishining real imkoniyatlari va uning moslashish potentsialini aniqlab olish imkonini beradi.

Har qanday siyosiy tizim siyosat sub'ekti bo'la oluvchi barcha ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalashga harakat qiladi. Ammo uning darajasi turli jamiyatlarda turlicha bo'ladi. Siyosiy tizim amal qilishi universallashuv, demokratlashuv bilan bog'lik jarayon. Negaki, demokratiyaning o'zi — maksimal ko'p manfaatlarining tanlanishi, artikulyatsiyasi va qondirilishini anglatadi.

Siyosiy tizimning amal qilishi ikki narsani o'z ichiga oladi: tizimning barqarorligini ta'minlash va zarur o'zgarishlarga yo'l qo'yish.

Siyosiy tizimlarni amal qilishi jarayonida yagona ijtimoiy sifat doirasida siyosiy munosabatlar va institutlar, siyosiy qoidalar va qadriyatlar, siyosiy munosabatlar sub'ekti qayta yaratiladi. Bu jarayonning hamma uchun yagona vosita va usullari mavjud emas. Masalan, demokratik jamiyatlarda bu vazifani saylovlar bajaradi. Yana bir vositaga — mavjud qonunchilikni rivojlantirishni ko'rsatish mumkin. Uzviylik — siyosiy tizim amal qilishining muhim belgisi, ammo uzviylik deganda aynan bir holatlarning davom ettirilishi nazarda tutilmasligi lozim. Odamlar o'z faoliyatlarini o'zgargan sharoitda va shunga muvofiq o'zgartirgan holda olib boradilar. Kuning uchun uzviylik va o'zgarishlar doimo yonma — yon boradi.

Siyosiy rivojlanish — tizimning yangi sharoitlarga moslashishga tomon harakatini anglatadi.

Har bir jamiyatning u yoki bu sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlar barcha ijtimoiy munosabatlar birligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, jamiyat iqtisodidagi o'zgarishlar, birinchi navbatda, jamiyat ijtimoiy tuzilishini o'zgartiradi. Undagi ayrim qatlamlar etakchilik maqomini yo'qotib, boshqalarga o'z o'rnini beradi, yangi sinflar yoki guruhlar vujudga keladi. Bu g'uphlap, qatlamlar, sinflarning manfaati, hokimiyatga qo'yadigan talablari o'zgaradi. Ushbu jarayon natijasida yangi ijtimoiy — siyosiy uyushmalar tuziladi, eski partiyalar va harakatlarning dasturlariga o'zgartirishlar kiritiladi. Natijada jamiyat rivojini belgilovchi siyosatning kun tartibi yangilanadi.

Birgina iqtisodiy sohadagi tarkibiy o'zgarishlar davlat oldiga shunday kutilmagan ijtimoiy — siyosiy muammolarni qo'yishi mumkin — ki, natijada davlat hokimiyati ham shunga muvofiq, shakllar, usullar, vositalarga o'tishi lozim bo'lib qoladi, xuquqiy me'yorlar o'zgarishi, davr talabiga, moslashishi shart bo'ladi, odamlarning dunyoqarashi, odatlari, fikrlash uslublari sezilarli o'zgarishlarga uchraydi. Va nihoyat, ilmiy — texnik taraqqiyot — siyosiy texnologiyalarga ham ta'sir ko'rsatgani tufayli butun siyosiy mexanizm ishi ham o'zgaradi.

Siyosiy rivojlanish ikki yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin: islohotlar va inqilob.

Islohotlar — tizim yangilanishining tabiiy kechuvchi jarayoni. U siyosiy institutlar va ularning vazifalarini sifat jihatdan o'zgarishini asta — sekinlik bilan va izchil amalga oshirishini anglatadi. Islohot radikalizmga qarshi qo'yiladi. Siyosiy, islohotlarning manbalari va omillariga quyidagilar kiradi: hokimiyat tizimining u yoki bu elementlari va vazifalari hayotdan ortda

qolganligi natijasida siyosiy qarama - qarshiliklarning keskinlashuvi; ihtilofli vaziyatlarning kelib chiqishi; etakchi ijtimoiy guruhlar keng siyosiy munosabatlar va institutlarini qayta ko'rishga intilishi; xukmron guruhlar va xalq siyosiy ongida siyosiy tarkiblarni o'zgartirishga moyillik, istak, iroda shakllanishi.

Siyosiy inqilob — siyosiy tizimii tubdan o'zgartirishning kuchga tyangan usuli. Siyosiy islohotlar samarasiz o'tgan taqdirla, siyosiy inqiroz chuqurlashib, vaziyat keskinlashganda, inqilob sodir bo'lishi mumkin.

Siyosiy inqiroz bosqichi — siyosiy tizim emirilishini, hokimiyat tashqi va ichki o'zgarishlarga muvofiq harakat qila olmayotganligini, markaziy xokimiyat zaiflashishini, qarorlarning bajarilmasligi, siyosiy rejim esa legitimligini yuqotishini anglatadi.

Siyosiy inqiroz odatda elitalarning almashinuvi bilan bog'liq. Ular doim ham hukumatlar almashinishi, hukmron partiyalarning maydondan ketishi bilan tugallanmaydi. Avvalgi tanlangan rivojlanish yo'li qayta ko'rib chiqilishi bilan inqirozni keltirib chiqargan sabablar barham topishi mumkin.

Ammo yalpi inqirozlar odatda yangi elitalar shakllanishiga yoki butun ijtimoiy — siyosiy hayotning o'zgarishiga olib keladi (sobiq SSSRning parchalanishi). Siyosiy inqirozning bir qator belgilari mavjud:

- hokimiyat shoqobchalarining o'z legitimligini yo'qotib borishi;
- hokimiyatning turli markazlari o'rtasida o'zaro aloqadorlik, bog'liqlikning yo'qolishi;
- bir markaz ikkinchisiga to'sqinlik qila boshlashi;
- parallel hokimiyatlarning tashkil topishi;
- hokimiyat jamiyatdagi an'anaviy tayanch qatlamlaridan mahrum bo'lishi.

16.3. Siyosiy ishtirok

Siyosiy ishtirok — ijtimoiy — siyosiy jamoa a'zolarining ichki siyosiy munosabatlar va hokimiyat tarkibiga jalb etilganligi (muayyan bosqichda esa — xalqapo hamjamiyat munosabatlariga ham). Siyosiy ishtirok tushunchasi demokratiya kontseptsiyalarida, siyosiy modernizatsiya va siyosiy rivojlanish, siyosiy madaniyat, siyosiy partiyalar doirasida asosiy tushunchalardan biri sifatida qo'llanadi.

Siyosiy ishtirok sub'ektlariga individlar, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar kiradi.

Ko'lami jihatidan siyosiy ishtirok

- mahalliy;
- mintaqaviy;
- umumdavlat;
- xalqapo siyosat darajasida amalga oshiriladi.

Siyosiy ishtirok to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) va bivosita amalga oshirilishi mumkin; umumiy va cheklangan; ixtiyoriy va majburiy; an'anaviy, faol va passiv, legitim va nolegitim, qonuniy va qonunga xilof bo'lishi mumkin.

Siyosiy ishtirok shakllari ham turlicha. Ularga:

- axborot qabul qilish va uzatish;
 - siyosat va davlat arboblari, hamda tashkilotlari bilan muloqot;
 - saylov va boshqa siyosiy kampaniyalarda ishtirok;
 - namoyishlarda, siyosiy ish tashlashlarda, ommaviy norozilik xarakatlarida, ozodlik urushlari va inqiloblarda ishtirok;
 - boshqaruv va o'z — o'zini boshqaruvda ishtirok;
 - qonunlar yaratish, ularni himoya qilish va ularga amal qilishda ishtirok;
 - siyosiy partiyalar va ijtimoiy — siyosiy xarakatlar faoliyatida ishtirok kiradi.
- Siyosiy ishtirok quyidagi vazifalarni bajaradi:
- turli manfaatlar, talablar, umidlarni ifodalash, muvofiqlashtirish, amalga oshirish;
 - siyosatchilar va boshqaruv apparati xodimlarini tanlash, ular faoliyatini nazorat etish;
 - boshqaruvga doir qarorlar va siyosat yo'nalishini belgilashga aholini jalb etish;
 - siyosiy ijtimoiylashuv;
 - ihtiloflarni oldini olish va bartaraf etish;

• byurokratiya bilan kurashish, fuqarolarni siyosat va boshqaruvdan begonalashuviga qarshi kurash.

Siyosiy ishtirok ko'rinishlari, usullari, darajalari va shakllarini avvalo jamiyat siyosiy tizimining xususiyatlari, siyosiy madaniyati, ko'plab barqaror va o'zgaruvchan ichki va xalqaro omillar belgilaydi.

Siyosiy ishtirok uchun eng qulay sharoitni demokratik va xuquqiy davlatlar yaratadi.

Shuningdek, ishtirok imkoniyatlari ishtirok manbalariga ham bog'liq: bo'sh vaqt, pul va boshqa moddiy zaxiralar, ma'lumot, axborot, bilim va undan amalda foydalana bilish, OAVlariga ehtiyojning qon dirilishi, siyosiy partiyalar va boshqa tashkilotlarga a'zolik.

Fuqaroning siyosiy ishtirokdan manfaatdorligi mas'alasida, uning uchun muhim qadriyatlar, siyosatga qiziqishi, uning fuqarolik burchi, o'zini biror siyosiy oqim, harakatta mansubligini anglashi kabi siyosiy — puhliy xususiyatlari ham muhim rol o'ynaydi. Siyosiy — ruhiy begonalashuv ko'pincha siyosiy loqaydlik yoki ekstremizmga olib keladi.

Siyosatda ishtirok bir qancha darajalarda amalga oshiriladi:

1. Shaxs va guruhlar darajasida — mikrosiyosat hosil bo'ladi. Bu erda faoliyat urf — odat, an'ana, eskidan qolgan muomalda tartibi bilan belgilanadi, kundalik turmush ikir — chikirlari doirasida shaxs yoki guruhlar manfaatlarining to'qnashuvi va kelishuvi jarayoni ana shunday kechadi. Mamalakatlar, mintaqalar, jahon darajasida — makrosiyosat amalga oshadi. Bu darajada maxsus tayyorlangan shaxslar muayyan rollar, ko'nikmalar, vazifalarni amalga oshirishadi. Mikrosiyosatga barcha insonlar dahldor: «inson — siyosiy mavjudot».

Makrosiyosatda siyosiy agentlar — siyosiy institutlar vakillari faoliyat ko'rsatadi.

Siyosatni amalga oshirish uchun uning barcha darajalarida zarur narsalar quyidagilar:

1. Shaxslar — siyosiy faoliyat sub'ektlari.
2. Mexanizmlar — an'analar, urf — odatlar, qo'ydlar, qonunlar, siyosiy faoliyat sub'ektlariga ta'sir etish uslublari.
3. Institutlar — siyosiy faoliyat sub'ektlarining siyosiy faoliyat mexanizmlari bilan aloqadorlikda amalga oshiruvchi tadbirlarini qo'llab - quvvatlovchi, turtki beruvchi, nazorat qiluvchi va tekshiruvchi tashkilotlar.

Odamlarning jamoa hayotida ishtiroki ibtidoiy davrlarda ham mavjud bo'lgan.

Odamlarning siyosiy ishtiroki demokratiya masalalarini uzviy o'rganish, taxlil qilish qadimgi Yunon madaniyatida boshlangan. Aynan Yunonistonda boshqaruvning Respublika shakliga asos solinib, to'g'ridan — to'g'ri demokratiyaning xalq yig'ini, mansablarga tayinlashda ishtirok, ular faoliyatini nazorat etish, hukm yurgazish, eng muhim, shu jumladan, tashqi siyosatga doir qarorlar qabul qilishda faol qatnashish kabi shakllari amal qilingan.

Yunon mutafakkirlari birinchi bo'lib "ishtirok" terminini davlat tuzilishining o'zgaruvchan va xilma — xil ko'rinishlari va polislar boshqaruvi shakllarini tadqiq etuvchi analitik kategoriya sifatida qo'llashgan. Siyosiy ishtirok bu erda shaxs manfaatlarini, uning ehtiyojlarini amalga oshirish nuqtai nazaridan emas, umumjamoa manfaatlariga bo'y sungan, davlatning mukammal shaklini topishga yordam beruvchi tushuncha sifatida qaralgan. Odamlar (erkin shaxslar — qullar - ajnabiylar) har xilligidan, teng emasligi tamoyili hatto erkin odamlar ham o'zaro teng emas, degan fikrga tomon rivojlantirilgan. Natijada dastlabki elitar nazariyalar batafsil ishlab chiqildi.

Aflotun va Arastu fikrlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ular bir tomondan fuqarolarning ishtirokini inkor etsalar (demokratik davlatda hatto qobiliyating bo'lsa ham boshqaruvda ishtirok etishning hojati yo'q" (Aflotun), ikkinchi tomondan uni fuqaroning tub, ajralmas belgisi, deb e'lon qilinali: hatto bolalar tarbiyasida ham keyinchalik ulardan: siyosiy hayot va davlat ishtirokchilari etishib chiqishidan kelib chiqilishi lozim" (Arastu) .

Qadimgi Yunonistonning siyosiy fikri va tajribasi davlat hayotida ishtirokning turli namunalarini tahlil qilib chiqqan. Ularning qiymati, qariyb ikki ming yildan so'ng demokratiyaning qayta tiklanishi, aniqrog'i yangi turining shakllanishi bilan bog'liq ravishda yanada to'laroq anglandi.

Yangi davr vakillari ishtirokni hokim siyosiy strategiyasining ideal modelini yaratish (N.Makiaveli); suverenitet va boshqaruv turli ko'rinishlarining timsoli (J.Bodey); boshqaruv shakllari va tamoyillari (Sh.Monteske) vositasi sifatida qarashgan. Ular davlat boshqaruvida ishtirok bilan saylovlarda ishtirokni farqlashgan ("xalqning boshqaruvda ishtiroki vakillar saylash bilan cheklanishi lozim" (H.Monteske)).

Shimoliy Amerikaning ko'zga ko'ringan siyosiy arbobi T.Jefferson har bir fuqaro davlat ishida ishtirok etishini shart, deb bilgani holda, eng mas'uliyatli lavozimlarni "tabiiy aristokratiya" vakillari egallashlari lozim (ya'ni ma'lumoti va mulki bor odamlar), degan aqidaga suyangan.

Frantsuz inqilobi insonni har qanday cheklashlar va zo'ravonliklardan himoya qilish lozimligini e'tirof etgani holda, oddiy fukarolarning siyosatda ishtiroki mexanizmlarini ishlab chiqmaganligini ko'ramiz.

Liberalizm nazariyotchilari ham aslida mulkdorlarning davlatga nisbatan bir muncha muhtoriyatini qaror toptirdi va vakillik g'oyasini chuqurlashtirdi. "Xususiy mulk, oxir - okibatda, siyosiy qobiliyatning eng yaxshi o'lchovidir" (Boris Chicherin)).

Shunday qilib, siyosiy ishtirok saylovlarda cheklangan ishtirokni anglatib kelgan.

Sharqda siyosiy ishtirok masalalari o'ziga xos tarzda rivojlangan. Ma'lumki, sharq madaniyati kollektiv qadriyatlar ustunligi asosiga qurilgan. Ammo davlat boshqaruvida demokratiya shakli amal qilgan holatlarni Sharq davlatchiligi tarixida uchratmaymiz. Boshqaruvning respublika shakli ham bu erda qaror topmagan. Garchand, xalifalik davlati tarkibi demokratiya tasavvurini bersada, amalda derokratik boshqaruv emas, monarxiyani kuzatamiz. Shunga qaramay, fuqarolarning boshqaruvda ishtiroki masalalari Sharq siyosiy fikrida salmoqli o'rin egallaydi. Bu sohada Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida bir qator, yunon faylasuflari ta'siridagi qiziqarli fikrlar aytilgan. "Temur tuzuklari" da aholining turli qatlamlarining boshqaruvda ishtiroki to'g'risida bir qator fikrlar aytilgan. Parlamentar respublika boshqaruvini ma'qul, deb topgan jadidlar fuqarolarning ishtiroklariga alohida e'tibor berganlar.

Sharqda ham /arbdan mustaqil ravishda elitar kontseptsiyalar, boshqaruvda fozillar, olimlar, tanlangan odamlarning o'rni alohidaligi ta'kidlab kelingan.

Siyosiy qaror — hokimiyat amal qilishi bilan bog'liq vazifalar, bosqichlar, vositalarni belgilovchi jarayon. Siyosiy hokimiyatning xususiyati shundaki, unda siyosiy talab aniq ifodalanmagan bo'lsa va shu talabni ifodalayotgan sub'ektlar doimiy tazyiqi sezilmasa, tizim bunday talab va ehtiyojlar jamiyat hayoti uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lsa ham, javob bermaydi. Shuning uchun turli darajadagi siyosiy jarayonlar ishtirokchilarining bosh vazifasi — o'z manfaatlari va talablarini davlat hokimiyati institutlari qabul qilayotgan boshqaruvga doir qarorlar kiritishdan iborat.

Siyosiy qarorlar siyosiy hokimiyatni ijtimoiy jarayonlarni boshqarishga aylantirish texnologiya sidir. Siyosiy qarorlarni qabul etishini uch bosqichi ko'rsatiladi: 1) tayyorgarlik bosqichi; 2) qarorlarni qabul qilish bosqichi; 3) qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bosqichi. Birinchi bosqichda umumiy ijtimoiy kontekstdan siyosiy ruxdagi talab va ziddiyatlar ajratib olinadi. U yoki bu masalani "dolzarb" deb, boshqalarni "siyosiy emas", deb to'xtatib turish imkoniyati aslida hokimiyatta egalikni anglatadi. Negaki, siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayoni muayyan sub'ektivlikka yo'l qo'yadi.

Ikkinchi bosqichda echimni talab etayotgan muammolarni topib, muhokama qilinganidan so'ng siyosiy maqsadlar va ularga erishish yo'llari belgilab beriladi. Siyosiy maqsadlar odatda alternativa (bir — birini istesno etuvchi imkoniyatlarning har biri) tarzida bayon etiladi. Qarorlarni muayyan shaxslar (siyosatchi) yoki guruhlar (rasmiy va norasmiy) qabul qilishlari mumkin. Shu o'rinda siyosiy qarorlarni qabul qiluvchi sub'ektlar to'g'risida batafsil to'xtab o'tish joizdir. Siyosiy qarorlarni qabul qiluvchi sub'ekt bo'lib konstitutsiyaga muvofiq yoki boshqa sabablarga ko'ra qaror ishlab chiqarish va qabul qilishga aloqador shaxslar, jamoat tashkilotlari a'zolari yoki ularning davlat hokimiyati saylanma organlaridagi vakillari v.h. bo'la oladilar.

Qarorlarni tayyorlash va qabul qilishning turli bosqichlarida ijtimoiy subektlar turlicha ishtirok etadilar. Masalan, birinchi bosqichda aholining barcha qatlamlari qatnasha olsa,

ikkinchi bosqichda davlatning vakolatli organlari, partiya va jamoat tashkilotlari etakchi o'rinni egallaydi. Siyosiy qarorlarni qabul qilishning bir nechta usullari mavjud: 1) kompromiss — o'zaro yonbosishlar natijasida erishilgan bitim; 2) konsensus (kelishuv)

qaror ovoz berish yo'li bilan emas, kelishuv yo'li orqali qabul qilinadi. Kelishuv, barcha tomonlarning qarorga qo'shilmasalarda, umummanfaatlardan kelib chiqib, unga qarshi chiqmasliklarini bildiradi; 3) ustunlik — siyosatda biror sinf yoki davlatning boshqa sinf yoki davlatlarga nisbatan boshqa mavqe'ni egallashi. Bunda taraflar qudratli sub'ekt qarorlarini o'z manfaatlariga mos deb e'tirof etishadi. Xalqaro munosabatlarda keng qo'llaniladi. Masalan, NATO da ustunlik roli AQSh ga tegishli.

Uchinchi bosqichda hokimiyat qabul qilingan qarorlarni hayotga tatbiq etadi. U ziddiyatlarni ko'payishi va keskinlashishi bilan xarakterlanadi, negaki, qabul qilingan qarorlar siyosatning barcha sub'ektlarini qoniqtirmaydi, lekin ularni amal qila boshlashini ta'minlash zarur. Qarorlarni tatbiq etishda muxolif kuchlar bilan birga o'z manfaatlari ni himoya qilish maqsadida hokimiyatning kuchi organlari ham qarshilik ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham qabul qilingan qarorlar qonun shaklida bo'lishi, bajarilishi uchun mas'ul shaxslar belgilanishi, adresli bo'lishi (ya'ni qaysi guruhlar, qatlamlarga qartilganligini aniq, aytilgan bo'lishi) talab etiladi.

O'zbekistondagi siyosiy jarayonlarning o'ziga xosligi.

1. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati etarlicha rivojlanmaganligi sababli siyosat va siyosiy munosabatlar iqtisodiy, ijtimoiy, shaxsiy munosabatlardan mustaqil ravishda mavjud emas. Natijada siyosat jamiyat hayotining hamma sohalar iga kirib boradi, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy rivojlanishga doir hech bir masala hokimiyat aralashuvisiz hal qilinmaydi. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatini rivojlantirish O'z bekistondagi demokratik islohotlarning eng muhim qirrasi bo'lib qolyapti.

2. O'zbekistondagi siyosiy jarayonlar asosan vertikal tarzda, ya'ni yuqoridan quyiga qarab tashkil etilgan. U hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi muloqot, kelishuv asosiga quriladi. Jamiyat o'z talablarini hokimiyatga vakillik organlari, manfaat guruhlar tomonidan etkazishini bilasiz. Ana shu vakillik tizimi (partiyalar, OAV, nodavlat tashkilotlari v.h.) shakllanish jarayonini boshidan kechirpyati.

3. O'zbekistondagi asosiy jarayonlar davlatning faol siyosat olib borishi bilan xarakterlanadi. Bu — bizning davlatchilik an'analarimiz bilan belgilanadi. O'rta Osiyoda "hokimiyat jamiyat" munosabatlarida doimo davlat asosiy rol o'ynagan.

4. O'zbekistondagi siyosiy jarayonlar ishtirokchilarining ko'pchiligini asosan davlat institutlari tashkil etadi. Bu yana fuqarolik jamiyatining u qadar rivojlanmaganligi bilan bog'lik. Ayni vaqtda siyosiy jarayonlar ishtirokchilari (sub'ektlar) sonini ortishiga qaratilgan harakatlar kuchaymoqda va bunda ham ko'pincha davlat tashabbus ko'rsatmoqda.

5. O'zbekistondagi siyosiy jarayonlar siyosiy tizim muvozanatini ta'minlash uslublariga ko'ra ko'proq, xarizmatik va ideokratik turlarga xos. Shunga ko'ra jamiyatni birlashtirish uchun milliy g'oyaga kuchli ehtiyoj seziladi va ayni vaqtda, siyosiy etakchining roli katta bo'ladi.

SAVOLLAR

1. Siyosiy jarayon siyosiy tizim nazariyalari bilan qay tarzda bog'liq.

2. Siyosiy jarayon bosqichlarini biror mamlakat misolida taxlil qilib ko'ring.

17 BOB. SIYO SIY IXTILOFLAR

17.1. Siyosiy ihtiloflarning tabiati, turkumlashuvi va vazifalari

Siyosatni uning ichki omillar — ihtilof va kelishuv asosida tushuntiruvchi yondoshuv — ratsional tanqidiy paradigma ekanligini bilasiz. Siyosatning ichki ziddiyatliligi va ihtilofliligi g'oyasi fanda XIX "asrda qaror topdi. A. Tokvil; K.Marks, G.Zimmel, keyinchalik esa K.Baulding, L.Krauzer, A. Bentli va boshqa nazariyotchilar ihtilofni siyosatdagi o'zgarishlarning asosini tashkil etuvchi va shu bois ijtimoiy hayotni bu soxasi mavjudligining chegaralari va tabiatini belgilab beruvchi etakchi mamba, deb qarashgan.

To'g'ri, siyosiy fanda qarama — qarshi nuqtai nazar ham bor, E.Dyurkgeym, M.Veber va bir qator boshqa olimlar siyosatni tushunishda ihtilofning ikkilamchiligidan va rivojlanish

aholini birlashtiruvchi hamda siyosiy tizim yaxlitligini ta'minlovchi tub ijtimoiy qadriyatlarga bog'liqligidan kelib chiqadilar. Ularning qarashlaricha ideallar va ijtimoiy — madaniy qadriyatlarning birligi mavjud ihtiloflarni hal qilish va boshqaruv tartibining barqarorligini ta'minlash imkonini beradi. Shu munosabat bilan ular ihtiloflarni siyosiy jarayonga xos bo'lmagan xodisa sifatida baholaydi.

Fikrimizcha, har ikkala yondoshuv bir — birini to'ldirib keladi. Ammo u avvalgi ma'ruzalarda aytilganidek, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlashuv — daromad, hokimiyat, nufuzning notekis taqsimlanishi — ihtiloflarni keltirib chiqaruvchi omil hisoblanadi, ihtiloflarni ijtimoiy hayotning tarkibiy qismiga aylantirib qo'yadi. Ixtilof asosida tomonlarning qarama — qarshiligi, dushmanlik, kelishuvlarning emirilishi, hamkorlikning tugashi singari tushunchilar yotadi. Alohida shaxslar, ijtimoiy gypuhlap, institutlar, tsivilizatsiyalar, tarixiy tizimlar va ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlari ixtilof xolatida bo'lishi mumkin. Natijada, ihtiloflar tabiati, sabablari, oqibatlari, ularni bashorat qilish va oldini olish mexanizmlarini o'rganuvchi maxsus fan tarmog'i — konfliktologiya yuzaga keldi. Konfliktologiya sotsiologlar, xuquqshunoslar, iqtisodchilar, etno graflar, tarixchilar, filologlar, boshqaruv muammolari bo'yicha mutaxassislar diqqat markazida. Shu bilan birga konfliktologiya rivojlanishida siyosiy nazariya o'rni o'ziga xos. Ihtilof borasida siyosiy fan vazifasi — ihtiloflarni boshqarishni o'rganish, ularni hal qilish texnologiyalarini ishlab chiqish, ularni oldindan bashorat qilish va oldini olish mexanizmlarini qo'llashdir.

Turli fanlarda qo'llangani uchun, har bir fan (yoki ilmiy maktab) vakillari ihtilofga o'z ta'riflarini berishga intiladilar. Shuning uchun ihtilofning ta'riflari — xilma — xildir. O'z navbatida, siyosiy fanda ham ihtiloflarning turli ta'riflari mavjud. Jumladan, bu erda har qanday ihtilof emas, siyosiy ihtilof o'rganiladi va ta'riflanadi.

Siyosiy ixtilof — qandaydir mavhum sub'ektlar

to'qnashuvi emas, balki amalda mavjud ijtimoiy kuchlar (agentlar) kurashidir va u etakchilar, elitalar, tashkilotlar, partiyalar va odamlarning boshqa ittifoqlari va uyushmalari timsolida namoyon bo'ladi. Siyosiy ihtilof - Hokimlik munosabatlari tizimidagi o'rni va rolga ko'ra qarama — qarshi siyosiy manfaatlar, qadriyatlar, qarashlar, maqsadlarga ega sub'ektlarning kurashidir. Siyosiy ihtilof tushunchasi siyosiy davlat hokimiyati institutlarida va boshqaruvda ta'sirga ega bo'lim, ijtimoiy ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish, manbalarni taqsimlashda qatnashish, o'z manfaatlari yakka hokimligi va ularni barchaning manfaati tarzida taqdim etishga intilish uchun bir ijtimoiy kuchlarning boshqalari bilan kurashini anglatadi.

Siyosiy ihtilof — siyosiy sub'ektlarning siyosiy

mafaatlari, qadriyatlari, qarashlari bilan belgilangan to'qnashuvlari, kurashlari hamdir.

Siyosiy ihtilof tushunchasi bir turdagi sub'ektlarning boshqalari bilan hokimiyat va siyosiy hukmronlik uchun kurashini anglatadi.

Shunday qilib, siyosiy ihtilof, boshqa har qanday ihtilof singari, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning muayan ko'rinishidir. Ammo bu ihtilof - o'ziga xos. Negaki, u, birinchidan, jamiyatdagi siyosiy hokimiyat va uning amal qilishi borasida vujudga keladi; ikkinchidan, siyosiy ihtilofda ayrim individlar emas, ijtimoiy guruhlar, minglab va millionlab omma o'z mafaatlari bilan ishtirok etadi; uchinchidan, siyosiy ihtilof ijtimoiy ahamiyatga ega. Uning natijalari, odatda ijtimoiy hayotning himma sohalarida namoyon bo'ladi.

Odatda siyosiy ihtiloflarning uch asosiy turini ajratib ko'rsatiladi.

1. Manfaatlar ihtilofi: iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, barqaror davlatlarda ko'proq uchraydi. Iqtisodiy "patir" ni bo'lish atrofidagi savdo bu erda siyosiy qoida bo'lib qolgan (solliqlar miqdori, ijtimoiy ta'minot hajmi v.h. uchun kurash). Ihtilofning bu turi tez echimini topadi, negaki bu erda muammo kelishuv yo'lini topish mumkin. («unisiga ham, bunisiga ham»).

2. Qadriyatlar ihtilofi: rivojlanayotgan davlatlar uchun xos; ularni hal qilish uchun ko'proq xarakat talab etiladi, negaki ular kelishuvga qiyinchilik bilan tortiladi.

3. Identifikatsion ihtilof o'zini jamiyat (davlat) bilan, muayyan guruh (etnik, demiy, til) bilan bog'liq, deb tan oluvchi jamiyatlar uchun xos. Irqlar etnik yoki til qarama - qarshiligi mavjud hollarda vujudga keladi.

Ishtirokchilariga ko'ra siyosiy ihtilof davlatlararo (sub'ektlari – hokimiyat shahobchalari, siyosiy partiyalari v.h.), regional (xududiy) (sub'ektlari – xududiy siyosiy kuchlar), mahalliy bo'lishi mumkin.

Ichki siyosiy ihtiloflar pozitsion (gorizontal) va muxolif (vertikal) turlariga bo'linadi.

Pozitsion ichki siyosiy ihtiloflarning sub'ektlari bo'lib hokimiyatni uchta tizim doirasida amalga oshiruvchi siyosiy institutlar, tashkilotlar chiqadi, ammo ular turlicha mavqe egallaydilar.

Muholif yoki siyosiy ihtilof sub'ektlari bo'lib bir tomondan xukmron elitalar, ularning manfaatlarni ifodalovchi partiyalar, davlat institutlari, tashkilotlar, etakchilar; ikkinchi tomondan – turli ijtimoiy guruhlar nomidan chiquvchi tashkilotlar shuningdek, mavjud tartib, xukmron siyosiy hokimiyatga qarshi siyosiy guruhlar chiqaradi.

Ma'lum bir ihtilofning bir vaqtning o'zida bir nechta turlarga mansub bo'lishi tabiiy ekanligini unutmash kerak. Ihtiloflarni turlarga ajratishdan maqsad bu sodir bo'lib o'tgan yoki bo'layotgan voqea – hodisani tadqiq etishning boshlang'ich nuqtasini topishdan iboratdir. Qolaversa, nazariy va amaliy jihatdan ihtiloflar xukumlash konfliktlarni bartaraf etishdagi boshlang'ich omil ekanligiga qarab uning yuzaga kelishi, rivojlanib borishi va muxtasar holatidan baxs etishimiz mumkin.

Ijtimoiy muhitda ihtilofning yuzaga keltirgan sababni asoslash o'ta mushkul va chigal vazifa. Har bir ijtimoiy harakat o'ziga xos xususiyatlarga ega. Buning ustiga uning chegarasiga ko'plab qarama - qarshi hodisalar ham tutashgan bo'ladi. Ihtilof ana shu tutashuv chizig'iga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv sabablari asosida yuzaga keladi. Ihtilofni yuzaga keltirgan o'sha ob'ektiv va sub'ektiv sabablarni tahlil etish uchun hodisalar va insonlar o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etish zarur.

Ommaviy ihtiloflar motivatsiyasi shuni ko'rsatadiki, ihtilof orqasida ijtimoiy hayotning u yoki bu qiyinchiliklari, elita bilan xalq o'rtasida yuzaga kelgan tafovutlar va hokozalar turadi. Masalan, iqtisodiy qiyinchilik, siyosiy simpatiya va antipatiya, populistik yo'l bilan siyosiy liderlikka intilish va boshqalar.

Siyosiy ihtiloflarning tabiati uch ijtimoiy omillar va sabablar bilan tushuntiriladi.

Avvalo, bu – siyosat sub'ektlari ma'qomlarining mos kelmasligi, ularning rollari va vazifalari, hokimiyatdagi manfaatlari va ehtiyojlari, manbalarining etishmasligi v.h. kabi ijtimoiy munosabatlarining turli shakllari va qirralaridir. Shartli ravishda siyosiy ihtiloflarning ob'ektiv manbalari deb atalishi mumkin bo'lgan bu omillar hukumron va kontreta, muayyan kuchlarning manfaatlarini taqdim etuvchi va davlat byujetining qismlari uchun kurash olib boruvchi turli bosim guruhlari, shuningdek, hokimiyat tizimidagi barcha siyosiy sub'ektlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni belgilab beradi.

Siyosiy ihtiloflarning ikkinchi asosiy manbai shaxslar (ularning guruh va uyushmalari)ning asosiy deb biluvchi qadryatlar va siyosiy idealga ko'ra, tarixiy va dolzarb hodisalarni baholashdagi, shuningdek, siyosiy voqealar to'g'risidagi boshqa sub'ektiv tasavvurlarida farqlar kiradi. Bunday ixtidloflar davlatchilikni isloh qilish yo'llari to'g'risidagi har xil qarashlar to'qnashayotgan, jamiyatning Yangi siyosiy tuzilishi asoslari shakllanayotgan, ijtimoiy inqirozdan chiqishi yo'llari izlanayotgan mamlakatlarda ko'proq ro'y berishi mumkin.

Keyingi yillarda bir qator arb nazariyotchilari (J.Berton, K. Lederer, J.Devis v.b.) siyosiy ihtiloflar tabiatini tushintirishga qaratilgan. Yana bir ehtimolni ilgari surishdi. Uni inson ehtiyojlari nazariyasi, deb ataldi. 1 Bu konseptsiyaga ko'ra, ihtiloflar inson mohiyatini tashkil etuvchi ehtiyojlarning cheklanishi yoki to'liq qoniqtirilmasligi natijasida vujudga keladi.

Va, nihoyat, siyosiy ihtiloflarning uchinchi manbai sifatida siyosatshunoslikda fuqarolarning o'zlarini ijtimoiy, etnik, diniy va boshqa jamoalar va ittifoqlarga taalluqligini anglaganliklari va o'zlarining ijtimoiy va siyosiy tizimdagi o'rinlarini yaxshi tushunganliklari qaraladi. Bu — identifikatsiya termini bilan ataladi,

Ihtilofli holatlar deganda biz bunday sharoitlarning inson manfaatlari bilan birga qo'shilib ketishini tushunishimiz kerak, haqiqiy zaminni vujudga keltiradi. U nizoli holatlarda kurashuvchi tomonlarning iroda va istaklaridan qat'iy nazar ob'ektiv ravishda yuzaga keladi. (masalan, idorada

shtatlarning qisqarishi natijasida) yoki — u, yoki — bu tomonning, yoki ikki tomonning chaqirig'i bilan vujudga keladi. Ixtilof rivojlanishing quyidagi bosqichlari mavjud:

Yashirin bosqich. Ihtiloflarga odatda avvaldan mavjud yashirin bosqich o'tmishdoshlik qiladi, bunda tashqi xarakatdan tashqari nizolarning hamma elementlari mavjud bo'ladi.

Birinchi davr — ob'ektiv nizoli sharoitning vujudga kelishi; Ikkinchi davr — bu sharoitda hech bo'lmasa birorta sub'ekt tomonidan o'zining manfaatlarini bayon etadi. Manfaatlar yolg'on, noto'g'ri buzilgan yoki haqiqiy bo'lishi mumkin, lekin bular bayon etilmas ekan, keyingi kurash hech qanday asosga ega bo'lmaydi; Uchinchi davr — avvalgisi bilan mahkam bog'langan — o'z manfaatlarini qondirish yo'lidagi to'siqlarni aniqlash (kognitiv nizolarda boshqa kurashlardagi qobiliyatlarning aniqlanishi.); To'rtinchi davr — tomonlar tomonidan o'z manfaatlarini himoya qilib, shuning uchun boshlangan aniq xarakatlarni anglatadi — bu esa nizoning boshlanishi demakdir, chunki har ikki tomonning nuqtai nazarlari aniq belgilanadi va amaliyotda birlariga qarshi xarakatlar boshlanadi.

17.2. Siyosiy ihtiloflarni boshqarish

Ihtiloflarning umumiy nazariyasini o'rganish, shuningdek, uning asosiy turlarini tahlil etish ularni boshqarish muammolarini ko'rib chiqishimiz imkonini beradi. Masalaning shu tarzda qo'yilishi, ya'ni ihtiloflarni boshqarish mumkinligini e'tirof etish ularni ijtimoiy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida tushunishdan, hamda ularni odamlarning ijodiy faoliyatidagi xarakatlantiruvchi kuch, shu bilan birga, rivojlanish muammolari va qiyinchiliklarni belgilovchisi sifatida qabul qilishdan kelib chiqadi.

Agar ihtilofni ijtimoiy tizimni emiruvchi, uning normal faoliyatiga putur etkazuvchi xodisa sifatidagina tushunilganda edi, asosiy muammo — uni yo'qotish barham toptirish, tezda hal etishdan iborat bular edi. Ihtilofni jamiyatdagi qonuniy xodisa va yana, taraqqiyotning xarakatlantiruvchi kuchi sifatida tan olish—unga munosabat masalasini ham kengayishi, ham chuqurlashishiga olib keladi. "Ihtilofni boshqarish" tushunchasi uning mohiyatini ifodalaydi. Tushunchani ta'riflashda ihtiloflarning jamiyatga ta'siri turlichaligi va ziddiyatligini (ya'ni yaratuvchilik faoliyatiga turtki beruvchi) va emiruvchi (tizimning parchalanishi, manbalarning kurashga sarflanishi) bo'lishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Ihtilofni boshqarish — ihtilof jarayoniga maqsadli ta'sir etish bo'lib, bu ta'sir ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni hal etishni ta'minlaydi. Ihtiloflarni boshqarish o'z ichiga quyidagi jihatlarni oladi: ularni oldindan aytib berish; ba'zilarini oldini olish ayrimlarini rag'batlantirish; ihtiloflarni hal etish.

Ihtilofni boshqarish sub'ekti kim bo'lishidan qat'iy nazar raqobatli o'zaro munosabatlarni tartibga solish texnologiyalari muqarrar ravishda bir qator umumiy vazifalarni hal qilishi lozim bo'ladi: ihtilof paydo bo'lishining oldini olish yoki, uni bartaraf etishning ijtimoiy bahosi, ortib, ketadigan darajada o'sib ketishiga imkon bermaslik,

barcha yashirin, mahfiy, ochiq bo'lmagan ihtiloflarni ochiq shaklga olib chiqish. Nazorat qilib bo'lmaydigan jarayonlar va ularning oqibatlarini kamaytirish, to'g'ri va tezkor javob berish imkonini bermaydigan tasodifiy upirilishlar oldini olish;

- qo'shimcha manbalar va kuch — quvvat sarf qilish zaruratini keltirib chiqaruvchi yangi, kengroq, qo'shimcha silsilalar kelib chiqishining oldini olish maqsadida siyosiy ihtilof kechishi jarayonida ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ro'y berishi mumkin bo'lgan ijtimoiy qo'zg'alish darajasini kamaytirish.

Ihtilofni salbiy xodisa sifatida qarash uning oldini olish zaruratini belgilaydi. Ihtilofni tizimning o'z-o'zini tartibga solish va o'z-o'zini takomillashtirish, sozlash, uning o'zgarishi va rivojlanishi manbai sifatida tushunish esa ihtiloflarni rag'batlantirish muammosi to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi. Ihtiloflarning oldini olish — uning vujudga kelishi, ijtimoiy tizimning u yoki bu elementini emirishini yo'l qo'ymaslikka qaratilgan faoliyatdir. Ihtilofning oldini olish uni bashorat etishni taqozo etadi. Asosli bashoratsiz mavjud bo'lgan ihtilofni vujudga kelishi oldini olib bo'lmaydi. Bashorat-bo'lajak ihtilof to'g'risida muayyan aniqlik bilan vaqti va o'rnini ko'rsatilgan tasavvur, bashoratning ilmiy va amaliy ahamiyati uning asoslilikgi va haqiqatga qanchalik to'g'ri kelishi bilan belgilanadi. Bashoratning asosiy uslublari: muayyan vaziyatni

tizim (yoki uning bir qismi)ning kelajagidagi holatiga ko'chirish; bo'lishi mumkin bo'lgan ihtilofli vaziyatni modellashtirish, statistik metod, ekspertlar so'rovini qo'llash.

Bashoratning dastlabki bosqichi muayyan ziddiyatli vaziyat asosida yotgan qarama—qarshilikni aniqlashdan iborat. Keyingi qadam — shu vaziyatning o'zgarishi, qarama-qarshiliklarning va muammolar echimi rivojlanishining yo'nalishini aniqlash hisoblanadi.

Ihtiloflarni qisman va toliq oldini olish, erta ogohlantirish va avvaldan hal qilish bosqichlari farqlanadi. Qisman oldini olishga ihtilof sabablaridan birini to'xtatish va qarama—qarshi tomonlarga salbiy ta'sirini cheklash bilan erishiladi. To'liq oldini olish bosqichida ihtilofni belgilovchi barcha omillar faoliyatini to'xtatish va uning sub'ektlari faoliyatini umumiy manfaatlarni amalga oshirish bo'yicha hamkorlikka yo'naltirishdan iborat. Ihtilofni avvaldan hal qilish bosqichi, uni erta ogohlantirish singari mavjud ziddiyatdan muhimroq masalalar bo'yicha ijtimoiy birlikka erishish, tomonlar nuqtai nazarlarini muvofiqlashtirishni anglatadi.

Ijtimoiy ihtiloflarning oldini olish uchun iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ideologik, huquqiy manbalar mavjud bo'lishi zarur. Ihtiloflarning oldini olish uslub va vositalar majmui orqali amalga oshadi. Ular vaziyatni real baholash, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etayotgan barcha sub'ektlar manfaatlarini kelishtirishga alohida e'tibor berish va boshqalar fikriga sabr—toqat bilan yondashish (tolerantlik) imkoniyatlarini hisobga olgan holda samara beradi.

Avval ta'kidlanganidek, jamoatchilik hamma ihtiloflarning ham oldini olishga intilmaydi. Ayrim ihtiloflarning avj olishidan ular manfaatdordirlar. Konstruktiv ihtiloflarni rag'batlantirish ijtimoiy boshqaruvning muhim jihati tashkil etadi. Gap nizolarni sun'iy ravishda avj oldirish, jamiyat barqarorligi yo'qotish haqida ketmayapti. Ihtiloflarni rag'batlantirish strategiyasi — hayotiy muhim muammolarni hal qilishda ijtimoiy sub'ektlar faolligini oshirish, ijobiy tashabbusni rivojlantirish, ijtimoiy boshqaruv samaradorligini oshirish strategiyasidir.

Vujudga kelgan nizo jarayoniga faol aralashuv turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin; ihtilofni tartibga solish, bostirish va nihoyat, hal etish. Ihtilofni tartibga solish boshqaruv sub'ektlarining uni yumshatish, zaiflashtirish, yoki boshqa tomonga burib yuborish bo'yicha faoliyatini anglatadi. Ihtilofni tartibga solish masalasi — uning ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta'sirini cheklash va ijtimoiy ma'qul rivojlanish va echim shakllariga o'tkazish masalasidir. Tartibga solingan ihtilof nazoratdagi va demak, oldindan baholanishi mumkin bo'lgan ihtilofdir. U har qanday nizo jarayonida mavjud bo'ladi. Ziddiyatni tartibga solishda, shuningdek, ihtilofni asta sekin boshqa yo'nalish yoki darajaga o'tkazish orqali zaiflashtirish ham xizmat qilishi mumkin. Masalan, ijtimoiy ihtilofni individual darajaga olib o'tish bilan. Shuningdek tomonlarni tashqi konfliktga yo'naltirish, "umumiy dushmanga" qaratish orqali kuchli ijtimoiy ihtilofni zaiflashtirish taktikasi ham keng qo'llanadi.

Ihtilofni tartibga solish tufli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi: axborot, kommunikativ, ijtimoiy — psixologik ta'sir, tashkiliy usullar. Munozarali masalalar buyicha axborot etishmovchiligini yo'qotish, tomonlarning nuqtai—nazarlari va manfaatlari to'g'risidagi noto'g'ri ma'lumotlarni axborot maydoniga kiritmaslik; sub'ektlar faoliyati to'g'risida mish-mishlarga yo'l qo'ymaslik — ijtimoiy vaziyatni boshqarishga doir bu va boshqa xarakterliklar ziddiyatli munosabatlar darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.¹

Ihtiloflarni tartibga solishning shartlari: 1. Ihtilofning etilib qolganligi

2. Sub'ektlarda ihtilofni hal etishga ehtiyoji va bunga qobiliyatning borligi.

3. Ihtilofni hal etish uchun zarur vositalar va manbalarning mavjudligi. Bular: moddiy, siyosiy, madaniy, nihoyat, insoniy manba'lardir..

Bayon qilingan ihtilof uning a'zolariga muayyan "o'yin qoidalari"ga rioya qilish va izchil ravishda hal etishning u yoki bu strategiyasini qo'llash imkonini beradi. Ammo har qanday qoida va strategiya ularni amalga oshirish istagi hamda zarur vositalar bo'lishini taqozo etadi. Ko'pchilik maishiy ihtiloflar zarur vositalar, yoki istak, iroda qobiliyat yo'qligi sababli hal bo'lmay qolgan.

Har qanday ihtilofni bartaraf etish eng kamida uch bosqichdan iborat.

- Birinchisi — tayyorgarlik bosqichi—ihtilof tashxisidir.
- Ikkinchisi — bartaraf texnologiyalar bosqichi.

- Uchinchisi — ihtilofni bartaraf etish bo'yicha bevosita amaliy faoliyat bosqichi.

Ihtilof tashxisi o'z ichiga quyidagilarni oladi: a) uning ko'zga ko'rinib turgan ko'rinishlarini tavsiflash (ziddiyat, to'qnashuvlar inqirozlar v.b.) ihtilof rivojini darajasini aniqlash; v) ihtilof sabablari va uning tabiatini aniqlash (ob'ektiv va sub'ektiv); g) tezligi o'lchovi; d) tarqalish sohasini belgilash. Tashxis elementlaridan har bir ihtilof asosiy o'zgaruvchilarning kurash mazmuni, qatnashchilari holati, faoliyat maqsadi va taktikasi, bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlar-hisobi va bahosi, ularni ob'ektiv tushunish nazarda tutiladi. Ihtilof holat va jarayon sifatida belgilanadi.

Siyosiy amaliyotda va nazariyada siyosiy ihtiloflarni oldini olish, tartibga solish va hal qilishning bir qator shakl va uslublari ishlab chiqilgan. Ularga kompromiss (o'zapo bitimga kelishish) va konsensus ham kiradi.

Umuman, ihtilofli vaziyatlarni nazorat qilishning demokratik jarayonlarni quyidagi maxsus tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- ihtiloflarda ishtirok etuvchi tomonlarning manfaatlari, maqsadlari va navbatdagi qadamlari to'g'risida o'zaro va tezkor axborot almashuvi;
- ihtilofli vaziyatni boshqarmaydigan holatga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday kuch ishlatishdan tomonlarning ongli va o'zaro tiyilishi;
- ihtilofni keskinlashtiradigan xarakatlarga o'zaro tadqiq e'lon qilinishi;
- holisligi kafolatlangan hakamlarning jalb qilinishi va ularning tavsiyalarini kompromiss faoliyatini asosi sifatida qabul qilinishi;
- ihtilofli tomonlarning yaqinlashuviga xizmat qiluvchi mavjud huquqiy qoidalari, ma'muriy va boshqa tadbirlarning qo'llaishi yoki yangilarni qabul qilinishi;
- mavjud ihtilofni, bartaraf etish, va shunga o'xshash vaziyatlarni kelajakda oldini olish sharoiti sifatida ish yuzasidan hamkorlik muhitini, keyinchalik esa ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash.

Yuqorida aytilganidek, ihtilofda ishtirok qilayotgan tomonlarni yarashtirish, to'la yoki qisman bartaraf qilish tabiatiga ega (ya'ni, munozarali munosabatlar asosi saqlangan holda ihtilofdagi tomonlardan biri yoki bir necha tomonni o'z harakatlarini o'zgartirishi) yoki ihtilofning hal qilinishi (tomonlarning bunday munosabati negizini yo'q qiluvchi). Shuni ham hicobga olish kerakki, ihtilof o'z — o'zidan, uni ongli ravishda hal qilishga urinishlarsiz bartaraf etilishi mumkin. (Masalan, bahs mavzusi dolzarbligini yo'qotishi, siyosiy sub'ektlar charchaganligi, manbalar tugashi va h.k.).

Shunday qilib, ihtiloflarni bartaraf etish uchun boshqaruv sub'ekti tomonidan tanlangan vositalar albatta mamlakatlar (mintaqa, sub'ekt) ning madaniy — tarixiy, tsivilizatsion xususiyatlariga mos kelishi, bahs kechishining vaqt sharoitlarini hisobga olishi zarur.

Bugungi kunda ihtiloflarni boshqarish texnologiyalarida tomonlarning kelishtirishning eng keng tarqalgan vositasi — muzokaralardir.

Bahstalar muammolarning tinchlik yo'li bilan, hech qanday qon to'kishlarsiz hal qilishning bugungi kundagi birdan bir va sinalgan yo'li muzokaralar olib borishdir.

Muzokaralar jarayoni haqida bilimlarga, shuningdek, muzokaralar olib borishning taktikasi haqida tasavvurlarga ega bo'lishlik har bir siyosatchi, diplomat va harbiy shaxs uchun zarurdir. Ular, o'z faoliyatlari davomida, ishlab chiqilgan, sinalgan metodik tavsiyalarga suyanganda yuzaga kelgan har bir o'ziga xos holatga nisbatan o'z bilimlarini qo'llay olish malakasiga ega bo'lishlari lozim.

Muzokaralar yon bosishlarni tenglashtirish, muqo bil vaziyatlarni hotirjam ko'rib chiqish, qarashlarning ochiqligini namoyish etish, raqibning king'ir ishlari samaradorligini bo'shashtirish imkonini beradi. Aynan shu sharoitda o'zaro da'volar mohiyatini ochib beruvchi ihtilofning o'rta kelishuv nuqtasini topish oson bo'ladi.

SAVOLLAR

1. Ma'ruzada olgan bilimlaringiz asosida biror mamlakatning siyosiy jarayonlarini tahlil qilishga xarakat qiling.
2. Siyosiy jarayon sub'ektlari sxemasini chizing.

18 — BOB. SIYOSIY ZAMONAVIYLASHUV

18.1. Siyosiy rivojlanish va zamonaviylashuv tushunchasi

Bugungi kunda dunyodagi siyosiy jarayonlarni odatdagi, eskicha yondoshuvlar orqali tushuntirib bo'lmaydi. Bu jarayonlarning mohiyat mazmuni ularni tahlil qilish chegaralarini kengaytirishni, bu jarayonlarga ta'sir etuvchi barcha omillarni xisobga olishni talab etadi. Buning uchun tsivilizatsion yondoshuv juda mos: u asosiy diqqatni qadriyatlar tizimi, madaniyat, mentalitetga qaratadi.

Jamiyatlar ham oddiydan murakkabga tomon rivojlanadi. Ana shu rivojlanish jarayonida jamiyatlarni an'anaviy va zamonaviyga ajratib o'rganish qabul qilingan. An'anaviy va zamonaviy jamiyatlarning eng muhim farqi - ularning turlicha qadriyatlar tizimiga asoslanishidir.

An'anaviy jamiyatlar uchun iqtisodda texnologik ortda qolish xos. Ijtimoiy sohada ijtimoiy munosabatlar ko'plab qoidalar, an'analar, udumlar bilan tartibga solinadi. Jamiyatning asosini jamoa tashkil etadi. Bunday jamiyatlarda odamlar mavjud ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolishga intiladilar, o'z turmush tarzlaridan farq qiluvchi boshqa qadriyatlar tizimiga salbiy yondashadilar.

Zamonaviy jamiyatlarga sanoati rivojlangan davlatlar kiradi. Bu: jamiyatlarning: ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxs eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Zamonaviy jamiyatlar pragmatizm, ratsionalizm, tanlash erkinligi, mulkchilik; madaniyatlar muloqoti kabi umumiy qadriyatlar asosida rivojlanadi. Erkin individlar fuqarolik jamiyatini tashkil etadilar. Hukumat va ratsional byurokratiya ularning oldida mas'uldir.

An'anaviy va zamonaviy jamiyatlar oralig'ida o'tish davrini boshidan kechirayotgan jamiyatlar joylashgan. Ular qaysidir sohalarda zamonaviylashgan bo'ladilar. Masalan, ishlab chiqarish sohasida texnologik modeonizatsiyani amalga oshirib, iqtisodiy qoloqlik va tabaqaviylikni enggan, ammo an'anaviy qadriyatlar, udumlar, diniy me'yorlar ijtimoiy munosabatlarda etakchilik qiluvchi jamiyatlar – shularga misol bo'la oladi. Sobiq MDH mamlakatlari, Hitoydek ulkan qo'shnimiz, Janubiy Amerikadagi qator davlatlarni o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar, deb hisoblash mumkin.

Umuman shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ko'rsatilgan jamiyatlarning qaysi biri – yaxshi, qaysi biri – yomon, degan nazariy tahlilning abstrak modellaridan biri, xolos. Rivojlanish, ya'ni siyosiy tizimning o'zgarib borayotgan ijtimoiy sharoitga moslashish qobiliyatining ortib borishi tarixiy, tabiiy va uzluksiz jarayon. Turli ijtimoiy tizimlarda u turlicha ijtimoiy va madaniy negizlarda, o'ziga xos tarzda kechishi mumkin. Rivojlanish yuqori va zamonaviy texnologiyalarga o'tishni muqarrar qilgan holda, an'anaviy qadriyatlar tizimi, an'analar, odatlar, hayotiy tamoyillar va turmush tarzini butkul emirilishini anglatmaydi. Buning yorqin misolini Yaponiya tajribasida kuzatish mumkin. Yaxshi ma'lumki, Ushbu jamiyatda bu borada na'muna bo'ladigan uyg'unlikka erishilgan. Jahon tsivilizatsiyalari ichida o'ziga xos va mos o'rinni egallab turgan halqimiz madaniyati ham O'zbekistonning eng taraqqiy etgna mamlakatlar qatoriga o'tishi yo'lida to'g'anoq emas, asosiy, bosh omilni tashkil etadi.

An'anaviy jamiyatlardan zamonaviylarga o'tish – ijtimoiy hayotni qayta ishlab chiqarish uslubini o'zgartirishni, ya'ni jamiyatning odatdagi mavjudlik shakllarini qayta — qayta yaratuvchi turidan, individ ehtiyojiga ko'ra ijtimoiy munosabatlar doimo takomillashib boruvchi jamiyatga o'tishini anglatadi. Bu tarzdagi rivojlanish fanda zamonaviylashuv termini bilan belgilanadi. Zamonaviylashuv — rivojlanishning funktsiyasi, deb qarash qabul qilingan.

Zamonaviylashuv - jamiyat tizimi hususiyatlarining o'zgarishi jaryoni sifatida uning eng muhim sohalarining qayta qurilishini va murakkabrok, ammo moslashuvchan turmush tarzining shakllanishini nazarda tutadi.

Iqtisodiy sohada zamonaviylashuv — tovar — pul munosabatlarining keng tarqalishi, texnologik inqilobni, mehnat samaradorligining doimiy o'sish qobiliyatini ta'minlay oluvchi kasbiy ixtisoslashuvning yuqori darajasini nazarda tutadi. Iqtisodiy sohada shaxsiy manfaatdorlik ishlab chiqaruvchining iqtisodiy mustaqilligi, ish kuchin ing xarakatchanligi, ta'lim va malaka oshirishning uzluksiz tizimi mavjudligi, malakali rahbarlik bilan rag'batlantiriladi, natijada fuqarolarning turmush darajasi va iste'mol darajasi sezilarli ortadi.

Iqtisodiy va texnologik sohadagi rivojlanish jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlarning tubdan o'zgarishiga olib keladi, undagi ijtimoiy bo'linish tamoyillari va tarkibi o'zgaradi. Masalan, /arbiy Evropa mamlakatlaridagi sanoat inqilobi — jamiyatdagi an'anaviy tabaqalanish tartibini emirib, ijtimoiy qatlamlar mavqeini kelib chiqishi, nasli — nasabi bilan emas, aqli, zakovati, qobiliyati, beradigan samarasi bilan baholovchi munosabatlar tizimini yuzaga keltirdi. Bu tizimda Shaxs faoliyatining motivatsiyasi ham o'zgaradi: u jamiyat va davlat yordamidan ko'ra ko'prok o'z kuchiga tayana boshlaydi.

Siyosiy sohadagi zamonaviylashuv — yuqori samara bilan ishlaydigan hokimiyat tashkilotlari cho'zilishi, ularning rollari; funktsiyalari va vakolatlari aniq chegaralanishi, jamiyatda oqilona byurokratiya shakllanishi, fuqarolarning siyosiy jarayonda faol ishtirok etishidan iborat. Bunday o'zgarishlar jamiyat rivojining mantig'idan kelib chiqadi.

Zamonaviylashuv nazariyasi barcha ijtimoiy omillar tengligi, ulardan birining muayyan vaziyatda ustunligi - mavjud shart — sharoitlarga bog'liqligidan kelib chiqadi.

Zamonaviylashuv nazariyasi XX asrning 50 — yillarida vujudga keldi. O'tgan davrda zamonaviylashuv modellari xaqidagi baxslarni umumlashtirib, uning bir necha modelini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Zamonaviylashuvning mumtoz, organik yoki evolyutsion modeli; uni keltirib chiqaruvchi omillarning uyg'un etilishi va biri — ikkinchisiga o'tishi bilan kechadi. Bu model asosida /arbiy Evropa va Shimoliy Amerika demokratiyalari rivojlangan. Ularda zamonaviylashuv davri bir necha asrlar davom etgan.

2. Zamonaviylashuvning "quvlovchi" yoki "aks ettiruvchi" modelida ba'zi omillar hali mavjud bo'lmagan hollarda (masalan, shakllangan bozor munosabatlari, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat) kechadi. Bunga Janubiy Amerika davlatlari misol bo'la oladi. Qit'ada XIX asr oxirlarida milliy — ozodlik xarakatining g'alabasi va mustamlakachilik emirilishi bilan bog'liq holda boshlangan zamonaviylashuv jarayoni hali ham davom etyapti.

Bu modelda iqtisodiy omillarning etuk emasligi siyosiy omillarning kuchli, avtoritar ta'siri bilan muvozanatga solinadi. Natijada rivojlanishning xarakatlantiruvchi kuchi — davlat, xarizmatik turdagi etakchilar bo'lib qoladi. O'z navbatida, an'anaviy jamiyatlar uchun xos bo'lgan quyi fuqarolik siyosiy ishtiroki v.b. omillar byurokratlashuv, islohotlarning izchil emasligi, ma'lum bosqichlardan sakrab o'tish, hatto, ortga qaytish hollarini keltirib chiqaradi.

3. Tezkor zamonaviylashuv modeli Janubiy — Sharqiy Osiyo mamlakatlarida (Janubiy Koreya, Singapur, Tayvanda) avtoritar boshqaruv tizimlari tomonidan qisqa (30 — 35 yil) muddatlarda o'tkazilgan. Bu erda islohotlar avval qishloq xo'jaligida, so'ng sanoatda o'tkazilgan. Iqtisod asosan eksportga yo'naltirilib rivojlangan.

Zamonaviylashuvning barcha modellari o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlarga ega. Ularni o'rganish va mamlakatimizdagi jarayonlarga qiyoslashda albatta har bir mamlakatning o'ziga xosligini hisobga olish zarur.

Zamonaviylashuvni g'arblashuvdan farqlash lozim. /arblashuv — taraqqiyot yo'lini /arb andazalaridan to'g'ridan — to'g'ri ko'chirish, muayyan jamiyat, davlat, xalqning o'ziga xosligi xisobga olmaslikni anglatadi.

18.2 Demokratiyaga o'tish

O'zbekiston mustaqil bo'lganiga o'n yil to'ldi. «Yangi tizimga o'tish... murakkab jarayon ekan» ligini bugun davlat rahbarlaridan tortib oddiy fuqarogacha yaxshi tushunadi. Ushbu jarayon jiddiy ilmiy tadqiqotlarni talab etishi ham Aniq bo'lib qoldi. O'tgan yillar davomida sobiq kommunistik davlatlarda kechayotgan jarayonlarni etakchi g'arb olimlari Lotin Amerikasi, Janubiy Osiyo, Janubiy Evroppada avvalroq bo'lib o'tgan demokratlashuv jarayonlariga qiyoslash asosida tushuntirishga urindilar. O'sha tajriba negizida politologiya fanida vujudga kelgan «tarnzitologiya» Fan yo'nalishi ishlab chiqqan modellar, jumladan, O'zbekistondagi jarayonlarni tushuntirishga ojizlik qildi. Keyingi yillarda aynan mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari voqeligiga qiyosan «tizimli transformatsiya» termini ishlatila boshlandi. Nazariy planda «tranzit» («o'tish») va «trasformatsiya» («o'zgarish») tushunchalariga Aniqlik kiritib o'tamiz.

«Tranzit» tushunchasi avtoritar siyosiy tizimlardan demokratiyaga o'tishni anglatadi. U xilma – xil shakllarda namoyon bo'lishi va turlicha vaqt oralig'ini qamrab olishi mumkin. Minimal muddat – bir avlod. Ammo Angliyada bu jarayon 1640 yildan 1918 yilgacha, Shvetsiyada 1890-1920 yillar oralig'ida, Turkiyada 1945 yildan hozirgi kungacha, Lotin Amerikasi mamlakatlarida ham yuz yildan oshiq muddat davom etyapti. Demokratik tranzit avtoritar siyosiy tizim doirasida demokratiyaga o'tishni anglatadi. Gap shundaki, avtoritar siyosiy tartibotlar demokratiyaga o'tishning bir qator muhim omilariga, institutlariga egalar.

Jumladan, avtoritarizm qisqartirib iqtisod bozor munosabatlariga asoslangan, mulkchilikning turli shakllari mavjud bo'ladi, ular siyosat tomonidan emas, o'z qonuniyatlari bilan boshqariladi, Ularni faqat demokratik tamoyillar asosida qayta qurish talab etiladi, xolos. Ijtimoiy munosabatlar sohasida . ham jamiyatdagi qatlamlar, guruhlar tizimi shakllanib bo'lgan va har birining manfaati saralanib bo'lgani holda (shu manfaatlar bosimi ostida) ular o'rtasidagi munosabatlar, ta'sir tamoyillarini demokratik izga solish zarur bo'ladi.

Demokratik tranzitning ideal modeli to'rt bosqichdan iborat bo'lishi mumkin, deb hisoblanadi:

I bosqich — siyosiy hayotni erkinlashtirish — fuqarolar xuquq va erkinliklarining institutsionallashuvi, boshqaruv nazorati ostida rejimning "bir oz ochilishi". Yuqorida, AQIII misolida ko'rsatilganidek, hukumat ihtiloflar borasida jamiyatdagi barcha kuchlar bilan muloqotga kirishib, ihtilofni bartaraf etishdan manfaatdorligini namoyish etadi. Bu bosqichda amaldagi va yashirin ihtiloflar aniqlanadi.

II bosqichda eski institutlarning qayta qurilishi yoki barham topib, yangilariga o'z o'rnini berishi kuzatiladi. Uni "nazorat ostidagi emirilish", deb atash mumkin. Ikkinchi, bosqichda avval aniqlangan ihtiloflarni hal qilish uchun yangi "o'yin qoidalarini" qabul qilinadi, bag'rikenglik madaniyati shakllanadi.

III bosqich — yangi demokratiyaning mustaxkamlanishi bosqichi bo'lib, uning borishini saylovlar jarayoni orqali kuzatish mumkin. Jamiyatda demokratiyaning qay darajada qaror topganligining mezoni — saylovlarda ishtirok etayotgan tomonlarning hech biri ularni to'liq nazorat eta olmaydi va o'z foydasiga yakunlanishiga kafolat bera olmaydi.

Olimlarning fikricha, yangi demokratiyalarning mustaxkamlanishi bosqichida vujudga kelgan muammolarni albatta hal qilish kerak, negaki ular ning to'planishi «to'liqining qaytishi» (reverse wave) ga olib kelishi mumkin. U quyidagi sabablar tufayli vujudga keladi: 1) markaziy siyosiy kuchlar va jamoatchilikda demokratik qadriyatlarining zaifligi, 2) siyosiy ihtilofni kuchaytiruvchi iqtisodiy inqiroz yoki sinish; 3) keskin siyosiy va ijtimoiy qutblashuv; 4) siyosiy hokimiyatdan konservatorlar poppulistik va so'l harakatlarni chetlashtirishga harakat qilish; 5) qonunchilik va tartibning doimiy ravishda buzilishi; 6) intervetsiya; 7) bularni hammasini birlashtiruvchi «qor guvalasi effekti». «To'liqining qaytishi» natijasida demokratlashtirish bosqichini o'tmagan rejim a) avtoritar — millatchilik; b) diniy fundamentalizm; v) oligarxik, avtoritarizm; g) poppulistik diktatura, d) jamoa demokratiyasiga o'tishi mumkin.

IV bosqich fuqarolarning yangi tizim meyorlari va qoidalarini o'zlashtirish unga kirib borishi bilan borliq.

Uning aynan yakunlovchi bosqich sifatida kelishi -

demokratik fuqarolik madaniyatining shakllanishi uchun ma'lum vaqt, shu vaqt davomida orttirilgan tajriba va sharoitlarning etilishi zarurligidan kelib chiqadi.

Yuqorida demokratiyaga o'tish borasida keltirilgan mulohazalarning barchasidan kelib chiqadigan xulosa shuki, demokratik tranzit (o'tish) avtoritar siyosiy tizimdan demokratiyaga o'tish jarayonlarini, tushuntirish uchun qo'llanadi.

Tizimli transformatsiya ("o'zgarish") tushunchasi- kommunistik tizimni Demokratiya va bozor iqtisodiyotini qaror toptirish maqsadida o'zgartirish, jarayonini belgilash uchun qo'llanadi. Tizimli transformatsiyaning demokratik tranzitdan muhim faqi shundaki, unda tizimda mavjud ijtimoiy institutlar, tuzilmalar tubdan o'zgaradi, qayta quriladi.

Totalitarizmdan demokratiyaga o'tayotgan mamlakatlar siyosiy tizimlarida o'zgarishlar jamiyatning faqat siyosiy sohasida emas, qolgan barcha sohalarida ham kechadi: ong, turmush tarzi, iqtisod v.h.. Shuning uchun bu yo'lni tanlagan

mamlakatlar bir vaqtning o'zida ikki murakkab vazifani bajarishlari lozim bo'ladi: birinchidan, totalitarizmning institutsional, sotsial, ruhiy asoratlardan qutulish (tranzit — bu vazifani bajarmaydi); ikkinchidan, jamiyatga mulkchilik munosabatlarini kiritib, ularni aks ettiruvchi yangicha ijtimoiy tabaqalashuvni, avval, "o'rta sinf" ni shakllantirishi kerak.

Quyida tizimli transformatsiya bajaradigan vazifalarni kengroq ko'ib chiqishga xarakat qlamiz:

Bozor iqtisodiyotiga o'tish. Sobiq SSSR hududida qaror topgan mulkchilikning yagona shakli — ijtimoiy mulkchilik xususiy mulkchilik va bozor iqtisodiga yo'l qo'ymas edi. Bu erda bozor va uning qonuniyatlari - byurokratik ishlab chiqarish va taqsimot bilan almashgan edi. Sovet turidagi totalitarizm iqtisodni jamiyatning mustaqil kichik tizimi sifatida qaramaydi, balki uni emiradi. Tarixiy vaziyat taqozosi bilan bo'lingan mamlakatlar misolida buni yanada yaqqolroq tushunish mumkin: Janubiy va Shimoliy Koreya, qit'adagi Xitoy va Tayvan, Gonkong, Sharqiy va /arbiy Germaniya, Berling bo'g'ozining sharqi va g'arbidagi eskimoslar. Sharqiy Evropa mamlakatlarida (Polsha, Chexiya, Sloveniya, Vengriya kabi) totalitarizm davrida ham saqlanib qolgan xususiy sektor xozirda bu mamlakatlarda demokratik qurilish muvaffaqiyatlarini ko'p darajada belgilab berdi.

Shunday qilib, sovet totalitar tizimidan demokratiyaga o'tish mamlakatda bozor iqtisodini kiritish vazifasini qo'yadi. Bu esa o'z navbatida quyidagi uch muhim masalani hal qilish bilan bog'liq.

Birinchi masala-iqtisodni erkinlashtirish:

- iqtisodiy faollik erkinligi;
- baholarni nazorat qilishdan voz kechish;
- chegaralarni tovar importiga ochib berishni nazarda tutadi.

Natijada, bu zaruriy chora - tadbirlarning salbiy oqibatlari: inflyatsiya, hukumat xarajatlarining (shu jumladan, sog'liqni saqlash, maorif, ijtimoiy himoyaga) keskin kamayishi, turmush darajasining pasayib ketishi, iqtisodiy inqiroz yuz beradi.

Ikkinchi masala-xususiylashtirish bilan bog'liq bo'lib u jamiyatda qutblashuv keskinlashgan vaziyatda kechadi (ya'ni boylar va kambag'allar orasidagi farq, juda sezilarli bo'lib qoladi)

Xususiylashtirishning salbiy oqibatlariga ishsizlik (yashirin ishsizlik) ortishi, texnologik qoloqlik, raqobatga chidamsizlik kabilar kiradi.

Uchinchi masala-iqtisodni barqarorlashtirish

bevosita siyosatga dahldor bo'lib, u siyosiy etakchilarning avvalgi ikki muhim masalani hal qilish davomida yuzaga kelgan salbiy oqibatlarni oldindan, ko'ra bilishi, ularni yumshatish chora — tadbirlarini ishlab chiqishi, umuman, vaziyatni nazorat qila olish qobiliyati bilan bog'liq.

Demokratiyaning institutsionallasuvi. Shuni yaxshi anglab etish zarurki, totalitarizmga siyosiy institutlar mohiyati o'zgarib ketadi. Masalan, hukumat parlament qabul qilgan qonunlarning ijrochisi, qarorlar qabul qilish va amalga oshirishning siyosiy mexanizmi vazifasini bajarishi kerak. Sovetlar davridagi hukumat — na — u, na - bu vazifani bajarmagan, u Kommunistik partiyaning ijro organiga aylanib qolgani ma'lum.

Postkommunistik tizimli transformatsiyada demokratik institutsionallasuvning maqsadi — siyosiy institutlarga ularning asl vazifalarini qaytarishdan iborat. (Deylik, tranzitda bu — siyosiy institutlar mustaqilligini oshirish bilan bog'liq). Ushbu yo'nalishda gap faqat tegishli qonunlar, qoidalar, yondoshuvlar, tarkibiy o'zgarishlar xaqida ketadi. Yana fuqarolarning duneqarashlari, odatlari, xulq, — atvorlari ham tubdan o'zgarishi kerak bo'ladi. Masalan, avval

davlat yalpi nazorat organi bo'lgan va barcha sohalarida boshqaruvni o'zi, amalga, oshirgan davrdan qolgan "yuqoridan ko'rsatma kutish" kayfiyati xali xanuz mavjudligi, nafaqat me'yorlar va qonunlar, balki odamlarning odatlari ham o'zgarishi muhimligini ko'rsatib turadi.

Partiya tizimlari. Odatda, kommunistik totalitarizm mamlakatlarida bir partiyaviy tizim amal qilgan, yoki ko'ppartiyaviy, tizim sharoitida xukmron kommunistik partiya ustunligi va qolgan partiyalarning ularga hayrihohligi ta'minlangan. Ijtimoiy mulk xukmron bo'lgan va ijtimoiy «bir xillik» sharoitida partiya butun xalq nomidan so'zlash huquqiga ega edi.

Tizimli transformatsiya davomida jamiyatda partiyalarning roli ham o'zgaradi deyarli barcha postkommunistik mamlakatlarda ko'p partiyaviy tizimlar shakllangan. Lekin ulardagi partiyalarning roli bir xil darpajada deb bo'lmaydi. Masalan, Sharqiy Evropa mamlakatlarida tabaqalashuv jarayoni tez kechganligi sababli, partiyalar ham o'z elektoratiga, shunga muvofiq, siyosiy dastur va shiorlariga egalar. Natijada, bu jamiyatlardagi partiyaviy raqobat – turli qarashlar, manfaatlarning raqobatini aks ettiradi. Bu – partiyalar o'z asl vazifasini bajara boshlaganini anglatadi. Demak, partiyalar faoliyatining iziga tushishi uchun zarur omillaridan biri – jamiyatda uyushgan, xilma – xil manfaatdarning mavjudligidir.

Fuqarolik jamiyati. Totalitar tizimlarda fuqarolik jamiyati bo'lmaydi, chunki bu erda fuqarolik jamiyatining eng muhim sharti – iqtisodiy sub'ektlari yo'q. Totalitar jamiyat – iqtisodiy bir turdagi jamiyat. Unda turli qatlamlar, hamda shu qatlamlarning bir – biridan farqli, uyushgan manfaatlari mavjud emas. Tizim transformatsiyasi davrida jamiyat ijtimoiy tarkibida, mulkchilikning turli shakllari asosida, tabaqalashuvini keltirib chiqarishi, bu qatlamlarini uyushgan manfaatlari aniqlash, bu manfaatlari hokimiyatda ifodalovchi ittifoqlar, xarakatlar, nodavlat tashkilotlari, partiyalar faoliyatini izga solish vazifasi bajariladi.

Yuqoridagi o'zgarishlar natijasida ma'naviyat sohasida ham tub o'zgarishlar ro'y berib, ijtimoiy faol, iqtisodiy mustaqil, xuquqiy va siyosiy jihatdan sovodxon erkin shaxs tarbiyalanadi.

18.3. O'zbekistonda tizimli transformatsiya xususiyatlari

O'zbekistonda ro'y berayotgan jarayonlar to'g'risida ob'ektiv hukm yuritish uchun uni Dune hamjamiyatidagi taraqqiyot kontekstida, tsivilizatsion yondashuv asosida taxlil qilish to'g'ri bo'ladi, deb hisoblaymiz. Demak bu jarayonlar kechayotgan ijtimoiy — siyosiy muhitning o'ziga xosligi masalalari doimo diqqat markazida turmog'i kerak.

Shu ma'noda, O'zbekiston mustaqillik yillarida, rivojlanishning zamonaviylashuv, funktsiyasini tez sur'atlar bilan amalga oshiryapti, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Jahonga rivojlanishning "o'zbek modeli" deb tanilgan taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Belarus, kirgiz, yoki rus modellaridan farqlicha rivojlanishning "o'zbek modeli" zamonaviylashuvni xalqimizning boy tarixiy tajribasi, qadriyatlar, turmush tarzi va tamoyillari negizida amalga oshirishni maqsad qilib qo'yganligi bilan ajralib turadts. O'zbekistondagi zamonaviylashuv jarayoniga jiddiy, ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha omillar chuqur taxlil qilinib, xisobga olinadi. O'zbekistonning demokratiyaga o'tishida iqtisod sohasida amalga oshirilgan chora — tadbirlar ham mavjud shart — sharoitlarning chuqur tahliliga tayanadi. Gap shundaki, Polsha, Rossiya singari davlatlarda qo'llanilgan "shok terapiyasi" usuli O'zbekistonda qo'llanmadi. Bu - aholining demografik tarkibi, mavjud iqtisodiy va ish kuchi resurslarini xisobga olib qilindi. Ma'lumki, zamonaviy bozor iqtisodini, yaratish, jarayoni bir necha o'n yil davom etadi. "Shok terapiyasini" qo'llagan, mamlakatlar bu bosqichda birinchi darajali va, xalq uchun eng noma'qul, ammo zarur tadbirlarni tezlik bilan amalga oshirib oladilar, Shu bilan birga bu o'zgarishlarning butun yuki jamiyat zimmasiga, tushadi. Iqtisodiy tizimni bir

"sakrash" davomida qayta ko'rib bo'lmaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda, zamonaviy bozor . iqtisodiga bosqichma – bosqich, kuchli ijtimoiy himoya siyosatini qo'llash orqali o'tish yo'li tanlandi. Natijada yo'qotishlar soni yutuqlar sonidan ortib ketmadi va iqtisodiy, ijtimoiy, hamda siyosiy barqarorlik saqlanib qolindi.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda yangi, demokratik siyosiy va ijtimoiy institutlarning shakllanishi, vazifasi hal qilindi. Jarayon sifatida, u davom etaverishi mumkin, lekin fuqarolar va siyosiy, elita doirasida jamiyatda u yoki bu siyosiy institutlarning roli, funktsiyalari va vakolat doirasi xaqida tushuncha va tasavvurlar shakllanib bo'ldi.

/arbdagi demokratshunoslar u yoki bu mamlakatlarda kechayotgan jarayonlarni baholashda ikkiga bo'linadilar, birinchi gypuh — maksimalistlar biror jamiyatni demokratik, deb tan olinishi uchun uning barcha sohalarida demokratik negizida birlashish (konsolidatsiya) jarayonlari yakunlangan bo'lishi kerak, deb hisoblaydilar. Ularga ko'ra dunyoda xaqiqiy demokratiyalar soni uncha ko'p emas,

Minimalistik nuqtai nazarga ko'ra (uni yana formal yondashuv ham deyiladi) siyosiy elita va siyosiy faol fuqarolar demokratik me'yorlar, tadbirlar va institutlarni hurmat qilishlari, qo'llab quvvatlashlari, hamda nodemokratik tadbirlar, institutlar va me'yorlarni rag'batlantirmasliklari va qo'llamasliklari talab etiladi.

Bu yondoshuvlardan kelib chiqib, O'zbekistonda institutsional demokratiya bosqichi qaror topganligini e'tirof eta olamiz. Institutlar, me'yorlar tamoyillar, tadbirlar, demokratik «o'yin qoidalari» muntazam va raqobat asosida o'tuvchi saylovlar, ko'p partiyaviylik, fuqarolik jamiyati va uning tarkibida iqtisodiy mustaqil sub'ektlarning shakllanishi — bunin g asosiy belgilaridir.

Bundan so'ng mamlakatimizda demokratiya qurish jarayoni erishilgan yutuqlarni mustaxkamlab borib, fuqarolik jamiyati doirasidagi rivojlanish va iqtisodiy hamda ijtimoiy demokratiyani qaror toptirish bilan bog'liq.

O'zbekistonda yangi ijtimoiy qatlamlar, guruhlar shakllanishi va rivojlanishi jarayoni faol ke chmoqda: professional siyosatchilar, tadbirkorlar, fermerlar, bank hodimlari, menedjerlar kabi. Shu bilan birga mana shu qatlamlar manfaatlarini hokimiyatda taqdim etishga qaratilgan vakolat tizimi — partiyalar, nodavlat tashkilotlari, jamg'armalar, harakatlar, mustaqil xalq nomzodlari, mahalla — shakllanib, qaror topib bormoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, totalitarizmdan demokratiyaga o'tish — juda murakkab va davomli jarayon. Bu jarayonning keyingi bosqichlarida mamlakatimizda bugungi kunda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayottan institutlar yanada rivojlanib, qolganlari ham izga tushib ketishi, demokratiyaning mustahkamlanishi, demokratik me'yorlar va tadbirlarning siyosat sub'ektlari tomonidan o'zlashtirilishi ro'y beradi.

SAVOLLAR

1. Siyosiy rivojlanish va zamonaviylashuv . tushunchalarini farqlab bering.
2. Tranzit va transformatsiya tushunchalarini tahlil qilib bering.
3. O'zbekistondagi siyosiy jarayonlar xaqida sizning fikringiz.

LU/AT

1 — BOB

Idiografik fanlar - xodisalarni, bo'lib o'tgan voqealarni, ya'ni xususiy xolatlarni har tomonlama o'rganadi (tarix, geografiya, astronomiya kabilar)

Empirik fanlar — qonunlar xaqidagi fanlarning bir turi bo'lib, ular xususiy xolatlarni o'rganish asosida ular o'rtasidagi umumiy bog'likliklarni aniqlaydi (fizika, ximiya, biologiya, sotsiologiya kabi).

Qonun — empirik va nazariy jihatdan asoslangan juda umumiy yoki universal qaydlar.

Kategoriya — narsa va xodisalarning eng muhim xususiyatlari va aloqalarini aks ettiruvchi umumiy tushunchalar.

Oligarxiyalashuv — hokimiyatning kichik guruh qo'liga o'tishi.

Konformizm — moslashish, mavjud tartib, qoidalar, qadriyatlar, g'oyalarni ko'r — ko'rona qabul qilish.

Institutsionallashuv — rasmiylashgan, barcha e'tirof etgan qoidalar, qonunlar, an'ana va maro simlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlarning barqaror na'munalarning shakllanishi.

2 — BOB

Nazariya — bir-biri bilan muayyan tarzda bog'langan qonunlar tizimi.

Stsientizm — ijtimoiy fanlarni uslublari, jamiyatdagi vazifalariga ko'ra tabiiy fanlar bilan yaqinlashtirishni maqsad qilib qo'ygan yo'nalish.

Utilitarizm — fanlarda foyda, samaralilikning bosh tamoyil ekanligidan kelib chiqadigan yo'nalish.

Pozitivizm — (lot. ijobiy, xayoliy), metafizik, tushuntirishlardan xoli, isbotlanuvchi va foydali "ijtimoiy nazariyani" asosan tabiiy fanlar metodologiyasiga tayanib yaratishga urinish.

Bixeviorizm — (ingl. xulq — atvor) — kuzatish mumkin bo'lgan siyosiy xulq — atvorni ilmiy, empirik metodlar, yordamida kuzatishga asoslangan metodologik yo'nalish.

Pragmatizm — (yun. ish, faoliyat), faqat, amaliy foydali natijalarni beruvchi bilimnigina xaqiqiy, deb bilishga asoslangan yo'nalish.

Metod — (yun. tadqiqot yo'li) bilish usuli, bilimlar tizimini yaratish maadida borliqi tadqiq etish usulidir.

4 — BOB

Kauzal bog'liqlik — narsa, xodisalar o'rtasidagi sabab — oqibat bog'liqligi.

Resurs — pul mablag'lari, qiymatga ega narsalar, zaxiralar, imkoniyatlar, daromad manbalari.

Aktor — siyosiy hayotda to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita ishtirok etuvchi siyosat sub'ekti.

Plebistsit — umumxalq ovoz berishi shakllaridan biri. Legal — qonuniy.

Konvertatsiya — almashtirish.

5-BOB

Korporativ davlat — davlatni tashkil etishga oid kontseptsiya. Unga ko'ra, mehnat va kapital munosabatlari davlat tomonidan kasbiy — tarmoq, ittifoqlari (korporatsiyalari) shaklida boshqariladi va tartibga solinadi, parlament esa korporativ kengash bilan almashinadi.

Siyosiy millat — siyosiy tizimning rivojlanishi, ustivor qadriyatlar, me'yorlariga doir yakdil bo'lgan fuqarolar birligi.

b — BOB

Boshqaruv — turli tizimlar (biologik, ijtimoiy, texnologik) king funktsiyasi. U shu tizimlarning muayyan tuzilishini saqlab turadi, faoliyat, taribni ta'minlaydi, dasturlar, maqsadlarni amalga oshiradi.

Tartibot — davlat tuzumi, boshqaruv, usuli.

Marginal guruh — bir — birini istisno qiluvchi qadriyatlar, me'yorlar ta'siridagi, turli ijtimoiy guruhlar, tizimlar, madaniyatlar chegarasidagi odamlar guruhi.

7 — BOB

Etatizm — davlatning jamiyat siyosiy va iqtisodiy sohalarida faol aralashuvini, asoslovchi ijtimoiy nazariya.

Inson huquqlari — shaxsga o'z ihtiyoriga ko'ra faoliyat ko'rsatish (erkinliklar) yoki, muayyan imtnyozlarga ega bo'lish (huquqlap) imkoniyatini beruvchi individ va davlat o'rtasidagi munosabatlar tamoyillari, me'yorlaridir.

Negativ huquqlar (erkinliklar) — davlat, odamlarning shaxsga nisbatan biror harakatini cheklaydi. Ular tub, asosiy, deb hisoblanadi. Ularning amalga oshishi davlat resurslariga bog'liq emas.

Pozitiv huquqlar — davlat, shaxslar va tashkilotlarning fuqaroga u yoki, bu imtiyozlarni berish, muayyan harakatlarni amalga oshirish bo'yicha vazifalarini belgilaydi. Barcha ijtimoiy huquqlar pozitiv tabiatga ega. Pozitiv huquqlarni amalga oshirish uchun davlat muayyan resurslarga, ijtimoiy — iqtisodiy rivojlanish darajasiga ega bo'lishi kerak.

8 — BOB

Kompromiss — o'zaro yon bosishlar natijasida erishilgan kelishuv, bitim.

Mobillik — ijtimoiy makonda shaxs yoki guruhlarining ko'chishi, xarakati.

Shaxs, guruh yoki qatlam mavqeining o'zgarishi bilan bog'lig, jarayonlarni "ijtimoiy mobillik" yoki "ijtimoiy siljish", deyiladi

Klub — umumiy maqsadlar bilan bog'lik odamlar birligi, uyushmasi

Partologiya — partiyalar hakidagi fan.

Ijtimoiy qatlamlashuv — o'zaro bog'liq va pog'onalashuv asosida tashkil topgan, qatlamlar birligidan iborat ijtimoiy tengsizlik tizimi

Sinflar — daromad miqdori, kasbinnig nufuzliligi, bilimi, hokimiyatga ta'siri darajasiga ko'ra belgilanuvchi, ijtimoiy maqomi taxminan bir xil bo'lgan odamlar guruhi.

Mnllat — xudud, iqtisodiy aloqalar, til, ruhiy o'ziga xoslik, madaniyat va o'z — o'zini anglashning umumiy jihatlariga ko'ra ajralib turuvchi ijtimoiy guruh.

9 — BOB

Elitologiya — elitalar xaqidagi fan.

Kooptatsiya — saylanuvchi organ tarkibiga yangi a'zolari qo'shimcha saylovlar o'tkazmasdan, shu organ qaroriga ko'ra kiritilishi.

Qadriyat — borliqdagi narsa, xodisalarning jamiyat, guruh shaxs ehtiyojlariga muvofiq kelishi yoki kelmasligi nuqtai nazaridan ahamiyati.

Konfessional — diniy.

Demografiya — aholi tarkibidagi o'zgarishlarni o'rganuvchi fan.

Etakchilnk — yo'l boshlovchi, rahbar ma'nosini beradi. Etakchilik — boshqa odamlarga; ta'sir o'tkaza olish, ularni ma'lum mo'qsadga erishish yo'lida birlashtirish qobiliyatidir.

Snyosiy etakchilik — insoniyatga xos bo'lgan eng qadimgi universal institutlardan biri va u davlat hamda jamiyat miqyosida hokimiyat funktsiyalarini bajaruvchi sub'ektlardan biridir.

13 — BOB

Siyosiy ong - siyosiy borliqning sub'ektiv in'ikosidir. U jamiyatning alohida mustaqil — siyosiy soxasini aks ettiradi. Kishilar o'z faoliyatida mavjud siyosiy voqelikni shunchaki ko'rish bilan -qanoatlanib qolmaydilar.

Kishilarning ana shu - siyosiy borliq, xaqidagi bilimlari, qarashlari, tasavvurlari ularning siyosiy ongini tashkil etadi. Siyosiy ong -kishilarning siyosiy bilimlari, tasavvurlari, maslamlari, e'tiqodlari, va o'zlari yashab turgan siyosiy tuzumni baholashlarining yig'indisidan iboratdir.

Maxsus siyosiy ong — bu qoida bo'yicha, mafkuraviy jihatdan bir xil bo'lgan ongidir. Bu ongni siyosiy xujjatlar (dasturlar, doktrinalar) da ifoda etilgan va siyosatni shakllantirish jarayoni va qarorlar qabul qilinishiga bevosita jalb qilingan siyosiy tasavvurlar, qarashlar, kontseptsiyalar tashkil qiladi. Dastlab maxsus siyosiy ong kam sonli kishilarning, elitalarining mulki xisoblanadi. Uning sohiblari — siyosiy partiyalar va boshqa siyosiy tashkilotlar va birlashmalardir. Ular muayyan yo'nalish bo'yicha ommaviy ongni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyat zarurligini belgilaydi.

Ommaviy siyosiy ong — jamiyat ehtiyojlarining darajasi va mazmunini bevosita ifoda etadi. U siyosiy voqelik xaqidagi jamiyat bilimlarining xarakterini ham aks ettiradi. Bunday bilimlar, bir tomondan, turli mafkuralar "tomonidan ishlab chiqiladi va siyosiy madaniyatda mustahkamlanadi. Ikkinchi tomondan esa ushbu bilimlar ommaviy ijtimoiy guruhlarining amaliy faoliyati tomonidan qo'lga kiritiladi.

Nazariy siyosiy ong — siyosiy xarakterga ega bo'lgan turli turdagi g'oyalar, kontseptsiyalar, qarashlardir.

Empirik siyosiy ong — bu bevosita amaliyotga, siyosiy jarayonda alohida kishilarning, mayda va yirik sotsial birliklarning jonli ishtirok etishlariga asoslangan siyosiy ong darajasi va shaklidir. U nazariy siyosiy ongning zamini bo'lib xizmat qiladi.

14 — BOB

Siyosat — ijtimoiy guruhlar va insonning ziddiyatli jamoa manfaatlarini anglash, butun jamiyat uchun majburiy bo'lgan qarorlarni ishlab chiqish va ularni davlat hokimiyati yordamida amalga oshirish faoliyatidir.

Siyosiy mafkura — u yoki bu ijtimoiy guruhning manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi hamda ko'prproq miqdordagi kishilarning individual o'y — fikrlafi va hatti — xarakatlarini hokimiyatdan foydalanishning muayyan maqsadlari va vazifalarga bo'ysundirishni talab qiluvchi sistemalashgan, mantiiqiy izchil g'oyaviy qarashlarning yig'indisidir. qisqacha qilib aytanda, siyosiy mafkura - bu muayyan ijtimoiy guruhning hokimiyatga intilishini yoki undan foydalanishini asoslovchi va siyosiy xarakatning u yoki bu strategiyasini ko'zda tutuvchi yaxlit g'oyaviy tizimdir.

Liberalizm - shaxs erkinligi va boshqa fuqarolik va siyosiy xuquqlarini e'tirof etuvchi va davlat faoliyati sohalarini cheklovchi ta'limot va ijtimoiy — siyosiy xarakat.

Konservatizm — davlat va jamiyat hayotining tarixan vujudga kelgan shakllarini, uning oila, millat, din, mulkchilikda namoyon bo'luvchi qadriyatlarini saqlab qolishga qaratilgan g'oyaviy — siyosiy ta'limot va harakat.

Neokonservatizm — mumtoz konservatizm va liberalizm g'oyalarini uyg'unlashtiruvchi mafkura.

Sotsial-reformizm — evolyutsion rivojlanish, demokratik sotsializm va unga islohotlar orqali erishishga yo'nalgan ijtimoiy — siyosiy ta'limot va xarakat.

15 — BOB

Siyosiy psixologiya — o'z tabiatiga ko'ra siyosiy voqelikni emotsional va xissiy tarzda idrok etadigan siyosiy ong shaklidir.

Siyosiy psixologiya siyosatni hissiy va emotsional tarzda aks ettirib siyosiy ongning o'ziga xos "amaliy" darajasi sifatida maydonga chiqadi.

Siyosiy psixologiya - siyosiy ongning o'ziga xos shaklidir. U siyosiy voqelikni aks ettirish xususiyatlariga ko'ra siyosiy mafkuradan farq qiladi.

Siyosiy kayfiyat — mohiyatiga - ko'ra, aholining siyosatga jalb etilganligining hissiy — baholovchi ko'rsatkichi bo'lib uning mavjud siyosiy tartibga va hukmron qadriyatlarga moslashishi dapajacini ko'rsatadi.

16 — BOB

Siyosiy jarayon- siyosiy holatlar va xodisalarning ichki bog'liklikka ega zanjiri, siyosat sub'ektlarining hokimiyatga qaratilgan xarakatlari birligi.

Siyosiy munosabatlar — sub'ektlarning hokimiyat doirasidagi siyosiy manfaatlarini boshqarish va muvofiqlashtirish borasidagi aloqalar.

Siyosiy jarayon, sub'ektlari — siyosiy jarayon ishtirokchilaridir. Ularga shaxslar, ijtimoiy qatlamlar, etnoslar, diniy va demografik g'uphlar, ijtimoiy va siyosiy institutlar kiradi.

Siyosiy xulq — shaxs, ijtimoiy guruhlarining siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda, o'z siyosiy manfaatlarini himoya qilishda ishtiroki shakli. Siyosiy ishtirok — siyosat sub'ektlarining siyosiy munosabatlarga jalb qilinganligidir.

Endogen — ichki sabablar natijasida vujudga, kelgan ta'sirlar.

Ekzogen — tashqi sabab, turtki natijasida vujudga kelgan ta'sirlar.

17 — BOB

Siyosiy ihtilof — hokimlik munosabatlari tizimidagi o'rni va roliga ko'ra qarama — qarshi siyosiy manfaatlar, qadriyatlar, qarashlar, maqsadlarga ega sub'ektlarning kurashidir. Siyosiy ihtilof tushunchasi bir turdagi sub'ektlarning boshqalari bilan hokimiyat va siyosiy xukmronlik uchun kurashini anglatadi.

Identifikatsiya — sub'ekt o'zini jamiyat, davlat, muayyan guruh bilan bog'liq, deb anglashi.

Bashorat-bo'lajak ihtilof to'g'isida muayyan aniqlik bilan vaqti va o'rnini ko'rsatilgan tasavvur.

18 — BOB

An'anaviy jamiyatlar uchun iqtisodda texnologik ortda qolish xos. Ijtimoiy sohada ijtimoiy munosabatlar ko'plab qoidalar, an'analar, udumlar bilan tartibga solinadi. Jamiyatning asosini jamoa tashkil etadi. Bunday jamiyatlarda odamlar mavjud ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolishga intiladilar, o'z turmush tarzlaridan farq qiluvchi boshqa qadriyatlar tizimiga salbiy yondashadilar.

Zamonaviy jamiyatlarga sanoati rivojlangan davlatlar kiradi. Bu jamiyatlar keng ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxs eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Zamonaviy jamiyatlar pragmatizm, ratsionalizm, tanlash erkinligi, mulkchilik, madaniyatlar muloqoti kabi umumiy qadriyatlar asosida rivojlanadi. Erkin individlar fuqarolik jamiyatini tashkil etadilar. Hukumat va ratsional byurokratiya ularning oldida mas'uldir.

Rivojlanish, ya'ni siyosiy tizimning o'zgarib borayotgan ijtimoiy sharoitta moslashish qobiliyatining ortib borishi tarixiy, tabiiy va uzluksiz jarayon.

Zamonaviylashuv - jamiyat tizimi xususiyatlarining o'zgarishi jaryoni sifatida uning eng muhim sohalarining qayta qurilishini va murakkabrok, ammo moslashuvchan turmush tarzining shakllanishini nazarda tutadi.

Tranzit (o'tish} — tushunchasi avtoritar siyosiy tizimlardan demokratiyaga o'tishni anglatadi.